MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

TARBIYADA MAKTAB, OILA, MAHALLA HAMKORLIGI: ISTIQBOLDAGI VAZIFALAR VA YECHIMLAR

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

3 IYUN

MATERIALLAR TO'PLAMI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

“TARBIYADA MAKTAB, OILA, MAHALLA HAMKORLIGI: ISTIQBOLDAGI VAZIFALAR VA YECHIMLAR” MAVZUSIDA RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI, 2025-YIL 3-IYUN

Toshkent – 2025

“Tarbiyada maktab, oila, mahalla hamkorligi: istiqboldagi vazifalar va yechimlar”, 2025-yil 3-iyun

Mas’ul muharrir

Pedagogika fanlari doktori, O‘zFA haqiqiy a’zosi, akademik Ibraimov Xolboy Ibragimovich

Tahrir hay’ati a’zolari

X.I. Ibraimov	*Pedagogika fanlari doktori, O‘zFA haqiqiy a’zosi, akademik*
H.M.Tojiboyeva	*Pedagogika fanlari doktori, professor*
R.G.Safarova	*Pedagogika fanlari doktori, professor*
Sh.Q.Mardonov	*Pedagogika fanlari doktori, professor*
A.X.Maxmudov	*Pedagogika fanlari doktori, professor*
M.A.Umaraliyeva	*Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*
O.T.Abdug‘aniyev	*Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*
L.M.Qaraxanova	*Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim*
N.Ch.Rustamov	*TPMI tayanch doktoranti, katta ilmiy xodim*
Sh.Namazov	*TPMI tayanch doktoranti, katta ilmiy xodim*
D.Choriyeva	*TPMI stajyor-tadqiqotchisi, katta ilmiy xodim*

© Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti

© Mualliflar

KIRISH SO‘ZI

Hurmatli ishtirokchilar, aziz ustozlar va mehmonlar!

Bugungi konferensiyamizning mavzusi – **“Tarbiyada maktab, oila, mahalla hamkorligi: istiqboldagi vazifalar va yechimlar”** – nafaqat dolzarb, balki jamiyatimiz taraqqiyoti uchun ham nihoyatda muhim hisoblanadi. Chunki har bir yosh avlodning barkamol shaxs bo‘lib kamol topishi aynan shu uchlik – maktab, oila va mahallaning uzviy hamkorligiga bog‘liqdir.

Ushbu mavzu nafaqat ta’lim-tarbiya tizimining, balki butun jamiyatimizning hozirgi va kelajak rivojiga bevosita daxldor bo‘lgan muhim ijtimoiy-psixologik, pedagogik va madaniy jihatlarni o‘z ichiga oladi.

Biz bilamizki, tarbiya yagona tizimda samarali tashkil etilgandagina ijtimoiy mas’uliyatli, Vatanga sadoqatli, ma’naviy yetuk avlodni voyaga yetkazish mumkin.

Maktab – bilim va tarbiya beradigan asosiy maskan, oila – bola shaxsining ilk poydevorini qo‘yuvchi muhit, mahalla esa – ijtimoiy nazorat va qo‘llab-quvvatlovchi kuchdir. Bu uch institut bir-biri bilan uyg‘un ishlagan taqdirdagina yuksak natijalarga erishish mumkin.

Ma’lumki, farzand tarbiyasi bu – faqatgina maktab zimmasiga yuklatilgan vazifa emas. Bu – ota-onaning mas’uliyati, mahalla jamoatchiligining e’tibori va pedagogik tizimning hamkorlikdagi harakatlari orqali samarali yo‘lga qo‘yiladigan murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. Farzandga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish, uni ijtimoiy hayotga tayyorlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash – bu uch institut: **maktab, oila va mahalla** o‘rtasidagi uyg‘unlik, izchillik va uzviylik talab etiladigan masaladir.

Taniqli ma’rifatparvar Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir” degan chuqur ma’noli so‘zlari naqadar haqiqat ekanini yaxshi anglaymiz. Tarbiya masalalariga e’tiborsiz qaralgan vaziyatda yuzaga keladigan ko‘ngilsizliklar ham, u keltirib chiqaradigan zararli oqibatlar ham barchamizga ayon. Ammo bugun kishilarimizga ana shu hakikatni aytsangiz sizga: “Nima qilay, ishlamasang bo‘lmasa!”, “Ko‘ryapsiz-ku, osonmas, hayot tashvishlari, bolalarning yeb-ichishiyu, kiyim kechagi ...”, “Ha endi o‘zi omon bo‘lsa, tarbiyasi bir gap bo‘lar...”

Yo‘q, tarbiya «bir gap bo‘ladigan» narsa emas. Uning uchun jon kuydirish shart. Mol dunyo kiyim kechakka hirs qo‘yish dardidan forig‘ bo‘lib, tarbiya bilan shug‘ullanish kerak.

Hozirgi davrda yoshlar tarbiyasida duch kelayotgan qator muammolar, zamonaviy tahdidlar, axborot texnologiyalari ta’siri, ijtimoiy muhitdagi o‘zgarishlar barchamizdan yanada faolroq hamkorlikni, uzviylikni va samarali mexanizmlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Zero, yurtimiz kelajagi bo‘lgan yosh avlodning

barkamol, bilimli, vatanparvar va ma’naviy yetuk shaxs bo‘lib shakllanishi – bu boradagi faoliyatimiz natijasiga bog‘liqdir.

Shuni unutmasligimiz kerakki, yurt kelajagi, vatanimiz taraqqiyoti va xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimiz va yoshlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liqdir. Shu sababli har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko‘rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, o‘nib-o‘sib kelayotgan yoshlarni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak.

Ushbu konferensiya bizga ushbu muhim yo‘nalishdagi mavjud holatni tahlil qilish, ilg‘or tajriba va yondashuvlar bilan o‘rtoqlashish, tizimlararo hamkorlikni mustahkamlash hamda kelajak uchun aniq vazifalarni belgilab olish imkonini beradi.

Shu munosabat bilan, bugungi tadbirda bildiriladigan har bir fikr, taklif va amaliy tajriba – mamlakatimizda barqaror tarbiyaviy muhitni shakllantirish, yoshlarni ijtimoiy hayotga puxta tayyorlash va oila-maktab-mahalla hamkorligini yangi bosqichga olib chiqish yo‘lida muhim ahamiyat kasb etadi.

Konferensiyamizda sizlar bilan birgalikda mavjud muammolar, istiqboldagi vazifalar hamda ularning amaliy yechimlari haqida fikr almashamiz. Bu orqali biz nafaqat bugungi kunning talablariga mos tarbiyaviy yondashuvlarni aniqlab olamiz, balki ertangi kunimiz – yoshlarimiz kelajagi uchun mustahkam zamin yaratamiz, degan umiddamiz.

Barchangizga konferensiyada muvaffaqiyatli ishtirok tilaymiz! Fikringiz, tajribangiz va takliflaringiz bu mavzuda yangi yo‘nalishlarni ochib beradi, degan ishonchdamiz.

E’tiboringiz uchun rahmat! Konferensiyaning ishiga ijodiy muvafaqqiyat tilayman!

Kamalov Azamat Jamalovich
Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni va
chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni
muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i

GENDER TENGLIKNI TARG‘IB QILISHDA MAKTAB, OILA VA MAHALLANING ROLI: QIZLAR VA O‘G‘IL BOLALARGA TENG IMKONIYATLAR YARATISH, TA’LIM OLISH, KASB TANLASHDA ERKINLIKNI TA’MINLASH

Tojiboyeva Hilolaxon Mahmutovna

Qori Niyoziy nomidagi TPMI Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha director o‘rinbosari, pedagogika fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada gendar teenglik tamoyilini singdirishda oila va mahalla- ta’lim tizimining o‘rni va ahamiyati haqida muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: oila va mahalla, gender tenglik, ta’lim, ijtimoiy ong.

Аннотация: В данной статье обсуждается роль и значение семьи, махалли и системы образования в формировании принципов гендерного равенства.

Ключевые слова: семья и махалля, гендерное равенство, образование, общественное сознание.

Annotation: This article discusses the role and importance of the family, community (mahalla), and the education system in instilling the principles of gender equality.

Keywords: family and community, gender equality, education, social consciousness.

Gender tengligini singdirish tizimli yondashuv va uzoq muddatni talab qiladigan jarayon. Uni ta’limning faqatgina ma’lum bir qismida yoki faqatgina oila instituti orqali singdirish mumkin emas. Shuning uchun ham ijtimoiy ongda gender bilan bog‘liq sog‘lom dunyoqarashni shakllantirishda oila-mahalla-ta’lim tizimining o‘zaro hamkorligini ta’minlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dastavval, gender tengligini ta’minlashda oila institutining roliga to‘xtalib o‘tsak. Hech kimga sir emas, oila inson tarbiyasida eng asosiy rol o‘ynaydi, bola oilada tug‘iladi, ulg‘ayadi, olam haqidagi tasavvurlari unda shakllanadi, dastlabki axloqiy qoidalarni o‘zlashtiradi. Oilada insonning his-tuyg‘ulari tarbiyalanadi, olam,

unda insonlarning o‘rni haqidagi qarashlari paydo bo‘ladi. Xuddi shu davrda bola ongida gender stereotiplar ham shakllanishni boshlaydi. Bu stereotiplarning shakllanishida bolaga jinsiga qarab qanday kiyim kiydirish, sochini turmak qilish, mashina yoki qo‘g‘irchoq olib berish kabi bolaning ilk go‘daklik davridagi kattalarning qarorlari va xatti-harakatlari muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z navbatida bunday gender stereotiplarning inson ongida mavjudligi va xattiharakatlarida aks etishi jamiyat, oilaning katta vakillari tomonidan qo‘llabquvvatlanadi. Ovqat pishirishga taqlid qilib o‘tirgan o‘g‘il bola yoki mashinalar rasmini chizishga qiziqadigan qiz bola kattalar tomonidan tanbeh olishi mumkin. Chunki gender stereotiplar ijtimoiy ongda chuqur o‘rin egallagan.

Oilada gender tenglik tamoyilini singdirishda kattalar, xususan, bolaning otaonasida genderga oid to‘g‘ri, sog‘lom munosabatlar, qadriyatlar tizimi, dunyoqarash shakllangan bo‘lishi talab etiladi. Buni ikki jihat bilan bog‘lash mumkin. Avvalo, bolaning oiladagi eng asosiy tarbiyachilari ota va ona hisoblanadi. Agar ular bolaga gender bilan bog‘liq to‘g‘ri qarashlarni singdira olmasa, noto‘g‘ri ma’lumotlar berib borilsa, bola ilk marotaba o‘ziga aytilgan fikrlarni eng to‘g‘ri fikr deb qabul qiladi. Masalan, ota o‘g‘liga “Sen o‘g‘il bolasan, singillaringdan kuchlisan, ular seni hurmat qilishga, aytganlaringni qilishga majbur. Agar aytganingni qilmasa, ularni jazolash kerak” deb singdirsa, bola uchun u voyaga yetganida ham ayollarning erkaklarni hurmat qilishiga majburiy yo‘l bilan erishish eng to‘g‘ri qarorga aylanadi. Shuning uchun bolaga yoshligidan gender tengligi tamoyilini singdirish uchun ularning ota-onasida ham shu tamoyilni singdirish kerak bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, tarbiyachining o‘zi tarbiyalangan bo‘lishi kerak. Ikkinchidan, oilaviy tarbiyada shaxsiy namuna va ibrat ko‘rsatish eng asosiy ta’sir vositalaridan hisoblanadi. Agar ota o‘g‘liga “erkak kishi har doim ayollarni hurmat qilishi lozim” desa-yu, lekin o‘zi turmush o‘rtog‘i bilan yomon munosabatda bo‘lib kelsa, bola katta ehtimol bilan ulg‘ayganda ayollarga nisbatan shunday munosabatda bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, qush inida ko‘rganini qiladi, deb bejiz aytilmagan.

Gender bilan bog‘liq ilk qarashlar oilaviy muhitda shakllana boshlasa, ularning mustahkamlanib borishida ijtimoiy muhit, xususan bola yashayotgan mahallaning o‘rni ham katta bo‘ladi. Bejizga “bir bolaga yetti mahalla ota-ona” kabi maqollar xalqimizda yaratilmagan. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “Mahalla – asrlar o‘sha milliy urf-odat va an’analarimizni bezavol saqlab, xalqimiz uchun ezgulik va tarbiya beshigi, yaxshi qo‘shnichilik va hamjihatlik maskani. Biz mahalla deganda, dunyoda kamdan kam uchraydigan, insonni jamiyat bilan uyg‘un bo‘lib yashashga o‘rgatib, bag‘rikenglik ruhida tarbiyalaydigan, xalq bilan davlat o‘rtasidagi ishonchli ko‘prik vazifasini bajaradigan noyob tuzilmani tushunamiz”.

Gender bilan bog‘liq sog‘lom dunyoqarashlarni shakllantirishda mahallaning amalga oshiradigan funksiyalari quyidagilardan iborat:

– Bevosita va bilvosita tarbiyalash funksiyasi. Mahalla bu milliy o‘zini o‘zi boshqaruv shakli, fuqarolik jamiyati institutidir. U o‘zida insonlarning jipslashuvi, birgalikda jamiyatdagi muammolarni hal qilishi, yaxshi va yomon kunlarida birga bo‘lishi, qadriyatlarni saqlashi va rivojlantirishi kabi an’analarni, ijobiy tendensiyalarni jamlaydi. Shu bilan birgalikda, mahallaning yosh avlod tarbiyasidagi ta’siri ham beqiyos. Odatda mahalla avlodlar o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik hisoblanadi, unda yoshi katta bobo va buvilar yoshlarni tarbiyalashga e’tibor qaratadi. Xususan, mahalladagi yoshi kattalar, nuroniylar jamiyatda ayollar va erkaklarning huquqlari, o‘zaro munosabatlarida tenglik tamoyiliga amal qilinishi bilan bog‘liq bo‘lgan qarashlarni o‘zlarining so‘zlari va amallari bilan mahalladagi yosh avlodga singdirib, ularni tarbiyalab borishadi;

– Ijtimoiy hamkorlik funksiyasi. Mahalla, eng avvalo, hamkorlikdagi insonlar uyushmasi. Insonlarning taqdiri mahalla bilan bevosita bog‘liq. “Ayni paytda, yurtimizda yashayotgan har bir inson, millati, tili va dinidan qat’i nazar, o‘z hayotini, quvonch-u tashvishlarini mahalladan ayri holda tasavvur eta olmaydi”. Bu ijtimoiy birdamlik turli muammolarni yechishda va vazifalarni bajarishda hamkorlik qilish imkoniyatini taqdim etadi. Xususan, mahalla a’zolari gender tenglik tamoyilini yoshlarga singdirishda o‘zaro hamkorlikni amalga oshiradi. Oilada gender bilan

bog‘liq tarbiyadagi kemtiklar mahallada to‘ldiriladi, bola oilasidan ham, mahallasidagi yoshi katta insonlardan ham ayol va erkak o‘rtasida tenglik, o‘zaro munosabatning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zlashtirib boradi;

– Ijtimoiy nazorat funksiyasi. Mahalla ijtimoiy nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan ijtimoiy institut. Uning mavjudligi jamiyatdagi axloqiy normalar, milliy urf-odatlarning ta’minlanishiga ham xizmat qiladi. Gender masalasida mahallaning ijtimoiy nazoratni amalga oshirishi gender tengsizlikning kamayishiga olib keladi. Masalan, bola oilasida gender tengsizlik muhitida voyaga yetayotgan, ayollarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikni kuzatayotgan bo‘lishi mumkin. Mahalla, qo‘ni-qo‘shnilar tomonidan bu jarayonga aralashuv, gender tengsizlik, oilaviy maishiy zo‘ravonlikni to‘xtatishga harakat qilish bolaning ongida gender tengsizlik axloqsizlik, yomon illat ekanligiga oid tushunchalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa yoshlarni gender tenglik tamoyili ruhida tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Gender tenglikni yoshlarga singdirish masalasida oila va mahalla institutlaridan tashqari ta’lim tizimining ham ahamiyati katta. Chunki bolada nima to‘g‘ri va nima noto‘g‘ri ekanligi haqidagi qarashlar maktabgacha ta’lim muassasasi, maktab va keyinchalik oliy ta’lim muassasasi orqali ham shakllantirilib boriladi. Bunda eng asosiy ko‘rsatkich ta’lim tizimining tashkil etilish xususiyati bilan bog‘liq. Ya’ni mamlakatimizda ta’lim dunyoviy bo‘lib, o‘g‘il bolalar va qiz bolalar birgalikda sinf-dars ko‘rinishida tahsil olishadi. Maktabda o‘g‘il va qizlar ilk marotaba oila a’zosi bo‘lmagan qarama-qarshi jins vakillari bilan ko‘p vaqt o‘tkazadi. Aynan sinfdagi qizlar va o‘g‘il bolalar o‘rtasidagi to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan munosabatlar tizimining mavjudligi yoshlar ongida genderga nisbatan to‘g‘ri dunyoqarash shakllanishiga asos bo‘ladi. Maktabda o‘qitilayotgan fanlar va dars mashg‘ulotlarining mazmuni ham ma’lum darajada, gender tenglik tamoyili targ‘ibotiga xizmat qiladi.

Xususan, Respublikamizning barcha maktablarida “Tarbiya”, “O‘zbekiston tarixi”, “Adabiyot” kabi fanlar doirasida To‘maris, Zarina, Turkon xotun,

Saroymulkxonim, Nodirabegim, Uvaysiy, Anbar Otin, Saida Zunnunova, Zulfiya Isroilova kabi Vatanimiz tarixida, milliy adabiyotimizda o‘chmas iz qoldirgan ayollarning faoliyati o‘quvchilarga o‘rgatiladi. Bu orqali ayollarning ijtimoiy hayot va boshqaruvda azal-azaldan faol ishtirok etib kelganligiga oid qarashlar bolalar ongida sekinlik bilan singdirilib boriladi. “Oila-mahalla-ta’lim” o‘rtasidagi ijtimoiy hamkorlik tizimi jamiyatda gender tenglik tamoyilini qaror toptirish, yoshlarda genderga oid sog‘lom dunyoqarashni shakllantirishda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki ushbu uch ijtimoiy institut insonlarning shaxs bo‘lib shakllanishida asosiy tamal toshni qo‘yadi, bola tug‘ilganidan voyaga yetguniga qadar deyarli barcha vaqtini yo oilada, yo mahallada yoki ta’lim muassasasida o‘tkazadi.

Genderga oid to‘g‘ri munosabatning shakllanishida yuqorida tilga olingan yaxlit tizimning uch komponenti bir-birini to‘ldirib boradi. Oila, mahalla va ta’lim tizimida gender tenglikni ta’minlash yosh avlodni gender tenglik tamoyili asosida tarbiyalashda talab etiladigan eng asosiy prinsiplardan biri hisoblanadi. Gender tengligini ta’minlash muammosi oila, mahalla va ta’limning barcha bosqichlarida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Afsuski, bugungi kunda ham oila, mahalla, ta’lim tizimida gender muammolari uchrab turibdi. Masalan, bugungi kunda ham oilaviy munosabatlarda ayollarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlari uchraydi. Mahalla tizimida esa mavjud mahallalarning 40 foizini yoki 3676 mahallaning raislari yoki ularning o‘rinbosarlarini ayollar tashkil etadi. Boshqacha qilib aytganda, mahalla tizimida ham boshqaruv aksariyat holatda erkaklar qo‘lida. Yoki ta’lim jarayonida yashirin va ochiq gender stereotiplari4 bugungi kunda ham mavjudligini e’tirof etish mumkin. Masalan, maktablarda asosiy o‘qituvchilar ayollar bo‘lgani bilan boshqaruv faoliyatidagi maktab direktorlari va ularning o‘rinbosarlari ko‘proq erkaklar hisoblanadi. Bu yashirin gender stereotip bo‘lsa, maktabda o‘tilayotgan fanlar, xususan “Mehnat ta’limi”, “Jismoniy tarbiya” fanlarida o‘g‘il bolalar va qizlar uchun alohida dasturlarning ishlab chiqilganligi ochiq gender stereotiplar hisoblanadi. Bularning mavjudligi esa tarbiya tizimining o‘zida gender bilan bog‘liq muammolar mavjudligini anglatadi. Umuman olib qaraganda, gender tengligini

ta’minlashda oila-mahalla-ta’lim tizimi hamkorligini yo‘lga qo‘yish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda gender bilan bog‘liq sog‘lom munosabatlar, qarashlar tizimi shakllanishida ijobiy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rustamova, R. P. (2023). EFFECTS OF TOXIC AND HARMFUL SUBSTANCES ON THE HUMAN BODY AND PROTECTION FROM THEM. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 13, 19-22.

2. Rustamova, Rano Parpievna. "IMPORTANT FEATURES OF THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN STUDENTS." JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT 6.4 (2023): 67-74.

3. Rustamova, R. P. (2022). THE ROLE OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE DEVELOPMENT OF THE INDIVIDUAL. Academic research in educational sciences, 3(NUU Conference 2), 898- 903.

4. Rustamova, R. P. (2023). IMPORTANT FEATURES OF THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN STUDENTS. JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT, 6(4), 67- 74.

5. Нигматова, Ш. (2022). Психологик консультация жараёнида ўзини-ўзи англаш квалиметриясининг ташкилий-психологик босқичлари ва такомиллаштириш усуллари. Scientific Collection «InterConf», (131), 69-81.

TALABALARDA UMUMINSONIY QADRIYATLARGA OID KOMPETENTLILIKNI RIVOJLANTIRISH MAZMUN-MOHIYATI

O.T.Abdug‘aniyev

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti

Ilmiy kotibi p.f.b.f.f.d.(PhD), dotsent

Annotatsiya: mazkur maqolada talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlilikni rivojlantirish mazmun-mohiyati, jamiyat hayotining ma’naviy-ma’rifiy faoliyati, intelektual salohiyatli barkamol yosh-avlodni tarbiyalash, uzluksiz ta’lim tizimida milliy g‘oyaga doir bilim va tafakkurini yuksaltirish

shuningdek, ularning umuminsoniy qadriyatlar, mehr-muruvvat, bag‘rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni rivojlantirishning pedagogik ta’sir vositalari orqali yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: milliy o‘zlikni anglash, tashabbuskorlik, ijtimoiy – professionallik, barkamollik, talaba, kompetentlik, islohot, ma’naviy-ahloqiy fazilatlar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020 yil 24 yanvar kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasi[1]da yoshlar masalasiga to‘xtalar ekan: “O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga nafaqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovasiya bilan erishamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur” degan ushbu murojaati mazmunida ham oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan yosh-avlodni ma’naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalash pedagoglar oldida turgan eng muhim muammodir.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng ta’lim-tarbiya muammosiga doir bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Pedagogik ilmiy tadqiqotlar ko‘lami kengaydi. Sh.Shodmonova[2] o‘quv-tarbiyaviy jarayonda talabalarning mustaqillik tafakkurini rivojlantirish, O.Musurmonova[3] yoshlarning ma’naviy madaniyati-ni shakllantirish muammolariga doir tadqiqot ishlarini olib bordilar. G.Maxmutov[4] talabalarni o‘qitish hamda tarbiyalash qonuniyat-lari, shuningdek, siyosiy-axloqiy sifatlarni shakllantirishda talabalar ongiga samarali ta’sir etish yo‘llari, ma’naviy-axloqiy tamoyillar va me’yorlar, buyuk ajdodlarimizning xulq-odob me’yorlari hamda muomala madaniyati haqida o‘z

[1] Халқ сўзи. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий Мажлисга Мурожаатномаси” 2020 й. 25 январь №-19 сон

[2] Шодмонова Ш. С. Олий ўқув юрти талабаларида мустақиллик тафаккурини шакллантириш ва ривожлантириш (Касб таълими йўналиши мисолида).: дис. ... пед. фан. док. – Т., 2010. – 340 б.

[3] Мусурмонова О. Юқори синф ўқувчилари маънавий маданиятини шакллантиришнинг педагогик асослари: дис.: п.ф.д. – Т., 1993. – 364 б.

[4] Махмутов Г. Олий педагогик таълим тизимида талабаларни маънавий шакллантиришнинг ижтимоий-педагогик хусусиятлар.: Автореф. дис.. п.ф.н. – Т.: 2004. – 22 б.

ilmiy qarashlari asosida ifodalab o‘tdi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida yuksak intellektual, ijtimoiy faol, tashabbuskor, ma’naviy-axloqiy salohiyatga ega bo‘lgan yosh-avlodni yetuk kadrlar etib tayyorlash muammosi to‘g‘risida izlanishlar olib borishgan. Yoshlarda sog‘lom turmush madaniyati va vatanparvarlik, yoshlar faolligini oshirish va ularning ma’naviy-ahloqiy tarbiyasi, ijtimoiy-pedagogik qobiliyatlarini millat rivoji ruhida tarbiyalash kabi muammolarga to‘xtalib o‘tgan.

Mamlakatimizda yoshlarning har tamonlama yetuk shaxs sifatida voyaga yetishida jamiyat taraqqiyoti muhim o‘rin tutishi bilan birga, uning umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi ham muhim o‘rin tutadi. Talabalarni umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentliligini rivojlantirish bugungi kunda dolzarb masala bo‘lib bormoqda. Chunki, qadriyat masalasi uning mazmun – mohiyati to‘g‘risidagi tasavvur bilan bog‘liq yondashuvlar, turli darvlarda turlicha talqin qilingan.

Talabalarni umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlilikni rivojlantirish ta’limining maqsadi, doimo insonni jamiyatda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, davlatning ijtimoiy – ma’naviy hayotida doimo faol ishtirok etishga, milliy qadriyatlarni targ‘ib qilib borishga bo‘lgan intilishi orqali na’muna bo‘lish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, tialabalarning umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentliligini rivojlantirishning mazmun-mohiyatini biz quydagicha takidlab o‘tishimiz lozim:

- talaba-yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashni jamiyatining asosiy vazifasi sifatida belgilash orqali ma’naviy-barkamol shaxsni kamol toptirish;

- talabalarni milliy g‘oya ruhida tarbiyalash orqali jamiyat hayotning barcha sohalarida umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligini namoyon qilib borish orqali ularning faol ishtirokini ta’minlash;

- talabalarni milliy iftixor, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik, ijtimoiy hamkorlik, xalq farovonligi, komil inson g‘oyalarini singdirgan holda

umuminsoniy qadriyatlarga yo‘naltirish orqali ma’naviy hayot sohalarida ishtirokini ta’minlash;

- talabalarni mustaqil hayotga tayyorlash va ularga ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-huquqiy savodxonligini rivojlantirish;

- talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentliligini rivojlantirishda ta’lim muassasasi hayotida ijtimoiy – ma’naviy jabxalarda qadriyatlarga sodiqligini qaror toptirishda “Mentorlik”, “Talaba minbari” kabi ijtimoiy loyihalarda faolligini ko‘rsatish orqali oshirib umuminsoniy qadriyatlarga sodiligini oshirib borish;

- talabalarni oliy ta’lim muassasalaridagi, “Yoshlar ittifoqi uyushmalari faoliyatida faol ishtirok etish, o‘zini-o‘zi boshqarish organlari faoliyatiga keng jalb etish” orqali umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentliligini rivojlantirish mumkin.

Jumladan, talabalaning ta’lim muassasasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligini rivojlantishda uning tarbiyaviy holati ham asosiy o‘ringa chiqadi. Chunki, yosh avlod tarbiyasi xususida to‘xtalar ekanmiz, taniqli o‘zbek pedagogi, ma’rifatparvar olim A.Avloniy[5] shunday deydi: “Al-hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot yo mamot, yo najot, yo halokat yo saodat, yo falokat masalasidir»‘. Ushbu fikrlardan xulosa chiqarsak, shaxs tarbiyasi xususiy emas, balki ijtimoiy, milliy ilmdir. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo‘lishi avlodlar tarbiyasiga ko‘p jihatdan bog‘liq.

Respublikamiz olimlari tomonidagn ushbu muammoning asosiy jihatlariga olimlar O.Musurmonova[6] ta’lim –tarbiyada ahloqiy ong, vijdon, burch, mas’ulyat, hayo, g‘urur kabi insonning fe’l – atvorini ichki boshqarish qurilishiga asoslanadi. Ahloqning mag‘zini tashkil qiluvchi bosh qoidalar insonparvarlik, demokratizm, halol mehnat, o‘zaro yordam, do‘stlik, hamkorlik, o‘zaro hurmat, baynalmilalchilik vatanparvarlik, tabiat va atrof muhitga diqqat-e’tibor, burch hissi hamda kamtarlik

[5] **A.Avloniy. «Turkiy Guliston yoxud axloq» (nashrga tayyorlovchi Xoliqov L.) -Toshkent: O‘qituvchi, 1992. 160 b.**

[6] Мусурмонова О. Ўқувчиларнинг маънавий маданиятини шакллантириш. –Т.: Фан, 1993. – 28 б.

ko‘zbo‘yamachilik va yolg‘izlikni inkor etish kabi insoniy sifatlarni o‘z tadqiqotlarida ifodalagan.

S.Jo‘raeva [7]yosh avlod masalasiga to‘htalar ekan: “Yoshlarning Vatan, millat taqdiri uchun o‘zlarini mas’ul sezib, dahldorlik tuyg‘usi”ni o‘zida xis qilishi to‘g‘risida to‘htalgani, har qanday jamiyatda yosh-avlod tarbiyasi turli davlarda ham muhim o‘rin egallaydi.

A.Begmatov[8] ta’lim jarayonida shaxs faolligi “jamiyat manfaatlari bilan shaxs manfaatlari o‘rtasida uyg‘unlik mavjud bo‘lsa, bunday holat shaxsni jamiyat manfaatlari yo‘lida, demak, shu orqali, o‘z manfaatlari yo‘lida ham jonbozlik ko‘rsatishga undaydi” deb, inson tarbiyasida insonparvarlik tamoyilining o‘rni yuqoriligi masalasiga to‘xtalib o‘tgan.

Tarbiya jarayoni o‘quvchining onginigina emas, balki his-tuyg‘ularini ham o‘stirib borishi, unda jamiyatning shaxsga qo‘yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarni hosil qilishi lozim. Bunga erishish uchun o‘quvchining ongiga, hissiyotiga va irodasiga ta’sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e’tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga o‘qituvchi rahbarlik qiladi, o‘quvchilar faoliyatini belgilaydi, ularni ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart- sharoit yaratadi. Ijtimoiy tarbiyani tashkil etish jarayonida bir qator vazifalar ijtimoiy tarbiya maqsadidan kelib chiqib belgilanadi. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida ayni vaqtda yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishga qaratilgan jarayonda quyidagi vazifalarni hal etish muhim ahamiyat kasb etmoqda:

a) yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda keng dunyoqarashni tarkib toptirish, o‘z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashish, reja va amal birligi hissini uyg‘otish;

[7] Жўраева С.Н. Талаба шахсига касбий шаклланиш таъсирининг психологик жиҳатлари.: Авторефарат. Дис...пед.фан.ном. – Т., 2010 й.

[8] Бегматов А. Маънавият фалсафаси ёхуд Ислом Каримов асарларида янги фалсафий тизимнинг яратилиши. – Тошкент.: Шарқ, 2000 й. – 64-65 б.

b) o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlardan ogoh etish, chuqur bilimga, tafakkurga ega yoshlarni tarbiyalash malakalarini tobora boyitish;

d) umuminsoniy axloq me’yorlarini anglashni (odamiylik, kamtarlik, o‘zaro yordam, mehr-muhabbat, muruvvat, adolatni yoqlash, axloqsizlikka qarshi nafrat va hokazolar), muomala odobi, yuksak madaniyatni o‘quvchilarda qaror toptirishga erishish;

e) huquqiy va axloqiy me’yorlarga hurmat ruhida yondashish, o‘quv- chilarda fuqarolik tuyg‘usini, ijtimoiy burchga mas’ullikni qaror toptirish;

f) tarbiyani muhofaza qilish, ekologik muvozanatni yuzaga keltirish borasidagi mas’uliyatni tarkib toptirish;

g) vatanparvarlik va baynalminallik tuyg‘usini shakllantirish, o‘zga millat va xalqlar qarashlariga hurmatni, huquq va burchlarni kamsitmaslik tuyg‘usini qaror toptirish;

h) mustaqil davlat-O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to‘g‘ri va xolisona baho berishga o‘rgatish;

o) insonni oliy qadriyat sifatida qadrlash, uning shani, or-nomusi, qadr-qimmati, huquq va burchlarini himoya qilishga o‘rgatish va boshqalar.

Xususan, Yangi O‘zbektiston sharoitida talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlilikni rivojlantirish shiddat bilan rivojlanib globallashib integratsiyalanayotgan dunyo shiddat bilan o‘zgarib, milliy o‘zlikni anglashi, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi, shaxs ma’naviyatini mustahkamlash jarayonlarida turli yot g‘oyalarning salbiy ta’siri ortib, odamlarning ongi-shu’uri va qalbi uchun kurash kuchayib borayotgan bir davrda ta’lim-tarbiya, targ‘ibot va tashviqot ishlari jarayonida umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, milliy g‘oya, millat va ularning o‘zaro bog‘liqligi masalasining dolzarbligi yanada oshmoqda. Xalqning ma’naviy hayotida o‘zligini anglash muhim o‘rin tutadi. Shunday ekan, talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlilikni rivojlantirishda ayni ma’naviy-ahloqiy tarbiyalanishini ta’lim-tarbiya jarayonining avvalo, milliy o‘z-o‘zini anglashining mazmun-mohiyatini, xalq, millat tushunchalari hamda ularning o‘zaro

aloqadorlik jihatlariga alohida e’tibor qaratish lozimligi qayd etilmoqda. Talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlilikni rivojlantirishda pedagogik-psixologik jihatlarini tahlil etar ekanmiz, biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqotlarni o‘rganish doirasida avval, mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ishlaridagi ilmiy imkoniyatlarni tahliliga to‘xtalib o‘tishni lozim deb topdik.

Shu o‘rinda sharq mutafakkirlaridan Jaloliddin Rumiy[9]ning qarashlarida “Jismoniy mansublik bilan birga ruhoniy, ma’naviy yaqinlikka ham ishonadi va u ma’no ahlini avliyo farzandi” deya ta’kidlagan ushbu mulohazlari zamirida ham ko‘p ma’no yashirish. Shuning uchun ham yosh-avlodning ma’naviy-ruhiy yetukligi o‘z davrida mutafakkir olim qarashlarida o‘z ifodasini topgan.

Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘atida ijtimoiy tarbiya – tarbiyaning[10] muhim bir shakli, butun jamiyat, xalq, millat va tabaqaga ko‘rsatilgan maqsadga muvofiq ma’naviy ta’sirni ifoda etadigan tarbiya. Ijtimoiy tarbiya shaxs ongi va tafakkuri, ma’naviy-ma’rifiy olamini jamiyatning maqsad va vazifalariga uyg‘un hamda hamohang ravishda shakllantirish va rivojlantirish jarayoni, kishilarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirok etish, ezgu ta’sir hamda omillar majmui. Ijtimoiy tarbiyaning asosiy maqsadi fuqarolarni insonparvar demokratik jamiyat, huquqiy davlat qurishga safarbar etish yagona umummilliy g‘oya atrofida birlashtirishdan iborat. Ijtimoiy tarbiyada ota-ona mehri, Vatan muhabbati, ustoz-shogirdlik an’analari, milliy qadriyatlar, mahalla va jamoati nazorati ham katta ta’sir kuchiga ega bo‘lib, yoshlar kamolatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, Yangi O‘zbekiston sharoitida talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlilikni rivojlantirishda ta’lim jarayonida talabalarga, vatanparvarlik, milliy iftihor ruhida shakllanadigan bilishning o‘ziga xos shakllaridan biridir deb etirof etish mumkin. Demak, shaxsning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, jamiyat, ijtimoiy qatlami, siyosiy partiya va boshqa fuqarolik

[9] Румий Ж. Маънавий маснавий. Муҳаммад таржимаси. Теҳрон, 2001 йил, 7-б. Форсча-ўзбекча луғат.

[10] Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. Ўзбекистон файласуфлари жамияти.: Т-2010 й. 188-б.

jamiyati institutlarining muayyan maqsadlari ifodasi, ularni bu yo‘lda birlashtirishi, uyushtirishi, faoliyatga undashi, safarbar qilishi»[11] deb ifodalab o‘tgan. Shuning uchun ham ta’lim jarayonida “fanga oid komponent”larning alohida ahamiyatga egaligi o‘qituvchining kasbiy kompetentligi rivojlanishida alohida ta’sir etib boradi. Ya’ni,

- ijtimoiy kompetentlik, har bir zamonaviy odam uchun muhim bo‘lgan individning turlicha ijtimoiy o‘z qarashlarini ifodalash imkonini beruvchi;
- ijtimoiy kompetentlik har biri mustaqil kompetentlik sifatida qaralishi mumkin bo‘lgan ko‘plab jihatlar – tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi (ijtimoiy-fuqarolik, ijtimoiy-kommunikativ, axborot kompetentligi va ijtimoiy-individual kompetentlik)lar muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, Yangi O‘zbektiston sharoitida talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlilikni rivojlantirishning asosiy maqsadi yoshlarda bunyodkor g‘oyalarning mazmun-mohiyatan sog‘lom yoki nosog‘lom, ezgu yoki yovuz, bunyodkor yoki buzg‘unchi g‘oyalarning bo‘lishi mumkinligini yoritish hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalanishi muhim ahamiyat kasb etmog‘i lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. A.Avloniy. «Turkiy Guliston yoxud axloq» (nashrga tayyorlovchi Xoliqov L.) -Toshkent: O‘qituvchi, 1992. 160 b.
2. Musurmonova O. O‘quvchilarning ma’naviy madaniyatini shakllantirish. –T.: Fan, 1993. – 28 b.
3. Jo‘raeva S.N. Talaba shaxsiga kasbiy shakllanish ta’sirining psixologik jihatlari.: Avtorefarat. Dis...ped.fan.nom. – T., 2010 y.
4. Begmatov A. Ma’naviyat falsafasi yoxud Islom Karimov asarlarida yangi falsafiy tizimning yaratilishi. – Toshkent.: Sharq, 2000 y. – 64-65 b.
5. Rumiy J. Ma’naviy masnaviy. Muhammad tarjimasi. Tehron, 2001 yil,

[11] Миллий истиқлол ғоясини шакллантиришда ташкилий-услубий ёндашувлар.. (кадрлар тайёрлаш миллий дастури вазифалари доирасида). Т.: 2002.-19 б

7-b. Forscha-o‘zbekcha lug‘at.

6. Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. O‘zbekiston faylasuflari jamiyati.: T-2010 y. 188-b.

7. Milliy istiqlol g‘oyasini shakllantirishda tashkiliy-uslubiy yondashuvlar.. (kadrlar tayyorlash milliy dasturi vazifalari doirasida). T.: 2002.-19 b

8. Abdug‘Aniyev O. T. TALABALARDA UMUMINSONIY QADRIYATLARGA OID KOMPETENTLILIKNI RIVOJLANTIRISH MOHIYATI VA MANTIQIY JIHATDAN TAHLILI //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. Special Issue 10. – S. 434-438.

9. Abdug‘Aniyev O. T. YANGI O ‘ZBEKISTON SHAROITIDA TALABALARDA UMUMINSONIY QADRIYATLARGA OID KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI PEDAGOGIK HAMKORLIK OMILLARI //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. Special Issue 12. – S. 52-56.

10. Abdug‘aniev O. T. TALABALARDA IJTIMOIY FAOL FUQAROLIK KOMPETENSIYaSINI RIVOJLANTIRIShNING PEDAGOGIK IMKONIYaTLARI //Evraziyskiy jurnal akademicheskix issledovaniy. – 2022. – T. 2. – №. 13. – S. 25-29.

11. Abduganiev O. T. Talabalarrda ijtimoiy faol fuqarolik kopetensiyalarini rivojlantirish : dis. – T.: : dissertatsiya, 2021.

12. Abduganiyev O. T. DEVELOPMENT OF SOCIALLY ACTIVE CITIZENSHIP COMPETENCIES IN STUDENTS–AS A SOCIAL PEDAGOGICAL NEED //prospects of development of science and education. – 2022. – T. 1. – №. 5. – S. 78-83.

13. Abduganiyev O. T. DEVELOPMENT OF SOCIALLY ACTIVE CITIZENSHIP COMPETENCIES IN STUDENTS–AS A SOCIAL PEDAGOGICAL NEED //PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 5. – S. 78-83.

14. Tursunboyevich O. A. Pedagogical and psychological opportunities for the development of social active civil competences in students //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 3. – S. 1888-1897.

15. Abduganiyev O. Formation of legal training aimed at competitiveness in pupils of secondary schools //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – T. 9. – №. 7.

16. Tursunboyevich O. A. Pedagogical and psychological opportunities for the development of social active civil competences in students //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 3. – S. 1888-1897.

17. Abduganiyev O. T. FACTORS AFFECTING THE DEVELOPMENT OF SOCIALLY ACTIVE CITIZENSHIP COMPETENCE IN STUDENTS //E Conference Zone. – 2022. – S. 10-13.

18. Oglu A. O. T. Pedagogical Conditions And Mechanisms Of Development Of Social Active Civil Competence In Students //Turkish Journal of Computer and Mathematics Education. – 2021. – T. 12. – №. 7. – S. 433-442.

FARZAND TARBIYASI OTA-ONA UCHUN KELAJAK POYDEVORIDIR!

L.M.Qaraxonova

Qori Niyoziy nomidagi TPMI bo‘lim mudiri,

p.f.f.d (PhD), katta ilmiy xodim

Dunyoda ota-ona eng ulug‘ zotlar hisoblanadi. Chunki ular o‘z farzandlari uchun hayotini, mehrini bag‘ishlaydi. Farzandi katta bo‘lib, oila qurib ketgandan keyin ham u haqda qayg‘urishdan to‘xtamaydi.

Ota-ona farzandi dunyoga kelishi bilan uni parvarish qilib, katta qiladi, kasal bo‘lsa, davolaydi, yediradi, kiydiradi, uni oq yuvib, oq taraydi. Umuman, farzandini hayotda kerakli barcha narsalar bilan ta’minlashga harakat qiladi. Hatto buning

uchun o‘zlari yeyish-ichish, kiyinish va shu kabi narsalardan mahrum bo‘lsalar yoki kechalari uyqudan qolsalar ham.

Bugun yoshlarimiz baxtli, chunki ularning ota-onalari boshida, ular uchun kerakli narsalarni ortig‘i bilan olib bermoqda. To‘g‘ri, bu ishlar ota-onaning farzand oldidagi asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Afsuski, ba’zi ota-onalar o‘zlarining vazifalari faqat shu deb o‘ylashadi. Holbuki, bulardan ham muhim, bulardan ham qiyin va bulardan ham asosiy vazifa ham bor, bu farzandning ma’naviy-axloqiy tarbiyasidir.

Diyorimizda oila ma’naviyati va madaniyati asrlar davomida o‘ziga xos tarzda shakllangan. Vatanga, ota-onaga sodiqlik va fidoyilik o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Bular zaminida yoshlarga oilada, ta’lim maskanlarida, mahallalarda beriladigan ta’lim tarbiya yotadi. Shuning bilan birgalikda farzand tarbiyasidagi eng muhim omil bu – ota-ona tarbiyasi, ularning farzandiga qilgan e’tiboridir. Xalqimizda “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, degan maqol bejiz aytilmagan.

Serfarzandlik va bolajonlik; kattalarga hurmat, kichiklarga muruvvat; erkaklarning oiladagi yuqori mavqei, ayollarning royishligi; oila va nikohning muqaddasligiga e’tiqod; ota-onalarning farzandlar oldidagi hamda farzandlarning ota-onalar oldidagi burch va mas’uliyatining muhim qadriyat sifatida e’tirof etilishi; oila sha’ni va obro‘sining avaylab asralishi; kelin va qaynona munosabatlarining o‘ziga xosligi; katta oilalarda bobo va buvilarning rahnamoligi; qarindoshlar, qo‘ni – qo‘shnilar, mahalla – ko‘y oldidagi majburiyatini teran his qilish kabi o‘zbek oilasiga xos bunday xususiyatlar zamirida sharqona tarbiya ta’limotlari yotadi.

O‘zbek oilasida farzandlar dunyoga kelishi bilan ular taqdiriga befarq bo‘lmaslik orqali ota-onalar zurriyodlarining qobil va aqlli, imon-e’tiqodli, sog‘-salomat voyaga yetishi ustida jon kuydiradilar.

O‘zbek oilasida avlodlardan meros shunday tarbiya mezonlari va an’analari mavjudki, ularning hayotiyligi va bardavomligi bois millatimiz ma’naviyati yuksak pog‘onalarga ko‘tarilmoqda. Lekin shuni e’tirof etmoq lozimki, bugungi kunda fuqarolarning huquqiy, tibbiy, iqtisodiy, ma’naviy madaniyati darajasini davr

talabiga to‘la javob beradi, deb bo‘lmaydi. Ba’zi yoshlarning nikohdan o‘tmasdan oila qurishlari, meros taqsimotida akauka, opa-singillar o‘rtasida paydo bo‘layotgan nizolar, er-xotin nikohini bekor qilish jarayonidagi noroziliklar, ovsinlar, qaynona-kelin o‘rtasida uy-joy taqsimotidagi janjallar huquqiy savodxonlik va ma’naviy madaniyat darajasining pastligi tufayli sodir bo‘lmoqda.

Oilada bo‘ladigan bunday noxush holatlarning oldini olishning asosiy yo‘li, avvalo, ota-onalarning huquqiy, ma’naviy-axloqiy bilim va madaniyatini shakllantirishdir. Buning uchun korxona va tashkilotlarda, mahalla va turar joylarda muntazam faoliyat ko‘rsatadigan o‘quv kurslari va “Ota-onalar universitetlari” faoliyati samaradorligini oshirish maqsadga muvofiqdir. Chunki yuksak huquqiy madaniyatga ega bo‘lgan, ma’rifatli ota-onalargina farzandlarini har tomonlama yetuk kishilar qilib tarbiyalashi mumkin.

“Ota-onalar universiteti” – ota-onalarni bola tarbiyasi ilmidan voqif qiluvchi, sog‘lom turmush tarzi madaniyatini shakllantiruvchi, aholining ma’naviy-axloqiy, tibbiy-demografik, ijtimoiy-huquqiy savodxonligi va malakasini oshiruvchi jamoatchilik maktabi hisoblanadi.

Asosiy maqsadi tinglovchilarning oila barqarorligini ta’minlash, sog‘lom turmush madaniyati, tibbiy savodxonligi, ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy-huquqiy madaniyati darajasini oshirish, bola tarbiyasiga oid pedagogik va psixologik, shuningdek, ma’naviy-axloqiy masalalar hamda bola dunyoqarashi va mafkurasini shakllantirish, komil insonni tarbiyalashga xizmat qiluvchi bilimlar bilan qurollantirishdan iborat.

Farzand tarbiyasi ko‘p jihatdan oiladagi muhitga, kattalarning bolani tarbiyalashga bo‘lgan munosabatiga bog‘liqligi, ota-ona bola tarbiyasi uchun jamiyat oldida mas’ul ekanligi davlatimizning qator qonun va qarorlarida qayd etilgan. Farzandlarning ma’nan va jismonan barkamol insonlar bo‘lib yetishishi, eng avvalo, tarbiyaga, xususan, ota-onalar tarbiyasi va sohadagi savodxonlik darajasiga bog‘liq. Bunda ota-onalarning ma’naviy, psixologik, huquqiy, tibbiy-biologik va

iqtisodiy savodxonligiga e’tiborni kuchaytirish, ularning mazkur bilimlarni egallashlari uchun turli usul va metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir oila farzandining xulq-atvori, dunyoqarashi oiladagi muhit ta’sirida namoyon bo‘ladi. Oiladagi ma’naviy muhit va tarbiya tufayli bola yo mehribon va rahmdil yoki xudbin va bag‘ritosh bo‘lib voyaga yetishi mumkin. Oilaviy tarbiya masalasida xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun, avvalo, har qaysi xonadondagi ma’naviy iqlimni o‘zaro hurmat, axloq-odob, insoniy munosabatlar asosiga qurish maqsadga muvofiqdir.

Farzandga mehr qo‘yish, ularning qornini to‘q, ustini but qilish o‘z yo‘liga, ammo farzandlarimizni yoshlik chog‘idan boshlab milliy tarbiya, odob-axloq, yuksak ma’naviyat asosida voyaga yetkazish nafaqat oila uchun, balki jamiyat uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Farzand tarbiyasiga e’tibor bermaslik nafaqat ota-onalar, butun bir oila, butun jamiyat uchun juda qimmatga tushishini ko‘pgina hayotiy misollarda ko‘rish mumkin. Demografik jarayonlarga tug‘ilish, o‘lim, tabiiy o‘sish, nikoh va ajralishlar kiradi.

Demografik jarayonlarni o‘rganish uchun birinchi navbatda bu jarayonlarni harakatlantiruvchi kuch – demografik qonuniyatlarni bilish zarur. Oila jamiyatdagi iqtisodiy, ma’naviy va madaniy munosabatlardan tashqari o‘zaro muloqot, oiladagi psixologik muammolar, sog‘lom turmush madaniyati munosabatlarini ham ifodalaydi.

Jamiyat erkak va ayol o‘rtasidagi tabiiy munosabatlar madaniyatini tarbiyalash orqali ular o‘rtasidagi ahillikni mustahkamlashga ko‘maklashadi. Bu munosabatlar madaniyatini shakllantirish oila hayotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, bolalar salomatligi, soni va tug‘ilish muddatlarini maqsadga muvofiqlashtirishni, oilani rivojlanish jarayonini ongli ravishda boshqarishni ta’minlaydi.

Hadis sharifda “Farzanding yo jannating yoki do‘zaxingdir”, deb aytilgan. Agar ota-ona farzandini yaxshi xulqli, odobli va imon-e’tiqodli qilib tarbiyalasa, bunday farzand qiyomat kunida o‘zi bilan ota-onasini ham jannatga yetaklaydi.

Shunday ekan, har bir ota-ona farzandlarining tarbiyasiga ko‘proq e’tibor berishi, ularga alohida vaqt ajratib, odob-axloqdan ta’lim berishi, ularni doimo nazorat qilib borishi, yomonlarga yaqin yo‘latmasligi lozim ekan. Ana shunda ular ota-onasi va el-yurtiga xizmat qiladigan, ularga ikki dunyoda obro‘ olib keladigan, yuzlarini yorug‘ va boshlarini yuqori qiladigan farzandlar bo‘lib katta bo‘lishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karakhonova L.M. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching// ISSN (E): 2795-739X. Journal Impact Factor: 8.115. Volume 20| May 2023. –P.154-158.

2. Karakhonova L.M. Independent educational activity and mechanisms of effective organization in the continuous education process// American Journal Of Applied Science And Technology// VOLUME 03 ISSUE 06 Pages: 15-21. SJIF IMPACT FACTOR (2021: 5. 705) (2022: 5. 705) (2023: 7.063).

3. L.M. Karakhonova. Organization of research activity of Schoolchildren at the lessons of biology// SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 2 FEBRUARY 2023 UIF-2022: 8.2. –P. 430-438.

XORIJIY MAMLAKATLARDA FUQAROLIK TARBIYASI: PEDAGOGIK STRATEGIYALAR VA O‘QUV YO‘LLARI

Zebo Jabborova

Respublika ta’lim markazi Ijtimoiy fanlar bo‘limi boshlig‘i

Jalodiddin Rumiy aytganidek, “Insonni inson qilgan narsa – uning aqli va axloqidir”.

Bugungi kunda O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz.

Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini

tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog‘chadan boshlab oliy o‘quv yurtigacha – ta’limning barcha bo‘g‘inlarini isloh qilinmoqda.

Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a’zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma’rifat, yuksak ma’naviyat kerak. Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish maqsadida bugungi kunda xalq ta’limi tizimida qator islohotlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyuldagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tfdbirlari to‘g‘risida”gi 422-son qaroriga asosan “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari”, “Dunyo dinlari tarixi”, kabi fanlarni birlashtirgan holda, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 2020-2021 o‘quv yilidan yagona “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich joriy qilish bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu jarayon xorijiy tajribalardan foydalanish, ulardagi o‘qitish mexanizmi, dastur va darsliklarini tahlil qilish va o‘rganishdan boshlandi. Xorijiy davlatlardagi fuqaro tarbiyasiga oid dasturlarni o‘rganish jarayonida har bir davlat o‘ziga xos yo‘nalish belgilab olganligi ko‘zga tashlandi. Bunda mamlakat tarixi, uning o‘ziga xos xarakteri, mentaliteti inobatga olingan. Jumladan, ta’limi tizimi rivojlangan mamlakatlar qatorida yuqori o‘rinda turuvchi Singapur davlatida Xarakter va fuqarolik ta’limini o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan.

Xarakter va fuqarolik (CCE) Singapur ta’lim tizimining asosiy masalasi hisoblanadi. 1959 yildan boshlab fuqaro tarbiyasini joriy qilish uchun turli xil dasturlar ishlab chiqilgan: "Fuqaro va axloq", Ta’lim (CME, 1992), Milliy ta’lim

(NE, 1997), Ijtimoiy va hissiy o‘rganish (SEL, 2005) va Qo‘shimcha o‘quv mashg‘ulotlari (CCA)[12].

Xarakter va fuqarolik CCE o‘quv dasturida jamiyatga ta’sir ko‘rsatayotgan tendensiyalar, global o‘zgarishlar, texnologik yutuqlar va kashfiyotlar ham hisobga olinadi

Bu fanni o‘qitishdan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarda oila va jamiyat oldida javobgarlik hissini rivojlantirish, qadriyatlarni singdirish va qobiliyatlarni shakllantirishdan iborat.

Singapur fuqarosida Xarakter va fuqarolik ta’limi orqali fuqaro savodxonligi, global xabardorlik va madaniyatlararo ko‘nikmalarning tarkibiy qismlari shakllantiriladi.

Faol fuqarolik:

- ✓ javobgarlik hissini namoyish etadi
- ✓ insonparvarlikni namoyon qila oladi;
- ✓ jamoaning ishonchli vakili bo‘la oladi;

Milliy va madaniy o‘ziga xoslikni namoyon etish:

- ✓ millat oldida javobgarlik hissiga ega;
- ✓ milliy qadriyatlariga sodiqlik

Global qiziqishga egalik:

- ✓ global xabardorlikka ega bo‘lish;
- ✓ madaniy aloqalar tufayli o‘zgarishlarni qabul qilish;
- ✓ global tendensiyalarning mahalliy jamoalar bilan munosabatlarini tan oladi;
- ✓ tahlil qiladi va baholaydi;

Ijtimoiy-madaniy ta’sirchanlikka egalik;

- ✓ odamlarni tushunadi, hamdard bo‘la oladi va hurmat qiladi;
- ✓ mahalliy va xalqaro miqyosda boshqa ijtimoiy-madaniy guruhlar bilan munosib munosabatda bo‘la oladi;
- ✓ ijtimoiy hayotni yaxshilashga harakat qiladi;

[12] https://www.moe.gov.sg/

Shuningdek, Singapur ta’lim tizimida fuqarolarning Ijtimoiy va hissiy o‘rganish (SEL) ko‘nikmalarini shakllantirishga ahamiyat qaratilgan:

- hissiyotlarni boshqarish;
- boshqalarga g‘amxo‘rlik qilish;
- qarorlar qabul qilish;
- muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish;

Xarakter va fuqarolik ta’limini o‘rganish natijasida quyidagi fazilatlar shakllantiriladi :

- o‘z-o‘zini anglaydi va baxtli bo‘lishga harakat qiladi;
- ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etadi, manfaatli aloqalarni o‘rnata oladi;
- millati bilan faxrlanadi;
- Singapur fuqarosi ekanligini his etadi va unga sodiq bo‘ladi;
- boshqalarga g‘amxo‘rlik qiladi, jamiyat va millati taraqqiyotiga faol hissa qo‘shadi;
- milliy va global muammolar haqida biladi va unga munosabat bildira oladi;
- axloqiy me’yorlarga xos bo‘lgan qarorlar qabul qila oladi;
- muammolarni imkoniyatga aylantirish qobiliyatiga ega bo‘ladi;
- ijtimoiy birlik va hamjihatlikni targ‘ib qiladi[13];

Ta’lim dasturlarini tahlil qilish davomida Singapur ta’lim tizimida, fuqaro tarbiyasiga yondashuv asosan vatanparvarlik, millat va milliy qadriyatlarni hurmat qilish, xalqaro munosabatlarda faol ishtirok etish va farovon turmush tarzini yaratishga alohida e’tibor qaratilganligi diqqatga sazovordir..

Yana bir Sharq davlatlaridan biri Xitoyda qadimdan bola tarbiyasiga juda qattiqqo‘llik bilan yondashilgan. Qizlarga bo‘ysinuvchanlik, odmilik, yaxshi oila bekasi bo‘lish asoslari o‘rgatilgan. O‘g‘il bolalarga esa maktabda dunyoviy bilimlar, qo‘shiq aytish, Yer haqida bilim, insonning tuzilishi, tarix, musiqa asoslari, mehnat fanlari o‘qitilgan.

[13] https://www.moe.gov.sg/education/education-system

Konfutsiyning fikricha, tarbiyali inson, bu – adolatli, samimiy, sadoqatli, atrofdagilarga izzat-hurmatli, mehnatkash va oliyjanob bo‘lishi kerak.

Bola jamiyatga foydali inson bo‘lib yetishishi uchun uni mehnatkashlik ruhida tarbiyalanadi. Pul bilan muomala qilish, mehnatga o‘rgatiladi. Bolani ortiqcha erkalatmasdan, qattiqqo‘llik bilan tarbiyalanadi.

Konfutsiy bolani kattaga hurmat ruhida tarbiyalashni ustuvor vazifa, deb belgilaydi. Oilaviy qadriyatlarga hurmat, kattalar bilan muomalada odob saqlashni yoqlaydi. Oilaviy qiziqishlar shaxsiy qiziqishlardan ustun bo‘lishini ta’kidlaydi.

Bugungi kunda ham Xitoyda bola tarbiyasida asosan, avtoritar tuzum ustuvorlik qiladi. Bolaga o‘ta qattiqqo‘llik bilan muomala qilinadi. Xitoyda shunday matal bor: Ota-onalar har bir o‘g‘il bolada ajdarhoni, qiz bolalarda esa qaqnusni ko‘rishni ko‘rishni xoxlaydi.

Bugungi kunda Xitoyda mehnatsevarlik, maqsadga intilish, sabr-toqat, bo‘ysinuvchanlik, yaqinlarga hurmat, har tomonlama rivojlanganlik, liderlik xislatlarini tarbiyalashga e’tibor qaratiladi.

Xitoylarning milliy xususiyatlaridan asosiysi, ular bolaga sen yaxshi emas, a’lochi bo‘lishing kerak, degan talabni qo‘yadi. Tarbiya bo‘yicha mashhur, hammabop kitob “Ona-yo‘lbarsning jangovor gimni” deb ataladi.

Xitoyda siyosiy savodxonlikka va mafkurani yoshlar ongiga singdirishga alohida e’tibor qaratiladi. Siyosat va davlat tizimi haqidagi bilimlar beriladi.

Xitoyda ta’lim va karera juda qadrlanadi. Hatto boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar o‘qishning muhimligini anglaydilar va yaxshi o‘qishga harakat qiladilar. Birinchi sinfdan boshlab, bolalar katta katta uy yumushlarini ham bajaradilar va qo‘shimcha repititorlarda o‘qiydilar.

Xitoyda o‘rta maktab dasturlari o‘quvchilarni aqliy, jismoniy, ahloqiy va badiiy tarbiyaga yo‘naltiriladi[14].

[14] https://www.moe.gov.sg/

Yaponiya “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda maktabga tinchlik va insoniylik ideallariga amal qiluvchi millatni shakllantirish vazifasi yuklatilgan. Jumladan,

shaxs sifatlarini to‘liq rivojlantirish;

tinchlikparvar davlat va jamiyat quruvchilarini tarbiyalash;

ma’suliyatlilik;

mustaqil fikrlilik;

o‘zgalar bilan hamkorlik;

an’anaviylik va zamonaviylikni anglash;

xalqaro hamkorlikka tayyorlash;

kundalik turmush darajalariga egalik;

ruhan va jismonan kuchlilik;

haqiqatparvarlik va adlatlilik;

shaxsiy erkinlik;

mehnatsevarlik;

o‘zini baxtli va o‘zgalar bilan uyg‘un qila olish fazilatlari shakllantiriladi.

Yapon yoshlarida 16 ta fazilatni shakllantirish belgilab berilgan va bu fazilatlar 4 guruhga bo‘linadi:

1. **Shaxsiy sifatlar**:

1.1. erkinlik

1.2. o‘ziga xoslikni rivojlantirish

1.3. mustaqil bo‘lish

1.4. o‘z xohishlarini idora qila olish

1.5. pietet (ehtirom) tuyg‘usiga egalik;

2. Oila boshlig‘iga xos sifatlar:

2.1.o‘z o‘yini mehr-muxabbat

2.2. halollik va

2.3. tarbiya maskaniga aylantira olish;

3. Ijtimoiy sifatlar:

3.1. o‘z ishiga sadoqat

3.2. jamiyat farovonligiga hissa qo‘shish

3.3.ijodkorlik

3.4.milliy (ijtimoiy) qadriyatlarni hurmat qilish

4. Fuqarolik sifatlari:

4.1. vatanga sodiq bo‘lish

4.2. davlat ramzlarini qadrlash

4.3. ijtimoiy faollik

4.4. eng yaxshi milliy fazilatlar sohibi bo‘lish

Yaponiya maktablarining boshlang‘ich sinflarida matematika, ona tili, tabiiy fanlar, tarixiga kirish, etika va estetika asoslari, jismoniy tarbiya, hayot havfsizligi asoslari, musiqa, mehnat, tasviriy san’at, chiroyli yozuv (husni xat), hayot faoliyati asoslari kabi fanlar o‘qitiladi.

Bu fanlarni o‘qitishda yapon ta’lim tizimi quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

O‘zgalar manfaatini hurmat qilish;

Hotirjamlik;

Shaxsiy namuna: sabr, cheksiz muhabbat, o‘z-o‘zini boshqara olish, bolalar hissiyotlarin tushuna olish, bolani jamiyatga foydasi tegadigan qilib tarbiyalash, o‘z manfatidan jamoa manfatini ustun qo‘yishni tarbiyalash[15].

Shaxsiy sifatlar

Boshlang‘ich 1- va 2-sinflar - «Yaxshilik va yomonlikni hukm qilish, avtonomiya, erkinlik va javobgarlik», «Halollik, samimiylik», «Qanoat, sabr», «Shaxsiylikni oshirish», «Umid va jasorat, harakat va qat’iy iroda».

Boshlang‘ich 3- va 4-sinflar - «Yaxshilik va yomonlikning hukmronligi, avtonomiya, erkinlik va javobgarlik», «Halollik, samimiylik», «Qanoat, sabr», «Shaxsiylikni oshirish», «Umid va jasorat, g‘ayrat va kuchli iroda»

Boshlang‘ich 5- va 6-sinflar - «Yaxshilik va yomonlikning hukmronligi, avtonomiya, erkinlik va javobgarlik», «Halollik va samimiylik», «Sabr-qanoatva

[15] http://o-buddizme.ru/strany/obrazovanie-v-yaponii

muloyimlik», «Shaxsiylikni oshirish», «Umid va jasorat, g‘ayrat va kuchli iroda», «Haqiqatni qidirish».

O‘rta maktab - «O‘z-o‘zini, avtonomiya, erkinlik va javobgarlik», «Qanoat, sabr», «Maqsadlar, individning o‘sishi», «Umid va jasorat, Katsumi va qat’iy iroda», «Haqiqat savol va yaratilishi»

Asosan insonlar bilan bog‘liq munosabat

Boshlang‘ich 1 va 2-sinflar - «Do‘stona, e’tiborli», «Rahmat», «Xushmuomala», «Do‘stlik, ishonch».

Boshlang‘ich maktab 3- va 4-sinflar - «Do‘stona va e’tiborli», «Rahmat», «Xushmuomala», «Do‘stlik va ishonch», «O‘zaro tushunish va bag‘rikenglik».

Boshlang‘ich maktabning 5- va 6-sinflari - «Do‘stona, e’tiborli», «Rahmat», «Xushmuomalalik», «Do‘stlik, ishonch», «O‘zaro tushunish, bag‘rikenglik»,

O‘rta maktab - «Fikrlash, rahmat», «Xushmuomalalik», «Do‘stlik, ishonch», «O‘zaro tushunish, bag‘rikenglik».

Asosan guruhlar va jamiyat bilan bog‘liq munosabatlar

Boshlang‘ich 1- va 2-sinflar - «Qoidalarga hurmat», «Adolat, adolat, ijtimoiy adolat», «Mehnatkashlik, jamoat ruhi», «Oilaviy muhabbat, oilaviy hayotni yaxshilash», «Maktab hayotini yaxshilash, guruh hayotini takomillashtirish», «An’ana va madaniyatni hurmat qilish, o‘z vataniga va o‘z hududiga bo‘lgan muhabbat», «Xalqaro tushunish, xalqaro do‘stlik».

Boshlang‘ich 3- va 4-sinflar - «Qoidalarga hurmat», «Adolat, adolat, ijtimoiy adolat», «Mehnatkashlik, jamoatchilik ruhi», «Oilaviy muhabbat, oilaviy hayotni yaxshilash», «Maktab va guruh hayotining yaxshilanishi», «An’ana va madaniyatni hurmat qilish, o‘z vataniga va o‘z hududiga bo‘lgan muhabbat», «Xalqaro tushunish, xalqaro do‘stlik».

Boshlang‘ich 5- va 6-sinflar - «Qoidalarga rioya qilish», «Adolat, adolat, ijtimoiy adolat», «Mehnatkashlik, jamoat ruhi», «Oilaviy muhabbat, oilaviy hayotni yaxshilash», «Maktab va guruh hayotining yaxshilanishi», «An’ana va

madaniyatni hurmat qilish, o‘z vataniga va o‘z hududiga bo‘lgan muhabbat», «Xalqaro tushunish, xalqaro do‘stlik».

Mamlakatda davlat imtixonlar yanvar oylarining o‘rtalarida tashkil etiladi. Bu jarayon ikki kun davom etadi. Imtixonlar jadvalidan jamiyatshunoslik va etika fanlari ham o‘rin olganligini ko‘rish mumkin[16].

Maktablarga bolalar 6 yoshdan qabul qilinadi va o‘quv yili 1 aprel sanasidan boshlanadi. Haftalik dars soatlari sinflarga qarab turlicha bo‘lib odatda darslar haftada 5 kun bo‘ladi. Yaponiyada bolalarning darsdan tashqari vaqtini maroqli va foydali o‘tkazishlariga juda katta e’tibor beriladi, shu bois turli sport va san’at to‘garaklari tashkil etilgan bo‘lib bolalarning darsdan keyingi vaqtini foydali o‘tkazishlariga yordam beradi.

Axloqiy tarbiya fanida o‘quvchilarni axloqiy tarbiya, mulohaza yuritish, o‘zini tutish kabilar o‘rgatilinadi. Bu fan maktablardagi boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib yuqoridagi fanlarni chuqurroq va konstruktiv ravishda to‘ldirish va birlashtirish uchun kerak. Shunigdek o‘quvchilarda qanday yashash kerakli haqidagi axloqiy qadryatlar va g‘oyalarni ongiga singdirish va turli qobilyatlarni tarbiyash nazarda tutiladi[17].

O‘zbekiston ta’lim tizimida yangicha yondashuv va rivojlangan davlatlar tajribasi asosida joriy etilayotgan “Tarbiya” fanini o‘qitishdan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarda insoniy fazilatlar va zarur ko‘nikmalarni shakllantirish orqali ularni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlashdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini

[16] https://evroportal.ru/obuchenie-za-rubezhom/obrazovanie-v-yaponii-dlya-inostrantsev-2/#i-4

- 17 Мазевская А.Е. “Школа как механизм формирования нравственной личности (на примере школьного образования в Японии)”. // Журнал. Педагогическое Образование В России.5/2011. Федеральное государственное бюджетное образовательное учреждение высшего профессионального образования «Уральский государственный педагогический университет» 5/2011.
- https://news.rambler.ru/education/39495603-shkoly-yaponii-kogda-ekzamen-reshaet-vse/?updated
- Google Books. Комсомольская правда. Санкт-Петербург 59-2015

tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son qarori 1 ilovasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyuldagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 422-son qarori

3. Quronov M. Milliy tarbiya. Ma’naviyat 2007 yil

4. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin desangiz..., tarbiya kitobi. Ma’naviyat, 2014 yil

5. https:// t.me/edurtm_uz/

6. http:// tarbiyam.perepost.uz/

«СОТРУДНИЧЕСТВО ШКОЛЫ, СЕМЬИ И МАХАЛЛИ В ВОСПИТАНИИ: ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ЗАДАЧИ И ПУТИ РЕШЕНИЯ»

Маджитова Ситора Собит кизи

Национальный институт воспитания и педагогики имени Коры Ниези, 1-курс докторант.

Аннотация: В статье анализируется роль взаимодействия между школой, семьей и махаллей в воспитательном процессе в условиях современной системы образования Узбекистана. Автор делает акцент на существующих проблемах координации этих трёх институтов, объясняет причины недостаточной эффективности и предлагает содержательные решения, направленные на системное укрепление воспитательной среды. Освещается необходимость создания устойчивых механизмов сотрудничества, внедрения инновационных подходов и активного участия всех сторон в жизни ребёнка.

Ключевые слова: воспитание, школа, семья, махалля, сотрудничество, воспитательная среда тарбия, мактаб, оила, маҳалла, ҳамкорлик, тарбия муҳити, education, school, family, mahalla, cooperation, educational environment.

Введение. Современное общество предъявляет всё более высокие требования к качеству воспитания подрастающего поколения. В этих условиях особенно важным становится взаимодействие трёх ключевых институтов: школы, семьи и махалли. Каждый из них выполняет особую функцию в формировании личности ребёнка, но без тесного сотрудничества их усилия теряют эффективность. Проблема воспитания не может решаться только усилиями одного звена — именно в согласованности действий кроется потенциал устойчивого и всестороннего развития ребёнка.

На практике, несмотря на стратегическую значимость координации между школой, семьёй и махаллёй, это сотрудничество часто носит формальный характер. Школа перегружена академическими задачами и часто воспринимает воспитательные мероприятия как второстепенные. Родители ограничиваются базовыми формами участия — посещением собраний и выполнением домашних заданий, — при этом теряя связь с педагогами на более глубоком уровне. Махалля же, обладая потенциалом в качестве связующего звена с сообществом, остаётся на периферии воспитательного процесса. Подобная разобщённость создаёт вакуум, в котором ребёнок остаётся без должной поддержки и морального контроля.

Местные органы управления в Узбекистане тесно взаимодействуют с органами самоуправления граждан. Важнейшим элементом и проводником социальной политики в Республике являются органы самоуправления граждан махалли, традиционно объединяющие семьи для решения жизненно важных проблем. В историческом и современном понимании она выступает как общественное образование, субъекты которого взаимосвязаны единством места проживания, традиций, обычаев, формами общения, правовых, хозяйственных и семейных отношений. Именно в махалле издревле с одной стороны, определились, утверждались и регулировались правила и нормы человеческого коллектива, создавались системы идеологических, мировоззренческих взглядов, формировалось общественное мнение, а с

другой стороны, через махаллю осуществлялась непосредственная связь между государством и семьей, религиозными концессиями, контроль исполнения решений государственной власти, контакты с организациями культуры и образования, правопорядка и т. д.

Для профилактики или изменения «трудного» поведения у ребенка важно воспитывать дисциплинированность. В этом плане необходимо обеспечить научно-практической интеграции институтов “семья — школа — махалля”. Родители «трудных» несовершеннолетних детей этого часто не понимают или игнорируют совместных усилий этих институтов. Такие родители хвалят за хорошее поведение, часто неправильно и непоследовательно реагируют на плохое поведение. Они не так уж часто уделяют правильное внимание поступкам своих детей. Такие родители не понимают, что подчас отрицательное поведение вызвано поиском внимания со стороны родителей, взрослых.

Для осуществления воспитательно-профилактической работы с трудными подростками можно использовать рекомендации, основанные на практике психолого-педагогического консультирования и бесед с ними. Предварительно необходимо установить доверительные отношения с каждым воспитуемым. Запланированные беседы должны проводиться с целью оказания ему воспитательной помощи, а полученные от него ответы не должны никому сообщаться. При этом недопустимо спрашивать об отклонениях в поведении, о совершенных негативных поступках и правонарушениях. Необходимо акцентировать внимание на личных планах и проблемах воспитуемого, которые влияю на его отношение со сверстниками и взрослыми.

В связи с этим одним из актуальных проблем работы с подростками является формирование у них новых ценностей, где самовоспитание, его перспективно -необходимое и важное условие для их успешной самореализации, становления и развития личности. Необходимо принять

конкретные меры по формированию правовых знаний и культуры, непрерывно осуществлять соответствующую работу в рамках конкретных программ, которые могли войти в суть принимаемых новых законов и вносимых изменений и дополнений в действующее законодательство, принять соответствующие меры по дальнейшему совершенствованию интеграции “семья-школа-махалля”, обеспечению законопослушного поведения личности.

Важным направлением деятельности интеграции института “семья-школа-махалля” воспитании несовершеннолетних является:

- содействие физическому, интеллектуальному, духовному и нравственному развитию детей;
- обеспечение равенства прав и возможностей детей;
- воспитание у детей чувства патриотизма, гражданственности, толерантности и миролюбия;
- приобщения ребенка к историческим и национальным традициям, духовным ценностям народа Узбекистана и достижениям мировой культуры;
- содействие социальной адаптации детей, снижению правонарушений среди несовершеннолетних;
- обеспечение здорового развития ребенка, рационального и безопасного питания;

Осуществление профилактики заболеваний, пропаганды здорового образа жизни, предоставление детям бесплатной квалифицированной медицинской помощи и др.

Известно, что семья может выступать в качестве как положительного, так и отрицательного фактора воспитания. Положительное воздействие на личность ребенка состоит в том, что никто кроме самых близких для него в семье людей — матери, отца, брата, сестры, бабушки, дедушки, не относятся к ребенку лучше, не любит его так как они и не заботятся столько о нем. И вместе с тем если в семье неблагоприятный климат, отсутствует

взаимоуважение, то это негативно сказывается на ребенке. Многие ошибки родительского отношения к детям лежат в их неадекватном представлении о своей родительской роли. Они часто переносят на своих детей те отношения, которые воспроизводят характер отношений их родителей к ним в раннем детстве или то, что они недополучили от родителей в детстве. Серьезная и, по сути, семейная, психокоррекционная задача состоит не в том, чтобы диагностировать родителей, выносить им оценки за их несостоятельность, а в том, чтобы помогать им в осознании необходимости становится «хорошими родителями». Это значит учить родителей:

- умению слушать ребенка и понимать его переживания и потребности;
- стремлению разрешать возникающие конфликты с ребенком без угроз и наказаний, доверять по его пониманию и делится своими чувствами, которые возникли из-за конфликта, объяснять их;
- поддерживанию успехов ребенка;
- исключению непоследовательных требований, выражения недовольства ребенком;
- исключению нереальных родительских ожиданий по отношению к ребенку.

Подытоживая, отметим, что далеко не все запросы, потребности и интересы ребенка могут быть удовлетворены через семью или в отношении «семья-школа», какое бы значимое место в его жизни она ни занимала. Потребность в общении, получении новой информации, активной творческой, созидательно]! деятельности, труде, совершенствовании своих способностей, умений и навыков в инновационной сфере и т. д. — все это реализуется только при включении ребенка в предельно широкие общественные структуры: школу, спорт, сферу досуга и искусства, культуру, общественно-полезный труд и многое другое. Научно-методическая организация всего комплекса, все сферы жизнедеятельности несовершеннолетних завесит от интегративной деятельности института «семья-школа-махалля».

Сегодня молодежь наиболее подвержена воздействию со стороны проявления так называемой массовой культуры, насаждаемые извне, различного рода экстремистские нападки направлены на завоевание умов и сердец нашей молодежи. Как говорит Президент нашей Республики Шавкат Мирзиёев, свободное время молодежи – это время работы наших врагов. Именно поэтому в филиале осуществляется целевая работа по организации свободного времени студентов. Проводятся различные мероприятия с целью формирования иммунитета наших студентов против различного рода идейных угроз, их активной гражданской позиции, пропаганду здорового образа жизни.

Корни этих проблем кроются в отсутствии устойчивых структур для совместного планирования и реализации воспитательных задач. Нередко педагоги не имеют инструментов или методик, позволяющих налаживать доверительные отношения с семьёй, а родители ощущают себя исключёнными из школьной среды. Махалля, со своей стороны, не всегда имеет подготовленные кадры или ясные полномочия для участия в воспитательной деятельности. Всё это приводит к фрагментации усилий и ослаблению воспитательного влияния.

Решение обозначенных проблем требует не просто административных реформ, а пересмотра подходов к взаимодействию как к системному процессу. Необходима такая модель сотрудничества, в которой все три стороны рассматриваются как равноправные участники единого воспитательного пространства. В этом контексте актуально внедрение координационных советов при школах, в которые будут входить представители родителей, педагогов и махалли. Такие советы смогут не только планировать мероприятия, но и обеспечивать живую обратную связь между участниками процесса.

Важную роль играет цифровизация взаимодействия: внедрение единой коммуникационной платформы, где родители, представители махалли и учителя могут координировать усилия, обсуждать поведение ребёнка и общие

инициативы. Ещё один важный аспект — подготовка специалистов, обладающих компетенциями в области медиации, психологии и социального партнёрства. Это позволит каждому участнику чувствовать ответственность и вовлечённость, формируя атмосферу коллективной заботы о ребёнке.

Особое внимание должно быть уделено практическому наполнению взаимодействия. Необходимо не просто организовывать совместные мероприятия, а создавать условия для реального включения родителей и махалли в образовательный процесс. Это может быть достигнуто через открытые уроки, родительские клубы, участие в внеурочной деятельности и профилактических проектах. Именно в таких форматах возникает доверие, необходимое для воспитания ценностей и социальной ответственности.

Заключение. Без согласованного взаимодействия школы, семьи и махалли полноценное воспитание невозможно. Проблемы, существующие в этой сфере, носят системный характер, однако они разрешимы при наличии политической воли, институциональной поддержки и методологической базы. Усиление доверия между всеми участниками, их активное включение в общий процесс и формирование культуры партнёрства являются неотъемлемыми условиями построения воспитательной среды, отвечающей вызовам времени и потребностям детей.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Концепция развития системы воспитания в Республике Узбекистан до 2030 года.
2. Закон Республики Узбекистан «Об образовании» (новая редакция).
3. Бекназаров И.Х. “Тарбия жараёнида маҳалла институтининг роли”, Тошкент, 2023.
4. Курбонов А. “Оила ва мактаб ҳамкорлигининг самарали йўллари”, Тарбия журнали, №1, 2024.
5. Турсунова Ш. “Ижтимоий муҳит ва бола психологияси”, Самарқанд, 2022.

6. Маҳаллий ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисидаги Қонун, 2023.
7. Lindström E. (Ed.). The Nordic Model of Educational Partnership. Stockholm, 2020.
8. Педагогика и психология: научно-практический журнал. Выпуски 2022–2024 гг.

O‘QUVCHILARNI KASBGA YO‘NALTIRISHDA MAKTAB, OILA VA MAHALLANING ISHTIROKI

Choriyeva Dildora Ismat qizi

Qori Niyoziy nomidagi TPMI katta ilmiy xodimi

Annotatsiya: O‘quvchi yoshlarni kasbga yo‘naltirishda har bir jarayon muhim hisoblanadi. Shu bois ham barcha birdek, birdamlik bilan harakat qilishi zarur. Mazkur maqolada kasb-hunarga yo‘naltirishda oila-mahalla-maktab hamkorligi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: kasb-hunar, mehnat tarbiyasi, mehnat ko‘nikmasi, mahalla-oila-maktab hamkorligi

Kasb-hunarga yo‘naltirishning asosiy maqsadi – yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda kelgusi ta’lim yo‘nalishini (akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji) tanlashiga yoki shaxsning psixofiziologik xususiyatlari qiziqishi, qobiliyati, moyilliklari va jamiyatning kadrlarga bo‘lgan ehtiyojidan kelib chiqqan xolda mehnat qilish sohasini tanlashga tayyorlashdan iborat. Bola shaxsining shakillanishida butun ijtimoiy voqealik hususan uning o‘zi tug‘ilib o‘sgan oila muhiti hal qiluvchi vazifani bajaradi. Oiladagi turmush madaniyati, mehnat harakteri ota-onaning ahloqiy saviyasi, ijtimoiy masalaga, bolaning komil inson bo‘lib yetishishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Mehnat tarbiyasi – xozirgi kun tarbiyasining zarur sharti, shaxsdagi profesional barkamollikning asosidir. Mamlakatimizda umumdavlat ishi bo‘lgan ana shu tarbiya, ya’ni o‘quvchi yoshlarni ijtimoiy ishlab chiqarishning turli sohalardagi mehnat faoliyatiga tayyorlash asosan maktabning o‘rta va yuqori

sinflarida amalga oshiriladi. Lekin bu ishning muvaffaqiyatli bajarishda boshlang‘ich sinflarda va oilada turli darajada tayyorlanishga bog‘liq.. Bolalarga mamlakatimizda har qanday mehnat sharafli ekanini, halol mehnat qilgan kishi yuksak, qadirlanishni, mehnatdan qochadigan ahloqsiz odamlarni hech kim hurmat qilmasligini, boshqalar hisobiga yashash umuman aqlli, zukko odamga to‘g‘ri kelmasligini maktabda, ota-onalarning suhbatlaridan va ularning kuzatishidan iloji boricha ertaroq bilib olishlari lozim. Mehnat tarbiyasining oilada ham muvaffaqiyatli tashkil etishga imkoniyatlar ko‘p. Bolaninng boshlang‘ich mehnat faoliyatida ota-onalarning mehnatga bo‘lgan munosabatlari, harakatlari namuna sifatida hizmat qiladi. Ammo bolalar artofidagi “Mehnat” ni ko‘rib tursa ham, mehnatsevarlik fazilati tarkib topaveradi. Bunga ota-onalar o‘ylab, ehtiyotkorlik bilan ish ko‘rishlari lozim. Bolalarni mustaqillikka o‘rganishda ularga kiyinish usullarini tushuntirib, ko‘rsatib berish lozim. Ularning kiyim va sochiqlari uchun maxsus veshilka qoqib qo‘yish ham juda muhim hisoblanadi. Bola eshikdan kirib kelgan ustki kiyimlarini tartibsiz xolda yechib tashlamasdan, aksincha ota-onalar mahsus tayyorlangan veshilkaga ilishga odatlanib boradi.

Oilada bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan xolda, maktab, mahalla bilan hamkorlikda ularning yoshlariga mos topshiriqlar, berib borish, kundalik vazifalarni taqsimlab mehnatsevarlikni tarbiyalash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bolani bog‘cha yoshidan boshlab, o‘z-o‘ziga xizmat qildirish (kiyinish, yechinish, o‘yinchoqlarni yig‘ishtirib qo‘yish) o‘rgatib boriladi. Bolalar ulg‘ayganlari sari ularning “Mehnat qilish” vazifalar doirasi kengayib boradi. Masalan kir yuvish, chorva hayvonlariga qarash va boshqa ishlar topshiriladi. Bolalar yoshligidan ota-onalarning yaqin yordamchilari ekanligini his qiladilar. Maktab, maxalla hamkorlikda o‘tkazilgan mehnatga bog‘liq tadbirlarga bola o‘sha tadbirni qanday maqsatda o‘tkazilayotganini tushunib qatnashsa, mehnat qilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ota-onalarning mehnatga bo‘lgan munosabati bolaga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi. Mahalla, maktab, oila bola tarbiyalashga hamkorlikda ma’sul

hisoblanadi. Yuqorida aytilganidek ota-onalarning mehnatga bo‘lgan munosabati bolaga kuchli tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi. Oiladagi va o‘zidan katta sinfdoshlari, mahalladagi faollarning mehnatsevarligi kichiklarga mehnat na’munasiga aylanadi.

1.Birinchidan maqsadga yo‘naltirilgan “Tarbiya” yo‘li bilan. Bu usulda bolalarda mehnatga mehr uyg‘otib, ularning mehnat qilishlari uchun ko‘nikma xosil qilishga yordam beradilar.

2.Oila, maktab, mahalla hamkorlikda bolalarning ahloqiy va mehnat tarbiyasiga ongli munosabatda bo‘lishi-shakllangan an’analar, qiziqish va ehtiyoj kattalarning o‘zaro munosabatlari tarbiyasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

3.Ota-onalar, maktab bolaning qiziqishi va maylini o‘z vaqtida payqab, ulardan istedodni rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berishlari lozim. Bu esa bolalarda kattalar mehnat yutuqlaridan fahirlanish hissini tarbiyalab, ularga ergashishga undaydi.

Agar bola biror topshiriqni bajarishga qiynalsa unga o‘z vaqtida yordam berish kerak. Oilada olib borilgan yaxshi mexnat tarbiyasi bolalarning muvoffakiyatli o‘qishga yaxshi zamin bo‘lib xizmat kiladi. Ota-onalar shuni unutmasliklari kerak-ki, maktabda xam bolalar bilan mehnat tarbiyasi olib boriladi. Mehnat va ijtimoiy foydali mehnat darslari ham o‘tiladi. Mehnat ko‘nikmasiga ega bo‘lmagan bolalar bu darslarda bir qancha qiyinchiliklarga duch keladi. Oilada olib borilgan yaxshi mehnat tarbiyasi bolalarning muvaffaqiyatli, chidamli bo‘lib o‘sishlariga zamin bo‘ladi. O‘g‘il qizlarni barcha mehnat turlariga tayyorlashda maktab, oila, mahalla hamkorligida bolalarni yangi hayotga tayyorlash faqat ijobiy natija beradi. Vaqtning qadriga yetish, daqiqalarni e’zozlash, uning barcha imkoniyatlarida oqilona foydalanish xozirgi kunning muhim shioriga aylangan bir paytda ota-onalarning kattalarni ibrati bolalar uchun ibrat bo‘lib hizmat qilishi kerak. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida uzluksiz ta’limga alohida e’tibor berilgan. Uzluksiz ta’limning boshlang‘ich nuqtasi oila hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi qonunning beshinchi bob o‘ttizinchi moddasida Ota-onalar yoki qonuniy vakillarning vazifalari quyidagicha

ko‘rsatib o‘tilgan: “Voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolalarning qonuniy huquqlari va manfatlarini himoya qilishlari shart, hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o‘rta, maxsus, kasb-xunar ta’limini olishlari uchun javobgardir”. Ana shulardan kelib chiqib, har bir ota-onalar, maktab, mahalla farzandlar oldidagi fuqarolik burchlarini his etishlari lozim. Jamiyatimiz uchun yuqori malakali raqobatga qodir mutaxassisliklari tayyorlash uchun maktab, ota-onalar va mahalla hamkorlikda olib boriladigan kasbga yo‘naltirish ishlarini takomillashtirish, yangi shakl va usullarni izlab topish va bunga keng jamoatchilikni ham jalb etish kerak. Oila maktab, mahalla tarbiyasiga loqayd bo‘lmasligi lozim. O‘quvchi maktabda ta’lim tarbiya olish bilan birgalikda shaxs sifatida shakillana boradi. O‘zining jamiyatdagi o‘rnini sinfdoshlari, qolaversa murabbiy mahalladagi ilg‘or hunarmandlarga murabbiy o‘qituvchilari bilan taqqoslay boshlaydi. O‘zidagi yaxshi jihozlarni namoyon etishga intiladi va o‘zgalar ichida ajralib turishga harakat qiladi. Xuddi shu paytdan boshlab, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida faoliyat ko‘rsatuvchi o‘qituvchilar, sinf rahbarlari, mehnat ta’limi o‘qituvchilari kasb-hunarga yo‘llash sohasidagi dastlabki ma’lumotlarni bera boshlashlari lozim.

O‘quvchilarning o‘zi uchun munosib kasblar tanlashida ota-onaning roli alohida o‘rin tutadi. Ota-onalar, mahalla maktab jamoasi bilan o‘z farzandi xususida vaqti-vaqti bilan uchrashib, maslahatlashib, uning layoqati, kasblarga bo‘lgan qiziqishlarini va individual hususiyatni e’tiborga olib, kasb tanlash ishlarini tashkil etish lozim. Sinf rahbari, maktab ruhshunosi kasb-hunarga yo‘naltiruvchi mutahassis va maktab shifokori bilan hamkorlikda ish olib borib, o‘quvchining psixologik-pedagogik xaritasidan yozilgan tashxis natijalariga asoslanib, kasbiy maslahat berish lozim. Buning uchun avvalo ota-onalarning o‘z farzandlari haqida fikirlarini bilish kerak. O‘quvchi bilan ota-ona istaklari mos kelgan taqdirdagina kasb-hunarga yo‘naltiruvchi mutaxassis o‘quvchi tanlagan kasblar haqida ma’lumotlar berish bilan o‘quvchining tanlagan kasbiga yanada qiziqish uyg‘otishini ta’minlaydi. Pedagogik faoliyatimiz va tajriba sinov ishlarimiz natijasida umumta’lim maktablarida xalqimizning milliy, tarixiy an’analaridan

qadriyatlaridan foydalanish darajasini va saviyasini aniqlashimiz uchun mahalla bilan hamkorlikda ish olib borish faqat ijobiy natija beradi.

Ma’lumki mahallalarda hunarmandchilik ijtimoiy formatsiyalar doirasida texnika rivoji bilan birgalikda takomillasha boradi va turli ixtisosliklar: kulolchilik, duradgorlik, temirchilik, miskarlik, binokorlik, sartaroshlik, o‘ymakorlik, zargarlik, zardo‘zlik, bo‘yoqchilik, tunikasozlik kabilar ajralgan. Yuqorida zikr etilgan xunar turlari ayrimlari barcha maxalalarda mavjud. Maxalalarda ochilgan turli xildagi xunarmandchilik shoxobchalariga bolalarni qiziqtirish maktab, oila, mahalla xamkorlikda, xunarmandchilikka oid ko‘rgazmalar tashkil etish, ushbu tanlovda ishtirok etgan o‘quvchilar mehnatiga ijobiy baho berish o‘quvchilarni o‘sha kasibni egallashlari uchun aniq ma’nba bo‘lib hizmat qiladi. Qadimgi manbalarda aks ettirilgandek Surxandaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Xiva va Qo‘qon shaxarlarida me’morchilik, quruvchilik inshoatlari keng rivojlangan. Shu bois hunar va kasb haqida maxalla oqsoqollari momolar ham o‘zlarini hayotlarini farovon o‘tkazishlarida o‘rgangan xunarlari foyda berganini takidlashdi. Maktab, oila, maxalla, hamkorlikda mehnat ta’limi avlodni mehnat qilishga tayyorlashni shakillantirish, kelajagi buyuk davlat qurishda amaliy ishtirok etishga intilish ko‘nikmasini tarkib toptirishning aniq maqsadga qaratilgan jarayoni bo‘lib xisoblanadi. O‘quvchilarni kasblarni mukammal egalashlari uchun darasdan keyingi to‘garaklar maktablarda, maxallalarda tashkil qilinmoqda. Bolalarni o‘zlri shug‘ullanayotgan to‘garaklarda mukummaal shug‘ulanishlari uchun ustozlar shirin so‘z, xushmuomala bo‘lishlari kerak.

Hammaga ma’lumki yosh o‘quvchilar qaysi ustoz shirin so‘z yaxshi muomilada bo‘lsa, bola qalbiga yo‘l topa olsa unga bog‘langan holda o‘sha kasbga bo‘lgan qiziqishi ortadi. O‘z kasbiga fidoiy bo‘lgan har bir o‘qituvchi o‘zining tarbiyalayotgan o‘quvchisini kelajagiga bafarq bo‘laolmaydi. Oila, maktab, maxalla xamkorlikda o‘quvchi 9-sinfni bitirgunga qadar kechadigan ruhiy kechinmalariga befarq bo‘lmasliklari kerak. Shunday qilib, o‘quvchilarni kasb-xunarga yo‘naltirish ishi xozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Kasb-hunarga yo‘naltirishnig

ishining pirovard natijasi ijtimoiy – iqtisodiy omil bo‘lib, shaxsga ham, davlatga ham real foyda keltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бердиева, Ханифа Мейлиевна Изучение научных основ механизации и автоматизации управления сельским хозяйством в курсе физики средней школы (на материале сельских школ Узбекистана). https://nauka-pedagogika.com/pedagogika-13-00-02/dissertaciya- Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqiyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel 1127 izuchenie-nauchnyh-osnov-mehanizatsii-i-avtomatizatsii-upravleniya-selskim-hozyaystvom-v-kursefiziki-sredney-shkoly-na-m

2. Бердиева Х.М., Шаманов М.Ҳ., Абдураҳмонова Р.Х., Гулбоева Б.Н. Технология и методика обучения учащихся общеобразовательных школ // Студенческий вестник: электрон. научн. журн. 2018. № 29(49). URL: https://internauka.org/journal/stud/herald/49 (дата обращения: 10.03.2022).

3. Бердиева Х.М. Развитие профессиональных коммуникативных навыков педагогов в сфере образования. https://s.siteapi.org/d955411c180ee78/docs/khhp4bee6u8g8goowcsg0gcg8os0kw

4. Berdiyeva Muhabbat Meyliyevna Pedagogical support and development of the intellectual opportunities of children in preschool education http://www.idpublications.org/wpcontent/uploads/2019/12/abstract-pedagogical-support-and-development-of-the-intellectual-opportunitiesof-children.pdf

5. Radjabova G.M. The educational value of oral folk art for preschoolers // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

6. Berdieva M.M. Increasing the research activity of a pupil of a preschool organization // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research:

Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

TARBIYAVIY JARAYONLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBANING ZARURIYATI

Raxmatova Mexrinoz Majitovna

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi

milliy instituti doktoranti, PhD.

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishda ilg‘or xorijiy tajribadan foydalanishning samaradorligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim va tarbiya jarayoni, ma’naviyat, tarbiya, ilg‘or xorijiy tajriba, stress, o‘zaro hurmat, jahon hamjamiyati.

Dunyo bo‘ylab tarbiyaviy jarayonlarda bir qator umumiy tendensiyalarni kuzatish mumkin. Individual yondashuv - har bir o‘quvchining qobiliyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta’lim berish hisoblanadi. Amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish - nazariy bilimlar bilan bir qatorda, amaliy ko‘nikmalarni ham rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish kiradi. Ijodiy fikrlash va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish – o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, muammolarni hal qilishga va ijodiy yondashuvlarni ishlab chiqishga o‘rgatadi. Jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish – o‘quvchilarni jamoada ishlashga, bir-birlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga o‘rgatish asosiy maqsad hisoblanadi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish – ta’lim va tarbiyaviy jarayonlarda zamonaviy axborot texnologiyalarini keng qo‘llash hisoblanadi. Inklyuziv ta’lim - barcha o‘quvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratish, shu jumladan, imkoniyati cheklangan bolalar uchun ham barcha shart-sharoitlarni muhayyo qilish hisoblanadi.

Ta’lim sifati bo‘yicha dunyoda yetakchi mamlakatlardan biri hisoblanadigan Finlyandiyada o‘qituvchilarning yuqori malakasi, o‘quvchilarning mustaqil ishlashiga ko‘p e’tibor beriladi. Jumladan, Oodi Helsinki markaziy kutubxonasining fondida yuz mingdan ortiq kitob saqlanayotgani va bir kunda bu kutubxonaga mingdan ortiq inson tashrif buyuradi. Kutubxonaning o‘ziga xosligi shundaki, bu yer faqat kitob o‘qish uchun emas, ma’naviyat targ‘ibotining har qanday ko‘rinishini o‘zida mujassam etgan joydir. Uch qavatli kutubxonaning ikki qavatida turli davr va yoshlarga doir kitoblar saqlansa, uchinchi qavati o‘ziga xos ko‘ngilochar maskan hisoblanadi. Bu yerda kinoteatr, kichik kafe va bolalar uchun o‘yin maydonchalari mavjud. Ayni shu jihat yosh onalarning ham kitobxon bo‘lishiga sababdir.

Maktab jarayonidagi asosiy jihat o‘quvchilar va o‘qituvchilarning hech bir bosimsiz bir-birini hurmat qilgan holdagi munosabati hisoblanadi. Finlandiyada darslar stressiz, quvonch asosida o‘tiladi. Finlandiyada ta’limning o‘zi tarbiyadan iborat. Ularda “Tarbiya” fani yo‘q, uning o‘rniga Ona tili va Adabiyot fanlarining soatlari barcha fanlarnikiga qaraganda ko‘p soatni tashkil qiladi. Tarbiya masalalari ham shu ikki fan mavzulariga singdirib yuborilgan. Finlarning barcha darsliklari va fan dasturlariga tarbiya elementlari singdirilgan. Shuningdek, Finlandiya maktablarida beriladigan uy vazifalarining ham muhim tarbiyaviy tomonlari bor: bu vazifalar o‘quvchida mas’uliyat, birlik kabi tushunchalarni his qilishga yordam beradi.

Fin millatiga xos tarbiyaning asosiy tamoyillariga:

- Shaxsiy namuna;
- Munosabatlarda adolat;
- Shaxsiy hudud daxlsizligi;
- Har bir bola - borliqning bir parchasi;
- Tabiatga g‘amxo‘rlik;
- Boshqalarga zarar bermaslik;
- Ishonch va mas’uliyat tamoyili kiradi [1.85].

Finlandiya ta’lim-tarbiya tizimini o‘rganish, uning tamoyillarini milliy mentalitetimizga moslashtirgan holda ta’lim va tarbiyaviy jarayonlarga joriy etish, albatta, ma’naviy jarayonning mo‘tadillashuviga va yoshlar ma’naviy salohiyatining yuksalishiga xizmat qiladi.

Matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha yuqori natijalarga erishgan Singapurda ta’lim va tarbiyaviy jarayon juda qat’iy tashkil etiladi, o‘quvchilardan yuqori natijalar kutiladi. Yangi O‘zbekiston o‘zining so‘nggi yillardagi taraqqiyotida ta’lim va tarbiya tizimiga ko‘p e’tibor qaratmoqda. Jumladan, maktab ta’limi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarda jahon tajribasi qo‘llanilmoqda. Xususan, dunyoda maktab ta’limi tizimida katta muvaffaqiyatlarga erishgan Finlandiya tajribasi o‘rganishga kirishildi. Chunki, Finlandiya maktab o‘quvchilari deyarli har yili xalqaro PISA testida yaxshi natijalar qayd etib kelmoqda. Lekin ushbu davlat tajribasini joriy qilishda O‘zbekistonning o‘ziga xos xususiyatlarini ham hisobga olish talab etiladi.

1968-yil fin parlamenti tomonidan qabul qilingan qonunga ko‘ra, har bir bola yoki o‘smir, o‘z yashash joyi va ota-onasining moliyaviy ahvolidan qat’iy nazar, to‘qqiz yillik sifatli ta’lim olish huquqiga ega edi [2]. Xuddi shu davrdan bir xil imkoniyatlarga ega 9 yillik umumta’lim maktablari shakllantirishga kiritildi. Shuningdek, eski xalq maktablari va pullik o‘rta ta’limdan voz kechildi. Finlandiyaning umumta’lim maktablarida asosiy dasturiy maqsad tenglikni yaratishdan iborat bo‘lgan. Ta’lim siyosatidagi asosiy bahslar shu ta’limdagi tenglik va adolatni yaratish bilan bog‘liq bo‘lgan. Finlandiyaning umumta’lim maktablarini tashkil etish bilan bog‘liq siyosati muvaffaqiyatli ravishda umumiy farovonlik, aholining ta’lim darajasini oshirish yordamida foydali ijtimoiy natijalarga olib keldi [3]. Finlandiya umumta’lim maktablarida tenglik tamoyili asosiy maqsad sifatida qo‘yilgan bo‘lsa-da, ba’zi-bir muammolarni ham aytib o‘tish kerak. Ma’lumki, fin umumta’lim maktablari boshqaruvi mahalliy munitsipalitetlar ixtiyoriga berilgan. Ushbu holat shaharlarda o‘quvchilarning maktablarga jalb qilinishi mamlakat miqyosida farq qilishiga sabab bo‘ldi. Bu esa “barcha uchun bir xil maktab”

tamoyilini so‘roq ostida qoldiradi [4]. Maktablarda ta’lim tizimi deyarli bir xil bo‘lsa-da, ularning moliyaviy ta’minlanishi munitsipalitetlarga bog‘liqligi uchun biroz farqlar mavjud. Shunday kamchiliklarga qaramasdan, Finlandiya o‘quvchilarga teng imkoniyatlar yaratgan davlat sifatida namuna bo‘la oladi. O‘zbekistonda Finlandiya tajribasini joriy qilishda masalaning ushbu tomoniga e’tibor qaratish talab etiladi [5]. Chunki, O‘zbekiston ta’lim tizimida turli maktablar faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, o‘qitish sifati va shart-sharoitlar borasida bir-biridan tubdan farq qiladi. Iqtisodiy imkoniyatlari yaxshi bo‘lgan oila farzandlari zamonaviy jihozlar va kuchli pedagoglarga ega nodavlat maktablarda ta’lim olish imkoniyatlariga ega.

O‘zbekistonda ham ta’lim tizimida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning maqsadi jahon standartlariga mos keladigan, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlashdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. https://cyberleninka.ru/article/n/finlandiyadagi-ta-lim-muassasalarida-tarbiya-tizimining-o-ziga-xos-jihatlari 84-86.

2. Ilkka Taypale. Finlandiyaning 100 ijtimoiy innovatsiyasi / Finlandiya qanday qilib Finlandiya bo‘ldi: siyosiy, ijtimoiy va maishiy innovatsiyalar. – Toshkent: Sharq, 2019. – B.128.

3. Jaaka Kauko. The Finnish Comprehensive School: Conflicts, Compromises and Institutional Robustness / Great Policy Successes. – Oxford: Oxford University Press, 2019. – P.135. International scientific and practical conference “Economics, management and digital innovation in education: modern trends and approaches” March 13, 2024 99

4. Martin Thrupp and others. Finland’s famous education system. Unvarnished insights into Finnish schooling. – Singapore: Springer, 2023. – P.193.

5. https://doi.org/10.5281/zenodo.10800038.

BOSHLANG‘ICH SINF TARBIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi

Qori Niyoziy nomidagiTarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktaranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf tarbiya darslarida o‘quvchilarning kommunikativ (muloqotga oid) qobiliyatlarini rivojlantirishga doir metodik yondashuvlar yoritilgan. Kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda dialog, interaktiv metodlar, rolli o‘yinlar va nutqiy mashqlar muhim o‘rin tutishi asoslab berilgan. Amaliy tavsiyalar asosida kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish yo‘llari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: kommunikativ qobiliyat, boshlang‘ich sinf, tarbiya darsi, metodika, nutq, muloqot.

Annotation: This article explores methodological approaches to developing communicative (interactional) abilities in primary school students during character education lessons. It substantiates the importance of dialogues, interactive methods, role-playing games, and speech exercises in forming communicative competence. Practical recommendations for developing communication skills are analyzed.

Keywords: communicative ability, primary school, character education, methodology, speech, communication.

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchining bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni egallashi bilan bir qatorda, ijtimoiy muomala qilish, fikr almashish va o‘z fikrini aniq ifodalash kabi kommunikativ qobiliyatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida bu ko‘nikmalarni shakllantirish o‘quvchining keyingi o‘quv bosqichlaridagi muvaffaqiyatiga zamin yaratadi. Shuning uchun tarbiya darslarida bolalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish metodik jihatdan chuqur yondashuvni talab etadi.

Kommunikativ qobiliyat — bu shaxsning boshqa kishilar bilan muloqotga kirishish, fikr almashish, o‘z fikrini aniq, ravon va madaniyatli tarzda bayon etish ko‘nikmalaridir. Bu qobiliyat o‘quvchilarda:

- tinglash va tushunish;
- og‘zaki ifodalash;
- savol berish va savollarga javob qaytarish;
- nutqiy holatga mos ravishda gapirish;
- guruhda ishlash va fikr almashish orqali rivojlanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari:

- obrazli va hissiy nutqqa moyil bo‘ladi;
- o‘yin shaklidagi mashg‘ulotlarga qiziqadi;
- muloqot orqali o‘rganishga ochiq bo‘ladi;
- o‘rganganlarini tezda hayotga tadbiq etadi.

Shu bois, bu yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan darslar muloqotga yo‘naltirilgan, interaktiv va qiziqarli bo‘lishi zarur.

Kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish metodikasi:

Dialogik yondashuvlar:

Dialog dars davomida o‘qituvchi va o‘quvchi hamda o‘quvchilar o‘rtasida bo‘ladigan muloqotdir. Bunda savol-javob, suhbatlar, vaziyatli mashg‘ulotlar muhim o‘rin tutadi.

Interaktiv metodlar:

Quyidagi metodlar kommunikativ qobiliyatni faollashtiradi:

- “Aqliy hujum”
- “Klaster” usuli
- “Savol zanjiri”
- “Juftlikda ishlash”
- “O‘z fikrini bildir” texnikasi

Rolli o‘yinlar:

Rolli o‘yinlar orqali bolalar turli ijtimoiy vaziyatlarga moslashadi, muloqotga kirishadi va real hayotiy muammolarni hal qilishda nutqiy faollik ko‘rsatadi.

Nutqiy mashqlar:

O‘quvchilarga hikoya tuzish, so‘z boyligini oshirish, she’r va hikoyalarni tahlil qilish orqali og‘zaki nutqni rivojlantirish mumkin. Masalan:

- "Bugun men nimani ko‘rdim?"
- “Eng yaxshi do‘stim kim?”
- “Oilam haqida gapirib beraman” kabi mashqlar.

Tarbiya darslari kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Ushbu darslarda:

- axloqiy mavzularda suhbatlar;
- jamoaviy muhokamalar;
- nutqiy bahs-munozaralar;
- ssenariyli rolli o‘yinlar qo‘llaniladi.

Masalan, “To‘g‘rilik va halollik”, “Do‘stlik va hurmat”, “Ota-onaga mehr” kabi mavzular asosida o‘quvchilar muloqotga jalb etiladi.

Kommunikativ kompetensiya tushunchasi V.V. Serikov, G.A. Kitaygorodskaya, E.I. Passov, A.A. Leontyev kabi olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Ularning izlanishlarida kommunikatsiya — bu shaxsni ijtimoiylashtirishning asosiy vositasi sifatida ta’kidlangan. Boshlang‘ich ta’limda bu kompetensiyani shakllantirish tarbiya jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf tarbiya darslarida kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish o‘quvchilarning shaxs sifatida shakllanishida, o‘z fikrini ifodalash va jamiyatda faol ishtirok etishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada metodik yondashuvlarni to‘g‘ri tanlash, darslarni jonli va interaktiv tashkil etish o‘qituvchidan yuqori pedagogik mahoratni talab qiladi. Muloqotga asoslangan tarbiya darslari orqali o‘quvchilarda ijtimoiy faollik, madaniy nutq va hamkorlikda ishlash kompetensiyalari shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Creative Schools: A Powerful Revolution Transforming Education" by Sir Ken Robinson was published in April 2015.

2. “Creative Schools: A Powerful Revolution Transforming Education" by Sir Ken Robinson was published in April 2015.

3. Framework for 21st Century Learning. The Partnership for 21st Century Learning. —2015.

4. G.H.Xodiyeva, Boshlang‘ich ta’limda 4K modelidan foydalanishning pedagogik xususiyatlari , *https://doi.org/10.5281/zenodo.10682038*.

5. G.H.Xodiyeva, “Zamonaviy boshlang‘ich ta’limda 4k modeli kompetensiyalarini rivojlantirishga integrativ yondashuvning mohiyati” Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. № S/2(4)-2024 ISSN: 2181-1342 (Online) https://scienceproblems.uz

6. G.H.Xodiyeva, “Zamonaviy boshlang‘ich ta’limda 4k modeli kompetensiyalarini rivojlantirishga integrativ yondashuvning mohiyati” Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. № S/2(4)-2024

7. Hayitov Anvar Isomiddin o‘g‘li**,** Jo‘rayev Umidjon Luqmon o‘g‘li “Modern scientific research: Topical issues, achievements and innovations” “Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining refleksiv kompetentligini rivojlantirish mazmuni”

8. Ibraimov X, Quronov M va boshq. Ota-ona – murabbiylar uchun uslubiy-metodik qo‘llanma. Toshkent.: - 2024. 123-126 b.

9. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: learning objectives. — 2017

10. UNESCO. School and teaching practices for twenty-first century challenпуы: lessons from the Asia-Pacific region, regional synthesis report. — 2016.

THE ROLE OF TEACHING ENGINEERING COMPUTER GRAPHICS THROUGH PTS (PROFESSIONAL TECHNOLOGY SYSTEM) PLATFORM

Tojiboyev Jasurbek

researcher of the 3 nd stage of the National Institute of Educational Pedagogy named after Kori Niyozi

Abstract: Until now, teaching has been considered a priority in the existing education system, but at the same time, the use of digital technologies is becoming more important in the era of information society. For this reason, it is necessary to replace the teacher-textbook-student paradigm of education with the student-textbook-teacher paradigm.

The shortcomings of the work carried out in the field of training of engineering computer graphics science programs based on the method of mutual comparison have been corrected.

Key words: "digital technology", "educational technologies", "computer modeling", "multimedia".

In the Strategy of Actions on the five priority directions of the development of the Republic of Uzbekistan , the priority task of " further improvement of the continuing education system, increasing the possibilities of quality education services, continuing the policy of training highly qualified personnel in accordance with the modern needs of the labor market " (1) is defined. In the implementation of this task, the main factor in the development of the design skills of students of higher education institutions is their spatial imagination, creative activity, and the skills of designing practical issues related to the field. These qualities are important in increasing the effectiveness of graphic education.

Wide use of computers by students serves to accelerate scientific and technical development in the society and, on this basis, to achieve socio-economic development. " Introducing modern forms and methods of teaching, computer and information and communication technologies into the educational process,

providing higher education institutions with modern educational and laboratory equipment and educational and methodological literature, supporting and stimulating scientific research and innovation activities, higher education institutions taking steps to organize and develop modern scientific laboratories ; (2) expresses the need to implement important tasks such as training competitive personnel and being able to demonstrate their professional mobility and creativity.

Computerization of all spheres of human activity has led to the change of centuries-old pedagogical technologies. New means of teaching forced to reconsider the main issues of pedagogy: who should be taught in the higher education system at the current stage of society's development, what should be the content of education, what forms and methods should be used as a basis for training higher education specialists (3).

Taking into account the above, we believe that revision of the content of the subject of engineering computer graphics is one of the urgent problems in teaching this subject. It is appropriate to take into account the achievements of today's science and technology fields when reorganizing the content of engineering computer graphics.

The analysis of studies focused on the problems of teaching principles allows to distinguish didactic principles common to all subjects. All researchers come to the same stop when it comes to the nomenclature of didactic principles. But the content of these principles is interpreted differently. Such principles include:

- the principle of education and training;
- the principle of connection between theory and practice;
- scientificity principle ;
- the principle of comprehensibility ;
- the principle of compatibility and consistency ;
- the principle of consciousness and creative activity ;
- the principle of demonstrability ;

– the principle of the consistency of educational results and the development of cognitive abilities ;

- taking into account the individual characteristics of learners and the principle of collectivity of education ;

- the principle of positive emotionality of education.

If ng education content and procedural if we divide the sides into two, then traditional didactic principles can be conditionally divided into these two groups. The conditionality of the separation of didactic principles in this way is classified by their interrelatedness and interdependence.

As an example, we cite the conditionality of separating education, education and development processes.

The content principles of education include:

- the principle of scientificity;

- principle of comprehensibility ;

- principle of consistency;

- the principle of continuity;

- the principle of integrity;

- the principle of connection between theory and practice ;

- the principle of continuity .

Principles of content selection :

Scientific principle . M.D. Dammer (4) showed the development of the content of the scientific principle. According to the results of research, the content of this principle was first shown in 1950 by M.N.Skatkin in the form of eight requirements:

1) to students delivered of information scientific reliability ;

2) being described of events essence to open

3) events _ show in correlation ;

4) events in development and this of development sharp feature show _

5) learner events correct dialectic- materialist explaining giver the most important theories with introduction ;

6) in learners the world to know and a person about the power of his mind right imaginations create ;

7) in students absolute and relative truth about right thoughts create ;

8) students scientific research methods with introduction _

We are Z.K. Meretukova and We agree with A.R. Chinazirova 's opinion. "The principle of scientificity in education should take into account the fact that there is "scientific pluralism" in the component of education. A different approach to one scientific problem increases students' thinking range and encourages them to search for the truth" (5).

G. M. Chernobelska's views can be understood from the last words of her quote: "Scientific content is achieved not only by giving students ready-made knowledge, but also by introducing them to scientific research methods" (6 18-p).

Taking into account all of the above, it can be said that in the process of scientific and technical development, the amount of scientific knowledge that students should acquire is increasing, while the time allocated for studying the material remains the same. In our republic, the content of engineering graphics and the method of its teaching have not changed in the last 25 years. Since 2022, only Autodesk's AutoCAD software is used in engineering graphics and related fields of the Republic of Uzbekistan . However, students of the above-mentioned foreign higher education institutions are able to master several design programs. These programs apply to structural, functional and technological systems. We believe that it is appropriate to use only programs related to the construction system, emphasizing that higher education institutions of pedagogy should take into account the training of pedagogic personnel.

In our opinion, the best way to make the most of the time allocated to engineering computer graphics, and at the same time to train competitively, is to teach several programs related to the design system in comparison with each other.

This can be caused by the principles of operation of the programs in the construction system, their tasks, and the uniformity of the results achieved with their help. This, in turn, requires improvement of the requirements for knowledge, skills and qualifications of students within the field of engineering computer graphics.

We are an engineering computer graphics **student** :

- history of computer graphics;
- departments of computer graphics;
- Systems (PTS) that make up the department of construction graphics ;
- graphic programs working in the PTS system and their principles of operation;
- electronic image formats;
- panels of equipment used for drawing;
- he should know the algorithms for drawing the object based on its spatial position ;

In our opinion, the best way to make the most of the time allocated to engineering computer graphics, and at the same time to train competitively, is to teach several programs related to the design system in comparison with each other.

This can be caused by the principles of operation of the programs in the construction system, their tasks, and the uniformity of the results achieved with their help. This, in turn, requires improvement of the requirements for knowledge, skills and qualifications of students within the field of engineering computer graphics.

Conclusion: Based on the information presented above, the organization of independent education based on research-oriented (non-linear) technology, rather than linear, creates the basis for a student's creative approach to the task.

FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekistonga oliy ta'lim tizimini 2030 yilga yangi Kontsepsiyani qurish. PF-5847. 2019 yil 8 oktyabr. qonun hujjatlari, ma’lumotlari milliy bazasi 09.10.2019 y., 06/19/584/3887-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-yil «Oliy ma’lumotlari iyuldagi mahsulotlar ishlab chiqarish sifatini ishlab chiqarishda xavfsizlik choralari va tarmoqlarning ishtirokini yanada kengaytiruvchi chora-tadbirlari”gi PQ-3151-son ishtiroki. O‘zbekiston hukumati, 2017-yil, 30-son, 72-modda.

3. Joxova E.Yu. Kompyuternaya texnologiya resheniya geometricheskix задach kak sredstvo formirovaniya ponyatinogo apparata. Diss. ...qand. ped. nauk. Yaroslavskiy GPU, 1996. –161s.

4. Dammer M.D. Rol printsipa nauchnosti v formarovanii soderjaniya obucheniya // Vestnik YUrGU. Seriya: Obrazovanie. Pedagogicheskie nauki, 2012 yil, № 4(263). – S.30-33.

5. Meretukova Z.K., Chinazirova A.R. O didakticheskom printsipe nauchnosti i nauchnom mirovozzrenii v kontekste postneklassicheskoy nauchnoy kartiny mira // Vestnik Adygeyskogo gos. universiteta. Seriya 3: Pedagogika va psixologiya, 2007. – №3. – S. 30-36.

6. Chernobelskaya G.M. Metodika obucheniya ximii v sredney shkole (Ucheb. dlya stud. vyssh. ucheb. zavedeniy). – M.: VLADOS, 2000 yil.

KASBIY TA’LIM JARAYONIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING ELEKTRON RAQAMLI TEXNOLOGIYA TA’LIM MUHITIDA PROFESSIONAL EDUCATION SYSTEM (PTS) PLATFORMASI BO‘YICHA BILIM, KO‘NIKMA VA MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH

Tojiboyev Jasurbek Zokirjon o‘g‘li

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti

3 bosqich tadqiqotchisi

Annotatsiya: Shu paytga qadar mavjud ta'lim tizimida o‘qitish ustuvor sanalgan bo‘lsa, ayni paytda jamiyatning axborotlashuvi davrida raqamli texnologiyalardan foydalanish kata ahamyat kasb etmoqda ustuvorlik – o‘qishga

o‘rgatishga yo‘naltirilgan. Shu sababdan ta'limning o‘qituvchi-darslik-talaba paradigmasi talaba-darslik-o‘qituvchi paradigmasi bilan o‘rin almashishi zarurdir.

OTMlarda muhandislik kompyuter grafikasi fanini dasturlarini o‘zaro qiyoslash metodi asosida o‘qitish yuzasidan olib borilgan ishlarning kamchiliklari tuzatildi.

Kalit so‘zlar: “raqamli texnologiya”, “axborot kommunikatsiya”, “axborot texnologiya”

Ta’limning barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik muammo – bu ta’lim oluvchilarning qiziqishini, faolligini oshirish, kuchaytirishdir. Shuning uchun o‘rta maxsus ta’lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlashda har bir bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisini darsda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llay olish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Demak, barcha bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilari eng so‘nggi zamonaviy raqamli texnologiyalaridan unumli foydalanish malakasiga ega bo‘lishlari shart.

Odatda, o‘rgatuvchi dasturiy vositalar yaratish bilan kompyuter dasturchilari shug‘ullanishadi. Ammo bu dasturchilar o‘zlari yaratayotgan mahsulot sifati bo‘yicha yetarli bilimga ega bo‘lsalarda, lekin ko‘p hollarda o‘qitish metodikasini yaxshi bilmasligi mumkin. Bu esa o‘rgatuvchi dasturiy vositaning metodik talablarga to‘liq javob berishini ta’minlamaydi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida dars beruvchi malakali kasbiy ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlash samaradorligini oshirish maqsadida kasbiy ta’lim bakalavriat yo‘nalishlarida raqamli texnologiyalariga oid maxsus kurslarning o‘quv rejasiga kiritilishi maqsadga muvofiqdir. Bu kurslarda axborot texnologiyalari asosida har bir fanni o‘qitishni joriy etish bo‘yicha bilimlar berilishini ta’minlash mumkin. Bundan tashqari kasbiy ta’lim yo‘nalishlari yuqori kurslarida o‘qitiladigan o‘qitish metodikasiga oid fanlarning o‘quv dasturlarini qayta qarash lozim va ularga shu fanlarni o‘qitishda zamonaviy raqamli texnologiyalarini joriy etish mavzularini kiritish kerak.

Kasbiy ta’lim bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha oliy ta’lim muassasalarining yuqori kurslarida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish maqsadida «Kasb ta’lim metodikasi» fani o‘qitiladi. Bu fan, o‘qitishga an’anaviy yondashishni yoritish bilan bir qatorda eng ilg‘or metodlarni qo‘llash malakasini shakllantiradi. Biroq bu fan metodik va didaktik materiallarni yaratish muammolarini yetarlicha yoritib berish imkoniyatiga ega emas.

Shu munosabat bilan tayyor dasturiy o‘quv-metodik ishlanmalardan foydalana oladigan yoki o‘zlarining ishlanmalarini yarata oladigan kasbiy ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlash muammosi paydo bo‘ladi. Kasbiy ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning elektron axborot ta’lim muhtida pedagogik loyihalashtiri bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish maqsadida (PTS) platformasini kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi, bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasb-hunar ta’limi muassasalari uchun ishlab chiqilgan o‘quv rejalarining tegishli kursi bo‘yicha davlat ta’limi stnadartiga qo‘yilgan talablar darajasida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularni o‘quv tarbiya jarayonida qo‘llash, dars jarayonini Professinal technology bilan izchil qurollantirishdan iborat.
Fanni o‘zlashtirishga qo‘yiladigan talablar:
«Ta’lim texnologiyalari» o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

-ta’lim oluvchiga yakka yondoshish;
- ta’lim va tarbiya jarayonini boshqarish;
- ta’lim tizimida pedagogikaning o‘rni va roli;
- pedagogika va ta’lim nazariyasida ilmiy-tadqiqot metodlari;
- o‘quvchi shaxsini tarbiyasi va rivojlanishi;
- ta’lim-tarbiyaning qonunlari va tamoyillari;
- ta’limning tashkil etish shakllari va metodlari;
- O‘zbekiston Respublikasida kasbiy ta’limni rivojlanish tarixi;
- “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”;
- Uzluksiz ta’limning maqsadi, mazmuni, tuzilishi;

- O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limini tashkil etish va boshqarish to‘g‘risidagi asosiy normativ xujjatlar;

- O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi mazmuni;

- pedagogik mahorat va pedagogik bilimdonlik tushunchasi;

- pedagogik faoliyatning o‘ziga xosligi, kasbiy bilimlar, pedagogik qobiliyatlar;

- pedagogik texnika va uni shakllantirish usullari;

- muloqat madaniyati va o‘qituvchi faoliyatining psixologiyasi;

- o‘quv-tarbiyaviy ish jarayonida o‘qituvchilarning pedagogik muloqat mahoratini tahlil qila olish va uni amalga oshirish yo‘llarini bilishi;

- ta’lim texnologiya;

- zamonaviy pedagogik texnologiyaning afzalliklari, ularning qo‘llanish va tavsifi;

- o‘quv jarayonining asosiy komponentlari va bosqichlari haqida;

- o‘quv jarayonini takomillashtirish;

- elektron axborot ta’lim muhitida (PTS) raqamli texnologiyalar to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi;

- ta’limning uzluksizligi va uzviyligini;

- O‘rta maxsus kasb-hunar ta’lim muassasalarida kasbiy ta’limning maqsadi va vazifalarini;

- kasbiy-pedagogik muloqat texnologiyasini;

- o‘qituvchi shaxsini shakllanish jarayonini;

- pedagogik faoliyatning o‘ziga xosligini;

- yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish usullarini;

- pedagogik loyihalarni amalga oshirishda shakl va metodlarni optimallashtirishni;

- o‘quv jarayonini tuzishda pedagogik texnologiyaning elementlarini;

- o‘qitishning faol metodlarini;

- o‘zlashtirish nazorati va tuzatishning ma’nosi va ularga qo‘yilgan talablarni;

- elektron axborot ta’lim muhitida (PTS) va ularni o‘quv jarayoniga tadbiq etishni bilishi, malaka hosil qilishi va ulardan foydalana olishi;

- ta’lim tarbiya jarayonini boshqarish;

- o‘quvchilarda pedagogik tashxis o‘tkazish;

- ta’lim tarbiyaning keng tarqalgan metodlari;

- tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish, ta’lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash;

- o‘quvchilarni faoliyatini faollashtirish;

- pedagogik texnika va uni shakllantirish usullarini qo‘llay olish;

- pedagogik tajribani tahlil qila olish va uni amalga oshirish;

- pedagogik vaziyatlarni va pedagogik masalalarni hal qilish texnologiyasini qo‘llash;

- tarbiya faoliyati texnologiyasini amalda qo‘llay olish ;

- o‘quv jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo‘llash;

- o‘qitishning faol metodlaridan foydalana olish;

- zamonaviy o‘qitish vositalari va faol o‘qitish metodlarini qo‘llash bilan umumkasbiy fanlarni pedagogik texnologiyasini loyihalash bo‘yicha ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

Kasbiy ta’lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirishning muhim natijasi nafaqat xususiy pedagogik loyiha hisoblanadi, balki pedagogik loyihalashtirish jarayonida o‘qituvchida yangiliklar va innovatsiyalarni qabul qilish, ularga nisbatan o‘z nuqtayi nazarini bildirish, o‘z loyihasini tanqidiy baholash va pedagogik loyihalashni o‘z kasbiy faoliyatining zaruriy komponentiga aylantirish qobiliyati shakllanadi va rivojlanadi.

Xulosa: Elektron axborot ta’lim muhitida kasbiy ta’lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirishning obyektiv murakkabligi loyihalash jarayonida o‘qituvchining metodik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus ishlab chiqiladigan dasturda hisobga olinishi lozim. Amaliyot ko‘rsatdiki, elektron axborot ta’lim muhitida kasbiy ta’lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish qator omillarga

bog‘liqva bu o‘rinda (PTS) platformasi katta yordam beradi. Pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari integratsiyasi, elektron ta’lim resurslari, texnologik yondashuvlar va boshqalar shular jumlasidandir.

FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekistonga oliy ta'lim tizimini2030 yilga yangi Kontsepsiyani qurish. PF-5847. 2019 yil 8 oktyabr. qonun hujjatlari, ma’lumotlari milliy bazasi 09.10.2019 y., 06/19/584/3887-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-yil «Oliy ma’lumotlari iyuldagi mahsulotlar ishlab chiqarish sifatini ishlab chiqarishda xavfsizlik choralari va tarmoqlarning ishtirokini yanada kengaytiruvchi chora-tadbirlari”gi PQ-3151-son ishtiroki. O‘zbekiston hukumati, 2017-yil, 30-son, 72-modda.

3. Joxova E.Yu. Kompyuternaya texnologiya resheniya geometricheskix задach kak sredstvo formirovaniya ponyatinogo apparata. Diss. ...qand. ped. nauk. Yaroslavskiy GPU, 1996. –161s.

4. Dammer M.D. Rol printsipa nauchnosti v formarovanii soderjaniya obucheniya // Vestnik YUrGU. Seriya: Obrazovanie. Pedagogicheskie nauki, 2012 yil, № 4(263). – S.30-33.

5. Meretukova Z.K., Chinazirova A.R. O didakticheskom printsipe nauchnosti i nauchnom mirovozzrenii v kontekste postneklassicheskoy nauchnoy kartiny mira // Vestnik Adygeyskogo gos. universiteta. Seriya 3: Pedagogika va psixologiya, 2007. – №3. – S. 30-36.

6. Chernobelskaya G.M. Metodika obucheniya ximii v sredney shkole (Ucheb. dlya stud. vyssh. ucheb. zavedeniy). – M.: VLADOS, 2000 yil.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Umirova Marxabo Abdimannobovna

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi

milliy instituti 1-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatimizda yoshlarni g‘oyaviy-mafkuraviy jihatdan kamol toptirishda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan kitobxonlik madaniyatining bugungi kundagi holati, bu boradagi ayrim muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan fikr mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: kitobxonlik, boshlang‘ich ta’lim, madaniyat, o‘qish ko‘nikmalari, o‘qituvchi, ota-ona, metodika.

Abstract: This article describes the current state of reading culture, which is of incomparable importance in the ideological and ideological development of young people in our society, some problems in this regard, and opinions on how to overcome them.

Keywords: reading, primary education, culture, reading skills, teacher, parents, methodology.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bir davrda yosh avlodning tafakkurini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlashga, izlanishga va ijodkorlikka yo‘naltirish ta’lim tizimining dolzarb vazifalaridan biridir. Bunda kitob va mutolaaning o‘rni beqiyosdir. Ayniqsa, ta’limning boshlang‘ich bosqichida o‘quvchilarda kitobga bo‘lgan muhabbatni uyg‘otish, ularni ongli va faol kitobxon etib tarbiyalash, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich sinf — bu bola shaxsining asosiy tarkibiy jihatlari, xususan, bilimga bo‘lgan ehtiyoji, mustaqil o‘qish va tushunish ko‘nikmalari, madaniy va axloqiy qadriyatlari shakllanadigan poydevor bosqichidir. Bu yoshda kitob bilan do‘stlashgan bola keyingi ta’lim bosqichlarida ham o‘qishga bo‘lgan ijobiy munosabatni saqlab qoladi. Shu sababli, boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos ravishda kitobxonlikni targ‘ib qilish, ular uchun qiziqarli va tushunarli adabiy manbalarni tanlash, turli metodik yondashuvlar orqali mutolaaga rag‘bat uyg‘otish o‘qituvchidan puxta bilim va yondashuvni talab qiladi.Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari, samarali usullari, oilaviy va

maktab muhitining o‘rni, shuningdek, o‘qituvchining bu boradagi faoliyati tahlil qilinadi va amaliy tavsiyalar beriladi.

XXI asr fan-texnika taraqqiyoti jadal rivojlanayotgan, axborot-kommunikatsion vositalar xizmatidan foydalanish sur’ati keskin ortayotgan, fuqarolarning talab, ehtiyoj va maqsadlarini qondiruvchi moddiy manbalar yetarlicha ishlab chiqarilayotgan davr – innovatsion texnologiyalar asri bo‘lib tarixga kirmoqda. Insoniyatning farovon, to‘kinsochin hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan moddiy-texnik jihozlar kundan kunga, yildan yilga takomillashib, sayqallanib, qulayliklari ortib bormoqda. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi, “insonlarning millati, tili va dinidan qat’i nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugun hayotidan rozi bo‘lib yashashi” yurt kelajagi kafolatlanganiga ishonch hosil qilishi Davlatimizda olib borilayotgan oqilona va odilona siyosatning bosh maqsadidir. Zero, O‘zbekiston, yurtboshimiz e’tirof etganidek, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari jadal harakat qilmoqda.

Tarixiy hodisalar shundan guvohlik beradiki, moddiy ehtiyojlar har bir davrda o‘ziga xos tazda namoyon bo‘laveradi, lekin ma’naviy immunitetning mustahkam bo‘lishi hamma davrlar uchun birdek qadriyat sanaladi. Aytish joizki, bugungi kunda mamlakatimizda 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan oliy maqsad – mamlakatimiz taraqqiyotini yanada yuksak bosqichga ko‘tarish yo‘lida barcha soha va tarmoqlarda ulkan o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Xalqimiz turmush tajribasidan ma’lumki, ajdodlarimiz farzand tarbiyasida kitob mutolaasiga alohida e’tibor qaratishgan. Buyuk Navoiy-u Bobur, Amir Temur-u Ulug‘bek kabi alloma-yu ijodkorlarimiz, tojdor-u daholarimiz ma’naviyati bolalikdan kitobga mehr qo‘yish bilan shakllangan. Ajdodlarimiz xalq ertaklari-yu dostonlarini tinglab tasavvur va tafakkur dunyosini, ruhiyat olamini boyitishgan. Adabiyot durdonalari – xoh xalq og‘zaki ijodi namunalari, xoh yozma asarlar bo‘lsin – xalqimiz qalbida yurtiga, ona tiliga, oilasiga, vatandoshlariga mehr-muhabbat va sadoqat, milliy g‘urur, or-nomus, adolat-u insof, andisha-yu hurmat,

olijanoblig-u saxovatpeshalik sifatlari shakllanishida asosiy vosita bo‘lib xizmat qilgan. Bunday ma’naviyat durdonalari mutolaa qilingan, tinglangan, eng muhimi, oila davrasida yoki jamoat ichida muhokama qilingan, bahs-u tortishuvlar asosida asarlar mazmun-mohiyati anglangan, anglatilgan. Ahamiyatlisi shundaki, yosh-u qari birday qiziqish bilan ishtirok etadigan bunday davralarda mushohada qilish va mulohaza yuritish, mantiqiy fikrlash qobiliyati, keng dunyoqarash va tafakkur shakllangan, e’tiqod va iroda mustahkamlangan, notiqlik mahorati o‘sgan, kishilar ongi ham ma’nan, ham ruhan, ham ilman boyib borgan.

Xulosa qilib aytganda, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish – bu uzoq muddatli, puxta rejalashtirilgan va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan tarbiyaviy jarayon bo‘lib, u bolaning fikrlash doirasini kengaytirish, estetik didini shakllantirish va ijtimoiy ongini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinfda bu madaniyatni rivojlantirish orqali o‘quvchilarni mustaqil o‘qishga, tahlil qilishga, ifodali fikr bildirishga o‘rgatish mumkin. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, o‘qituvchining individual yondashuvi, darsda zamonaviy metodlardan foydalanish, oilaviy muhit va maktabning tashkiliy ishlari kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda hal qiluvchi omillar hisoblanadi. Shuningdek, o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos adabiy materiallar tanlash, turli interfaol usullar orqali ularni kitob o‘qishga jalb qilish bu boradagi ijobiy natijalarni kafolatlaydi. Shu sababli, boshlang‘ich sinfda kitobxonlikni rivojlantirish faqatgina o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi aloqadorlik emas, balki oilaviy, ijtimoiy va madaniy omillarni o‘z ichiga olgan ko‘p qirrali pedagogik faoliyat sifatida qaralishi lozim. Mazkur yo‘nalishdagi ishlar izchil davom ettirilsa, bilimli, tafakkurli va kitobni do‘st tutgan yangi avlodni tarbiyalash mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. //

Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 92 b.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – “Zarafshon”, 2018-yil 29-dekabr, 155-156-son.

4. O‘zbekistonga jadal islohotlar sur’atiga mos ilg‘or kadrlar kerak. – “Xalq so‘zi”, 2018-yil 19-dekabr, 262-son.

5. Ahmedova Z. Bola tarbiyasida psixolog maslahatlari. – Toshkent, 2018.

6. www. ziyonet.uz.

7. www. edu.uz.

8. www. kitob.uz.

ҚИЗЛАР ТАРБИЯСИДА ОИЛАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

Жабборов Саидвоҳид

Қори Ниёзий номидаги ТПМИ “Маҳалла-оила-мактаб ҳамкорлиги” илмий тадқиқот бўлими катта илмий ходими

Аннотация: Ўзбек халқининг бой тарихий-маданий меросида, анъана ва урф-одатларида қиз болани тарбиялашга доимо алоҳида эътибор қаратилган. «Қизни эркалатма, халқни ерга қаратма» деган мақолда айтилганидек, қиз болага берилган тарбия бутун жамият маданиятининг, ахлоқий даражасининг ўлчови бўлиб хизмат қилади. Шу боис қиз боланинг ахлоқий, маънавий, жисмоний ва руҳий камолоти — нафақат оиланинг, балки мактаб, жамият ва давлат сиёсатининг ҳам устувор йўналишларидан бири бўлиши керак.

Аннотация: В богатом историко-культурном наследии узбекского народа, его традициях и обычаях всегда уделялось особое внимание воспитанию девочек. Как говорится в пословице: «Не балуй девочку — не позорь народ», — воспитание девочки является показателем культурного и нравственного уровня всего общества. Поэтому нравственное, духовное,

физическое и психологическое развитие девочки должно быть приоритетным направлением не только семьи, но и школы, общества и государственной политики.

Abstract: In the rich historical and cultural heritage of the Uzbek people, as well as in their traditions and customs, special attention has always been given to the upbringing of girls. As the proverb says, “Do not spoil a girl — do not disgrace the nation,” the upbringing of a girl serves as a measure of the cultural and moral level of the entire society. Therefore, the moral, spiritual, physical, and psychological development of a girl should be a priority not only for the family but also for schools, society, and state policy.

Kalit so‘zlar: tarbiya, qizlar tarbiyasi, oila, ma’rifatli ayol, iffat, mehr, sabr, fidoyilik.

Ключевые слова: воспитание, воспитание девочек, семья, образованная женщина, целомудрие, любовь, терпение, преданность.

Keywords: upbringing, girls' upbringing, family, educated woman, chastity, affection, patience, dedication.

КИРИШ

Инсоният тарихининг ҳар қандай даврида аёл, айниқса, қиз бола тарбияси алоҳида эътибор ва масъулият талаб қилган. Чунки ҳар бир жамиятнинг маънавий, маданий ва ахлоқий қиёфаси, аввало, оналар тимсолида шаклланади. Оналик эса — меҳр, сабр, ҳалоллик, фидойилик ва тарбиянинг энг юксак намунаси бўлиб, бу фазилатлар қиз болалик давриданоқ шакллана бошлайди.

Ҳар бир халқнинг келажаги унинг бугунги ёш авлодига қандай тарбия берилишига чамбарчас боғлиқ. Айниқса, қиз бола тарбияси ҳар доим ва ҳар қандай жамиятда муҳим ва мураккаб масалалардан бири бўлиб келган. Чунки қиз бола нафақат бир оиланинг, балки келажак авлоднинг — бутун жамиятнинг онаси, тарбиячиси ва маънавий таянчидир.

Ўзбек халқининг бой тарихий-маданий меросида, анъана ва урф-одатларида қиз болани тарбиялашга доимо алоҳида эътибор қаратилган. «Қизни эркалатма, халқни ерга қаратма» деган мақолда айтилганидек, қиз болага берилган тарбия бутун жамият маданиятининг, ахлоқий даражасининг ўлчови бўлиб хизмат қилади. Шу боис қиз боланинг ахлоқий, маънавий, жисмоний ва руҳий камолоти — нафақат оиланинг, балки мактаб, жамият ва давлат сиёсатининг ҳам устувор йўналишларидан бири бўлиши керак.

Бугунги глобаллашув асрида, интернет ва технологиялар ҳаётимизнинг ажралмас қисмига айланган бир пайтда, қиз болаларнинг руҳий дунёсини асраш, уларни миллий қадриятларимиз, маънавий меросимиз асосида тарбиялаш ниҳоятда долзарб масаладир. Оммавий маданиятнинг таъсири, ижтимоий тармоқлардаги нотўғри ахборотлар, баъзида ота-оналарнинг бефарқлиги ёки етарли билимга эга эмаслиги — буларнинг барчаси ёш қизлар тарбиясига салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Бу эса келажакда жамиятда бир қатор муаммолар, оилавий муросасизликлар, ахлоқий инқирозлар юзага келишига сабаб бўлади.

Ушбу китоб айнан мана шу юксак ва муқаддас масалага — қиз бола тарбиясига бағишланади. Унда ота-оналар, устозлар, тарбиячилар ҳамда ёш ўқувчилар учун фойдали бўладиган тавсиялар, ҳаётий мисоллар, психологик ёндашувлар ва диний-маънавий қадриятлар асосида ёзилган фикр-мулоҳазалар жамланган.

Китобнинг асосий мақсади — қиз болаларни соғлом, билимли, ватанпарвар, одобли, маънавий бой шахслар этиб тарбиялашда ота-оналар, устозлар ва тарбиячиларга йўл-йўриқ кўрсатиш, уларни бу масъулиятли йўлда илҳомлантиришдир. Чунки ҳар бир соғлом жамиятнинг асоси — соғлом оиладир, соғлом оила эса — доно, меҳрибон, ақлли ва одобли оналарнинг қўлида шаклланади.

Китобнинг ҳар бир саҳифаси меҳр, сабр, тушуниш ва эзгулик руҳи билан тўйинган бўлиб, у келажак авлод — оналаримизни баркамол, билимли ва

меҳрибон этиб тарбиялаш йўлида кичик бўлсада, ўз ҳиссасини қўшиш ниятида ёзилган.

ТАРБИЯ – Болани бахтли бўлишга ўргатиш.

Бугунги кескин ривожланиб бораётган замонда ота-она сифатида фарзандларимизни тарбиялашга тайёрмизми?

Ёш авлодимиз тарбияси мураккаб замон талабларига жавоб берябдими?

Ушбу саволлар сиз учун оддий бўлиб кўринаётган бўлиши мумкин, лекин аслини олганда бугунги куннинг оғриқли ва ўйлантирадиган, ташвишга соладиган саволларидир.

Агар биз бу ёруғ оламда оиламизни мустаҳкам ва фарзандларимизнинг келажаги порлоқ бўлиши учун ушбу саволларга жавоб излашни ва ҳаракатларни бугундан бошламасак, эртага кеч қолишимиз мумкин.

Ота-онанинг энг муқаддас орзуси – фарзаднинг бахту камолини кўриш. Бугунги кунда мамлакатимизда бу масала нафақат ота-оналар, балки давлатимиз, жамиятимизнинг устувор мақсадига айланди.

Юқоридаги саволарга жавоб топишимиз учун, тарбиянинг ўзи нима эканлигини кўриб ўтайлик.

Тарбия — муайян, аниқ мақсад ҳамда ижтимоий-тарихий тажриба асосида ёш авлодни ҳар томонлама ўстириш, унинг онги, хулқ-атвори ва дунёқарашини таркиб топтириш жараёни.

Президент Шавкат Мирзиёевнинг “Бугунги кунда юртимизда тобора кенг тарқалиб бораётган «Ўз болангни ўзинг асра!» деган даъватлари фақат қуруқ шиор бўлиб қолмасдан, ҳар бир ота-она, ҳар бир фуқаронинг қалбига, юрагига чуқур кириб бориши, амалий ҳаракатга айланиши зарур.

Фарзандга олтин, кумуш, кўчмас мулк, иморат, хусусий корхона, қимматбаҳо автомобиль, акцияларни бериш мумкин. Лекин бахтни бериб, нотариусда унинг номига расмийлаштириб, мерос қолдириб бўлмайди. Буни билган маърифатли, ақлли ота-оналар болаларини тўғри яшаб, бахтли бўлишга ўргатишади. Эринмасдан, мақсадли, режали, худди спортчини олимпиадага

тайёрлагандек. Натижада уларнинг болалари қуйи лигадан ўртага, ўрта лигадан юқори лигага, юқоридан олий лигага кўтарилиб бораверади. Тарбияланмаётган, яъни тайёрланмаётган болалар худди спорт билан шуғулланмайдиган болаларга ўхшайди. Улар ҳаёт лигаларининг пиллапояларига чиқа олмасдан, қуйида қолиб кетади.

Қиз бола тарбияси ўта нозик тарбиядир. Халқимизда «Онасини кўр, қизини ол», деган гап бор. Бу гапнинг замирида катта маъно мужассам. Оилада қиз бола онасининг юриш-туриш муносабати, ҳунармандлигидан дарс олади, шу хислатни ҳаётга тадбиқ этишга ҳаракат қилади.

Ёшликдан қизларни озодаликка, ширинсуханликка, ўзидан катталарни доимо ҳурмат қилиб боришга ундаш ва ўргатиш лозим. Қиз бола номига бир доғ тушса, бу доғ ҳеч қачон кетмайди.

Кейинги пайтларда қизлар тарбиясида нуқсонлар учраб турибдики, буларни бартараф этиш ота-оналар зиммасига улкан масъулият юкламоқда. Турмушга чиқаётган аксарият қизлар турмушнинг оғир-енгилига бардош беролмай, гулдек оиласини ташлаб кетмоқда.

Ривоят қилишларича: Бир қози бўлган экан, унинг Ҳасан ва Ҳусан исмли ўғиллари бўлиб, отаси ишдан келиш пайти югуриб чиқиб отасини кутиб олар экан. Бир куни болалар қудуққа тушиб оламдан ўтишибди. Ота ишдан келса болалар кўринмайди, аёлидан сўрабди. Аёл эса: «Аллоҳим менга сабр бергин, ишдан чарчаб келган эримга бу хунук хабарни кейинроқ айтаман», дея илтижо қилган экан. Шу сабабли хўжайиннинг жавобига: «Ҳозир дадаси, ҳозир келишади», дея очиқ юз билан жавоб берибди. Аллоҳнинг қудрати билан Ҳасан-Ҳусанлар тирилиб, оталарига салом бериш учун уйга кириб келишибди.

Ривоят деймиз, аммо бу ривоятлар замирида улкан маъно, мазмун мужассам. Қизлар турмуш қийинчилигига, айниқса, қайнона-келин муносабатларига бардош қилмай турли тўсиқларга дуч келадилар.

Халқимизда «Қуш уясида кўрганини қилади», деган нақл бор. Онасининг муносабати, уй тутишлари қандай бўлса, келгусида бу ҳислатлар қизларга ўтади, унинг салбий ёки ижобий ҳислатларига эга бўлади.

Пайғамбар алайҳиссалом: «Жаннат оналар оёғи остидадир» деб марҳамат қилдилар. Келгусида қизлар бўлажак она, ардоқли уй бекаси бўладилар. Биз қизларимизга ҳаётнинг паст-баландини, турмуш қийинчилигини енгиб ўтишларини уқтириб ўтишимиз шарт. Ҳар бир она турмушга чиқаётган қизига у келин бўлиб бораётган хонадон азиз ва қадрли эканлиги, қиз бола келин бўлиб тушган хонадонига тошдек бўлишини уқтириши лозимдир.

Оналар ўртасида қизлар тарбиясига оид гап кетса, кўпинча «Оқ қанддек авайлаб, гард юқтирмай ўстирдим», дейишади. Оқ қанд... Дарҳақиқат, жуда нозик ўхшатиш. Нозиклиги шундаки, оқ қандга бирор гард юқса, уни тозалаш қийин. Гард теккан жойини кесиб ёки қирқиб олиб ташлаш керак. Кўпинча эса гард теккан қанд бўлаги мол охурига ёки парранда донлари орасига ташлаб юборилади.

Қиз боланинг номига илашган ёмон доғ – иснодниг кетиши шунчалик қийиндир. Баъзида кўрмайин босилган тикан жабрини бир умр тортиб юришга тўғри келади. Баъзан у кишини умрбод гумон, шубҳа, демакки, бахти бекамлик эмас, бахти кемтиклик қийноғига солиб қўяди. Ҳаммасига кўпинча ўйламай иш қилиш, ирода жиловининг бир-икки дақиқага бўш қўйилиши сабаб бўлади.

Қиз боланинг шаъни... Бу ҳақда жуда кўп ва ҳар сўзига алоҳида урғу, алоҳида салмоқ бериб гапирилади. Инсоний фазилатлар, маънавий қадриятлар ҳақида сўз кетса, айни шулар қиз болада энг олий даражада бўлиши талаб қилинади. Ахир у қиз болада.

Қизлар тарбияси – миллатнинг кўрки, миллатнинг келажаги.

Қиз бола шунчаки қиз бола бўлиб қолиши мумкин эмас. У жуда назокатли, иффатли, иболи, сабр-бардошли, оқила, меҳрибон бўлиши керак.

Ҳаттоки, қиз болага берилган нисбат, ўлчов, мезонлар ҳам ўртамиёна, ярим, ним-таъриф, чала нисбат бўла олмайди. Улар устуннинг ё энг тепаси, ё энг пасти бўлади. Айб ёки гуноҳ иш қилиб қўйган бошқа ҳамма киши кечирилиши мумкин. Фақат қиз бола кечирилмайди. Қиз болага келганда ҳукм ҳам ғоят мухтасар: «Ўғил бола шу ишни қилганда — бошқа гап эди. Аммо у — қиз бола-я».

Биз ота-оналар билишимиз жуда муҳим бўлган нарса шуки, қиз боланинг исми, жисми, маънавияти, борлиғи, хатти-ҳаракатига ҳамиша ўлчов бошқача бўлиб келган.

Бир олим кишидан: «Дунёда ўлимдан ёмони нима?» деб сўраганларида, олим киши: «Қизингнинг ноқобил бўлишидир», дея жавоб берган экан.

Бу даҳшатни бошидан кечирганларнинг дилидан, тилидан бундан даҳшатлироқ нидо чиқади: «Қиз асрагандан кўра, туз асрасам бўлмасмиди?».

Дол бўлган қадлар, эгилган бошларга келадиган хулоса ундан ҳам даҳшатли: «Қиз келтирган номус — ўлимдан кучли».

Асрлар, замонлар бу азалий гапларнинг маъносини ўчира олмаганидек, тиғини ҳам ўтмаслаштира олмайди. Ўзбек хонадони борки, агар унда қиз ўсаётган бўлса, шу хонадон соҳибларининг кўнглида ғурур, сурур, шукур ва қиз шаъни билан боғлиқ ор-номус ҳам юқори бўлади.

Шунинг учун ҳам халқимиз қиз боланинг маънавий етук, комил инсон бўлиб ўсиши учун алоҳида аҳамият беради. Уни «оқ қанддек ўраб, авайлаб, гард теккизмасликка» ҳаракат қилади.

Қизлар тарбияси ҳар бир онанинг, ҳар бир илмли ва маърифатли аёлни олий мақсадларидан бири ҳамда бурчи ва вазифасидир. Ўтмишга назар ташласак, оналаримиз қизларни тарбиялашдек гўзал ва улуғ вазифаларни бажарган ва улар мана шундай вазифалари билан жаннат аёлларининг энг афзали дейилганини биламиз.

Хадича, Фотима, Осиё ва Марям (розиёллоҳу анҳо) оналаримиз ҳамда Увайсий, Нодирабегим, Бибихонимдай оналаримизнинг аёл-қизларимизни

тарбиялашдаги буюк ишлари, сабр-қаноатлари биз учун катта ўрнакдир. Пайғамбаримиз алайҳиссалом «Кимнинг уч қизи бўлса, уларни жойласа, кифоясини қилса, ўша одамга жаннат вожиб бўлади», дедилар. Шунда қавмнинг ичидан бир одам чиқиб, Ё Росулуллоҳ икки нафар бўлсачи деди? Икки нафар бўлса ҳам деди.

Оналаримизнинг ҳаётий тажрибаларидан ўрнак олган ҳолда қизларимизга албатта биринчи ўринда меҳр беришимиз, уларни касб-ҳунарли қилишимиз керак, рўзғор тутишда тозаликка, саронжом-саришталикка ўргатайлик, турмуш ўртоғини олдидаги вазифаларини билдирайлик. Каттага ҳурмат, кичикка иззатли бўлишга чақирайлик.

Хулоса. Фарзанд дунёга келар экан, болалигидан гўзал тарбия қилиб, катта қилиш оналарнинг бурчидир. Аёл зоти гўзал бир ҳилқатки биргина гул аёлни рози қилса, биргина сўз уни ҳалок қилади. Ўйлаб қарасак, қиз бола гўдаклигиданоқ отасига жаннатдан бир эшик очади. Катта бўлганда эса эрининг иймонини тўлдиради, она бўлганда эса жаннат унинг оёқлари остида бўлади.

Пайғамбаримиз алайҳиссаломнинг тўртта қизлари бўлиб, уларни тарбия қилиб бизларга ўрнак бўлган зотдир. Масалан:Фотима(р.а) онамиздек ғайратли, шижоатли, ҳаёли, одоби ва сабр-қаноатлари биз учун ўрнакдир. Ҳадисларни ўрганишдаги ҳаракатлари боис саҳобалар у кишини «Отасининг қизи» деб чақиришлари бизни тўлқинлантиради. Шунинг учун ўтмишда ўтган буюк оналаримиз каби қизларимизни тарбия қилайлик, сийрат китобларни ўқиб ҳаётимизга татбиқ қилайлик. Чунки бир қизни тарбия қилсак, миллатни тарбия қилган бўламиз.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш ва оила институтини мустаҳкамлаш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5325-сон Фармони, 2018 йил 02.03.

2. Узлуксиз маънавий тарбия концепцияси 2019 йил 3 майдаги ПК-4307-сон қарори ижросини таъминлаш мақсадида 2019-йил 31-декабрь.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси 24 январь 2019 йил.

4. М.Қуронов. Оила – учинчи ренессанснинг энг мустаҳкам устуни. Ижтимоий-педагогик қўлланма. – Тошкент, «Фан» нашриёти, 2021. – 69 б.

5. Мухсиева А.Ш. Оилада миллий тарбия жараёнининг методик асослари: Пед.фан.ном. …дис.автореф. – Тошкент, 2006. – 22 б.

6. Uzbaby.Uzhttp://www.farzand.uz

MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYA:HAMKORLIKNING ZAMONAVIY YONDASHUVI

Alibayeva Muazzam Ibragimovna

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi

Toshkent Shahar Olmazor tumani bo‘limi rahbari

Annotatsiya: O‘quvchilarni milliy Vatanparvarlik ruxida tarbiyalash bugungi “Yangi O‘zbekiston-yangicha dunyoqarash” davlat siyosati asosida amalga oshirilishi hozirgi zamon ma’naviyat sohasi vakillariga ulkan vazifalarni yuklamoqda. Ayniqsa vazifalarni amalga oshirilishida Vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning asosiy vositalari haqida maqolada fikr yuritildi.

Kalit so‘zlar: Intellektual shakllanish, jismoniy va axloqiy rivojlanish, oilada vatanparvarlik, Vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi, fuqarolik-vatanparvarlik.

KIRISH. Oilada ota-onalar namunasi bolalar uchun hayot darsi hisoblanadi. Otaning onaga, ona mehnatiga, jamiyatga, jamiyat a’zolariga bo‘lgan munosabati bola qalbiga yaxshilik yoki yomonlik, ma’qul va noma’qul ishlar haqidagi dastlabki tushunchalarini vujudga keltiradi. Oila muhiti- bu qandaydir tarbiya vositasi emas, balki ota-onalarning va katta yoshdagi kishilarning har taraflama olib boradigan tarbiyaviy ish natijalari, oila a’zolarining o‘zaro yuksak ahloqiy munosabatlarining yig‘indisi va nihoyat, kattalarning bolalarga ijoboy ta’sir ko‘rsatish namunasi

natijasidir.Ota-onalar bolalar bilan noto‘g‘ri munosabatda bo‘lmaydigan, bir-birlarini tushunadigan, hurmat qiladigan, bolalarning to‘g‘ri tarbiyalanishini doimo nazorat qiladigan hamda bolalariga shaxsiy namuna bo‘la oladigan oilalarda tashkil topadi. Bolalarga ota-onalarning hatti- harakatlarigina emas, balki gapirayotgan gaplari, o‘zaro savol-javoblari, uyga kelgan kishilar va qo‘shnilar bilan bo‘ladigan muomalasi ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Oilada totuvlik, o‘zaro hurmat mehr-muhabbat kelishuvchilik kabilar ota-onalar obro‘sini oshiradi, ota-onalar bilan bolalar o‘rtasida ruhiy muhitni yahshiligiga va ularning kamolotga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.Oiladagi totuvlik o‘zaro hurmat, mehr-muhabbat, kelishuvchilik kabilar ota-onalar obro‘sini oshiradi, ota-onalar bilan bolalar o‘rtasida ruhiy muhitni yahshiligiga va ularning kamolotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bolalar bilan munosabatda bosiqlik xulosa chiqarishda shoshmaslik,rag‘batlantirish va jazolashda o‘ylab ish tutish,ota-onalar obro‘sida muhim ahamiyatga ega.To‘g‘ri bolalarni ba’zan jazolash kerak,lekin bunda ularga ahloq,odob mezonlari haqida tushuncha berish va ularni so‘zsiz bajarish lozimligi ota-onalar talab qilsagina, ota-onaning obro‘si bo‘ladi. Ba’zi ota-onalar o‘z bolalaridan talab qila olmaydi,natijada kerakli natijaga erisha olmaydi.

Oila tarbiyasida tarbiya jarayoni zerikarli, quruq nasihatgo‘ylikdan iborat bo‘lib qolmasligi lozim. Bola hayotining ko‘p qismi oilada o‘tadi. Shu boisdan mavjud an’analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy ta’sirida bola asta-sekin kamol topib boradi. An’ana va marosim Oila tarbiyasining qudratli qurolidir. Oila tarbiyasi ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo‘lsagina, kutilgan natijalarga erishish mumkin. Oila tarbiyasida yutuklarga erishish ota-onalarning pedagogik bilimlarga egaligi, Oila tarbiyasi bo‘yicha tajribalar almashishi, ota-onalarni tarbiyaviy ishlarga qizg‘in jalb qilishga ham bog‘liqdir. Har bir ota-ona oila tarbiyasida o‘zlarining burch va mas’uliyatlarini chuqur anglashlari lozim. Normal oilaviy muhit, bolani kitob o‘qishga, mehnat qilishga o‘z vaqtida jalb etish ham Oila tarbiyasiga katta zarar yetkazadi. Ularning bolaga beradigan tarbiyaviy ta’sir kuchi yo‘qoladi, Oila tarbiyasidagi muvozanat buziladi. Bunday sharoitda bola qalbi qattiq

jarohatlanadi, u tajang, serjaxl, qo‘pol, dag‘al bo‘lib qoladi, kattalarga ishonmay qo‘yadi, o‘qishi pasayib ketadi. Oila tarbiyasida otaning obro‘si katta ahamiyatga ega. Bolalarni barkamol inson qilib yetishtirishda maktabni oila bilan bog‘lamasdan muvaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun Oila tarbiyasida maktab va ota-onalar o‘rtasidagi ta’limtarbiyaga oid birgalikdagi ishlari katta ahamiyatga ega. Ota-onalarning o‘qituvchilar bilan bo‘lgan uchrashuvlarida aytilgan fikrlar, ayniqsa qimmatlidir. Chunki ular o‘z farzandlari to‘g‘risida ko‘proq narsalarni bilib oladilar. Shuning uchun bola tarbiyasining tub mohiyatini tushungan har bir ota-ona oila bilan maktab o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga intiladi. Bola maktabni tamomlagunga qadar otaona maktab bilan yaqin aloqa o‘rnatishi, farzandining darslarini o‘zlashtirishi, xulq-atvoridan xabardor bo‘lib turishi, tarbiya masalalarida o‘qituvchi, sinf rahbari bilan maslahatlashib turishi, bolaning darsdan so‘ng nima bilan mashg‘ulligi haqida o‘qituvchi va sinf rahbarini xabardor qilib turishi lozim. O‘z navbatida o‘qituvchi va sinf rahbari ham bolaning o‘qishi, odobi, xulqi, maktabda o‘zini tuta bilishi haqidagi ma’lumotlarni ota-onaga yetkazishi, zarurat tug‘ilganda paydo bo‘lgan muam-molarni birgalikda hal qilishi zarur.

Oquvchilarni tarbiyalash odatda ko‘p qirrali jarayonlardan biri hisoblanadi. Shu singari ta’limni ustuvor yo‘nalishlari asosan bolalarning jismoniy va axloqiy rivojlanishi; intellektual shakllanishi; shaxsiy madaniyati va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish; huquqiy va vatanparvarlikni yuksaltirish; estetik va mehnat tarbiyasini amalaga oshirish; o‘quvchilarda mustaqil hayotiy rejalarini shakllantirish, oilaviy hayotga tayyorgarliknni olib boorish zaruriyatidir.

Bolalar bilan maktab tarbiyaviy ishlarining shakliga nisbatan erkin faoliyat asosida tashkil etishning aniq usuli, kattalar uchun pedagogik jihatdan mos keladigan rahbarlik bilan belgilanishi mumkin. Ta’lim amaliyotida mehnatning xilma-xil shakllari mavjud, ularni tasniflash bir oz qiyin. Shu bilan birga, biz tarbiyaviy ishning ustunligini va asosiy tarkibiy qismini ta’kidlab, tarbiyaviy ish shakllarini soddalashtirishga harakat qilamiz. Maktab o‘quvchilarida vatanparvarlik asoslarini o‘rgatishda o‘qituvchilar turli metod va usullardan foydalanadilar. Ammo

tarbiyaviy ahamiyatning ta’lim shakli bu o‘yin texnologiyasidir. Yosh o‘quvchilar o‘yinlari oddiygina xatti-harakatlarning ijtimoiy shaklini taqlid qilishga qaratilgan. Bir tomondan, bolaning biologik tabiati butunlay o‘yinda namoyon bo‘ladi, boshqa tomondan-ijtimoiy moslashishga tayyorlik kuzatiladi. O‘yinda kattalar hayotidan xulq-atvor normalari o‘qitiladi, qadriyatlar ishlab chiqiladi. Tarbiyalash usullarini qo‘llashda “tarbiyaviy muammolarni hal qilish” yoki “bolalarning hayotini, faoliyatlarini, munosabatlarini, muloqotini, faoliyatini rag‘batlantiruvchi va xulq atvorni tartibga solishga ko‘maklashadigan” kattalar va bolalar o‘rtasidagi pedagogik jihatdan mos keladigan o‘zaro hamkorlikning ijtimoiy usullari etib belgilash mumkin. Bolani vatanparvarlik hisi bilan tarbiyalashning individual shakllari orasida mustaqil tadqiqotlar (uy vazifasi) alohida ajralib turadi. Masalan, bolalarga yozuvchilarining Vatan tarixidagi jangarilar, ekspluatatorlar, jasoratlii va shon-sharaflar haqidagi asar epizodlarini o‘qish qiziqarli hisoblanadi.

Vatanparvarlik haqida fikr yuritadigan bo‘lsak – bu Vatanga muhabbat, o‘z vataniga sadoqat, uning manfaati va xizmatiga tayyorlik, kezi kelganda o‘zini qurbon qilish, uni turli yovuz kuchlardan himoya qilish kabi hislar asosida mujassamlanadi. Vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi - jamiyatda yuqori ijtimoiy faollik, fuqarolik javobgarligi, ma’naviyatni rivojlantirish, davlatni mustahkamlash, uning manfaatlarini va rivojlanishini ta’minlash. Maqsadga erishishda quyidagilarning rivojlanishi orqali vazifalar amalga oshiriladi: Fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va jamoaviy hayot normalariga hurmat ruhida tarbiyalashdir.Insonning konstitutsiyaviy huquqlari va uning burchlari amalga oshirilishini ta’minlash uchun sharoit yaratish ham shu jumladandir. O‘zbekiston Respublikasining ramzlari hisoblangan - gerb, bayroq, madhiya va Vatanning tarixiy yodgorliklariga g‘urur, chuqur hurmat va ehtirom hissini shakllantirish muhim axamiyatga ega.

XULOSA. Yuqqoridagi tushunchalardan kelib chiqib maktab o‘quvchilarida fuqarolik ya’ni Vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish bugungi kunda dolzarbligini e’tiborga olib maktab va sinfdan tashqari soatlarda bunga jiddiyroq

kirishish ehtiyoji sezilmoqda. Vatanparvarlik tarbiyasi shakllari va usullari faol fuqarolikni, Vatanga, Jonajon O‘zbekistonga va ularning kichik go‘shalariga muhabbat tuyg‘ularini shakllantirilishiga qaratilishi kerak. Fuqarolik-vatanparvarlik ta’limining bunday shakllari maktab o‘quvchilarini tarbiya fani va tarix fanlarida mustaqil izlanish ishlariga jalb qilishni o‘z ichiga oladi. Maktabning ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarida ishtirok etish, tarixiy yodgorliklarni bilish va saqlash, himoya qilish bo‘yicha o‘z o‘rnini egallash ham muhim xususiyatdir. Vatanparvarlik mavzularida davra suxbati kunlari, tanlovlar, ko‘rgazmalar o‘tkazish qatorida g‘oliblarni taqdirlash lozim. Jumladan ulug‘ Vatan urushi faxriylarini, mehnat fronti vakillari bilan mazmunli uchrashuvlarni tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur jarayonlar o‘quvchilarda milliy Vatanga bo‘lgan hissiyotlarni g‘urur va kuchli shijoat asosida amalaga oshishini ta’minlaydi. O‘quvchilar Vatanni ota-ona va butun yurtimizda yashayotgan jamiyatni tinchligini saqlashdagi jasoratli harakatni ilg‘ab yetadi.Bu esa o‘z harakatlarida o‘quvchilarga milliy iftixor tuyg‘usini Prezidentga va barqaror rivojlanayotgan yurtga nisbatan yuksalishini vujudga keltiradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bechora M. S., «Oila-salomatlik-jamiyat», M., 1986 y.
2. Vinnikot D.V. Kichkina bolalar va ularning onalari. M., "Sinf", 1998 yil
3. Avdeeva N.N., Meshcheryakova S.Yu. Siz va chaqaloq. - M., 1991 yil.
4. Davliev I. A., “Men va mening oilam”, Tat. kitob nashriyoti 1984 yil
5. Osipov G. V., Kovalenko Yu. P. “Sotsiologiya”, M., 1990 y.
6. "Oilaviy munosabatlar madaniyati" maqolalar to‘plami M., 1985 yil

QIZ BOLA TARBIYASIDA KEKSA AVLOD VAKILLARI(BUVI)NING O‘RNI VA HAMKORLIGI

Tursinboyeva Halima Otabekovna

Qori Niyoziy nomidagi TPMI doktoranti

Annotatsiya: Bugungi globallashuv asrida, internet va texnologiyalar hayotimizning ajralmas qismiga aylangan bir paytda, qiz bolalarning ruhiy dunyosini asrash, ularni milliy qadriyatlarimiz, ma’naviy merosimiz asosida tarbiyalash nihoyatda dolzarb masaladir. Ommaviy madaniyatning ta’siri, ijtimoiy tarmoqlardagi noto‘g‘ri axborotlar, ba’zida ota-onalarning befarqligi yoki yetarli bilimga ega emasligi — bularning barchasi yosh qizlar tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu esa kelajakda jamiyatda bir qator muammolar, oilaviy murosasizliklar, axloqiy inqirozlar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Kalit so‘zlar. Tarbiya, farzand, qizlar tarbiyasi, “nima eksang shuni o‘rasan”.

Kirish. Insoniyat tarixining har qanday davrida ayol, ayniqsa, qiz bola tarbiyasi alohida e’tibor va mas’uliyat talab qilgan. Chunki har bir jamiyatning ma’naviy, madaniy va axloqiy qiyofasi, avvalo, onalar timsolida shakllanadi. Onalik esa — mehr, sabr, halollik, fidoyilik va tarbiyaning eng yuksak namunasi bo‘lib, bu fazilatlar qiz bolalik davridanoq shakllana boshlaydi.

Har bir xalqning kelajagi uning bugungi yosh avlodiga qanday tarbiya berilishiga chambarchas bog‘liq. Ayniqsa, qiz bola tarbiyasi har doim va har qanday jamiyatda muhim va murakkab masalalardan biri bo‘lib kelgan. Chunki qiz bola nafaqat bir oilaning, balki kelajak avlodning — butun jamiyatning onasi, tarbiyachisi va ma’naviy tayanchidir.

O‘zbek xalqining boy tarixiy-madaniy merosida, an’ana va urf-odatlarida qiz bolani tarbiyalashga doimo alohida e’tibor qaratilgan. “Qizni erkalatma, xalqni yerga qaratma” degan maqolda aytilganidek, qiz bolaga berilgan tarbiya butun jamiyat madaniyatining, axloqiy darajasining o‘lchovi bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois qiz bolaning axloqiy, ma’naviy, jismoniy va ruhiy kamoloti — nafaqat oilaning, balki maktab, jamiyat va davlat siyosatining ham ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi kerak.

Bugungi globallashuv asrida, internet va texnologiyalar hayotimizning ajralmas qismiga aylangan bir paytda, qiz bolalarning ruhiy dunyosini asrash, ularni milliy qadriyatlarimiz, ma’naviy merosimiz asosida tarbiyalash nihoyatda dolzarb

masaladir. Ommaviy madaniyatning ta’siri, ijtimoiy tarmoqlardagi noto‘g‘ri axborotlar, ba’zida ota-onalarning befarqligi yoki yetarli bilimga ega emasligi — bularning barchasi yosh qizlar tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu esa kelajakda jamiyatda bir qator muammolar, oilaviy murosasizliklar, axloqiy inqirozlar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Bugungi keskin rivojlanib borayotgan zamonda ota-ona sifatida farzandlarimizni tarbiyalashga tayyormizmi?

Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob beryabdimi?

Ushbu savollar siz uchun oddiy bo‘lib ko‘rinayotgan bo‘lishi mumkin, lekin aslini olganda bugungi kunning og‘riqli va o‘ylantiradigan, tashvishga soladigan savollaridir.

Agar biz bu yorug‘ olamda oilamizni mustahkam va farzandlarimizning kelajagi porloq bo‘lishi uchun ushbu savollarga javob izlashni va harakatlarni bugundan boshlamasak, ertaga kech qolishimiz mumkin.

Ota-onaning eng muqaddas orzusi – farzandning baxtu kamolini ko‘rish. Bugungi kunda mamlakatimizda bu masala nafaqat ota-onalar, balki davlatimiz, jamiyatimizning ustuvor maqsadiga aylandi.

Yuqoridagi savolarga javob topishimiz uchun, tarbiyaning o‘zi nima ekanligini ko‘rib o‘taylik.

Tarbiya - muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o‘stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Bugungi kunda yurtimizda tobora keng tarqalib borayotgan “O‘z bolangni o‘zing asra!” degan da’vatlari faqat quruq shior bo‘lib qolmasdan, har bir ota-ona, har bir fuqaroning qalbiga, yuragiga chuqur kirib borishi, amaliy harakatga aylanishi zarur.

Farzandga oltin, kumush, ko‘chmas mulk, imorat, xususiy korxona, qimmatbaho avtomobil, aksiyalarni berish mumkin. Lekin baxtni berib, notariusda uning nomiga rasmiylashtirib, meros qoldirib bo‘lmaydi. Buni bilgan ma’rifatli,

aqlli ota-onalar bolalarini to‘g‘ri yashab, baxtli bo‘lishga o‘rgatishadi. Erinmasdan, maqsadli, rejali, xuddi sportchini olimpiadaga tayyorlagandek. Natijada ularning bolalari quyi ligadan o‘rtaga, o‘rta ligadan yuqori ligaga, yuqoridan oliy ligaga ko‘tarilib boraveradi. Tarbiyalanmayotgan, ya’ni tayyorlanmayotgan bolalar xuddi sport bilan shug‘ullanmaydigan bolalarga o‘xshaydi. Ular hayot ligalarining pillapoyalariga chiqa olmasdan, quyida qolib ketadi.

Bola o‘z-o‘zidan tarbiyali bo‘lib qoladimi?

Kimdir “Tarbiya hammaga ma’lum narsa-ku. Vaqti kelsa, Xudo xoxlasa, o‘z-o‘zidan yo‘lini topib ketadi”, deyishi mumkin. Sobiq sho‘ro davrida momo-bobolarimiz o‘z bolalari, nabiralari haqida “Tish bergan rizq ham berar. Ochidan o‘lmasa bo‘ldi-da. Bir gap bo‘lar” deb hayol qilishgan. Lekin hozirgi davrda, biror yaxshi ishning o‘z-o‘zidan amalga oshmayotganiga barchamiz guvohmiz. Bu gapni siz emas, yalqovlar, bolasiga befarqlar, “bizga bo‘laveradi”, deydigan kishilar aytishadi. O‘zlari qilishlari kerak bo‘lgan ishni Xudoga tashlashadi.

“Nima eksang, shuni o‘rasan”, deydi xalqimiz. Keling, bu maqolni “Nima o‘rishni istasang, shuni ek”, deb aytib ko‘raylik. Faraz qiling qizingiz 20 yosh. O‘tgan hafta qizingizga yaxshi bir xonadonning o‘g‘lidan sovchi keldi. Bugun mahallangizga bir notanish kishi kelib: “Surayyo degan qizni bilasizlarmi? Jiyanimiz sovchi qo‘ydiribdi. So‘raganning aybi yo‘q, deydilar. Mahallasidan so‘rab bilaylik, deb kelgan edik. Iltimos, bu – umr savdosi. Aldanib qolmaylik, rostini ayting, Surayyo qanaqa qiz?” deb odamlardan so‘rab yurgan emish.

Mahalladoshlar nima desin? Qizingizning qaysi sifatlarini aytsin? Bo‘yi baland (bo‘yi past) desinmi? Zo‘r kiyinadi (yo kiyinmaydi) desinmi? Matematika, chet tilini yaxshi biladi (yo bilmaydi) desinmi? Chiroyli (yo xunuk) desinmi? Mashinasi zo‘r (yoki yaramaydi) desinmi? Yo‘q, siz bunday javoblarni zinhor istamaysiz. Aksincha, siz Surayyo haqida mana bu xususiyatlarni aytishlarini istaysiz:

Odobli, aqlli, tarbiyali;

O‘z kasbining ustasi;

Mehnatsevar, tirishqoq;

Yolg‘on gapirmaydi (rostgo‘y);

Birovning haqini yemaydi, birovga haqini yedirmaydi;

Ota-onasi, qarindoshlari, mahalla-ko‘yga mehribon, xushmuomala.

Yana “Nima o‘rishni istasangiz, shuni eking” degan gapimizga qaytamiz. Siz o‘g‘lingizda mana shu 6 fazilatni, ta’bir joiz bo‘lsa, ekib, “o‘rish”ni istadingiz. Surayyo 10 yoshda. Demak, hali vaqt bor. Endi ana shu fazilatlarni eking, sug‘oring, parvarish qiling. Axir, “Nima eksang, shuni o‘rasan”, deydilar.

Oilada qiz farzandning dunyoga kelishining o‘ziyoq ota-onani nozikta’blikka, muloyimlikka unday boshlaydi. Ma’naviyatli, iboli-hayoli, irodali, saranjom-sarishta bo‘lish qizi uchun eng kerakli fazilatlar ekanini anglagan ota-onaning o‘zi bu borada o‘rnak bo‘lishga intilgan.

Beshik tepasida — qizchalar uchun aytiladigan allalarda so‘zlar g‘oyat saralab olinishi ham diqqatga sazovor. “Gulim”, “gulg‘uncham”, “nozik-niholim” deya ta’rif aylaydi ularni ona. Onalar alla aytganda ham, ertak aytganda ham har safar niyatlarini chiroyli so‘zlar, yoqimli ohanglar bilan ifodalayveradi. Masalan, Zumrad obraziga har safar yangi-yangi sifat qo‘shiladi, bir gal mehnatkashligi, bir gal sabr-toqatliligi, bir gal shirinso‘zligiga urg‘u beriladi. Bularning barchasi qizlar sepdan ham burun yaxshi insoniy fazilatlarni ko‘proq jamlab olishi lozimligini anglatadi.

O‘tmishda kelinlarning uylari so‘zanalar, rango-rang palaklar bilan bezatilgan. Buvilarning aytishicha, o‘zbek xonadonlarida qiz 11-12 yoshga yetganda unga kattagina surp matosi berilib palak, so‘zana tikish o‘rgatilar ekan. Bu mashg‘ulot 4-5 yil davom etgan. Agar palak, so‘zanalarga e’tibor bersak, ularning har bir nuqtasi igna bilan ishlov berilganiga guvoh bo‘lamiz. Bu juda ko‘p vaqtni talab etgan. Bu orada qiz ham voyaga yetib, uzatiladigan yoshga kelgan. Sepning oldi bo‘lgan bu so‘zanalar kelin-kuyov uylarini bezatgan. Muhimi, so‘zanalar faqat uyni bezatish vositasi bo‘lmasdan qizlar tarbiyasi uchun foydali jihatlari ko‘p bo‘lgan. Chunki birinchidan, so‘zana g‘oyatda mayda ish bo‘lib, ip-igna yordamida

yillar davomida tikilgan. Demak, yillar davomida qizlarning sabr-toqatli, og‘ir-bosiq, vazmin viqorli bo‘lishdek fe’l-atvorlarini shakllantirishda bir vosita bo‘lgan. Ikkinchidan, so‘zananing ranglari, shakllariga e’tibor bersak, ularning bir-biriga uyg‘unligi va nihoyatda chiroyli ekanligining shohidi bo‘lamiz. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, so‘zana tikish jarayonida qizlarning did-farosati, har bir ishni chiroyli bajarishga intilishi, go‘zallikka ishtiyoqi, ijodkorligi, dunyoqarashi ham shakllanib borgan. Bunday tarbiyalangan qizlar biror joyga kelin bo‘lganda, ota-onasiga rahmat keltirgan.

Borgan joyingda tosh kabi qot, tup qo‘yib palak yoz, degan iboralarni tez-tez eshitib qolamiz. Bu ham ro‘zg‘or yuritish, uy tutishdek oila ishlarida sabr-toqat va vazminlikning ahamiyati muhimligiga ishoradir. Zero, o‘zbek xalq og‘zaki ijodida tosh ramzi og‘ir-bosiqlikni, bardoshli bo‘lishni ifodalaydi. Haqiqatdan ham qizlarni turmushga tayyorlashda mehnat ko‘nikmasiga katta ahamiyat berilgan. Kelinlar o‘zbek xonadoni qiyofasi timsoli bo‘lgan, desak xato qilmaymiz. Chunki kelinlik mas’uliyati uydagi tozalikni saqlashni ham, ovqatni shirin tayyorlashni ham, atrofdagilar bilan xushmuomalada bo‘lishni ham qamrab oladi.

Uydagi jajji go‘dak ham topolmayotgan o‘yinchog‘ini kennoyisidan so‘raydi, qaynona va qaynotadan tashqari qayni va qaynsingillar ham uy yumushlari borasida kelinga tez-tez murojaat qilib turishadi. Xonadondagi har bir buyum, har bir kiyim-kechak, har bir idish-tovoq tozaligiga ham yangi tushgan kelin mas’ul. Albatta, borgan joyini izzat-ikrom qilishi kerakligi uqtirilgan kelinlar bu ishlarni ipidan-ignasigacha badastir bajarishga intiladi. Lekin oilada to‘g‘ri tarbiya olmagan, yoyinki atrofdagilar bilan ahil, hamjihat yashash sirlari o‘rgatilmagan qizlar bu borada ma’lum qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Buvilar, onalar, qizlar… Bu uch avlod o‘rtasida mutanosib ravishda rivojlangan tarbiya asosida qadriyatlarga katta ahamiyat beriladi. Masalan, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, barchaga birdek mehr-oqibatli bo‘lish, har qanday mehnatni chin dildan bajarish kabi fazilatlarni buvilar nevara qizlari ongiga o‘z hayot tajribalaridan kelib chiqib singdirib borishadi. Erta-indin uyimni tark etadi,

deya onalar jigargo‘shalarini ayab, ish buyurishga ko‘zlari qiymasligi mumkin. Lekin hayotning achchiq-chuchugini totgan, yaxshi-yomonni farqiga boradigan buvilar talabchanlik bilan qizlarni har bir ishni, hatto o‘zi yoqtirmagan yumushlarni xam pishiq-puxta bajarishga o‘rgatib boradilar.

Moling bilan hammani ham rozi qilolmaysan, shirin so‘zing bilan insonlar qalbiga yo‘l topasan, degan hikmatga amal qiluvchi keksalar yoshlarni doimo shirinso‘zlikka, odob-axloqqa chorlaydilar. Yolg‘onchilik, xushomad, chaqmachaqarlik bilan inson ba’zan qiyin vaziyatlardan silliqqina o‘tsada, ammo buning oqibati ayanchli ekanini qayta-qayta uqtiradilar. Buvilarimiz qizlar uchun eng chiroyli bezak bu hayo ekanini, eng qadrli jihat iffat ekanini ta’kidlaydilar. Har bir insonning o‘z-o‘ziga ishonchi, vijdon va iymon halovatiga erishishida ham sharm-hayoning o‘rni beqiyos ekanini hayotiy misollar bilan tushuntirib boradilar. Buvijonlar qiz nevaralariga vaqtni to‘g‘ri taqsimlashni, har bir yumush o‘z o‘rnida bajarilsa, inson kun davomida ko‘p ishlarga bemalol ulgurishi mumkinligini o‘rgatib boradilar. Zotan, vaqt va pulning to‘g‘ri taqsimoti bo‘lajak ro‘zg‘or bekalari bo‘lmish har bir qizga puxta o‘rgatilsa, ko‘pgina noxushliklarning oldi olinar edi, albatta. Bir donishmanddan aqlli inson kim, deya so‘rashibdi. U: “Aqlli inson — kerak va kerakmas, foydali va befoyda narsalar ichidan eng kerakli va eng foydali narsalarni topa bilgan insondir”, deb javob beribdi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, vaqtni va pulni behuda narsalarga sarflab yuborish oilaviy yetishmovchiliklarga olib kelishi tayin.

Zamonaviy bo‘lish, hayotda o‘z o‘rnini topish har bir qizning orzusi. Zamon bilan hamnafas bo‘lish, insonlar bilan yelkama-elka yashab, hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lishning asosiy sharti albatta, kasb-hunar o‘rganish ekani, qadimdan turli asarlarning bosh mavzusi bo‘lgan va hozir ham bu o‘z qiymatini yo‘qotmagan.

Xulosa. Mustaqillik yillarida yurtimizda har bir yoshning ilmli, hunarli bo‘lishi nazarda tutilgan holda milliy ta’limning o‘ziga xos tizimi ishlab chiqildi Ayniqsa, 12 yillik ta’limning so‘nggi uch yili kasb-hunar kollejlarida davom etib, bu davr mobaynida qizlar nafaqat ta’lim oladilar, balki, o‘z xohishlaridan kelib

chiqib, 2-3 ta hunarning egasi bo‘ladilar. Masalan, tikuvchi-dizayner sohasida o‘qigan qizlar turmushga chiqib, yosh bola bilan uyda o‘tirgan paytda farzand tarbiyasidan ajralmagan holda o‘z hunari bilan shug‘ullanishi mumkin. Buning uchun kasb-hunarni yoshlikdan puxta o‘rganib olishi muhim. Savol tug‘iladi: kasb-hunar qachondan boshlab o‘rgatilgani ma’qul? Qadimgi hind hikoyatida aytilishicha, farzand besh yoshgacha uni podshoh bilib, g‘oyatda nozik muomala qilish kerak. Besh yoshidan o‘n besh yoshigacha uni quldek ishlatish, o‘n besh yoshidan boshlab esa do‘stdek muomala qilish kerak ekan. Bu hikoyatdan anglashiladiki, ota-ona kasb-hunar o‘rgatishni faqat ustozga havola qilib qo‘ymasdan bu murakkab jarayonda o‘z dilbandiga do‘st, hamfikr, qanot bo‘la olsagina, yaxshi natijalarga erishiladi. Ota-ona va ustoz hamkorligida barcha qiyinchiliklarni yengib o‘tgan, kasb-korning eng nozik jihatlarini o‘zlashtirib olgan qizlar usta hunarmandlar safidan joy olishiga shubha yo‘q. Darhaqiqat, katta hayot ostonasida turgan qizlarimizga yaxshi hunar, yaxshi insoniy fazilatlar va ma’naviy boylikni taqdim eta olsak, ayni muddao bo‘lardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5325-son Farmoni, 2018 yil 02.03.

2. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi 2019 yil 3 maydagi PK-4307-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida 2019-yil 31-dekabr.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi 24-yanvar 2019-yil.

4. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining navbatdagi sesiyasidagi ma’ruzasi. 2019 yil.07.03.

5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”, 2008

6. Kaykovus. “Qobusnoma”. Yangi avlod, 2018.

7. Xudoyqulov X.J. Odob-axloq durdonalari. –T.: TTYMI, 2010. – 124 b.

8. Xudoyqulov X.J. O‘zbek qizining g‘ururi - uning or-nomusi va odobidadir. - T.: “Dizayn-Press”, 2011. – 142 b.

O‘ZBEK AN’ANAVIY TARBIYASIDA “MAHALLA-MAKTAB-OILA” ZANJIRINING TARIXIY ILDIZLARI VA ZAMONAVIY TALQINI

Bektemirov Sardor Komil o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi yetakchi mutaxassisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek xalqining farzand tarbiyasida tarixan shakllangan “mahalla–maktab–oila” hamkorlik tizimi yoritiladi. Uning tarixiy ildizlari, ijtimoiy va pedagogik ahamiyati, shuningdek, zamonaviy davrdagi qayta talqini tahlil qilinadi. Mahalla, maktab va oila o‘rtasidagi uzviy aloqalar, ularning tarbiya jarayonidagi funksional roli, innovatsion yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish zaruriyati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: farzand tarbiyasi, mahalla, oila, maktab, hamkorlik, uzviylik, tarbiyaviy mexanizmlar.

Annotation: This article explores the historically rooted cooperation system of “mahalla–school–family” in the upbringing of children in Uzbek society. It discusses the historical background, social and pedagogical significance of the triad, and its reinterpretation in modern contexts. The article substantiates the need to integrate innovative approaches while preserving traditional mechanisms in child-rearing.

Keywords: child upbringing, mahalla, family, school, cooperation, continuity, educational mechanisms.

Аннотация: В данной статье рассматривается исторически сложившаяся в узбекской культуре система воспитания детей через тесное взаимодействие семьи, махалли и школы. Анализируются исторические корни этой модели, её педагогическая и социальная функция, а также современные

подходы к её модернизации. Особое внимание уделяется интеграции инновационных и коллаборативных технологий в воспитательный процесс, а также рассматриваются эффективные практики взаимодействия между институтами семьи, махалли и школы.

Ключевые слова: воспитание детей, махалля, школа, семья, исторический опыт, современные подходы, сотрудничество.

Kirish

Farzand tarbiyasi har bir jamiyat hayotida ustuvor masalalardan biridir. Ayniqsa, o‘zbek xalqining madaniyati va ma’naviyatida bola tarbiyasiga alohida e’tibor beriladi. Bu jarayonda avlodlar tajribasi, qadriyatlar va ijtimoiy institutlar faoliyati muhim rol o‘ynaydi. Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, farzand tarbiyasida oila, mahalla va maktab birgalikda harakat qilgan. Bu “mahalla–maktab–oila” zanjiri deb ataluvchi hamkorlik tizimi nafaqat tarbiyaviy, balki ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilgan.

Bugungi kunda ham ushbu tizim o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, balki yangicha yondashuvlar asosida takomillashib bormoqda. Shu bois maqolada tarixiy ildizlar va zamonaviy amaliyotlar uyg‘unligida ushbu zanjirning mazmun-mohiyati tahlil qilinadi.

Asosiy qism. O‘zbek xalqi tarixida tarbiya — jamiyatning muqaddas burchi hisoblangan. Farzand dunyoga kelgan paytdan boshlab uning ma’naviy, axloqiy va aqliy rivojlanishi uchun oila, mahalla va maktab o‘zaro mas’uliyatni bo‘lishgan. Har bir institutning o‘ziga xos funksiyasi mavjud bo‘lib, ular uyg‘unlikda faoliyat yuritgan.

Oilaning tarbiyadagi roli. Oila – farzand tarbiyasining birlamchi makoni bo‘lib, bolaning shaxsiyati aynan shu muhitda shakllanadi. Ota-onalar bolaning ilk xulq-atvori, dunyoqarashi va hayotga bo‘lgan munosabatiga asos soladi. Tarixiy manbalarda ota-onaning mas’uliyati haqida ko‘plab fikrlar bayon etilgan. Jumladan, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Mahmud Zamaxshariy kabi allomalar oilaviy tarbiyani jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida ko‘rsatganlar.

Mahalla – ijtimoiy tarbiyaning markazi. Mahalla qadimdan o‘zbek jamiyatida ijtimoiy nazorat va qo‘llab-quvvatlash maskani bo‘lib xizmat qilgan. Mahallada oqsoqollar, ayollar faollari, imomlar yosh avlod tarbiyasida ishtirok etgan. Yoshlar uchun “odam bo‘lish” ideali aynan mahallada shakllantirilgan. Bu yerda axloqiy me’yorlar singdirilib, jamiyat bilan uyg‘un yashash tamoyillari o‘rgatilgan.

Maktab – zamonaviy bilim va tarbiyaning poydevori. Maktabda bola nafaqat fanlardan bilim oladi, balki jamoa hayotiga moslashadi, mustaqil fikrlash, ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. Muallimlar farzandni milliy g‘urur, vatanparvarlik, odob-axloq, halollik ruhida tarbiyalashda muhim vositachi bo‘lib xizmat qilgan.

“Mahalla-maktab-oila” zanjirining o‘zaro integratsiyasi. Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, bu uchlik bir-birini to‘ldirgan. Bola maktabda o‘rganayotgan xatti-harakatni mahallada mustahkamlasa, oilada bu qadriyatlar asoslanib borilgan. Zanjirli yondashuv bolaning har tomonlama kamolotini ta’minlagan. Bugungi kunda bu model zamonaviy kommunikatsion vositalar, innovatsion texnologiyalar bilan boyitilib, yangi darajaga chiqmoqda.

Zamonaviy amaliyotlar va takliflar. O‘zbekistonda oxirgi yillarda ta’lim sohasidagi islohotlar aynan bu uchlikning integratsiyasini ta’minlashga qaratilgan. “Ota-onalar maktabi”, “Mahalla bilan hamkorlik kengashlari”, “Tarbiyaviy maslahat markazlari” kabi loyihalar hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, maktablar, mahallalar va oilalar o‘rtasida Telegram, Zoom, WhatsApp guruhlari orqali tezkor axborot almashinuvi yo‘lga qo‘yilgan. Bu esa bolaning tarbiyaviy muammolarini vaqtida hal qilish imkonini bermoqda.

Xulosa. Farzand tarbiyasida “mahalla–maktab–oila” zanjirining ahamiyati tarixiy jihatdan isbotlangan bo‘lib, u zamonaviy jamiyatda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Bu tizimni rivojlantirish va unga innovatsion yondashuvlarni qo‘shish orqali uzluksiz va barqaror tarbiya tizimi shakllantiriladi. Har bir institut o‘z o‘rnini

to‘laqonli anglab, bir-birini to‘ldirgan holda faoliyat yuritsa, komil avlod tarbiyasiga erishiladi. Shu sababli, bu tizimga chuqur ilmiy va amaliy e’tibor qaratilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig”. – Toshkent: Fan, 1990.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
4. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tarbiya. – Samarqand, 1913.
5. Ibrat I. Oila tarbiyasi haqida. – Toshkent: Maorif, 2020.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari (2020–2024 yillar).
7. O‘zbekistonda mahalla instituti bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent: O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, 2021.

MAHALLA INSTITUTINING TARBIYAVIY SALOHIYATI:YANGI QARASHLAR VA VAZIFALAR

Mirsagatova Lola Djurayevna

Olmazor tumani “Shodiyona” MFY raisi

Annotatsiya: Maqolada, mahallalarda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish doirasida, O‘zbekiston yoshlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va erkinliklarini ta’minlash, mavzuga doir muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va xolis ifodalash zarurligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Vertikal tizim, ma’naviy muhit, uyushmagan yoshlar, yoshlarga oid davlat siyosati, “Bir mahallaga bir ziyoli ma’naviy homiy”, “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi”.

Kirish. O‘zbekistonning ijtimoiy-ma’naviy rivojlanishida mahalla institutining o‘ziga xos o‘rni bor. U qadimdan xalqimizning turmush tarziga singib ketgan va ijtimoiy hayotning ajralmas qismiga aylangan. Mahalla – nafaqat yashash

hududi, balki o‘zining o‘ziga xos ma’naviy va ijtimoiy mohiyati bilan jamiyatning barqarorligi, uyg‘unligi va taraqqiyoti uchun zarur tizim hisoblanadi.

Mahalla, xususan, jamiyatdagi ma’naviy qadriyatlarning saqlanib qolishida va uning muhim ijtimoiy, ma’naviy ahamiyatini kuchaytirishda katta rol o‘ynaydi. Har bir hududda, ayniqsa, qishloq joylarida mahalla o‘zining qadimiy an’analari, urf-odatlari bilan jamiyatni shakllantirishda katta o‘rin tutadi.

Bugungi kunda mahalla bolalar tarbiyasida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Mahalla faqat jismoniy tarbiyani emas, balki ma’naviy, ijtimoiy va axloqiy tarbiyani ham ta’minlaydi.

Mahallaning bolalar tarbiyasidagi roli nafaqat an’analarga tayangan holda, balki jamiyatdagi yangilanishlarga ham mos ravishda amalga oshirilmoqda. Yangi O‘zbekistonning yangicha siyosati va islohotlari, ayniqsa, mahalla tizimining rivojlanishi va yosh avlodni tarbiyalashda o‘zining alohida o‘rnini ko‘rsatdi.

Mahalla – tarbiya maskani hamdir. Mahallada ulg‘ayayotgan har bir bolaning axloq-odobi uchun butun mahalla ahli mas’ul hisoblanadi. Shuning uchun ham «Bir bolaga yetti mahalla ota-ona» kabi naqllar bejiz paydo bo‘lmagan. Mahallaning har bir yosh taqdiriga javobgarligi, ularni nazorat va tarbiya qilishi barkamol insonni voyaga yetkazishning negizidir.

Shu bilan birga, mahalla institutining rivojlanishi yoshlar va bolalarning ijtimoiy faolligini oshirishda, milliy qadriyatlarni, axloqiy me’yorlarni saqlashda va yangi zamon talablariga moslashishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistondagi keng qamrovli islohotlar orqali mahalla tizimi o‘zining ahamiyatini yanada oshirib, jamiyatni ijtimoiy barqarorlikka erishishida munosib hissa qo‘shishda davom etmoqda. Zero, O‘zbekistonning barkamol va yetuk yosh avlodini tarbiyalash, yurtimizning rivojlanishiga hissa qo‘shish, jamiyatdagi barcha qatlamlar bilan hamkorlikni mustahkamlash davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Shu ma’noda, 2022-yil 19-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-

tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingani bejiz emas. Mazkur qaror asosida yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlari joriy etildi.

Ya’ni, yoshlar bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish maqsadida har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etildi. Hozirgi kunda mahallalarda yoshlar yetakchilari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ular yoshlarning tarbiyasida muhim rol o‘ynamoqda.

Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan demokratik, erkin fuqarolik jamiyatiga asoslangan mahalla instituti, bugungi kunda milliy boshqaruv tizimi sifatida dunyo davlatlari tomonidan e’tirof etilmoqda. Uning huquqiy asosi 2023-yil 30-aprel sanasida bo‘lib o‘tgan referendum asosida qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilgan Konstitusiyamizning 127-moddasida to‘lato‘kis belgilab qo‘yildi: “Shaharchalar, qishloqlar va ovullarda, shuningdek shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardagi mahallalarda fuqarolarning yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarish organlari bo‘lib, ular raisni saylaydi. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi hamda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni fuqarolarning manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy o‘ziga xos xususiyatlaridan, shuningdek milliy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an’analardan kelib chiqqan holda, qonunga muvofiq mustaqil ravishda hal etishga haqli. Davlat fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi, ularga qonunda belgilangan vakolatlarini amalga oshirishida ko‘maklashadi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari saylovi tartibi, ularning faoliyatini tashkil etish va vakolatlari qonun bilan belgilanadi” [1]. Yoshlar siyosatiga bo‘lgan e’tiborning kuchayishi 2017 yildan boshlab o‘zining yuqori cho‘qqisiga chiqqanligini alohida ta’kidlagan holda, Prezident Shavkat Mirziyoyevning yoshlarga qarata “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyida so‘zlagan nutqi, 2019-yilning mart oyida yoshlarni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan Prezidentimizning beshta muhim tashabbusda

ilgari surilgan masalalar, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risidagi” qonunlarda shuningdek, “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ-92-sonli qarorlari keltirilgan vazifalar fikrimizga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida respublikamizda mahallaning yanada rivojlanishiga uning ravnaq topishiga gullab-yashnashiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Aynan mahallalarda shakllangan milliy va ma’naviy qadriyatlarni e’zozlash va izchil targ‘ib qilish xalqimizning eng yaxshi udum va an’analarini keng ommalashtirish, yoshlarni milliy istiqlol g‘oyasi ruhida tarbiyalashda mahallaning rolini o‘rganish, tadqiq qilish dolzarb mavzulardan hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” 19.01.2022- yildagi PQ-92-sonli qarorida; Mazkur qarorda to‘rt asosiy maqsad nazarda tutiladi: yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish; ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish; yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish; ta’lim muassasalaridagi ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar samaradorligini yanada oshirish [2]. Ushbu maqsadga erishish uchun O‘zbekistonda yoshlar bilan ishlash tizimining eng muammoli nuqtasiga diqqat qaratilmoqda.

Mahalla yigit va qizlarini qamrab olishning o‘ziga xos mexanizmi vujudga keltirilyapti. Mahallalarda yoshlar yetakchisi lavozimining joriy etilishini ana shunday baholash mumkin. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz aholisining 32 foizi yoki 10 millioni 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlarni tashkil etadi [3]. Bundan ko‘rinib turibdiki, aynan 30 yoshgacha yoshlar o‘rtasida sog‘lom ijtimoiy ma’naviy muhitni ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, ularda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash zaruriyatdir. “Biz mutlaqo yangi tuzum va davlatning yangi modelini yaratamiz, bizga shu modelga hayot baxsh etadigan kishilar kerak… Biz hozirgi og‘ir damlarni bartaraf eta oladigan yosh avlodga tayanamiz. Biz ular uchun barcha yo‘llarni ochib beramiz, ularning ish harakatlari uchun to‘la imkon beramiz” [4].“Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini

yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Farmoniga muvofiq, har bir mahallada “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyiliga asoslangan yangi tizim joriy etiladi. Jamiyatda “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyilining to‘laqonli va samarali joriy etilishida har tomonlama ko‘maklashish, oilalar va mahallalardagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan yaqin hamkorligini o‘rnatish vazirlikning asosiy vazifa va faoliyat yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, Mahalla – azal-azaldan xalqimiz uchun yaxshilik va tarbiya beshigi bo‘lib kelgan. Shuningdek, u yerda yashayotgan barcha xalqlarni milliy urf-odat va qadriyatlari bilan ham o‘zaro bog‘lab turguvchi maskan hisoblanadi. Shuningdek, mahalla aholining har tomonlama ijtimoiy ham ma’naviy yelkadoshi bo‘lib, qo‘llab-quvvatlaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta’biri bilan aytganda, “Mahalla – jamiyatimizning yorug‘ yuzi va vijdoni ko‘zgusi” [6], demak shuni anglash mumkinki, mahallalardagi sog‘lom ma’naviy muhit ko‘p jihatdan mahallaning vijdonidan dalolat beradi.

Shu o‘rinda 2019-yil 3-mayda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida” PQ-4307-sonli qaroriga ko‘ra “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” loyihasini tayyorlanib, Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlandi. Mazkur konsepsiya asosida oilada, shuningdek, ta’limning barcha bosqichlarida farzand tarbiyasining uzluksizligini ta’minlash tizimi ishlab chiqildi. Ya’ni bola tug‘ilmasidan boshlab to 25 yoshgacha vaqt davomida uning ma’naviyatini, yoshiga mos ko‘nikma va malakalar, kompetensiyalarining kutilayotgan aniq darajasini kafolatli ta’minlashning ilmiy asoslangan dasturiy metodik ta’minotini tashkil etishdan iborat. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashi raisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2021-yilning 19-yanvarida o‘tkazilgan yig‘ilishdagi “Jamiyat hayotining tanasi

iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir” ma’ruzasi ham mahalladagi qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga bee’tiborlik kabi holatlarga vaqtida barham berish, mahalla yoshlari o‘rtasida huquqbuzarlikning erta oldini olish maqsadida joylardagi ta’lim muassasalaridan tarbiyasi og‘ir bo‘lgan o‘quvchilar hamda ularning ota-onalari bilan manzilli ishlarni olib borish, el-yurt hurmatiga sazovor bo‘lgan, mamlakatimiz taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan, faxriy avlod vakillari ishtirokida “Avlodlar uchrashuvi” loyihasi, “Bir mahallaga bir ziyoli ma’naviy homiy”, “Bir nuroniy – besh nafar yoshga murabbiy” tamoyillari asosida oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, ijodkor ziyolilar, ijtimoiy faol nuroniylarni jalb qilgan holda “mahallabay”, “xonodanbay”, “fuqarobay”, ishlash tizimi yaratildi. Shuningdek, mahallada ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishga qaratilgan va ma’naviy sohada aniq mexanizmlarini yaratish zarur. Ushbu jarayonlar doirasida biz quyidagi takliflarni joriy qilish kerakligini nihoyatda muhim deb bildik.

1. Ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishda kitobni alohida o‘rni bor,shuning uchun, aholi, ayniqsa, yoshlarni kitobxonlik madaniyatini shakllantirish yo‘nalishida aholi va yoshlar o‘rtasida kitob mutolaa qilishi hamda sevib o‘qiydigan kitoblarini sotsiologik so‘rovnoma asosida o‘rganib, har bir mahalla binosining ichida kutubxona tashkil etishni asosiy vazifa qilib belgilash zarur. Shu bilan birga, aholi o‘rtasida kitob o‘qishga qiziqtirish usullarini amalda joriy qilish orqali aniq va manzilli ishlarni tashkil etish maqsadga muvofiq.

2. Bugungi kunda oilaviy ajrimlarning soni ortib borayotganligini hisobga olgan holda, uni oldini olish yo‘nalishida ajrashish arafasida turgan va ehtimoli yuqori bo‘lgan oilalar bilan alohida ishlashni yo‘lga qo‘yish kerak. Bunda, bu kabi oilalar uchun, psixologik treninglarni tashkil etish zarur. Mazkur yo‘nalishda din sohasi vakillarini ham keng jalb etilsa maqsadga muvofiq hisoblanadi.

3. Ichki turizm sayohatini yanada rivojlantirish yo‘nalishida mahalladagi uyushmagan yoshlardan iborat aholi qatlamini yurtimizdagi tarixiy obida va ma’naviy meroslarimiz joylashgan hududlarga sayohatini tashkil etish zarur. O‘z

mahallasidan nariga chiqmagan uyushmagan yoshlar uchun turizm sayohati tashkil etilsa, sezilarli darajada vatanparvarlik g‘oyalari shakllanishiga ijobiy ta’sir qiladi.

4. O‘z mahallasiga nisbatan mehr-muxabbat tuyg‘ularini yanada kuchaytirish maqsadida mahallalar qoshida mahalla muzuyini tashkil etib, u yerda mahalla tarixi va mahallalar faxriga aylangan shaxslardan iborat eksponatlar joy olsa, yoshlar ongida milliy o‘zlik tuyg‘usi yanada jonlanadi.

5. Mahallalarda milliy qadriyatlarni aholi, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirish yo‘nalishida targ‘ibotning eng ta’sirchan usullaridan keng foydalanish zarur. Har bir millat o‘zining tili, urf odati, an’anasi, madaniyati, tarixi bilan millat hisoblanadi. Biz qanday yetuk, barkamol inson bo‘lamizki, o‘zimizning milliy urf-odatimizni bilmasak, unga rioya qilmasak, undan hayotimizda, bolalarimiz tarbiyasida foydalanmasak! O‘zining milliy urf-odatini bilmagan kishini barkamol inson deb bo‘lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, mahalla – yosh avlodni barkamol tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydigan ijtimoiy maskan. U milliy qadriyatlarni asrash, yoshlarni ma’naviy va jismoniy rivojlantirishda asosiy institut sifatida o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Xalqaro ekspertlar fikriga ko‘ra, mahalla institutining takomillashuvi va uning zamonaviy yondashuvlarga moslashishi, uning yoshlarni tarbiyalashda yanada samarali vositaga aylanishini ta’minlaydi. Mahalla tizimi, o‘zining yangi yondashuvlari bilan, nafaqat xalqimiz, balki butun dunyo bo‘ylab yoshlarni rivojlantirishga va jamiyatning barqarorligini ta’minlashga hissa qo‘shishi tayin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi Toshkent, “Adolat” milliy xuquqiy axborot markazi, 127-modda. 2023 –B. 95-96. https: //lex.uz/docs/6445145.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari” PQ-92-sonli 2022.01.19. https://lex.uz/docs/5831865

3. Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T: “O`zbekiston”, 2017. –Б.14.

4. I.A.Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -: “O‘zbekiston”, 1997. –B. 173- 174.

5. Мирзиёев Ш. Выступление на торжественном мероприятии, посвященном 26-летию принятия Конституции Республики Узбекистан,7 декабря 2018 года. Газета «Народная слова», 8 декабря 2018 г., № 253 (7211).

6. Sh.M.Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston strategiyasi – Toshkent: “O`zbekiston”, 2021. –B. 115

7.“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4307-2019-yil 3-may https://lex.uz/docs/4320700

“EMPOWERING FUTURE EDUCATORS: COLLABORATIVE TRAINING PROGRAMS IN KOREA, CHINA, AND UZBEKISTAN FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT THROUGH EFFECTIVE TEACHING STRATEGIES AND CULTURAL EXCHANGE”

Xoshimov Lutfullo Xabibullo o‘g‘li

Doctoral student student the national institute of education and pedagogy named after Qori Niyazi.

In recent years, the global imperative of sustainable development has become increasingly urgent, requesting a complete response from educational systems all over the world. The collaborative training programs between Korea, China and Uzbekistan have significant opportunities to promote innovative pedagogical approaches, equipping the future teachers of the tools necessary to face the challenges relating to sustainability. These nations, with their unique socio-economic contexts and cultural heritage, are fundamental in the speech on sustainable development, presenting both the common points and the differences that can be exploited to enrich teachers' training paintings.

The facilitation of collaborative training initiatives between these countries not only addresses the specific educational needs pertinent to each context, but it also serves to align the educational objectives with the United Nations sustainable development objectives (SDG) wider. Since educators form the first line of social development, the requirement to insert them with skills that give priority to sustainability can catalyze a progressive cultural change within the teaching learning paradigm. These shifts can be obtained by promoting intercultural understanding, encouraging educators to adopt interdisciplinary approaches and promoting the critical thinking skills that are essential to navigate in the complexity of the challenges related to sustainability.

Collaborative programs can effectively cultivate a pedagogical environment in which the sharing of the best practices becomes an integral part of the training of teachers. For example, the integration of successful strategies from the dynamic response of Korea to e-learning technologies, the innovative Chinese green education initiatives and the emphasis of uzbekistan on the community-based learning models creates a solid curriculum oriented to sustainability. Within these collaborative paintings, educators can engage in exchanges that transcend geographical boundaries, allowing them to share insights on localized sustainability problems while drawing from a global knowledge deposit.

In addition, these collaborations can promote essential cultural exchanges for the development of the global skills of educators. By adopting a culturally reactive teaching approach, future educators can encourage a learning environment that reflects diversity and promotes inclusiveness. While they share their distinct cultural narratives, educators stimulate critical dialogues for sustainable practices that resonate in their local contexts. This crossed pollination of ideas supports the development of shaded understanding of sustainability, allowing educators to customize their teaching strategies to face localized challenges despite being connected to global tendencies.

In addition, collaborative training initiatives can exploit technology to improve learning experiences. For example, transnational online platforms and joint seminars not only facilitate the exchange of knowledge, but also create virtual networks in which teachers can learn from each other in real time. This technological integration is particularly vital in the context of sustainability, as it allows educators to collaborate in projects that face urgent environmental issues, thus promoting a practical understanding of the principles of sustainability in action.

In summary, the meaning of the collaborative training programs between Korea, China and Uzbekistan lies in their potential to create a new group of educators who are not only competent in their thematic areas but which are also equipped with a holistic understanding of sustainability. Through innovative pedagogical practices, cultural exchanges and strengthened global connections, these programs can significantly influence the panorama of teaching and learning, ultimately contributing to the progress of sustainable development within these countries and beyond., Sustainable development has been increasingly recognized as a crucial structure by international organizations such as the United Nations, which emphasizes the need for educational reforms to facilitate the achievement of sustainable development objectives (SDGs). These goals, which emphasize integrated approaches to environmental, social and economic issues, require focused focus on effective educational strategies to prepare future educators capable of promoting sustainability. This is particularly relevant in the context of Asia, where rapid industrialization and urbanization exacerbated environmental challenges and socioeconomic disparities, especially in countries such as Korea, China and Uzbekistan.

In Korea, the government has advanced in aligning educational policies with the sustainable development objectives through initiatives that incorporate environmental education into the national curriculum. However, they remain challenges in the treatment of profound cultural attitudes towards education and success that often prioritize academic performance on sustainability prospects (KIM,

2021). The need for educational reforms to integrate sustainability in teaching methodologies is fundamental, as demonstrated by studies suggesting the need for pedagogical innovations that promote critical thinking and problem solving skills skills (Savelyeva, 2022).

In China, the situation exhibits substantial progress and obstacles. Although the Chinese government has identified sustainable development as a central principle of its national policy, with strategic investment in green technologies, there is a gap recognized in teacher training programs focused on environmental education (Li &hang, 2020). The complexity of China's vast educational scenario, which includes several regional disparities, requires collaborative training efforts that not only improve the understanding of teachers' sustainability, but also equip them with tangible skills to transmit these values to students effectively. The emphasis on mechanical learning in many Chinese schools represents a challenge to innovative education practices that could instill better sustainable principles (Savelyeva, 2022). Uzbekistan, on the other hand, has a unique case in which post-soviet educational structures are still being restructured to accommodate the principles of sustainable development. The country began to formulate network possibilities for educators training, but these initiatives must face the significant challenge of outdated curricula and the lack of resources dedicated to addressing environmental issues (JUMAYEVA, 2021). The need for comprehensive educational reforms is critical here, creating a pressing demand for training programs that can promote collaborative strategies between Korea, China and Uzbekistan teachers, thus increasing their ability to combat sustainability challenges.

In addition, the need for cultural exchange between these nations can facilitate a more subtle understanding of the challenges of local sustainability. Collaborative training programs can create a platform for teachers to share innovative teaching best practices and strategies, promoting an environment in which cultural perspectives can shape discourse on sustainability in the classroom. For example, Korea's emphasis on technology in education combined with China's organized

approach to environmental governance, and Uzbekistan emerging commitments to sustainability can provide fertile ground for educators to develop contextualized teaching practices (Savelyeva, 2022).

In short, while the general strategies prescribed by international organizations establish a basis for sustainable development, unique cultural and systemic challenges present in Korea, China and Uzbekistan should be approached through directed educational reforms. These reforms should seek collaborative training opportunities that not only equate future educators with effective teaching strategies, but also adopt the richness of cultural exchange, facilitating a comprehensive approach to promoting sustainability in education throughout Asia., The historical context of educational collaborations between Korea, China and Uzbekistan reflects a dynamic interaction of cultural, political and economic factors that have shaped the educational landscape in these nations. The evolution of the associations dates back to the early 1990s, when Uzbekistan obtained the independence of the Soviet Union. The transition to a market economy required deep transformations in its educational system, which led to greater interest in international collaborations, particularly in the field of teacher training and the development of the curriculum. During this period, Uzbekistan established bilateral relations with several countries, including South and China Korea, to take advantage of their experience in education and adopt innovative teaching methodologies that could respond to local development needs (Rakhimov, 2022).

As Korea underwent rapid economic development and technological advance at the end of the 20th century, he recognized the potential of educational assistance as a soft energy tool to reinforce diplomatic and economic ties with neighboring countries. The establishment of the International Cooperation Agency of Korea (KOICA) in 1991 facilitated the expansion of the participation of Korea in educational associations, which aimed not only sharing its successful pedagogical approaches, but also to promote co-learning environments that emphasized the sustainable development objectives. In this regard, Korea's investment in

educational exchanges and professional training programs has established a basis for mutual cultural understanding and the dissemination of best practices in teaching (Kim and Rakhimov, 2020).

China, on the other hand, has been actively looking for educational associations as part of its broader international strategy since the early 2000s. The Belt and Road (Bri) initiative has further reinforced China's position in Central Asia by promoting educational exchanges and collaboration programs that emphasize shared development objectives. The strategic vision integrated into the Brise has encouraged China to share their experiences in sustainable development and the improvement of human capital, thus promoting educational initiatives in Uzbekistan that aim to integrate local needs with international standards. As a result, collaborative teacher training programs initiated by Chinese institutions often focus on equipping educators with pedagogical strategies that are aligned with both national policies and global educational trends (Zhang, 2021).

Cultural exchange serves as a critical component in the historical context of these educational collaborations. The interactions between Korean, Chinese and Uzbekos educators have facilitated intercultural dialogues that allow a more nuanced understanding of different pedagogical approaches and their relevance for local contexts. Programs such as joint workshops, teachers exchanges and collaborative research projects have allowed educators to explore and adapt effective teaching strategies that promote environmental sustainability and social equity. For example, the emphasis on learning -based learning in the teacher training of South Korea has found resonance within the Uzbek classrooms, allowing educators to involve students in practical initiatives oriented to the community that advance the sustainability objectives (Rakhimov, 2022).

In addition, the various historical trajectories of these nations, marked by variables educational philosophies and sociocultural experiences, further enrich the collaborative frameworks established in the teacher training programs. The incorporation of local cultural elements in the teaching methodologies demonstrates

an essential location process, so that the established educational concepts adapt to meet the specific needs and values of the Uzbeko context while based on the strengths of Korean and Chinese pedagogical practices (Nazarova, 2023).

Кроме того, подростковый возраст характеризуется физиологическими и эмоциональными изменениями, стремлением к независимости и повышенной чувствительностью к социальному мнению. Эти особенности требуют особого подхода при организации программ СЭО и вовлечении подростков в совместные действия с семьёй и махаллей.

Таким образом, эффективность программ, направленных на формирование ответственного принятия решений, существенно возрастает, если они строятся с учётом социокультурных реалий Узбекистана — как традиционных, так и современных. Только тогда они будут восприниматься подростками как релевантные и значимые.

Формирование у подростков способности к ответственному принятию решений требует системной, планомерной и межсекторальной деятельности. Ниже представлены ключевые практики и педагогические технологии, способствующие развитию данной компетенции.

Согласно модели CASEL, практическое применение СЭО должно быть интегрировано в школьную жизнь через уроки, внеклассные мероприятия и повседневное общение. Среди эффективных форм можно выделить:

Ролевая игра и моделирование ситуаций: подростки сталкиваются с моральными дилеммами и тренируются в принятии решений;

Классные собрания с открытыми дискуссиями: обсуждение тем, связанных с честностью, справедливостью, уважением;

Журналы размышлений и дневники решений: учащиеся фиксируют свои выборы, анализируют последствия, получают обратную связь;

Метод проектов: инициатива, исследование, командная работа и социальная ответственность формируют навыки долгосрочного мышления и коллективного принятия решений.

Пример: в одной из школ города Наманган был реализован проект «Я и моя махалля», где учащиеся выявляли актуальные проблемы местного сообщества, обсуждали их с аксакалами и предлагали возможные решения.

Таким образом, учебный процесс был интегрирован с реальными жизненными задачами.

Семья как партнёр школы может применять разнообразные стратегии формирования у подростков ответственности:

- **Семейные советы**, на которых совместно обсуждаются домашние обязанности, планируются семейные мероприятия, принимаются решения с учётом мнения подростков;
- **Рассказ родителями о собственных жизненных ситуациях** и том, как они принимали трудные решения;
- **Позитивная дисциплина**, ориентированная не на наказание, а на объяснение последствий поступков и развитие саморефлексии;
- **Участие в родительских клубах**, где обсуждаются подходы к воспитанию подростков в духе ответственности и осознанности.

В ряде регионов Узбекистана активно реализуются махаллинские инициативы, направленные на социализацию подростков:

- **Институт наставничества (устоз-шогирд)**: старшие уважаемые члены общины передают подросткам знания, опыт и жизненные ценности;
- **Молодёжные клубы и шуро** при махаллях, где подростки участвуют в обсуждении и реализации социальных проектов;
- **Совместные субботники, праздники и культурные мероприятия**, в ходе которых подростки учатся координировать действия, договариваться и решать задачи коллективно;
- **«Махаллинская школа жизни»**, в рамках которой подростки проходят серию тренингов по саморазвитию, этике, праву и психологии.

Наиболее устойчивый эффект достигается при условии интеграции усилий школы, семьи и махалли. Так, в Самаркандской области с 2022 года реализуется межведомственный проект «Маънавиятли авлод», включающий:

- Проведение совместных тренингов для родителей и педагогов;
- Сценарии взаимодействия семьи и школы в решении кейсовых задач;

- Создание цифровых платформ для отслеживания достижений подростков в СЭО-навыках;
- Регулярные собрания с участием представителей махалли, инспекторов профилактики и школьной администрации.

Эти меры обеспечивают согласованное воспитательное воздействие и создают для подростка единое пространство, в котором осознанное принятие решений становится нормой поведения.

Для подтверждения эффективности сотрудничества школы, семьи и махалли в развитии навыков ответственного принятия решений рассмотрим ряд практических кейсов из разных регионов Узбекистана, основанных на данных полевых исследований, аналитических отчётах и интервью с педагогами и активистами махалли.

Кейс 1: «Круг доверия» (Ташкентская область)

В одной из школ Зангиатинского района в 2021 году по инициативе педагогов был реализован проект «Круг доверия», направленный на формирование у подростков способности к открытому диалогу, выражению эмоций и принятию коллективных решений. В проект были активно вовлечены представители родительского комитета и аксакалы махалли.

Методы:

- еженедельные встречи с обсуждением жизненных ситуаций;
- совместные тренинги подростков и родителей по принятию решений;
- игровые дебаты и «школа аргументации».

Результаты:

- повысился уровень эмпатии и взаимопонимания в школьной среде;
- сократилось число конфликтов в классах;
- родители отмечали рост самостоятельности у подростков при решении бытовых и учебных задач.

Кейс 2: «Семья как совет» (Ферганская область)

Проект реализован в 2022 году в нескольких школах Ферганского района в рамках совместной программы Министерства дошкольного и школьного образования и махаллинских комитетов. Основная цель — формирование культуры семейного совета как формы принятия коллективных решений.

Механизмы:

- проведение семинаров для родителей и подростков;
- внедрение дневников семейных решений;
- сопровождение со стороны школьного психолога и участкового инспектора.

Эффекты:

- повысилось доверие между подростками и взрослыми;
- дети стали активнее участвовать в распределении семейных обязанностей;
- отмечено снижение тревожности у учащихся, вовлечённых в практику совещательных форм.

Кейс 3: «Шогирдлик мактаби» — школа наставничества (Бухарская область)

В рамках программы «Ёшлар — келажагимиз» в 2023 году в махалле «Гиждувон-3» была организована «Шогирдлик мактаби», где подростков обучали ремёслам, социальным навыкам и искусству принятия решений на практике.

Формат:

- подростки проходили стажировку у ремесленников и социальных работников;
- раз в неделю проводились мастер-классы и «сессии жизненных выборов»;
- совместное участие родителей и махаллинских активистов.

Итоги:

- подростки продемонстрировали рост самооценки и уверенности в себе;
- большинство участников успешно реализовали мини-проекты (например, пошив школьной формы, организация спортивных мероприятий);
- наставники отметили зрелость в рассуждениях подростков и способность учитывать интересы других при принятии решений.

Кейс 4: «Молодёжь и справедливость» (город Нукус)

В сотрудничестве с местными органами самоуправления и педагогами средней школы №14 был организован проект по правовому воспитанию и развитию способности к этически обоснованным решениям. Проект включал:

- встречи с судьями, прокурорами, психологами;
- анализ реальных правовых кейсов;
- инсценировки судебных заседаний с участием старшеклассников.

Выводы:

- подростки начали рассматривать последствия своих поступков с точки зрения закона;
- развились навыки аргументации и публичной речи;
- повысился уровень правовой культуры в школе и махалле.

Обобщение:

- Ключевые факторы успешного партнёрства:
- координация действий всех сторон;
- доверие и открытая коммуникация;
- культурная релевантность программ;
- практическая направленность и включённость подростков в реальные процессы.

Исходя из теоретических положений и эмпирических наблюдений, сформулируем практические рекомендации, направленные на повышение

эффективности сотрудничества в развитии у подростков навыка ответственного принятия решений.

Рекомендации для педагогов:

- Внедрять элементы СЭО в учебные дисциплины, особенно в предметы обществоведческого и гуманитарного цикла;
- Использовать активные методы обучения: кейс-метод, дебаты, ролевые игры, анализ жизненных ситуаций;
- Организовывать совместные мероприятия с участием родителей и представителей махалли (форумы, квесты, тренинги);
- Проходить регулярную переподготовку и курсы повышения квалификации по тематике СЭО и подростковой психологии.

Рекомендации для родителей:

- Практиковать открытый стиль общения с подростком, интересоваться его мнением и вовлекать в принятие семейных решений;
- Обсуждать с детьми последствия различных поведенческих сценариев;
- Поощрять инициативу и самостоятельность при выборе увлечений, хобби, жизненных целей;
- Вести совместные семейные дневники или планеры, фиксируя достижения и обсуждая планы.

Рекомендации для активистов махалли:

- Развивать молодёжные структуры в махалле (шуро, волонтёрские отряды, клубы по интересам);
- Сотрудничать со школами и родительскими комитетами при организации мероприятий на морально-этические темы;
- Внедрять программы наставничества на основе модели устоз-шогирд;
- Привлекать подростков к реальным инициативам в жизни махалли (благоустройство, помощь нуждающимся, экологические акции).

Таким образом, развитие у подростков навыка ответственного принятия решений в рамках социально-эмоционального обучения возможно и необходимо при условии скоординированного взаимодействия школы, семьи и махалли. Каждая из сторон обладает уникальным ресурсом влияния на становление личности подростка, и только в совокупности их усилия приводят к устойчивым результатам.

Учитывая культурную специфику Узбекистана, необходимо формировать модель СЭО, в которой традиционные ценности и современные педагогические подходы дополняют друг друга. Вовлечение подростков в реальные процессы принятия решений, поддержка их инициатив, развитие эмпатии, морального суждения и чувства гражданской ответственности — ключ к подготовке гармонично развитого поколения "Янги Ўзбекистон".

Будущие исследования могут быть направлены на разработку индикаторов оценки уровня сформированности компетенции принятия решений у подростков, а также на сравнительный анализ эффективности различных форм партнёрства в разных регионах страны.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1.CASEL. (2020). Core SEL Competencies. Retrieved from https://casel.org

2. UNESCO MGIEP. (2019). SEL for SDGs: Nurturing Social and Emotional Learning to Advance the Sustainable Development Goals.

3. Постановление Президента Республики Узбекистан № PF-60 от 28.01.2022 г. "О стратегии развития системы образования до 2030 года".

4. Закон Республики Узбекистан "Об образовании" в редакции от 23.09.2020 г.

5. Закон Республики Узбекистан "О гарантиях прав ребёнка" (2010).

6. Закон Республики Узбекистан "О махаллинской системе" №ЗРУ-660 от 05.09.2021 г.

7. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан № 240 от 13.05.2019 г. "О мерах по укреплению сотрудничества между образовательными учреждениями и органами махалли".

8. Выготский Л.С. (1978). Мышление и речь. — М.: Педагогика.

9. Elias, M. et al. (1997). Promoting Social and Emotional Learning: Guidelines for Educators. ASCD.

10. Нарбаева Т.К. и др. (2021). Социально-эмоциональное воспитание: теория и практика. — Ташкент: Фан ва технология.

11. Юсупов Р.М. (2020). Махалля как фактор формирования нравственного сознания подростков. — Ташкент: Академнашр.

12. Абдуллаева Д.М. (2022). Семейное воспитание в условиях трансформации социальных ролей. // Образование и общество, №2.

TARBIYAVIY JARAYONDA MAKTAB, OILA VA MAHALLA HAMKORLIGINING AHAMIYATI: TARBIYANING DOLZARBLIGI, KELAJAKDAGI VAZIFALAR VA YECHIMLAR

Madina Imomova

TPMI tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada tarbiyaning inson hayotidagi o‘rni, uning milliy va diniy asoslari, shuningdek, maktab, oila va mahalla institutlarining hamkorligining ahamiyati yoritiladi. Mutafakkirlar, jumladan jadidlar, zamonaviy olimlar fikrlari hamda islom dinidagi hadislar orqali tarbiyaning muhimligi isbotlanadi. Amaldagi holatlar, muammolar va ularni hal qilishga doir takliflar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Tarbiya, maktab, oila, mahalla, jadidlar, hadis, insoniylik, hamkorlik, muammolar, yechimlar.

Kirish. Tarbiya — bu inson qalbini va ruhini yuksaltirish, uni yaxshilikka, odobga, bilimga yetaklash jarayonidir. Buyuk jadid olimimiz Muhammad Yusufxon Avloniy aytganidek, “Tarbiyasizlik hayotning yomoni, hatto falokatidir.” Shu

so‘zlar tarbiyaning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni qanchalik muhimligini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

Dunyodagi eng yirik faylasuflar ham tarbiyani insoniyat taraqqiyotining poydevori deb bilishgan. Misol uchun, Confucius (Konfutsiy) “Agar ta’lim va tarbiya bo‘lmasa, davlatlar barqaror bo‘lolmaydi,” degan. Buyuk mutafakkir Immanuel Kant esa, “Tarbiyalangan inson – ijtimoiy barqarorlik va axloqiy yuksalish garovi,” deb ta’kidlagan.

Islom dinida ham tarbiya, axloqiy kamolat, insoniylikka erishish eng ustuvor vazifa sifatida ko‘riladi. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) hadislarida “Eng yaxshi insonlar – odamlarga foydasi tegadiganlardir,” va “Farzandlaringizga yaxshi tarbiya beringlar,” deb ta’kidlangan.

Bu borada Abdulla Avloniy fikrlari alohida takitlab o‘tilishi lozimligini prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev taktlaganlar “Biz uchun hech qachon kun tartibidan tushmaydigan yana bir o‘ta muhim masala borki, unga alohida to‘xtalib o‘tish zarur deb bilaman, u ham bo‘lsa, unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodimiz, farzandlarimiz tarbiyasi bilan bog‘liq. Buyuk bobomiz Abdulla Avloniy aytganidek, bu masala biz uchun, haqiqatdan ham ,yo hayot-yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidir.” [1]

Shuningdek, u bola tarbiyasining roli haqida fikr yuritib: “Agar bir kishi yoshligida nafsi buzulib, tarbiyasiz, axloqsiz bo‘lib o‘sdimi, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq, yerdan turib yulduzlarga qo‘l uzatmak kabidir”[2],-deydi. Uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkibi to‘g‘risida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolalarning atrofidagi kishilar ahamiyatga ega. O‘zbek pedagogikasi tarixida Avloniy- birinchi “Pedagogika”, ya’ni bola tarbiyasining fanidir” deb ta’rif berganlar. Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda 4 bo‘limga ajratadi:

1. Tarbiyaning zamoni.
2. Badan tarbiyasi.
3. Fikr tarbiyasi.
4. Axloq tarbiyasi hamda uning ahamiyati xususida fikr yuritadi.

1Shavkat Mirziyoyev.Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish- xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. “Xalq so‘zi”, 2017-yil 4-avgust .

“Tarbiyaning zamoni” bo‘limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini bu ishga hammani: ota-ona, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakli- gini

ta’kidlaydi. Avloniy, tarbiya xususiy ish emas, milliy ijtimoiy ishdir. “Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot- yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir”,[3]-deb ta’kidlaydi. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatning qudratli bo‘lishi avlodlar tarbiyasiga ko‘p jihatdan bog‘liq, deb ta’kidlaydi adib.

Tarbiya zurriyot dunyoga kelgandan boshlanib, umrning oxiriga qadar davom etadi. U bir qancha bosqichdan – uy, bog‘cha, maktab va jamoatchilik tarbiyasidan iborat bo‘ladi. Avloniy tarbiyaning doirasini keng ma’noda tushunadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo‘ymaydi. U birinchi navbatda bolaning sog‘ligi haqida g‘amxo‘rlik qilish lozimligini uqtiradi.

Tarbiyaning mohiyati va inson hayotidagi ahamiyati

Tarbiya so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, ma’nosi — “etishtirish”, “parvarish qilish” degan ma’noni anglatadi. Tarbiya jarayonida insonning ma’naviy, axloqiy, intellektual va jismoniy fazilatlari shakllanadi.

Tarbiyalangan shaxs:

Axloqiy qadriyatlarga ega bo‘ladi, jamiyatda o‘z o‘rnini topadi;

O‘zini boshqara oladi, mas’uliyatni anglaydi;

Vataniga, millatiga sadoqatli bo‘ladi;

Qiyinchiliklarga sabr bilan yondashadi;

Ilm olish va boshqalarni o‘rganishga intiladi.

Tarbiya yo‘li millatlarni buyuklik sari yetaklaydi, madaniyat va ma’naviyat rivojlanishining asosi hisoblanadi.

Tarbiyaning asosiy manbalari: jadidlar va islom dinidagi qarashlar

Jadidlarning tarbiyaga oid qarashlari

Jadidlar asr boshida millatni yangilash, uni dunyo ilm-fani va madaniyati bilan uyg‘unlashtirish maqsadida tarbiyaga katta ahamiyat berishgan. Avloniy, Fozilxon Xo‘jayev, Ismoil G‘azzoliy kabi olimlar ta’lim va tarbiyani millatni saqlash va taraqqiy ettirish kaliti deb ko‘rganlar.

Abdulla Avloniy shunday degan: ”Ilm bilan tarbiya uyg‘unlashmasa, inson shakllanmaydi. Tarbiya – bu shaxsni halol, adolatli, bilimdon qilib tarbiyalash san’atidir.”

Islom dinida tarbiya: islomda tarbiya – ruhiy va axloqiy kamolotga yetaklovchi asosiy yo‘l. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) aytgan hadislar:

- “Insonlar orasida eng afzali — odamlarning foydasi ko‘proq bo‘lganidir.” (Hadis)
- “Har bir bolaga yaxshi tarbiya berish ota-onaning burchidir.” (Hadis)
- “Har bir inson o‘zining yuragidagi tozalikka qaramay, yaxshi ahloq bilan yuksaladi.” (Hadis)

Bu hadislar tarbiyaning nafaqat ilm olish, balki odob-axloq, insoniylik va mehr-muruvvat bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda tarbiyani samarali tashkil etishda maktab, oila va mahalla institutlarining o‘zaro hamkorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda amaliyotda:

- Maktablarda tarbiyaviy ishlar fan o‘qitish fonida ikkinchi darajali vazifaga aylanmoqda;
- Ota-onalar ko‘pincha faqat nazoratchi sifatida ishtirok etmoqda, tarbiyaning mohiyatini to‘liq anglamayapti;
- Mahalla faolligi yetarli emas, yoshlarni ijtimoiy va madaniy hayotga jalb qilish past darajada;
- Qonun va qarorlarga amal qilishda ijrodagi kechikishlar mavjud;
- Resurslar va tashkiliy imkoniyatlar kam;
- Hamkorlikning tizimli mexanizmi yetishmaydi.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

1. *Maktab–oila–mahalla uchligining samarali integratsiyasini ta’minlash uchun “Raqamli hamkorlik platformasi” yaratilsin*. Har bir maktabda ota-onalar, mahalla faollari va pedagoglar o‘zaro muntazam muloqotda bo‘lishi, tarbiyaviy jarayonlarni onlayn kuzatish imkonini beruvchi maxsus platforma joriy etilishi lozim. Bu platforma orqali bolalarning tarbiyaviy holati, muammolari va yutuqlari haqida tezkor axborot almashinuvi amalga oshiriladi. Natijada, har bir tarbiyaviy holatga o‘z vaqtida va aniq javob qaytarish imkoniyati yuzaga keladi.
2. *Mahallalarda tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish uchun “Tarbiyaviy murabbiylar” tizimi yo‘lga qo‘yilsin*. Har bir mahallada yoshlar bilan muntazam ishlaydigan, ularga axloqiy, ma’naviy va madaniy qo‘llab-quvvatlash beradigan malakali murabbiylar tayinlansin. Ular maktab va ota-onalar bilan yaqindan hamkorlikda yoshlarning to‘g‘ri tarbiyalanishini nazorat qilsin. Ushbu murabbiylarga mahalliy hokimlik tomonidan maxsus imtiyozlar va rag‘batlantirish tizimi joriy etilishi zarur.
3. *Ota-onalarning tarbiyadagi faolligini oshirish uchun maxsus seminarlar va treninglar o‘tkazilsin*. Ota-onalarga yoshlar tarbiyasidagi yangi metodologiyalar, psixologik yondashuvlar va oilaviy muhitni yaxshilash yo‘llari haqida muntazam o‘quv kurslari tashkil qilinsin. Bu ishni maktablar, mahallalar va mahalliy hokimliklarning ta’lim bo‘limlari birgalikda olib borsin. O‘qitilgan ota-onalar jamiyatda tarbiyaga oid mas’uliyatni chuqurroq anglab, faol ishtirok etadilar.
4. *Tarbiya faoliyatiga alohida moliyaviy va moddiy rag‘batlantirish tizimi joriy etilsin.* Tarbiyaviy ishda yuqori natijalar ko‘rsatgan pedagoglar, ota-onalar va mahalla faollari uchun yil yakunida maxsus mukofotlar, imtiyozlar va stipendiyalar taqdim etilsin. Bu tizim ularga motivatsiya beradi, samaradorlikni oshiradi va tarbiyaning jamiyatda mavqeini mustahkamlaydi.

5. *Maktablarda tarbiyaviy ishlarni fanlardan ajratilgan alohida soat sifatida kiritish*. Tarbiya soati doirasida axloq, vatanparvarlik, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, diniy bag‘rikenglik va milliy qadriyatlarni o‘rgatish bo‘yicha muntazam darslar tashkil etilsin. Bu yoshlarni butunlay yaxlit inson sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.
6. *Mahallalarda yoshlar uchun ijtimoiy, madaniy va sport tadbirlarini kengaytirish*. Yoshlarning salbiy illatlardan himoyalanishi, ijtimoiy faolligi va sog‘lom hayot tarzini shakllantirish uchun mahallalarda ko‘proq sport to‘garaklari, madaniy tadbirlar, kitobxonlik aksiyalari va ijtimoiy loyihalar tashkil qilinsin. Bu nafaqat ularning tarbiyasini mustahkamlaydi, balki jamiyatga foydali faoliyatga yo‘naltiradi.
7. *Qonunchilik bazasini kuchaytirish va ijro nazoratini samarali yo‘lga qo‘yish.* Tarbiya sohasidagi mavjud qonunlar va qarorlarning ijrosi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatilsin. Hududiy va mahalliy hokimliklarda tarbiyaviy ishlarning samaradorligini baholovchi maxsus inspeksiya yoki monitoring guruhi tashkil qilinsin. Bu guruhlar tarbiyaviy ishlarning bajarilishini tizimli ravishda kuzatib borib, muammolarni vaqtida bartaraf etish choralarini ko‘rsin.
8. *Tarbiyaviy ishlarni ilmiy asoslash va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish.* Ta’lim va tarbiya jarayonida pedagogika, psixologiya va axloqshunoslik sohalarining ilmiy yutuqlaridan foydalanish, shuningdek, raqamli vositalar va interaktiv metodlarni keng qo‘llash zarur. Bu yoshlarning qiziqishini oshiradi, tarbiyaning samaradorligini oshiradi.

Xulosa. Tarbiyaning inson hayoti va jamiyat uchun ahamiyati hech qanday so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydigan darajada beqiyosdir. Buyuk jadid olimlarimiz, millatimizning ma’rifat sohiblari va buyuk mutafakkirlar tarbiyani nafaqat shaxsni kamolga yetkazish, balki butun bir millatning baxt-saodatli kelajagining poydevori sifatida ko‘rganlar. Islom dinining buyuk ta’limotlari esa, tarbiyani qalblarni nurga to‘ldiruvchi, odamlarni yaxshilikka, adolatga va mehrga yetaklovchi asosiy kuch deb e’tirof etadi. Bugungi murakkab va o‘zgaruvchan zamonda, maktab, oila va

mahalla o‘rtasidagi mustahkam, samimiy va faol hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, qonunlarni nafaqat qog‘ozda, balki amalda to‘liq bajarishni ta’minlash hayotiy zaruratdir. Har bir bola uchun sog‘lom, bilimga chanqoq, ma’naviy barkamol muhit yaratmasak, kelajak avlodni chinakam inson qilib tarbiyalay olmaymiz. Ana shunday uzviy hamkorlik va jamoaviy mas’uliyat asosida, farzandlarimiz nafaqat yuksak bilimli, balki qalbida mehr, vatanparvarlik, insoniylik va milliy qadriyatlarni ulug‘laydigan shaxslar bo‘lib voyaga yetadilar. Shu tariqa biz nafaqat millatimizni, balki insoniyatni ham nur bilan to‘ldiradigan, yuksak ma’naviy darajada taraqqiy etgan jamiyatni barpo etamiz. Tarbiyaga qaratiladigan e’tibor va mehr-muhabbat – bu buyuk kelajak sari qilinadigan eng muhim qadamlardan biridir. Uning ildizlari mustahkam bo‘lsa, mevasi doimiy va beqiyos bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Avloniy, M.Y. “Tarbiya va ma’rifat,” Toshkent, 1903.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. “Oila–mahalla–ta’lim” integratsiyasi konsepsiyasi, 1993.
4. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2023-yil 282-sonli buyrug‘i.
5. Immanuel Kant, “Inson tarbiyasi haqida asarlar.”
6. Payg‘ambar Muhammad (s.a.v) hadislar to‘plami.
7. Qodirov A. “Tarbiya nazariyasi va metodikasi,” Toshkent, 2021.

NASRIY ASARLAR VOSITASIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING KITOBXONLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Kamoljonova Dilfuza Xoldorovna

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik yoshdagi o‘quvchilarda kitobxonlik kompetensiyalarni rivojlantirishda ota-onaning o‘rni, samarali metodlar, mavziga oid xalqaro tajribalar to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Mutolaa, ertak, hikoya, fantastik qissa, samarali metodlar, kitobxon o‘quvchi.

Kitob va kitobxonlikni vazifasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi. **Kitob** so‘zining lug‘aviy izohi – yozuv, degan ma’noni anglatadi. **Kitob** – axborot yoki g‘oyani o‘zida jamlagan, biror bilimni saqlash va tarqatish vositasidir, **kutubxona** esa nafaqat kitoblar va adabiyotlar saqlanadigan joy balki, kishiga ilmiy-estetik zavq beradigan ilmxona hisoblanadi. **Kitobni mutolla qilish jarayoni kitobxonlik,** deb ataladi. Inson yashashi uchun suv, havo, tuproq qanchalik kerak bo‘lsa, ong-u tafakkurini oziqlantirish uchun kitob mutolaasi ham shu qadar zarur[19]. Kitob o‘quvchiga bilim berish bilan birga yangi g‘oyalarga ilhomlantiradi, kitobxon ijodkorlik qobiliyatini shakllantiradi. Ko‘p kitob mutolaa qilgan kishilarning dunyoqarashi keng, fikrlash qobiliyati teran bo‘ladi. Inson miyasida joylashgan neyronlarning tuzilish shakli – u mutlaa qilgan adabiyotlarning miqdoriga bog‘liqligi bugun fanda o‘z isbotini topgan. Badiiy kitoblar ham ilmiy-ommapob kitoblar kabi muallif, olim, yozuvchining hayotiy tajribalar asosida yoziladi. Kitob mutolaasi o‘quvchida to‘g‘ri fiklash, voqea-hodisani tasavvurda obrazlantirish, o‘qigan voqea-hodisalari ustida xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Ilmiy va badiiy kitoblar inson aqlini charhlagani bois kitobxonga hayot yo‘llarida duch keladigan muammolarga oson yechim topishga ko‘maklashadi.

Mualliflik ta’rifimizcha, **kitob** – ta’lim jarayoninig asosi bilim olishning bosh vositasi hisoblanadi. Kitob sahifalarida bilim va ma’lumotlar sestemetik tarzda o‘rin oladi. Kitob kitobxonda bilim va ma’lumotlarni o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantiradi. **Kitobxonlik** – ilmiy, ommabop, badiiy kitoblarni muntazam mutolaa qilish jarayoni orqali rivojlanadi.

Kitob mutolaasining boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tarbiyaga ta’siri. Kitob mutolaasining bola tarbiyasidagi roli haqida so‘z yuritishdan avval tarbiya

[19] D.Kamoljonova.[67] “Yosh avlodda kitobxonlik kompetensiyalarini rivojlantirishning istiqbolli tajribalari”. Res. konf. to‘plami. 30.01.2025. 77-bet.

atamasining lug‘viy ma’nosini ko‘rib chiqamiz. Avloniy tarbiyani shunday tushuntiradi[20]: “Tarbiya”, “pedago‘giya”, ya’ni bola tarbiyasining fani demakdur...

Kitoblar tarbiya vositasi hisoblanadi. Kishilar ertak, matal, afsona, rivoyat, maqol kabilardan tarbiya vositasi sifatida foydalanilgan.

Kichik yoshdagi o‘quvchilar kitob mutolaasi o‘quvchida empatiya **(SEL) boshqalarning hissiyotlari – his tuyg‘u, ichki kechinmalarini tushinish va baham ko‘rish qobiliyati)ni shakllantiradi.** Kitobxon mutolaa jarayonida o‘zini asar qahramonlari obrazida tasavvur qiladi. Miya yarim shari o‘qigan ma’lumot va haqiqiy hayotdagi ma’lumot bilan bir xil qayta ishlaydi. Nutq uchun mas’ul bo‘lgan chap miya sharining yuqori qismida asar qahramoni aslida nima qilyapti, deb o‘ylashga majbur qiladigan jarayon kechadi[21]. Turkiyalik pedagok Duygu Yamanning fikricha, Bu holatda kunning aksar qismini garjetlar bilan o‘tkazayothan bolada sodir bo‘lmaydi. Ya’ni, bir asarni bola bosma shakldagi kitobdan olgan ruhiy, nutqiy, aqliy rivojini garjet orqali o‘qigat vositasidan olmaydi. Psixologiyada bu hodisa “bilimlarni umumlashtirish” deb nomlanadi.

Mutolaa jarayonida o‘quvchi ruhan o‘zini asar qahramoni obrazida tasavvur etadi.

Asar qahramonlari obrazi asosida o‘quvchi o‘zida bag‘rikenglik, mehr-shavqat, tog‘rilik, halollik, mehnatsevarlik kabi ijobiy hislatlarni tarbiyalaydi. “Qimmat va Zumrad”, “Egri va To‘g‘ri”, “Uch og‘a-ini botirlar”, “Ur to‘qmoq” kabi o‘zbek xalq ertaklari, “Sariq Devni minib” (X.To‘xtaboyev), “Meshpolvon” (A.Obidjon), “Kokilli ilon” (M.Xamidova) asarlari kitobxonda mana shunday ijobiy fazilatlarni tarbiyalovchi badiiy asarlar hisoblanadi. Kitobxon o‘quvchining dunyoqarashi keng bo‘ladi. Ingliz yozuvchisi Jozef Konrad fikricha muallif kitobning yarmini, o‘quvchi esa qolgan qismini yozadi. Mahoratli yozuvchi o‘z asarida faqat zarur narsa haqida hikoya qiladi, o‘quvchini kitob o‘qish jarayonida qolgan elementlarni tasavvurida o‘zi to‘ldirishga undaydi. Shu sabab bitta asarni

[20] A.Avloniy “Tanlangan asarlar”.: – T. “Zabarjadmedia”, 2022.
[21] Duygu Yaman “Kitob mutolaasining bola ruhiyatiga ta’siri” ”Yosh avlodda kitobxonlik kompetensiyalarini shakllantirishning istiqbolli tajribalari. To‘plam:– T.: “Shaffof”, 2025.

turli xil o‘quvchi turlicha talqin qiladi. Xayol qilishga qiynaladigan kishilarga badiiy kitob o‘qish tavsiya etiladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda: “Bugun bitta kitob o‘qigan bola, ertaga televizor ko‘rib o‘tirgan o‘nta bolani boshqarishi mumkin”[22] . Buning uchun bolalarni kitobga muhabbat ruhida tarbiya qilish zarur. **Kitobxonlik ko‘nikmasi deb – kitob o‘qish qoidalaridan boxabar bo‘lish, mutolaaga qiziqish, kitobxonning ehtiyojidan kelib chiqqan holda kitob (badiiy asarni) tanlashi, kitob o‘qishga odatlanishi, bu harakatni izchil va uzluksiz davom etishi, o‘qigan kitobning mazmunini anglash, kitob mutolaasidan keyin taassurotlarni ifoda etish ko‘nikmalarning malakaga aylanishini ta’minlashga qaratilgan pedagogik faoliyat jarayoniga aytiladi[23].**

Bugun butub dunyo pedagoglari va psixologlarining ta’kidlashicha, bolalar va o‘smirlar o‘rtasida kitob mutolaasiga qiziqish kamayib bormoqda kishilar axborotga bo‘lgan ehtiyojini elektron shaklda olmoqda. Elektron axborot vositalari tezkor va qulay bo‘lishiga qaramay, ma’lumotlarning ishonchliligi va xavfsizligi kafolatlanmagan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kitob o‘qishga qiziqtirish, ularni mutolaa jarayoniga jalb qilish murakkab vazifa bo‘lib qolmoqda. 2023-yil 3-iyun kuni Respublika bolalar kutubxonasi tomonidan o‘tkazilgan “XXI asr Bolalar kitobxonligi: muammolar va yechimlar” Respublika konferensiyasida Respublika bolalar kutubxonasi tomonidan keltirilgan ma’lumotda 1994-yil bolalarning kitob o‘qish koyifisenti 25% ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2023 – yil bu ko‘rsatkich 15% ni tashkil qilgan. Ilmiy tadqiqotimiz natijasida to‘plangan ma’lumotlar orqali shu ko‘rsatgich ma’lum bo‘ldiki, 2023-2025- yillar holatiga ko‘ra bugun **Respublika kutubxonasi** Kutubxona fondida 2019-yil hisobi bo‘yicha, 159724 mingdan ziyod adabiyotlar va 100 dan ortiq boshqa nashrlar mavjud. Kutubxonada ingliz, rus, turk tildagi kitoblar bilan bir qatorda, ko‘zi ojizlar va ko‘rish imkoniyati cheklangan insonlarga moslangan kitoblar ham mavjud. Shuningdek, o‘quvchilarga kerakli

[22] Sh.Mirziyoyev Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi.04.08.2017.
[23] Dilafruz Muminova “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish mexanizmlari”.: – NamDu 2017.

ma’lumotlarni audio va video formatlarda olishlari uchun ham imkoniyatlar yo‘lga qo‘yilgan[24]. Mavjud imkoniyatlarga qaramay, kutubxona respublikada barcha maktab o‘quvchilarining kutubxonaga a’zoliguni to‘liq qamrab olmagan.

Toshkent shahri kesimida olinsa, bola soniga nisbatan bittadan badiiy va ilmiy adabiyotlar taqsim etilmayotgan maktablar mavjud. Bu ko‘rsatgich me’yoriystandartlarga asosan o‘quvchi boshiga 3 donadan ilmiy va badiiy adabiyotlar mos kelishi, maktab kutubxonalari eng so‘nggi adabiyotlar bilan boyitib borilishi zarur. Xo‘sh, butun mamlakat bo‘ylab kitob mutolaasiga rag‘batni oshirish, kitobxonlar safini yanada kengaytirish uchun yana qanday ishlar amalga oshirilishi kerak? Kitobning bola tarbiyasida o‘rni beqiyos. O‘quvchilar kitob mutolaasiga qiziqishi uchun kitobga olib boradigan yo‘llar yaqin va oson bo‘lishi kerak. Quyidagi havolada o‘quvchilarni kitobxonlik kompetensiyasini oshirishning samarali usullarini tahlil qilib o‘tamiz:

– ta’lim muassasalarining katta qismida kutubxonalar maktabning eng chet qismida joylashadi. Kutubxonalar o‘quvchilar uchun markazda, xatto kichik tanaffusda ham bora olishdek qulay yerda joylashishi zarur. Oshxona, o‘qituvchilar xonasi, sport zali, o‘quv qurollari sotiluvchi rastalar maktabning kirish qismida, hammabop joyida. Kutubxonalar tarbiya, mushohadakorlik, ma’naviy barkamollik manbai bo‘lgani bois maktabning qulay kirish qismiga joylashtirilishi zarur;

– kutubxona xodimlariga nisbatan, kutubxonachilarning esa o‘z ishiga nisbatan munosabatini o‘zgartirish kerak. Rivojlangan davlatlardagi mavjud bolalar kutubxonalarida mavjud barcha kitoblar mazmunini yoddan biladigan, o‘zida artistik, psixologik, kitobning adabiy-badiiy janrlarini yaxshi biladigan mutaxassislar kutubxonachik ishlariga jalb etiladi;

– kutubxonadagi kitoblar eksponat sifatida emas, bolaga bilim beruvchi vosita sifatida qaralishi zarur;

[24] www .wekepediya.uz

– maktab kutubxonalaridagi kadrlar qo‘nimsizligi odatiy holga aylangan, kutubxonachi kichik yoshdagi kitobxonga biror adabiyotni tavsiya etishdan avval o‘zi shu kitoblarni mutolaa qilgan bo‘lishi zarur;

– oilada, sinfda kitobxonlik muhitini tashkil qilish. Finlandiya, Germaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy, Malaziya davlatlarida bu tajriba o‘zining istiqbolli samaras ani ko‘rsatib kelmoqda. Yuqoridagi mamlakatlarda ota-onalar avvolo o‘zlarida, keyin esa farzandlarida kitobxonlik kompetensiyalarini shakllantiradilar. Chunki kichik yoshdagi bolala “Kitob o‘qi!” degan so‘zga emas, balki kattalarning xatti-harakatlariga nisbatan taqlid qiladi. Kitob o‘qiladigan xonadonlarda mutolaaga mehr qo‘ygan bolalar kamolga yetadi. Albatta, bu mutlaq haqiqat emas. Kitobi yo‘q uylarda ham kitobxonlar bor. Ammo hamma joyda, har doim ham emas. Oilalarda onalar ro‘zg‘or ishi bilan band, farzandining ust-boshi, ovqatlanish tartibiga e’tibor qaratadi-yu ammo u bilan birga kitob o‘qish, o‘qiganlarini tahlil va mushohada qilishga vaqti, toqati yetmaydi.

Kitobxonlikni keng targ‘ib etishning muhim omillaridan biri bu – jamoat joylarida bolalar, o‘smirlar, kattalar uchun kitob yacheykalarini tashkil qilish. Mazkur loyihalar homiylik asosida yo‘lga qo‘yilib, nashriyotlar bilan hamkorlikda bekatlar, bozorlar, savdo rastalari oldiga o‘rnatiladi. Bolalarni kitobga qiziqtirishda pedagoglardan tashqari ota-onalar ham bolaga qanday kitob ularning yosh hususiyatlari, qiziqishlariga mos kelishinini bilishlari zarur.

Kitobxonlikni targ‘ib qilishda yangi nashr qilingan asarlar reklamasini ko‘cha bannerlari, axoli transportlari, telivizor, radio va internet tarmog‘ida keng yo‘lga qo‘yishning kompleks chora-tadbirlarini ishlab chiqish zarur.

Nima haqida ko‘p gapirilsa, fikr yuritilsa, targ‘ibot va tashviqot etilsa, o‘sha narsa, tez ommalashadi. Ilmiy-tadqiqot ishi yuzasidan Toshkent shahridagi o‘rta maktablarda bo‘ldik. U yerdagi kutubxonalar fondi, o‘quvchilarning mutolaaga qiziqishi, bolalar uchun nashr qilinadigan gazeta va jurnallar tiraji, o‘quvchilarning qaysi turdagi kitoblar mutolasiga qiziqishini o‘rgandik. Aksar maktablarda kutubxonalar o‘quv xonalaridan uzoqda, kitoblar esa yo‘qolib qolmasligi uchun

uyga berilmasligining guvohi bo‘ldik. Tadqiqotlarimiz natijasiga ko‘ra, o‘quvchilar kitob mutolaa qilishini, u orqali ta’lim va tarbiyada yuqori natijalarga erishishini istasak, avvalo bolaning qo‘liga avvolo kitob tutishimiz kerakligi zarur, degan xulosa keldik. Ilmiy tadqiqot ishimizning 1.2-qismida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga nasriy asarlar tanlashda ularning yosh xususiyatlariga e’tibor qaratish zarurligi va bu borada jahon noshrligi sohasida xalqaro standartlar bilan tanishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Umumiy pedagogika” X. Ibragimov, M.Quronov.: – T. “Shaffof” 2013-y.

2. Baxtli bola ma’naviyati.// Uzluksiz ma’naviy tarbiya trilogiyasi. II qism. 3-7 yoshli bolalarni ma’naviy tarbiyalash bo‘yicha metodik qo‘llanma. Tuzuvchi-mualliflar: A.Qodirov, M.Quronov va boshq. - Toshkent, “Ma’naviyat” nashriyoti, 2018. – 260.

3. Yosh ota-ona kitobi. //Uzluksiz ma’naviy tarbiya trilogiyasi. I qism. 0-3 yoshli go‘dak va bolalarni ma’naviy tarbiyalash bo‘yicha metodik qo‘llanma. Tuzuvchi-mualliflar: A.Qodirov, M.Quronov va boshq. -Toshkent, “Ma’naviyat” nashriyoti, 2018. – 200 b.

4.Ziyoyev H. O‘zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi: (miloddan oldingi asrlardan to 1991-yil 31-avgustgacha).-T.: Sharq, 2001. - 448 b.

4. Ibragimov X.I., Abdullaeva Sh.A. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, “Fan”, 2005. 25-31-b.

BOLALAR NASHRLARI VOSITASI BOSHLANGICH SINF O‘QUVCHILARINING ODOB-AXLOQ KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Shamalikova Dilfuza Shayunusovna

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti

mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Maqolada muallif bolalar nashrlari vositasi boshlangich sinf o‘quvchilarining odob-axloq ko‘nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati to‘g‘risida so‘z yuritadi.

Kalit so‘zlar: bolalar nashrlari, odob-axloq ko‘nikmalari, tarbiya me’zonlari, rivoyat, hikoyatlar.

Bizga ma’lumki o‘zbek xalqi o‘zining bolalarni tarbiya qilishga oid ko‘p asrlik boy tarixiy va pedagogik merosiga, an’analar, qadriyatlar va ularni qo‘llash tajribasiga ega. Insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do‘stlik, iymon-e’tiqod, mehr-oqibat, muloqot madaniyati kabi umuminsoniy odob-axloq fazilatlarni shakllantirish borasida mutafakkir ajdodlarimizning qarashlari, pand-nasihatlari, hikmatlari, goyalari bugungi ta’lim va tarbiya jarayonlarida ham muhim ma’naviy asosdir.

Psixolog mutaxassislarning ta’kidlashicha, boshlangich sinf o‘quvchilari hamma axborotlarni, bilim va ko‘nikmalarni tez o‘zlashtira oladilar. Shuning uchun ham bu davr o‘quvchilar uchun eng muhim aqliy, axloqiy, ma’naviy ko‘nikmlarni shakllantirilishida mihimdir. O‘qituvchilar esa o‘quvchilarning keng qamrovli qabul qilish imkoniyatidan unumli foydalanishlari lozim. Boshlangich sinf o‘qituvchilari o‘quvchilarda fanlarga, bilim olishga, o‘zaro munosabatlarni to‘gri tashkil etishga, o‘z mentaliletiga xos odob-axloq ko‘nikmalarini egallab borishlariga qiziqish uygotishi, pedagogik ta’limiy-tarbiyaviy imkoniyatlardan keng foydalanishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi. Boshlangich sinf davridan o‘quvchilarda hosil qilingan odob-axloqqa oid tarbiya ko‘nikmalari butun hayoti davomida ularni jamiyatda o‘z munosib o‘rni, pozitsiyasini, kasbiy faoliyatini egallashida muhim ahamiyta kasb etadi.

Bugungi kunda o‘quvchi shaxsiyatining shakllanishi uchun muhim va samarali bo‘lgan ta’limiy va tarbiyaviy muhitni yaratish o‘quv jarayonining dolzarb vazifasiga aylanmoqda. Boshlangich sinf o‘quvchilarida odob-axloqqa oid tarbiya ko‘nikmalarini rivojlantirishda boshlangich sinf o‘qituvchisining ta’siri va ahamiyati katta hisoblanadi. Boshlangich sinf o‘quvchilarida o‘qituvchi bo‘lgan

hurmati, ma’naviy yaqinlik va taqlid qilish istagi yuksak bo‘ladi. O‘quvchilar jamiyatdagi dastlabki jiddiy, intizomiy hamda o‘quv jarayoniga oid munosabatlarni birinchi o‘qituvchisi bilan amalga oshiradilar. Shuning uchun ham o‘qituvchi va o‘quvchilar orasidagi kommunikativ munosabatlar odob-axloqqa oid tarbiya ko‘nikmalarini rivojlantirishning muhim bo‘gini hisoblanadi.

Odob-axloqqa oid tarbiyaning yana bir usuli – o‘quvchilarni ijtimoiy foydali mehnatga, sport ashgulotlariga, ijodiy faoliyatlarga jalb qilishdir. Sinfdan tashqari ishlarda ham o‘quvchilarda odob va axloqqa oid munosabatlarni, bir-birlariga nisbatan o‘zaro yordam qilish, jamoa bo‘lib ishlash mas’uliyatini shakllantirish uchun qulay sharoitlar yaratish mumkin.

Bunday holatlar darsdan tashqari mashgulotlarda tez-tez uchraydi. Agar bolalar jamoasida bir-birlari uchun xayrixohlik va mas’uliyat munosabatlari o‘rnatilgan bo‘lsa, agar har bir bola jamoada farovon mavqega ega bo‘lsa, uning sinfdoshlari bilan aloqalari mustahkamlanadi, jamoaviy sharaf, jamoaviy burch, mas’uliyat hissi kuchayadi. Hissiy farovonlik, xavfsizlik holati jamoada shaxsning o‘zini to‘liq namoyon etishini ragbatlantiradi, bolalarning ijodiy moyilligini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratadi.

Axloq tushunchasiga Pedagogika ensiklopediyasida quyidagicha ta’rif beriladi: Axloq kishilar orasidagi munosabatlarni tartibga solishning o‘ziga xos qoidalari majmui. U ma’naviy hayot hodisasi, ijtimoiy ong shakllaridan biri, ma’naviyat sohasiga oid tushuncha hamdir. Axloqdagi “yaxshilik”, “yaxshi odatlar” insonning o‘z manfaatini jamiyat manfaatiga moslashtirishi, ayrim o‘rinlarda jamiyat manfaatlari yo‘lida o‘z hayotiy maqsadlari, manfaatlarini o‘zgartirishga imkon beradi. Kishilar xatti-harakatini tartibga solishning belgilangan hamda muayyan ijtimoiy-tashkiliy tuzilmalar faoliyatiga asoslangan (huquqiy, diniy) shakllaridan farqli tarzda, axloq kishilar xulq-atvorlari, muloqotlari,

munosabatlarining yozilmagan, biroq jamiyat tomonidan qabul qilingan hamda qo‘llab-quvvatlanadigan “oltin qoidalar”ni ifodalaydi.[25]

Axloqning falsafiy masalalarini axloqshunoslik tarmogi, shaxs axloqini shakllantirish masalalarini esa pedagogika fani o‘rganadi. Axloqning “burch”, “vijdon”, “or-nomus” kabi bir qator kategoriyalari mavjudki, pedagogik jarayonlarda ularni shakllantirishga ham alohida e’tibor qaratiladi. [26]

O‘zbekiston pedagogikasining yirik olim va mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan ushbu ensiklopediyada axloqiy aqidalar, axloqiy bilim, axloqiy ideal, axloqiy ishonch, **axloqiy madaniyat,** axloqiy munosabatlar, axloqiy ong, **axloqiy ta’lim-tarbiya,** axloqiy ta’lim-tarbiya usullari va metodlari, **axloqiy fazilatlar, axloqiy qarash,** axloqiy hissiyotlar, axloq me’yorlari kabi bir qator tushunchalar tahlil qilingan, ilmiy-pedagogik jihatdan tavsiflangan.

Odob insonni go‘zal qiluvchi eng yuksak fazilatlardandir. Ayniqsa bola so‘zi “odobli bola” jumlasi bilan jamiyatimizdagi muloqot jarayonlarida keng qo‘llaniladi. Xalq pedagogikasi “Bola go‘zal, odobi undan go‘zal”, “Odobli bola elga manzur” kabi go‘zal namunalari odob insonga, ayniqsa bolalar uchun qanchalik ziynat ekanligini asoslaydi.

Pedagogika ensiklopediyasida odobga oid bir nechta atamalarga izoh berilgan. Xususan:

ODOB (arabcha “adab” so‘zining ko‘pligi) – qarang: adab. Jamiyatda e’tirof etilgan xulq me’yori. U shaxs ma’n-y hayotining tashqi jihatini ifodalab, shaxslararo munosabatlarda namoyon bo‘ladi. Odob. asosini axloqiy tamoyillar, me’yorlar, tarbiyalanganlik darajasi va estetik ideal talablari tashkil etadi. O. kishining jamoada

[25] **ПЕДАГОГИКА энциклопедияси. Тузувчилар:** Р.Ҳ.Джураев, Р.Г.Сафарова, Ш.Э.Неъматов, Г.Сулаймонова. I-жилд, 187-б.

[26] **ПЕДАГОГИКА энциклопедияси. Тузувчилар:** Р.Ҳ.Джураев, Р.Г.Сафарова, Ш.Э.Неъматов, Г.Сулаймонова. I-жилд, 188-б.

o‘zini tutishi, odamlar b-n muomala qilishi, turmush tarzi, bo‘sh vaqtini tashkil etishi, ichki va tashqi olami qanday bo‘lishi lozimligiga oid qoidalar: or-nomus, sharm-hayo, iffat, kamtarlik, xushmuomalalik kabilarni qamrab oladi. Insonning diniy e’tiqodi uning Odobli bo‘lib kamol topishida muhim o‘rin tutadi. Odob oila muhiti va ta’lim-tarbiya jarayonida shakllanadi. U insonning faoliyati, ma’naviy yetukligi, tarbiyalanganligini ifodalovchi mezon. Odobli kishi yaxshi amallarga ega bo‘ladi. Shuning uchun ham o‘quvchi va talaba-yoshlarga ta’lim-tarbiya jarayonida turli didaktik vositalar yordamida odob-ahloq me’yorlari singdiriladi.

ODOB-AXLOQ QOIDALARI – davlat xizmatchisining kasbiy faoliyati va xizmatdagi xulq-atvorini baholovchi mezon. Ma’lumki, odob-axloq qoidalari o‘z-o‘zidan huquq manbasi bo‘lib hisoblanmaydi. Ushbu qoidalar agar muayyan normativ-huquqiy hujjatda o‘z aksini topsagina huquq manbasi bo‘lishi mumkin.

Insonlar ongida odob-axloq qadriyatlari ustuvorlik kasb etgan. Odob-axloq qadriyatlari shaxs xulq-atvorini shakllantirishga yordam beradi. Axloqda hal qiluvchi mezon sifatida odob talablari mujassamlashgan.

ODOB SAQLASh – urf-odatga aylanib, qat’iylashgan odob qoidalaridan chetga chiqmaslikni ifodalovchi tushuncha.

Vazirlar mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘grisida”gi 1059-son qarorida “o‘zining va boshqalarning xulqiga baho berishga o‘rgatish; faoliyat va sujetli-rolli o‘yinlar orqali yangi motivlarni paydo qilish va mustahkamlash; ma’naviy-axloqiy ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish; bolalarda ijobiy xulq motivlarini shakllantirish bo‘yicha “Bola aziz, odobi undan aziz” mavzusida multimedia dasturlari, ertak, matal, afsona, doston, maqollarning audio va videomahsulotlarini tayyorlash” kabi vazifalarning qo‘yilishi boshlangich sinf o‘quvchilarida odob-axloq ko‘nikmlarini shakllantirish muhim ijtimoiy dolzarblik kasb etishini ko‘rsatdi. Bu vazifalarni amalga oshirishda bolalar nashrlari muhim didaktik vosita hisoblanadi.

O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti tomonidan nashr etilgan “Tarbiya” ensiklopediyasi[27] ham tarbiya jarayonlari uchun muhim pedagogik manba hisoblanadi. "Tarbiya" ensiklopediyasida ijtimoiy munosabatlarni amalga oshirishda ko‘mak beruvchi tarbiyaga oid fikr, mulohaza, tushunchalar pedagogik nazariy qarashlar bilan asoslanib bir tizimga solingan holda taqdim etilgan. Manbada tarbiyaga oid 300 ga yaqin tushunchalar mohiyati ochib berilgan. Odob-axloq fazilarlari ham bayon qilingan. Tarbiya" ensiklopediyasida axloqiy tarbiya tushunchasi quyidagicha izohlanagan: “bolaning jamiyatga, odamlarga, uyiga bo‘lgan munosabatlar tizimini tarkib toptirishdagi tarbiyaviy jarayon”.

Sharq xalqlarining mentaliteti, madaniyati, dunyoqarashi, qadriyatlarida axloq eng yuksak insoniy fazilat sifatida e’tirof etilgan. Shuning uchun ham ajdodlarimizning pedagogik qarashlarida markaziy o‘rinni har doim shaxsda axloqiy fazilatlarni shakllantirishga oid masalalar egallagan. Sharqning buyuk mutafakkirlari - Muhammad Muso Xorazmiy, Rudakiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Hofiz Sheroziy, Fuzuliy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy hamda jadid ma’rifatparvarlari Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Behbudiy, Cho‘lpon, Shakuriy, Isxoqxon Ibrat kabi jadid ma’rifatparvarlari ham shaxs tarbiyasida axloq ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ekanligini o‘z asarlarida ta’kidlaganlar va o‘quvchilarda axloqni shakllantirish muammolariga oid o‘z qarashlari, goyalari, mulohaza, tajribalari bir qator usullarni ko‘rsatganlar.

Shaxsda axloqiy fazilatlar shakllantirish jamiyatdagi shaxslararo munosabatlarda tartibga soladi, mukammallashtiradi mustahkamlaydi. Ma’lumki, o‘zbek xalqi axloqiy fazilatlar, axloqiy me’yorlar asosida o‘zining betakror, qimmatli, ulugvor ma’naviy dunyoqarashi, mentaliteti hamda yuksak maqeiga ega bo‘lib kelgan.

Bugungi globallashuv jarayoni, “ommaviy madaniyat”, “morginal madaniyat”, “zamonaviy inson bo‘lish”, “eskilik sarqitlaridan qutilish” kabi ijtimoiy

[27] “Tarbiya” ensiklopediyasi.

muammolar tufayli jamiyat a’zolari, ayniqsa o‘quvchi yoshlarni ma’naviy immunintetini oshirish avvalo ularni tarbiyasini, odob-axloqqa oid ko‘nikmalarini shakllantirish zaruriyatini kuchaytirmoqda.

Mazkur masalaga pedagogik jamoatchilik e’tiborini tobora ko‘proq qaratish, yosh avlodni ma’naviy soglom va barkamol etib tarbiyalash, ularda axloqiy qarashlarni shakllantirish muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etmoqda. O‘z xalqining milliy, ma’naviy ildizlarini yaxshi bilgan har bir shaxs yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga o‘z hissasini qo‘sha oladi. Jamiyat ma’naviy hayotini muntazam soglomlashtirish uchun o‘quvchi hamda talabalarni axloq me’yorlari bilan muntazam qurollantirish lozim. Buning uchun hayotiy dalillar, falsafiy mushohadalar, insoniy kechinmalarni tasvirlash, jonlantirish usullaridan hamda mutafakkir ajdodlarimiz, jadid ma’rifatparvarlari, pedagogika sohasining yirik olim va mutaxassislarning ilmiy tadqiqotlarida bayon etgan fikrlar, qarashlar, metod va usullardan foydalanish, uklarning bergan pand-nnasihatlari, o‘gitlari, hayotiy tajribalari, qadriyatlarga aylangan hikmatlarini bolalar ommaviy nashrlari orqali o‘quvchilarga yetkazish, tarbiya jarayonlariga tadbiq etish muhim pedagogik vazifaga aylanmoqda.

Tarbiyashunoslikka oid eng mukammal va muhim manbalardan biri A.Fitratning “Oila” asaridir. Fitrat o‘zining mazkur asarida farzand tarbiyasida aqliy tarbiya, badan tarbiya va axloqiy tarbiyaning o‘rnini juda yuqori baholaydi[28]. Sanalgan tarbiya turlarining eng muhimi axloqiy tarbiya hisoblanadi. Futratning qarashlarini shunday ifodalaydi: “O‘zingiz xohlaganingizcha bolangizning aqliy va badan tarbiyasi bilan mashgul bo‘lishingiz mumkin va qo‘lingizdan kelguncha uni dono va baquvvat qiling. Lekin axloqiy tarbiya talab darajasida bo‘lmasa, aqli va jismoniy kuchini o‘zi yoki atrofdagilar zarariga ishlatadi. Binobarin, bolaning aqliy va jismoniy tarbiyasi samarasiz qolmasligi uchun farzandning axloqiy tarbiyasi bilan jiddiy shugullanib ko‘p harakat qilish lozim”.

[28] Fitrat. Oila.

Axloqiy tarbiya – odam axloqini kamolga yetkazish demakdir, ya’ni odamni shunday tarbiya qilish kerakki, fe’li va amali o‘ziga ham, boshqalarga ham foydali va manfaat keltiradigan bo‘lsin. Boshqacha aytganda, odamning fe’li va harakatida yaxshi fazilatlarni tarbiyalash demakdir. Mamlakatimiz rivojlanishining hozirgi yangi bosqichi oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlardan foydalanishning zamonaviy mezonlarini o‘rtaga tashlamoqda. Bu mezonlar vatanparvarlik, milliy gurur, milliy ong, milliy o‘z-o‘zini anglash, milliy tafakkur, milliy tarbiya kabi tushunchalarda o‘z ifodasini topgan bo‘lib, ular tarbiya jarayonining bugungi kunda rivojlanishi uchun muayyan tarzdagi bir maqsadga qaratilganini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Mirzaolimov B. Yoshlar ongida milliy istiqlol g‘oyasini shakllantirishning pedagogik asoslari. Ped. fan. dokt. ilmiy dar. olish uchun tayyorlangan diss. Toshkent, 2016. 143-b.

2.Maklakov A.G. Общaya psixologiya. Uchebnik dlya vuzov. - SPb.: Piter, 2003. - 287 s.

3.Mustafoyev Sh.N. Badiiy to‘garaklarda talabalarni g‘oyaviy-estetik tarbiyalash. Ped. Fanlari bo‘yicha falsafa fanlari doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. Toshkent, 2018. 178 b.

4.Muslimov N.A., Sh.S.Sharipov va boshqalar. Kasbiy malaka va pedagogik mahorat. Uzluksiz malaka oshirish yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv materiallari. .- Toshkent.: TDPU, 2009.-69 b.

5.Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta'limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirish. - T.: Fan nashriyoti, 2004. -130 b.

6.Norqulov H.D. Ota-onalarning g‘oyaviy-tarbiyaviy bilimlarini oshirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari nomzodi. ... dis. - Toshkent: O‘PFITI, 2007 yil. 134 bet. 4-bet.

UMUMTA’LIM MAKTABI, OILA VA MAHALLA HAMKORLIGIDA O‘QUVCHILARDA INKLYUZIV MADANIYAT KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

G‘oziyeva Shahnoza Baxtiyorovna

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti 3-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta’lim maktablari, oila va mahalla o‘rtasidagi hamkorlik orqali o‘quvchilarda inklyuziv madaniyat ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari o‘rganiladi. Maqola doirasida ilg‘or pedagogik texnologiyalar va loyihaviy usullar asosida tashkil etiladigan faoliyat turlari, shuningdek istiqboldagi dolzarb vazifalar hamda taklif etilayotgan yechimlar bayon etilgan. Tadqiqot natijalari maktab-mahalla-oila hamkorligini ishlash strategiyasini takomillashtirish va inklyuziv ta’lim tizimini chuqurlashtirishga oid tavsiyalarni ishlab chiqishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar. inklyuziv madaniyat, umumta’lim maktabi, oila-mahalla hamkorligi, o‘quvchilarda ko‘nikma shakllantirish, pedagogik imkoniyatlar,hamkorlik strategiyalari, bag‘rikenglik va tenglik.

Bugungi kunda jamiyatimizda insonlarning turli xil ijtimoiy, madaniy va jismoniy imkoniyatlari inobatga olinib, ularning teng huquqli va faol ishtirokini ta’minlovchi inklyuziv muhitni yaratish masalasi dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Xususan, umumta’lim maktablari o‘quvchilari orasida inklyuziv madaniyat ko‘nikmalarini shakllantirish nafaqat individual rivojlanish, balki butun jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qiladi. Mazkur jarayonning samarali amalga oshishi esa ta’lim muassasasi, oila va mahalla vakillari o‘rtasidagi uzviy hamkorlikka bog‘liq.

Inklyuziv madaniyat – bu boshqalar farqliliklarini hurmat qilish, ularga yordam berish va o‘zaro anglashuvga asoslangan qadriyatlar tizimi bo‘lib, u hayotning barcha sohalarida – jumladan, maktab ta’limida ham tubdan tatbiq etilishini talab qiladi. Maktab, oila va mahalla birgalikda ish olib borganda,

o‘quvchilarda mehr-oqibat, hamkorlik, tenglik va bag‘rikenglik tamoyillarini uyg‘un ravishda singdirish imkoniyati yuzaga keladi. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada umumta’lim maktabi, oila va mahalla hamkorligida inklyuziv madaniyat ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari, amaliy usullari hamda ularning istiqboldagi dolzarb vazifalari tahlil etiladi. Umumta’lim maktablarida inklyuziv madaniyat ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiaytli jarayon hisoblanadi. Chunki har bir bola o‘zini muhim his qilsa, yaxshi o‘qiydi, yaxshi o‘sadi, jamiyatimizda har xil insonlar bor va ularni hurmat qilishni, hamma teng huquqli ekanligini bolaligimizdan o‘rganamiz. Maktab davrida esa bu kabi fazilatlar bolada to‘liq shakllanadi. Inklyuziv madaniyat – bu bolalarni yaxshilik, sabr, yordam va hurmatga o‘rgatadigan madaniyatdir. Bu maktabda do‘stlik muhitini yaratadi, hech kimni chetda qoldirmaydi.Inklyuziv madaniyatni o‘quvchilarga o‘rgatish uchun birinchi navbatda o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, sabr-toqat, hamkorlik va farqlilikni qadrlash kabi qadriyatlarni rivojlantirish lozim. Ushbu yoshdagi bolalar hayotiy ko‘nikmalarni o‘yinlar, suhbatlar, namunalar, guruhli ishlar orqali osonroq qabul qilishadi.

Inklyuziv ta’lim jarayonida inklyuziv madaniyatni shakllantirish psixologik va pedagogik jihatdan muhim tayanch omillarga ega. Umumta’lim maktablarida turli imkoniyatga ega o‘quvchilar birgalikda ta’lim olishi nafaqat didaktik, balki psixologik tayyorgarlikni, tolerantlik, empatiya, ijtimoiylashuvga oid ko‘nikmalarni shakllantirishni ham talab etadi. Psixologik-pedagogik shart-sharoitlar deganda, avvalo, inklyuziv sinfdagi o‘qituvchi, o‘quvchilar va ota-onalar o‘rtasida sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhit yaratish, har bir bola o‘zini qadrli va qabul qilingan shaxs sifatida his qilishi uchun zarur bo‘lgan omillar tushuniladi.

Quyidagi tashkiliy shakllar inklyuziv madaniyatni shakllantirishda samarali hisoblanadi:

- **Sinfdan tashqari ishlari**: klub, to‘garaklar, ijtimoiy loyihalar (masalan, “Do‘stlik haftaligi”, “Farqlar – bu boylik” mavzularida);

- **Trening va mashg‘ulotlar**: empatiya, hamkorlik va ijtimoiy o‘zaro ta’sirga yo‘naltirilgan interaktiv darslar;
- **Faol o‘yinlar va rolikli ssenariylar**: turli rollarda ishtirok etish orqali boshqalarning holatini his qilish;
- **Jamoaviy loyihalar**: guruhda ishlash, bir-birini qo‘llab-quvvatlash orqali ijtimoiy aloqalarni kuchaytirish.

Shuningdek, o‘quvchilar bilan do‘stona va ishonchli aloqa o‘rnatilganida, ular o‘zlarini xavfsiz muhitda his qilib, boshqalarga nisbatan hurmat va e’tibor ko‘rsatishni o‘rganadilar. Bu esa inklyuziv madaniyatning amaliy ko‘rinishidir. O‘qituvchining inklyuzivlikka tayyorlik darajasi uning kasbiy kompetensiyasi bilan chambarchas bog‘liq. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi sog‘lom, hurmatli va empatik munosabatlar umumta’lim maktablarida inklyuziv madaniyatni shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. Bu munosabatlar orqali nafaqat ta’lim sifati, balki ijtimoiy barqarorlik, jamiyatdagi tolerantlik va o‘zaro tushunish muhiti mustahkamlanadi. Umumta’lim maktablarida inklyuziv madaniyatni shakllantirish ko‘p omilli va tizimli yondashuvni talab etadi. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun maktablarda zaruriy tashkiliy, moddiy-texnik, metodik, psixologik va ijtimoiy sharoitlar yaratilgan bo‘lishi kerak. Unklyuziv madaniyatni o‘quvchilar orasida shakllantirish jarayonida maktab, oila va mahalla hamkorligi muhim hisoblanadi. Chunki oilada ota-onalarning farzandlariga ko‘rsatgan namunasi bolalar uchun bir umrlik hayot darsi hisoblanadi. Otaning onaga ko‘rsatayotgan munosabati, ona mehnatini qanchalik qadrlashi, uning jamiyatga, jamiyat a’zolariga bo‘lgan munosabati bola qalbiga ezgulik yoki yovuzlik, ma’qul va noma’qul ishlar haqidagi dastlabki tushunchalarini vujudga keltiradi. Oila muhiti- bu qandaydir tarbiya vositasi emas, balki ota-onalarning va katta yoshdagi kishilarning har taraflama olib boradigan tarbiyaviy ish natijalari, oila a’zolarining o‘zaro yuksak ahloqiy munosabatlarining yig‘indisi va nihoyat, kattalarning bolalarga ijoboy ta’sir ko‘rsatish namunasi natijasidir. Ota-onalar bolalar bilan noto‘g‘ri munosabatda bo‘lmaydigan, bir-birlarini tushunadigan, hurmat qiladigan, bolalarning to‘g‘ri

tarbiyalanishini doimo nazorat qiladigan hamda bolalariga shaxsiy namuna bo‘la oladigan oilalarda tashkil topadi. Bolalarga ota-onalarning hatti- harakatlarigina emas, balki gapirayotgan gaplari, o‘zaro savol-javoblari, uyga kelgan kishilar va qo‘shnilar bilan bo‘ladigan muomalasi ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Agarda ota-ona farzandiga har qancha pand-u nasihat qilsa, turli misollar keltirib nima yaxshi yoki nima yomon ekanini uqtirmoqchi bo‘lishsa-yu o‘zlari amal qilmasa, berilayotgan ko‘rsatmalar barchasi samarasiz ketishi aniq gap. Chunki bola ko‘proq eshitganiga emas, ko‘rganiga taqlid qiladi. Alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan bolalarning ishonchni oshirish, ularning ko‘nikma va qobiliyatlarini rivojlantirish, yoshligidan ilm olishga rag‘batlantirishda oila ishtiroki o‘ta muhim. Shu sababli inklyuziv ta’lim jarayonida ota-onalarning ahamiyati katta. Imkoniyati cheklangan bolalarning ota-onalari farzandlari jamiyatning bir bo‘lagi bo‘lish huquqiga ega ekanini tushunib yetishlari kerak. Ota-onalar oilada sog‘lom muhitni va farzandlari orasida tenglik muhitini yaratib berishlari, imkoniyati chegaralangan farzandlariga ta’lim olish jarayonida ko‘maklashishlari juda muhim. Buning uchun, doimiy ravishda maktab jamoasi bilan aloqada bo‘lish, bolaning tengdoshlari orasida moslashib ketishi va o‘zlashtirish darajasini kuzatib borish zarur. Ota-onalarga alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan bolalarni ertangi kunga umidi, o‘ziga ishonchini oshirishi, muntazam motivatsiya berib borishlari tavsiya etiladi. Ba’zan imkoniyati cheklangan bolalar maktabda va tengdoshlari orasida yakkalanish, kamsitilish holatlariga uchraganda, ota-onalarning o‘zi ruhan tushkunlikka tushib qoladilar. Ammo bunday vaziyatda o‘zlarini tutib olishlari va farzandlarini qo‘llab-quvvatlashga, ruhlantirishga harakat qilishlari kerak. Farzandlar oilada, maktabda va jamiyatda o‘z o‘rnini topishi juda ko‘p jihatdan ota-onaning munosabatiga, uni ruhan qo‘llab-quvvatlashlariga bog‘liq. bo‘ladi. Oilada totuvlik, o‘zaro hurmat mehr-muhabbat kelishuvchilik kabilar ota-onalar obro‘sini oshiradi, ota-onalar bilan bolalar o‘rtasida ruhiy muhitni yahshiligiga va ularning kamolotga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Oiladagi totuvlik o‘zaro hurmat, mehr-muhabbat, kelishuvchilik kabilar ota-onalar obro‘sini oshiradi, ota-onalar bilan bolalar o‘rtasida ruhiy muhitni

yahshiligiga va ularning kamolotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bolalar bilan munosabatda bosiqlik xulosa chiqarishda shoshmaslik, rag‘batlantirish va jazolashda o‘ylab ish tutish, ota-onalarning tarbiya jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, o‘quvchilarda inklyuziv qadriyatlarni shakllantirish, ularning shaxsiy tajribasi va ijtimoiy ongini boyitish, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalar bilan muloqot va hamkorlikda bo‘lish ko‘nikmalarini rivojlantirish – zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Inklyuziv madaniyatni shakllantirishga qaratilgan maktab, oila va mahalla hamkorligiga asoslangan tizimli va izchil yondashuv orqali farzandlarimizni har tomonlama sog‘lom, ongli, bag‘rikeng va ijtimoiy mas’uliyatli shaxslar etib voyaga yetkazish imkoniyati yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – 2020-yil 23-sentabr.

3. Abduqodirov A., Qodirova D. Inklyuziv ta’lim asoslari. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020. – 172 b.

4. Xolboeva Z.T. Maxsus pedagogika. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019. – 212.

5. Safarova R.G. (2024). Inklyuziv ta'lim jamiyatda inklyuziv madaniyatni rivojlantirish omili sifatida. https://doi.org/10.5281/zenodo.11186721

6. Bozorov A.B. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Iste’dod, 2021. – 188 b.

7. Karimova Z.N. Umumiy pedagogika: Nazariy asoslar va amaliy tavsiyalar. – Toshkent: Ilm ziyo, 2022. – 204 b.

МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ МУЗЫКАЛЬНОГО ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ : ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Габдульманова Ильнура Минисламовна

Докторант Национального института педагогики воспитания имени Кори Ниёзий

Аннотация: В статье рассматриваются механизмы формирования и развития методологических знаний родителей в области музыкального воспитания детей. Актуализируются основные проблемы, препятствующие эффективному участию родителей в музыкальном развитии ребенка, и предлагаются возможные пути их решения. Основное внимание уделено интеграции педагогических, психологических и культурологических подходов.

Annotatsiya. Maqolada bolalarning musiqiy ta'limi sohasida ota-onalarning uslubiy bilimlarini shakllantirish va rivojlantirish mexanizmlari muhokama qilinadi. Bolaning musiqiy rivojlanishida ota-onalarning samarali ishtirok etishiga to‘sqinlik qiladigan asosiy muammolar yangilanadi va ularni hal qilishning mumkin bo‘lgan usullari taklif etiladi. Asosiy e'tibor pedagogik, psixologik va madaniy yondashuvlarni birlashtirishga qaratilgan.

Ключевые слова: музыкальное воспитание, родители, методологические знания, дети, педагогика, механизм развития.

Kalit so‘zlar: musiqiy ta'lim, ota-onalar, uslubiy bilimlar, bolalar, pedagogika, rivojlanish mexanizmi.

Музыкальное воспитание в дошкольном и младшем школьном возрасте играет ключевую роль в гармоничном развитии личности ребенка. Однако эффективность данного процесса в значительной степени зависит от уровня методологических знаний родителей. Под методологическими знаниями понимается совокупность представлений о целях, задачах, принципах и способах музыкального развития ребенка.

Проблемы развития методологических знаний родителей

- Недостаточная информированность. Большинство родителей не имеют педагогического образования и ограничиваются обыденными представлениями о значении музыки в воспитании. Это приводит к редкому обращению к музыкальной деятельности вне образовательных учреждений .

- Отсутствие доступных методических ресурсов. Многие родители не располагают качественными и доступными ресурсами для самостоятельного освоения методик музыкального воспитания.

- Низкий уровень мотивации. Психологические барьеры, такие как неуверенность в собственных способностях и недооценка значения музыки, мешают родителям активно участвовать в музыкальном развитии ребенка.

Механизмы развития методологических знаний

1. Информационно-просветительская деятельность

Организация лекций, вебинаров, онлайн-курсов и семинаров на базе дошкольных учреждений, школ и культурных центров позволяет расширить знания родителей о музыкальном воспитании.

2. Интерактивные формы взаимодействия

Совместные занятия детей и родителей под руководством музыкальных педагогов стимулируют интерес и вовлеченность родителей. Особенно эффективны музыкально-игровые формы и участие в семейных музыкальных праздниках.

3. Психолого-педагогическое консультирование

Индивидуальные консультации помогают преодолеть личные барьеры, скорректировать представления о роли музыки и подобрать оптимальные методы работы с ребёнком.

4. Интеграция с цифровыми технологиями

Использование мобильных приложений, обучающих платформ и YouTube-каналов, посвящённых детской музыке, помогает родителям освоить современные подходы в музыкальном воспитании.

Решения и рекомендации

Разработка специализированных программ дополнительного образования для родителей. Внедрение системы семейных музыкальных мероприятий в образовательных учреждениях. Создание онлайн-платформ с методическими материалами, доступными для широкой аудитории. Активное привлечение родителей к обсуждению музыкального развития ребенка на родительских собраниях.

Заключение: Развитие методологических знаний родителей в области музыкального воспитания требует комплексного подхода, включающего просвещение, мотивацию, сопровождение и использование современных технологий. Только при активном участии семьи возможно полноценное музыкальное развитие личности ребёнка.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Иванова И. Н. Музыкальное воспитание в семье: теория и практика. — М.: Педагогика, 2021.

2. Захарова О. П. Психология родительства: участие в художественно-эстетическом развитии ребенка. — СПб.: Речь, 2019.

3. Леонтьева Т. В. Доступность методических материалов по музыкальному воспитанию для родителей. // Вопросы педагогики. — 2020. — №5. — С. 44–48.

4. Миронова А. С. Музыкально-игровые технологии в работе с родителями. // Детский сад будущего. — 2022. — №2. — С. 17–21.

5. Федорова М. Л. Цифровые ресурсы в музыкальном воспитании: возможности для родителей. // Медиаобразование. — 2021. — №4. — С. 55–60.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA METODIK ISHLARNI TASHKIL ETISH MAZMUNI

Qarshibayeva Dilfuza Xidirbayevna

Uchtepa tumani 450-DMTT direktori

So‘nggi yillarda maktabgacha ta’limni zamonaviy yondashuv asosida boshqarish talab etilmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotida metodist metodik ishlarni tashkil etadi va boshqaradi. U yangiliklarni anglashi, tashabbusor bo‘lish va ma’suliyatni o‘z zimmasiga olishi, muammo yechimini topa olish kompetensiyasiga ega bo‘lishi zarur. Metodik ishlar maktabgacha ta’lim tashkilotini boshqarishda muhim o‘rin egallaydi. Metodist pedagog-tarbiyachilarning faolligini oshiradi, ularning ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, pedagog-xodimlarning malakasini oshirishni ta’minlaydi. Pedagoglar bilan muntazam ishlash ularni uzluksiz ravishda pedagogik mahoratini takomillashtirishni kafolatlaydi. Bugungi kunda pedagog-tarbiyachilarni kasbiy mahoratini oshirish davr talabi hisoblanadi. Mahoratli metodist pedagogik jamoaning vazifasini aniq belgilaydi, ularni amalga oshirishning samarali yo‘llarini aniqlaydi. U muayyan belgilangan o‘zgarmas mexanizm bilan emas, balki bevosita ta’limiy-tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etuvchi tarbiyachi-pedagoglar faoliyatiga asosan ish yuritadi. Chunki, maktabgacha ta’lim tashkilotini boshqarishda aniq maqsadga yo‘naltirilgan reja bo‘lsada, pedagogik jarayon tarbiyalanuvchilar holatiga qarab o‘zgarishi mumkin.

Maktabgacha ta’lim metodikasining yirik namoyondalaridan biri L.M.Volobueva izlanishlarida metodik ishlar samarali bo‘lishi uchun ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil qilishning optimal yo‘llarini izlash; bolalar uchun yaratilgan sharoitlarni o‘rganish va tahlil qilish; tarbiyachilar tomonidan pedagogik ishlarni qay darajada tashkil etilayotganligini nazorat qilish; pedagogik jamoadagi psixologik muhit va o‘zaro munosabatlarni kuzatish muhimligi asoslagan. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish, takomillashtirish, tashkilot faoliyati bilan bog‘liq barcha tashkiliy masalalarni muvofiqlashtirish, pedagoglarning kasb mahorati va ijodkorligini rivojlantirish maqsadida metodik xizmat amalga oshiriladi.

M.M. Potashnik fikricha “metodik ishlar mazmunini ilm-fan yuutuqlariga asoslangan holda pedagoglar faoliyatida tahlil qilingan muammo va ularning yechimlari, ilg‘or tajribalar, ularni har tomonlama pedagogik mahoratini oshirishga

yo‘naltirilgan chora-tadbirlar tashkil qiladi. Pedagogik jamoaning ijodiy potensialini rivojlantirish, ta’limda optimal natijaga erishish, bolalarning tarbiyasi va rivojlanishini ta’minlash ko‘zda tutiladi. Maktabgacha ta’lim metodisti tajribalar o‘tkazishda ishtirok etadi va yangi o‘quv dasturlari ishlab chiqishda tashabbuskorlik qiladi, ota-onalarga farzand tarbiyasida pedagogik maslahatlar uyushtiradi.

M.Fayzullayeva, M.Rustamova, D.Qarshibaevalar tomonidan metodistning oylik ish rejasi ishlab chiqilgan, bir oyga mo‘ljallangan vazifalarini kundalik faoliyatiga muqobillashtirish tamoyili asosida yuritadi.

- Pedagog-kadrlar bilan ishlash.
- Tashkiliy-pedagogik ishlar.
- Hamkorlik ishlari.
- Tadbirlarga tayyorgarlik.
- Ta’lim-tarbiya jarayonini kuzatish

Yuqorida olimlarning mulohazalari asosida maktabgacha ta’lim tashkilotida metodik xizmatning tarkibiy qismlarini quyidagi chizmada ifodalaymiz



Maktabgacha ta’lim tashkilotida metodik xizmatning tarkibiy qismlari

Axborot bilan ta’minlash- maktabgacha ta’lim tizimdagi yangi huquqiy me’yoriy hujjatlar bilan tanishish, tarbiyachilarga ish xujjatlarini yuritishda ko‘mak berish va reja kanday yozilishi bo‘yicha maslahatlar berish, yosh mutaxassislar uchun ta’limiy-tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etish yuzasidan maslahatlar berishdan iborat.

Diagnostika va bashoratlash-tarbiyachi-pedagoglar faoliyatini baholash asosida tashxis qo‘yishga erishiladi. Maktabgacha ta’limga oid yangiliklar va yutuqlarni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha istiqbol strategiyalarni belgilaydi. O‘kuv yili davomida rejani tahlil etadi va yakunida aniq yechimlar jamlanadi.

Innovatsiya va ijodiylik -metodist pedagogik jarayonga yangiliklarni joriy etish bo‘yicha tarbiyachilarga maslahat beradi. Mualliflik metodlarini yaratishga yo‘naltiradi va pedagoglarni ijodiy ishlarini takomillashtirishga ko‘mak beradi.

Ilg‘or tajribalarni o‘rganish va ommalashtirish- uslubchi pedagog-tarbiyachilarning tajribalarini o‘rganadi, ustoz-shogird tizimini yo‘lga qo‘yadi. Yosh mutaxassislarga metodik jihatdan ko‘mak beradi. Tajribaga boy pedagoglar tomonidan “Mahorat darslari” tashkil etiladi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti va tuman miqyosida noyob tajribalarni ommalashtiradi.

Uzluksiz malaka oshirishni yo‘lga qo‘yish-pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirishning samarali yo‘li uzluksiz malaka oshirish tizimini tashkil etishdan iborat. Tarbiyachilar o‘rtasida trening, seminar, tanlovlar o‘tkazish ularning kasbiy bilimini rivojlantirishni ta’minlaydi.

Yuqorida keltirilgan metodik xizmatni amalga oshirishda maktabgacha ta’lim tashkiloti metodisti pedagogik jarayonlarni tashkil qilishda turlicha yondashuvlarga tayanadi va istiqbolda tashkilotni rivojlantirish bo‘yicha loyihalar ishlab chiqadi. Natijada metodik ishlarning ahamiyati va o‘rni tarbiyaviy jarayonlar sifati ortishiga erishiladi. Tarbiyachi-pedagoglarning mahoratini oshirish, ularning nazariy va amaliy bilimlarini yangilashda metodik ishlar turlicha shaklda amalga oshiriladi. Pedagogik tajribani eng muhim vositasi bu pedagogik kengash hisoblanadi, bunda

jamoaviy pedagogik g‘oyalar jamlanadi, ta’limiy-tarbiyaviy ishlar hamkorlikda boshqariladi.

K.Yu. Belaya pedagogik kengashni maktabgacha ta’lim tashkilotining eng oliy darajasi deb baholaydi. Chunki, barcha ta’limiy-tarbiyaviy jarayonlar mazkur kengashda hal etiladi. Darhaqiqat tashkilotning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta’lim-tarbiya jarayonini rivojlantirishda pedagogik jamoaning faoliyat yo‘nalishi belgilanadi, ilg‘or pedagogik tajribalarni amaliyotga joriy etishda pedagogik jamoa birlashadi, demokratiya, oshkoralik, o‘zini-o‘zi boshqarish tamoyillari asosida maktabgacha ta’lim tashkiloti boshqaruvi amalga oshiriladi. Pedagogik kengash tomonidan tarbiyalanuvchilarni “O‘zbekiston Respublikasida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari” asosida egallashi zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishida tashkilot pedagoglar jamoasining faoliyati o‘rganiladi. Natijalar tahlil qilinadi, baholanadi va aniqlangan bo‘shliqlarni to‘ldirish hamda ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilanadi. Shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayoniga xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda ilg‘or ta’lim shakllari, zamonaviy texnologiyalar hamda axborot vositalarni tatbiq etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Yuqorida keltirilgan barcha vazifalar uslubchidan katta ma’suliyat talab etadi. Pedagog-tarbiyachilarga ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishlarida yuz beradigan turli xil murakkab vaziyatlarda metodik maslahat beradi.

Shuningdek metodik yangiliklarni tavsiya etadi, kasbiy vazifalar va kasbiy faoliyatga mos ravishda amalga oshiriladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrdagi O‘RQ-595-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lex.uz/docs/4646908

2. Ibragimova G.N. Bo‘lajak maktabgacha ta’lim mutaxassislarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimi

3. Muminova D.R. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagoglarning e’tiqodi va amaliyotini baholash tizimi orqali bolalarda dastlabki savodxonlikni rivojlantirish.

4. Qosimova SH.N. Maktabgacha talim tashkiloti boshqaruvning samarali usullari zarur.

FARZAND TARBIYASI UCHUN OILA, MAKTAB VA MAHALLA BIRDEK MAS’UL!

O.Y.Salimova,

Kattaqo‘rg‘on sh. 11-IDUM direktori

Diyorimizda oila ma’naviyati va madaniyati asrlar davomida o‘ziga xos tarzda shakllangan. Vatanga, ota-onaga sodiqlik va fidoyilik o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Bular zaminida yoshlarga oilada, ta’lim maskanlarida, mahallalarda beriladigan ta’lim tarbiya yotadi. Shuning bilan birgalikda farzand tarbiyasidagi eng muhim omil bu – ota-ona tarbiyasi, ularning farzandiga qilgan e’tiboridir.

Xalqimizda “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, degan maqol bejiz aytilmagan. Serfarzandlik va bolajonlik; kattalarga hurmat, kichiklarga muruvvat; erkaklarning oiladagi yuqori mavqei, ayollarning royishligi; oila va nikohning muqaddasligiga e’tiqod; ota-onalarning farzandlar oldidagi hamda farzandlarning ota-onalar oldidagi burch va mas’uliyatining muhim qadriyat sifatida e’tirof etilishi; oila sha’ni va obro‘sining avaylab asralishi; kelin va qaynona munosabatlarining o‘ziga xosligi; katta oilalarda bobo va buvilarning rahnamoligi; qarindoshlar, qo‘ni – qo‘shnilar, mahalla – ko‘y oldidagi majburiyatini teran his qilish kabi o‘zbek oilasiga xos bunday xususiyatlar zamirida kuchli oilaviy qadriyatlar ta’limoti yotadi.

Farzand tarbiyasi inson hayotidagi eng murakkab va mas’uliyatli ishlardan biri bo‘lib, bu o‘zini hurmat qilgan har bir ota-ona uchun juda muhim masala hisoblanadi. Bu jarayon esa millat kelajagini belgilab beradi. Avvalo ota-onalar birinchi galda o‘z ma’naviyatini imkon qadar yuqori darajada bo‘lishiga e’tibor qilib, o‘zlari farzandlariga namuna bo‘lishlari lozim.

Oilada farzandning katta bir inson, mukammal shaxs sifatida tan olinishi, sportga va mehnatga qiziqtirilishi, undan gohida yengil ishlarda maslahat olinishi samara ko‘rsatadi. Bola tarbiyasiga eng birinchi navbatda ota-ona javob beradi. Yangi asrda axborot tezligi taraqqiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatyapti. Ayni chog‘da qator muammolar keltirib chiqaryapti. Internet, uyali telefon orqali yoshlarimiz qaysi kanallarga saytlarga kirayotganliklari, kim bilan nima haqida yozishayotganliklarini nazorat qilib turishlari lozim. Bundan tashqari kitob o‘qish, kitobga mehr muhabbat qo‘yishga undashi, yoshiga qarab ertak yoki hikoyalar aytib, bolaning tasavvurida ezgulik, mehr oqibat shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘tgan ulug‘larimiz bola xulqi buzilishiga ko‘pincha ota-ona sabab bo‘lishini ta’kidlashgan. Bunga asosiy ichki sabablar: Oilani boshqarishda ota-onaning aniq maqsadi yo‘qligi, bola tarbiyalashni bilmaslik, moddiy ta’minotni haddan oshirib yuborish yoki umuman ta’minlamaslik, bolaning ta’lim olishdan maqsadi yo‘qligi yoki darslarni o‘zlashtirolmasligi, maktabga ota-ona majburlashi bilan borishi, bolaning ota-onadan qoniqmasligi, ota-onadan mehr ko‘rmay, boshqalardan shirin so‘zlar eshitishi, ota-ona farzandi oldida janjallashishi, ota-ona farzandlaridan birini maqtashi, boshqasini e’tiborsiz qoldirishi, kichik xatoni bo‘rttirish, bolaning xatosini to‘g‘ri tushuntirmaslik, boshqa bolalarga solishtirish kabi xatolar bolani tarbiyasida katta xatoliklarga olib keladi.

Uyimiz, yashab turgan jamiyatimizdagi muhit, ta’lim-tarbiya muassasalari bularning barchasi tarbiya omillaridir. Ota-onalar farzand tarbiyasida asosiy kuchni bola ongida yaxshilik, hamjihatlik, mehr-oqibat, adolat, o‘z o‘ziga ishonch, mustaqillik, g‘urur, atrof-muhitga qo‘shilish, kasb-hunar orttirishga yo‘naltirishlari lozim.

Farzand tarbiyasidagi eng og‘riqli muammo bu ijtimoiy tarmoqlar va internet tizimidir. Bir davrada o‘tirib, o‘zbek milliyligiga, odob-axloqiga to‘g‘ri kelmaydigan xorijiy seriallarni tomosha qilish hollari har bir oilada bor, albatta. Gohida oilalardagi milliy qadriyatlar unutilmoqda. Jumladan, oddiygina tuyilgan, bir

dasturxon atrofida oilaning barcha a’zolari jamuljam bo‘lib, ovqatlanish bahona samimiy suhbat qurish hollari yo‘qolib bormoqda.

Oilada, maktabda, jamoada bolaning o‘z kuchiga yarasha qilishi mumkin bo‘lgan jismoniy mehnatning kamayib ketayotgani va mehnatning inson tarbiyasida muhim o‘rni borligi ba’zida unutib qo‘yilmoqda.

O‘quvchilarning gohida kichik yoshidan ishlab pul topishga majbur bo‘lib qolayotganligi – choyxonalarda, to‘yxonada, bozorda sarson kezayotgani ham bor haqiqat. 5-10 so‘m pul topib, ota-onani mensimaslik, ota yoki onaning o‘gitlarini tinglamaslik holatlari ularning o‘qishga qiziqishini susaytirishga sabab bo‘lmoqda. Bola yarim tungacha choyxona, to‘yxonada ishlab, bozorda arava tortib, ertasiga darsga kechikib kelib, kelganda ham sinfda uxlab o‘tirib, to‘liq ta’lim olarmikan? Undan ham yomoni, ana shu to‘yxonalarda kattalarda ko‘rgan yomon odatlarni o‘zlashtirib olishi ular tarbiyasining buzilishiga sabab bo‘lmaydimi?

Ilm o‘quv dargohidan, hayotdan olinishi mumkindir, lekin odob, tarbiya, avvalo, oiladan, uyda olinadi. Aniq vazifalari va majburiyatlari belgilangan “Ota-onalar maktabi”ni shunchaki nomiga, xo‘jako‘rsinga emas, rasman tashkil etish lozim. Bu maktabda ota-onalar burchi, javobgarligi, majburiyati to‘g‘risida, dunyoviy va diniy bilimlar o‘qitilishi, bolalarga psixologik yordam ko‘rsatilishi kerak. Ota-onalarga farzandlarini o‘tish (ulg‘ayish) yoshi davrida muammolardan, zamonaviy axborot-texnologiyalari, internet, ijtimoiy tarmoqlardagi zararli ma’lumotlardan asrashni, tahlil qilishni, ma’naviy, estetik va madaniy tarbiya berishda nimalarga e’tibor qilmoqlikni o‘rgatish zarur.

“Ota-onalar maktabi” saboqlari mahallada hech bo‘lmasa bir oyda bir marta tashkil etilishi kerak. Ushbu maktabda saboqlarni oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, olimlar, psixologlar, diniy ulamolar, huquqshunoslar va umuman yuqorida aytilgan tarbiya bo‘yicha yetakchi mutaxassislar olib borishsa, nur ustiga a’lo nur bo‘lardi. Ana shunda oila – maktab – mahalla chambarchas bog‘langan, ota-onalar, ustoz-muallimlar, mahalla-ko‘y farzand tarbiyasida mas’uliyatni to‘la-to‘kis his qilgan bo‘lardi.

TALABALARDA KO‘NGILLI IJTIMOIY METODIK XARAKATLAR ASOSIDA INKLYUZIV VA UYDAGI TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Umaralieva Muxayyo Abdugaparovna,

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti bo‘lim mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent(PhD).

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarda ko‘ngilli ijtimoiy metodik xaraqatlar asosida inklyuziv va uydagi ta’lim samaradorligini oshirishning o‘ziga xos jihatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Inklyuziv ta’lim, uydagi ta’lim, ko‘ngilli talabalar, ijtimoiy xaraqat, metodik tavsiya, texnologiya, ehtiyoj, usul, shakl, vosita.

Ilmiy hamjamiyat jiddiy e’tibor qaratishi zarur bo‘lgan muammoga doir tadqiqot ishlarini o‘rganish, ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish asosida ma’lum bo‘ldiki, imkoniyati cheklan- ganlarni teng, munosib ta’lim-tarbiya olishi hamma vaqt yaxshi, risoladagidek bo‘lishi, alohida e’tiborda tutilishi, nazardan chetda qolmasligi lozim.

Ushbu muammo haqida Sharq mutafakkirlari Imom al-Buxoriy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Abu Iso Muhammad at-Termiziy, Ibn Sino, Farobiy, Beruniy, Mirzo Ulug‘bek, Yusuf Xos Hojib, Imom G‘azzoliy, Bahovuddin Naqshband, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi allomalar o‘z zamonlarida oilada, jamiyatda yoshlar tarbiyasi va uning kamolotiga pedagogik-psixologik yondashuv muammosi to‘g‘risida yozilgan ilmiy va ilmiy-pedagogik mushohadalari bizgacha yetib kelgan noyob asarlarida o‘z ifodasini topgan. Ayniqsa, Abu Ali ibn Sino asarlarida sog‘lom bolalar bilan bir qatorda, alohida e’tiborga muhtoj bolalar tarbiyasiga oid tavsiyalar ham beriladi. Alloma nogiron bola tengqurlari qatori ta’lim-tarbiya olishga haqli ekanini aytib, ularda ilm olishga, kasb-hunar o‘rganishga intilish kuchliligini ta’kidlaydi. Sharq allomalarining bola shaxsini tarbiyalash, ularning rivojlanishida

ta’lim-tarbiyaning ta’siri haqidagi qarashlari ilmiy tahlili tadqiqotchilar uchun asosiy manba bo‘lishi shubhasiz.

Inklyuziv ta’limni tashkil etishning ijtimoiy-pedagogik, psixologik xususiyatlarini, o‘ziga xos imkoniyatlarini chuqurroq o‘rganish, ushbu yo‘nalish bilan bog‘liq muammolarni aniqlash, inklyuziv ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish hamda ularning samaradorlik jihatlarini asoslab berish dolzarb ilmiy muammoga aylandi. Chunki inklyuziv ta’lim texnologiyalari barcha bolalarning ruhiy-jismoniy holatidan qat’i nazar ta’lim jarayonida to‘laqonli ishtirok etishini ta’minlashga qulay imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, alohida e’tiborga, yordamga muhtoj bolalarning atrofdagilar bilan muloqotda bo‘lishi, ijtimoiy muhit talablariga javob bera oladigan bo‘lib ulg‘ayishi, o‘z kundalik-maishiy ehtiyojini qondira olish ko‘nikmalarini egallashi, hayotga moslashib, ta’lim muassasalarida sog‘lom tengdoshlari bilan teng sharoitlarda o‘qiy olishi, ular bilan o‘zaro do‘stona munosabatga kirishishi, darslarni o‘z vaqtida o‘zlashtirishi, topshiriqlarga mas’uliyat bilan yondashishi uchun qulayliklar yaratadi.

Bizning fikrimizcha, *inklyuziv ta’lim – barcha ta’lim oluvchilar uchun ularning ehtiyojlari, imkoniyatlarini e’tiborga olgan holda ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishda teng imkoniyatlarni ta’minlash*.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, Yer shari aholisining 15 foizga yaqinining imkoniyati cheklangani va achinarlisi, bu ko‘rsatkichning muntazam o‘sib borayotgani har bir insonga o‘zini atrofdagilar bilan teng his qilishi hamda o‘z salohiyatini yuzaga chiqarish uchun imkoniyatlar yaratish bo‘yicha samarali ishlarni amalga oshirishga undamoqda.

Ushbu muammo yuzasidan jiddiy ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishdan ko‘zlangan maqsad – jismoniy holatidan qat’i nazar, barcha insonlarga teng imkoniyatlar yaratishdir. Mamlakatimiz aholisining 40 foizini 18 yoshgacha, 65 foizini esa 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil qiladi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni himoya qilish tizimini rivojlantirish darajasi jamiyatning insonparvarlik va uni ma’naviy-axloqiy rivojlantirish darajasi, O‘zbekistonning huquqiy majburiyatlari va

mamlakatimiz tomonidan imzolangan Xalqaro konvensiyalarni aks ettiradi. Yosh avlod haqida g‘amxo‘rlik muhim umuminsoniy qadriyatlardan biridir. Inklyuziv ta’limni rivojlantirish bu boradagi ahamiyatli yo‘nalishlardan biriga aylandi. Mazkur ta’lim imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga jalb qilish, bilim olish va rivojlanish imkonini beradi.

Inklyuziv ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining samaradorligini belgilovchi eng asosiy mezon bo‘lishi lozim.

Ko‘pchilik uchun inklyuziv ta’lim bu umumta’lim maktabining oddiy sinfiga boshqa bollarning o‘quv materiallarini, maktab dasturini o‘zlashtirishlariga xalaqit beruvchi nogironligi yoki biror tashxisi bor bollarni joylashni nazarda tutishadi. Bu fikr inklyuziyaga butunlay teskari, to‘g‘ri kelmaydi, bu integrativ yondashuvning bir ko‘rinishi xolos, bu ijobiy tomonga ishlamaydi ham. Integrativ yondashuvning g‘oyasi, ta’lim tizimining talablariga, ta’limdan kutilayotgan natijalarga mos kelmaydigan, unga xalaqit beradigan bolalarni ta’lim tizimiga moslashtirishni nazarda tutadi. Ya’ni, shunday bolalarni psixologlar, defektologlar, logopedlar va b. yordamida o‘zgartirishni o‘z ichiga oladi. Muammoni yechimini esa bollarimizda ko‘ramiz, ular judayam faol, bir joyda o‘tira olmaydi; judayam sust, o‘zlashtira olmaydi; judayam aqlli, zerikayapti; aqli raso emas, hech narsani tushunmayapti. Biz esa bollarimizni hozir ta’limda qabul qilingan umumiy standartlarga moslashtirishga harakat qilayapmiz. Umumiy standartlarga mos kelmaydiganlarni esa maxsus ta’lim muassasalariga yo‘naltirayapmiz. Standartlar dogma emas !

Zamonaviy ta’lim – inklyuziyada barcha, dinidan, tilidan, madaniyatidan va sog‘lig‘idan qat’iy nazar birday, bir xil ta’lim muassassida o‘qiydilar. Ta’lim tizimining vazifasi esa har bir bola - ta’lim oluvchining holatiga, darajasiga moslashishi zarur bo‘ladi.

Xavotirsiz ayta olamiz, inklyuziya – ta’lim tizimida inqilobdir !

Milliy qonunchiligimiz imkoniyati cheklangan insonlarga ham o‘z salohiyatini yuzaga chiqarishda teng huquq beradi. Konstitutsiyamizda esa ta’lim olish huquqi kafolatlangan. Shunday bo‘lsada, mamlakatimizda jismoniy

imkoniyatlari cheklangani sababli umumta’lim maktablariga bormayotgan bolalar ham bor.

Inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillaridan biri shundan iboratki, bu ta’lim bir tomonlama bo‘lmasligi kerak va jamiyat inklyuziv ta’limni yo‘lga qo‘yish uchun shart-sharoitlar yaratishi lozim. Oddiy bolalarning ota-onalari farzandlari alohida ehtiyojli bolalar bilan birga o‘qishidan xavotirga tushadi. Shu sababli biz bunday bolalarning ota-onalari bilan ham ishlashimiz lozim. Ta’kidlash joizki, alohida ehtiyojli bolalar ota-onalariga ularning farzandlari ham jamiyatning bir bo‘lagi bo‘lish huquqiga ega ekanini yetkazish, buni ularning ongiga singdirishimiz kerak. Zero, imkoniyati cheklangan insonlar ham katta yutuqlarga erishayotgani haqida ko‘plab misollar keltirish mumkin. Buning uchun ularga o‘z salohiyatini yuzaga chiqarish, ota-onalarga esa tanlash imkoniyatini berish zarur.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, muayyan ta’lim ehtiyojlariga ega bola o‘z tengqurlari orasida o‘qisa, bu ko‘proq samara beradi. Birinchidan, bolaning rivojlanishida, ikkinchidan, jamiyatni, bunday bolalar atrofidagi bolalarning rivojlanishiga yordam beradi. Negaki, alohida ehtiyojli bolalar bilan birga o‘qiydigan o‘g‘il-qizlarda ularga yordam berish, javobgarlik tuyg‘usi shakllanadi, ko‘pincha yaxshi sharoitlarda o‘sib-ulg‘ayayotgan bolalarga xos ayrim salbiy sifatlar yo‘qoladi. Buning samarasida bolalar birgalikda ishlash, bir-birini qo‘llab-quvvatlashni o‘rganadi. Bir muhitda tarbiyalanadigan bolalar o‘zlaridagi farqni sezmaydi, balki buni faqat ota-onalar sezadi, xolos. Shu bois bunday muloqot alohida ehtiyojli va boshqa bolalar, o‘qituvchilar, jamiyat, mahalla, oilalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ya’ni, ularning barchasida alohida ehtiyojli insonlarga nisbatan ijobiy munosabat rivojlanadi. Umuman olganda, rahm-shafqat, muruvvat kabi xislatlar xalqimizga azaldan xos bo‘lib, buni bolalarga ham yoshligidan singdirish lozim. Bu borada inklyuziv ta’lim alohida o‘rin tutadi.

Yana shukni ta’qidlash kerakki, farzandlarimiz biz uchun muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun ularni ta’lim olish jarayonlarini optimallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, bizning mamlakatimizda ko‘plab o‘quvchilar turli sabablarga

ko‘ra maktab muassasalarida emas, balki uyda ta’lim olishadi. Bunday bolalarga yakka ta’lim berishning variantlaridan biri bu uyda o‘qitish va tarbiyalash. Uning ijobiy tomonlari - bu bolaga ishlash imkoniyatini beradigan yakka rejasi va ta’lim tezligi, nafaqat kun davomida balki butun hafta davomida doimiy ravishda individual yuklamalar bilan belgilanadi. Bola bilan yakka ish olib borish uning ish sur’ati, mehnat qobiliyati, charchoq va boshqalarni hisobga olishga imkon beradi, shuningdek, nogiron bolalar va o‘spirinlarni jamiyat va maktabdan ajratilishini oldini oladi.

Turli xil sog‘liq muammolari bo‘lgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalashni o‘z ichiga olgan maxsus ta’lim: hissiy, intellektual, nutqiy, motorli rivojlanishdagi og‘ishlarda uy sharoitida ta’lim muhim o‘rin tutadi.

Uy sharoitida olib boriladigan ta’lim shakli deganda biz nogiron bolalarga tuzatuvchi-rivojlantiruvchi , ijtimoiy-pedagogik, tibbiy va psixologik yordam ko‘rsatadigan , oilaviy muhitda olib boriladigan ko‘p funksional ta’lim va tarbiya tizimini tushunamiz .

Nogironlik tushunchasi hayotning cheklanishiga olib keladigan va ijtimoiy himoyani taqozo etadigan kasalliklar, shikastlanish oqibatlari yoki nuqsonlar natijasida vujudga kelgan funksiyalarining doimiy buzilishi bilan sog‘lig‘i buzilgan shaxslardir. Nogironlik jismoniy, psixik, hissiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa to‘siqlar tufayli imkoniyati cheklangan shaxsning jamiyat bilan birlashishiga va unda faol hayot kechirishga to‘sqinlik qiladigan imkoniyatlarning cheklanishi sifatida talqin etiladi .

Xulosa qilib shuni aytish joizki, o‘quvchining bilim, ko‘nikma, malakalarini hamda kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion metodlardan foydalanish dars jarayonida o‘quvchining faolligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Shavkat Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” – T.: O‘zbekiston, 2017-yil

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

3. Xalq ta’limi Vazirligining 2015-yil 10-iyundagi 15 -mh- sonli qaroriga asosan tasdiqlangan “Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan hamda

O‘QUVCHILARDA “TARBIYA” FANINI O‘QITISH ORQALI HUQUQIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH

Namazov Shuxrat

Qori Niyoziy nomidagi TPMI doktoranti

O‘quvchilarda huquqiy madaniyatni rivojlantirish, huquqiy kompetensiyani shakllantirish, ularni takomillashtirish va o‘qitish masalalari kun sayin dolzarb bo‘lib bormoqda. Bugungi kunga kelib huquq ta’limiga doir turli interfaol usullar amaliyotda keng qo‘llanilmoqda. O‘quvchilarda huquqiy kompetensiyalarni integrativ asosda rivojlantirishga katta ehtiyoj seziladi. Rivojlangan xorijiy davlatlarda huquqni o‘qitishga doir ilmiy adabiyotlarda boshlang‘ich sinfdan boshlab qonunga rioya qilish, xususan, qonunga itoatkorlikkaga alohida e’tibor beriladi va ta’lim jarayonida interfaol usullardan unumli foydalaniladi. Dunyo tajribasida huquqiy savodxonlik mashg‘ulotlari bir bo‘lim yoki bir mavzu bilan tugab qolmaydi. Umumiy o‘rta ta’limda, xususan, kasbiy fanlarni o‘qituvchi darsliklarda keltirilgan o‘quv topshiriqlari, keyslar to‘g‘ri yashash ko‘nikmalarining osongina shakllanishiga olib keladi.

Prezidentimiz SH.Mirziyoyev “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga yega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hesh qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”[1] ta’kidlashlari ham bejizga emas. Ma’lumki, “Tarbiya” fani O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida 2020–2021–o‘quv yilidan boshlab joriy qilindi. Tarbiya fani uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasining bir qismi sifatida o‘quvchilarda “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasini singdirish, ularni ijtimoiy muvaffaqiyatli hayotga tayyorlash, faol fuqarolik pozitsiyasi, mas’uliyat,

majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog‘lom e’tiqodlilik, ma’rifatparvarlik, bag‘rikenglik kabi fazilatlarni takomillashtirishni maqsad qilib qo‘ygan. Tarbiya fanini o‘qitishda didaktik o‘yinlardan, interfaol usullardan foydalanish ta’lim jarayonida o‘quvchilarni o‘qitish, tarbiyalash va kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Didaktika – ta’lim nazariyasi hisoblanadi. Didaktik o‘yinlar esa o‘quvchilarning ijodiy ish faoliyatini kuchaytir adi,ixtiyoriy diqqatini jamlashga yordam beradi,shuningdek xotirani takomillashtiradi. Didaktik o‘yin jarayonida o‘quvchilar o‘zlari sezmagan holda juda ko‘p harakatlarni, mashqlarni bajaradilar, turli masalalarni yeshadilar. Shu o‘rinda pedagogik adabiyotlarda “Tarbiya” atamasi keng va tor ma’nolarda qo‘llaniladi. Keng ma’noda tarbiya inson shaxsini rivojlantirishga, uning jamiyat ishlab shiq arishi va ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy hayotida faol ishtirok etishini ta’minlashga qaratilgan barcha ta’sirlar, tadbirlar, harakatlar va intilishlar yig‘indisini anglatadi. Bunday tuchunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g‘oyalari va san’atning barcha turlarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma’nodagi tarbiya tuchunchasi ichiga ta’lim va ma’lumot ham kiradi. Tor ma’noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma’naviy–axloqiy qiyofasi va estetik didini o‘stirilishiga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Bunda oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari tarbiya ishini amalga oshiradi.

Bugungi kunda ham o‘quvchilarni tarbiyalashda ana shu tajribalarni o‘rganishi, o‘zlashtirishi va amaliy faoliyatda qo‘llay olishi taqozo etiladi. Shu sababli mazkur ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish Jahon xalqlari pedagogikasining tarbiyaga oid tajribalarini o‘rganish masalasi va uning metodikasini ishlab shiqish dolzarb bo‘lib turibdi. Chunki, hozirgi zamon xalqaro ta’lim dasturlari va talablari aynan Yevropa, Osiyo va Amerika qit’alarida yashovshi xalqlarning pedagogik tajribalariga asosan ishlab shiqilgan. Masalan, Sharq xalqlari pedagogikasidan Ustoz–shogird tajribasi butun dunyo xalqlari tarbiya jarayoniga tadbiq etilgan.

Savodxonlik – bu keyingi inson taraqqiyotini qurishda poydevor bo‘lishi mumkin. Kitob mazmuniga kirishni, bu insoniyat tomonidan yaratilgan fikr va bilim xazinasidan foydalanish imkonini beradi. Biroq, savodxonlik ma’lum bir narsani targ‘ib qilish vositasi sifatida jamiyatdagi mafkurani ham yoyishga xizmat qilishi mumkin. Savodxonlik nima va qanday xizmat qilishi quyidagi shartlarga bog‘liq qaysi bir mamlakatning milliy ta’limi joylashtirilgan.

Aholining huquqiy savodxonligi darajasini oshirish – bu yo‘l zamonaviy jamiyatning yorqin kelajagini ta’minlaydi. Ijtimoiy rivojlanishning hozirgi bosqichida huquqiy normalarni bilish inson va fuqaro o‘z huquq va erkinliklarini to‘liq amalga oshirishi uchun zarurdir. Bugungi kunda ko‘plab fuqarolar bu borada hatto minimal darajadagi bilimga ham ega emaslar. Shunga ko‘ra, fuqarolarni huquqlari haqida xabardor qilish qoidalar va qonunchilikdagi o‘zgarishlarni tushuntirish eng muhimi vazifa. Hozirgi zamonimizda aholining huquqiy savodxonligini oshirish turli mavzular asosida amalga oshirilishi mumkin: davlat tomonidan (davlat organlari tomonidan taqdim yetilgan, ommaviy OAV); jamoat tashkilotlari tomonidan; O‘zbekiston Respublikasi oliy o‘quv yurtlari; qo‘shimcha ta’lim. Ro‘yxatdagi barcha tashkilotlar turli xil vositalardan foydalanadilar aholining huquqiy ta’limi uchun. Huquqiy kompetensiyaning ham bir qancha ko‘rinishlari mavjud. Jumladan Ijtimoiy-huquqiy kompetensiya – ta’lim jarayonining meyoriy-huquqiy asoslari, xususan, uni modernizatsiyalash borasidagi hujjatlar yuzasidan bilimlar, mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi qoidalari hamda meyorlariga amal qilish, bolalar va o‘smirlarni ijtimoiy yomon illatlardan muhofaza qilishni bilish, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning hayoti va salomatligini asrashni bilish, oliy ta’lim muassasasi va auditoriya hujjatlarini yuritish ko‘nikmasiga ega bo‘lish demakdir.

O‘quvchilarning huquqiy savodxonligini oshirish uchun quyidagilarga alohida etibor qaratish zarurdir. aholining yuqori darajadagi huquqiy madaniyatini shakllantirish an’analar, qonunga bevosita hurmat, fuqarolarning qonun ustuvorligi, yaxlitlikni va huquqiy nigilizmni yengib o‘tish mamlakatning rivojlanishiga

bevosita to‘sqinlik qiladigan jamiyat zamonaviy madaniyatli va huquqiy davlat. Yoshlar, shuningdek, kattalar avlodi – ota-onalar orasida har doim huquqiy savodsizlik muammosi bo‘lgan. O‘z huquqlari, burchlarini bilmaslik, bu haqda asosiy bilimlarning yetishmasligi konstitusiyaviy huquqlar va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ularning barchasini himoya qila olmaslik quyidagi noqulay holatlarga olib keladi: qonuniy nigilizm, hokimiyatga ishonchsizlik va hokazo. “Kompetentlik” tushunchasi iqtisodiyot va insonning jadal sur’atlarda o‘zgaruvchan hayot sharoitlariga moslashish ehtiyojidan yuzaga kelgan inson zaxiralariga yangicha yondashuvning natijasi hisoblanadi.

«Kompetensiya» tushunchasi esa ta’lim amaliyotiga kiritishni A.V.Xutorskoy ta’kidlaganidek, maktab uchun odatiy bo‘lgan, o‘quvchilar nazariy bilimlar majmuini egallab, ma’lum vazifalar yoki muammoli vaziyatlarni yechishda sezilarli qiyinchiliklarni his etishlari muammosini hal etish imkonini beradi[3]. Huquqiy savodxonlik – bu zamonaviy munosabatlar dunyosida yashovchi odam uchun zarur bo‘lgan savodxonlik turi. Huquqiy kompetensiya – bu shaxsning ajralmas mulki huquqiy qadriyatlarni tan olish, uning tayyorligi va qobiliyatini aks ettirish to‘g‘risida ijtimoiy va huquqiy faoliyatni amalga oshirishda shaxsni safarbar qilishga imkon beradigan huquqiy bilim va ko‘nikmalar tizimini qo‘llash hamda ushbu faoliyatni samarali bajarish.

Dunyoda huquq fanlarini o‘qitish kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan bo‘lib, dars jarayonida mazkur kompetensiyalarni shakllantirish huquqiy savodxonlikning rivojlanishiga olib keladi. Shu o‘rinda chet elda huquqni o‘qitish bilan mamlakatimizda mazkur sohani o‘qitish maqsadlari ma’lum ma’noda farq qilishini, ularni bir chiziqda tasavvur qilib bo‘lmasligini ta’kidlash lozim. Shunga qaramay, inson huquqini o‘rganish bo‘yicha belgilangan darajalar hamma xalqlarda tatbiq qilinmoqda. Bo‘ysunuvchanlik, qonunga hurmat ko‘rsatishni o‘rganishga qo‘yilgan mazkur talablar asosida konstitusiya mazmunini o‘qish tushunish, tushunganlarini yozib bera olish malakalari shakllanadi. Bunday yondashuvdan ijodiy foydalanib, huquq darslarini ham samarali tashkil etish mumkin. Rivojlangan

davlatlarning huquq o‘qitish metodikasida integratsiya asosida o‘rgatiladi, asosan, topshiriqlarga tayanadi, keys va maxsus topshiriqlar aniq farqlanadi, o‘z o‘rnida ishlatiladi. Shu sababli ularning huquqiy kompetensiyani o‘rganish layoqati yuqoridir.

Tadqiqotchi I.A.Zimnyaya tomonidan kompetensiyaviy yondashuv muammosi bo‘yicha tadqiqotlarni umumlashtirib, uning rivojlanishining uch bosqichlarini quyidagicha ajratgan: birinchi bosqich(1960-1970 yillar) ilmiy apparatga «kompetensiya» toifasini kiritish bilan tavsiflanadi; ikkinchi bosqich(1970-1990 yillar) ona tilini o‘qitish nazariyasi va amaliyoti, boshqaruv sohasida «kompetentlik» / «kompetensiya» toifalaridan foydalanish bilan tavsiflanadi; uchinchi bosqich(1990-2001 yillar) ta’limda «kompetentlik» / «kompetensiya» toifalaridan faol foydalanish bilan tavsiflanadi.

1990 yillardan O‘zbekistonda kompetensiyaviy yondashuvning talab etilganligi, undan foydalanish ta’lim tizimidagi kamchiliklarni hamda uning jamiyat ehtiyojlariga mos emasligini bartaraf etishning istiqbolli yo‘li sifatida, ta’limning amaliyot bilan va jamiyatning haqiqiy ehtiyojlari bilan aloqadorligini kuchaytirish sifatida qaralgan (S.Y.Batishev, E.F.Zeyer, A.M.Novikov, I.D.Frumin va boshqalar. Mamlakatimizda ta’lim–tarbiya tizimini milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, insonparvarlik tamoyillari asosida takomillashtirish, maktab ta’lim jarayonida ma’naviy– axloqiy mazmunni kuchaytirish orqali yoshlarni yuksak ma’naviy g‘oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ta’lim –tarbiya sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limini rivojlantirish konsepsiyasida “ta’lim muassasalarida o‘quv–tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, muqobil yondashuvlarni o‘rganishga va ilmiy asoslashga yo‘naltirilgan amaliy xarakterdagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirish, kichik yoshdan o‘quvchilarda o‘qishga sog‘lom, kuchli va ta’sirchan motivasiyani takomillashtirish”[4]. Huquqiy savodxonlik shakllanishdan iborat yoshlar o‘rtasida huquqiy mafkura asosida jamiyatni huquqiy tashkil etishning mohiyati va vazifalarini to‘g‘ri tushunish, qonunga hurmatni tarbiyalash, ularga rioya qilish zarurligini singdirish jamiyatda

amal qiladigan va davlat tomonidan himoya qilinadigan xulq-atvor qoidalari bilan amalga oshadi. Ushbu bosqichda , jamiyat faqat ongli ravishda mavjud bo‘lishi mumkin degan fikrni singdirish kerak intizom va shaxsning ma’lum bir cheklanishini va shaxsning kollektiv erkinligini nazarda tutadi. Tarbiya fanini o‘qitishning asosiy maqsadlaridan biri o‘quvchilarda huquqiy kompetensiyani innovasion yondashuvlar asosida rivojlantirishni takomillashtirish bo‘yicha o‘quv-metodik ta’minot yaratish, undan kelib chiquvchi vazifalar quyidagilar: - o‘quvchilarning huquqiy kompetensiyasini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari integrativ tizim: fanlararo bog‘liqlik, subyektlar integratsiyasi: o‘qituvchi bilan o‘quvchilar ta’limiy muhitning tashkilotchisi, boshqaruvchisi va ishtirokchisi sifatida hamda korporativ (guruh jamoasi) boshqaruv komponentlari asoslash; - o‘quvchilarning huquqiy kompetensiyasini rivojlantirishning huquqiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini loyihalashtirish modeli pragmatik ta’lim usuli hamda ta’lim jarayonini loyihalash tamoyillariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirish; - o‘quvchilarning huquqiy kompetensiyasini rivojlantirishning huquqiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining tayanch kompetensiya (refleksiv, kognitiv, ma’rifiy, kommunikativ, ijtimoiy)lari o‘quvchilar qobiliyatlarini qonun va tafakkurning o‘zaro dialektik bog‘liqligini integratsiyalash asosida takomillashtirish; - o‘quvchilarning huquqiy kompetensiyani rivojlantirishda huquqiy savodxonlikka doir tushunchalarni izohlash va keys-topshiriqlarning metodik imkoniyatlarini kengaytirishga doir tavsiyalar ishlab chiqish vazifalari turibdi.

Umuman, “Tarbiya” fanini o‘qitishda o‘quvchilarning huquqiy savodxonligni rivojlantirishda bir qator vazifalar turibdi. Ularni tasniflash va amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi ta’limning, o‘qitish metodikasining eng asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Ta’kidlash kerakki, 5-6-sinflarda o‘quvchilarga huquqiy bilim va ko‘nikmalar berish imkoniyati mavjud, ammo yuqori sinflarda buning imkoniyati cheklanib qolgan, 7-11 – sinf “Tarbiya”

darsliklarida ham huquqiy savodxonlikni rivojlantiruvchi o‘quv materiallar hajmini oshirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev SH. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O‘zbekiston, 2016. –14-b

2. Pirnazarova A. Tarbiya fanini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va unda ta’lim va tarbiyaning uzviyligi: tarbiya fanini o‘qitishda didaktik o‘yinlar//Yangi O‘zbekiston talabalari axborotnomasi 2022. 77-78b.

3. Jabborova O., Umarova Z. Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi. – Toshkent. 2021.15-16 betlar

4. Ushakov D. N. Bolshoy tolkoviy slovar sovremennogo russkogo yazika. M., 2008. 269 c.

5. Korotkov V. V. Formirovaniye pravovoy sredi obsheobrazovatelnogo uchrejdeniya : dis. ... kand. ped. nauk. N. Novgorod, 2003. 168 s.

6. Svetkov A. P. Pravovoye vospitaniye kak vajneyshiy faktor formirovaniya pravovoy kulturi i pravosoznaniya // Semya v Rossii. 2003. № 2. S. 106-111.

TARBIYA UCHLIGINING KUCHI: IJTIMOIY-SIYOSIY TARBIYADA OILA, MAKTAB VA MAHALLA ROLI

Samatova Iroda Azamjon qizi

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya Pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘quvchilarning ijtimoiy-siyosiy kompetensiyasini shakllantirishda oila, maktab va mahalla o‘rtasidagi hamkorlikning ahamiyati yoritiladi. Fuqarolik ongini, siyosiy tafakkurni shakllantirishda bu uch ijtimoiy institutning o‘zaro uyg‘unlikda faoliyat yuritishi yoshlar tarbiyasida hal qiluvchi rol o‘ynashi asoslab beriladi. Maktabdagi tarbiyaviy ishlarni mahalla va oila bilan bog‘lab olib borish, vitagen texnologiyasi asosida hayotiy misollarda tarbiya berish samarali yo‘llar sifatida ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-siyosiy kompetensiya, oila, maktab, mahalla, tarbiya, hamkorlik, fuqarolik ong, vitagen texnologiya, ijtimoiy institutlar.

Kirish. Bugungi globallashuv va axborot erkinligi sharoitida yoshlarning siyosiy madaniyatini, fuqarolik ongini va ijtimoiy faolligini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu yo‘nalishda ta’limning har bir bo‘g‘inida tizimli ishlar olib borilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu borada: *“Yoshlarimizni yuksak ma’naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni puxta egallagan, Vatanga sadoqatli insonlar etib tarbiyalash – eng ustuvor vazifamizdir,”* – deya alohida ta’kidlaydi.

O‘quvchilarning siyosiy tafakkurini shakllantirish, jamiyatdagi o‘rnini anglash, ijtimoiy mas’uliyat hissini uyg‘otishda oila, maktab va mahalla o‘rtasida mustahkam hamkorlik bo‘lishi zarur. Ushbu uch institutning uyg‘un faoliyati orqaligina biz siyosiy jihatdan yetuk avlodni tarbiyalashga erishamiz. Ijtimoiy-siyosiy kompetensiya – bu shaxsning siyosiy bilimga egaligi, jamiyatdagi siyosiy jarayonlarni tahlil qilish, muhokama etish, shaxsiy fuqarolik pozitsiyasini bildirishga tayyorlik darajasidir. Bu kompetensiya yoshlar ongida Vatanga muhabbat, qonunlarga hurmat, erkin fikr va ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘ularini shakllantiradi.

UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan “Global fuqarolik ta’limi” konsepsiyasida ham aynan shunday kompetensiyalar bugungi kunda dolzarb deb e’tirof etilgan. O‘zbekistonning ta’lim tizimida esa bu yo‘nalish “Tarbiya” fani va unga integratsiyalashgan darslar orqali amalga oshirilmoqda.

Oila – ijtimoiy-siyosiy tarbiyaning negizi. Oila – shaxsning ilk ijtimoiylashuv makoni sifatida siyosiy dunyoqarashning ilk tamoyillarini shakllantiradi. Farzandda Vatanga sadoqat, qonunlarga hurmat, insonparvarlik, haqiqatgo‘ylik kabi fazilatlar aynan oilada paydo bo‘ladi. Ota-onaning shaxsiy siyosiy madaniyati, jamiyatdagi hodisalarga munosabati bevosita farzand tarbiyasiga ta’sir qiladi.

Akademik I.A. Komenskiy o‘z asarlarida bejizga *“Tarbiya uyda boshlanadi va jamiyat uchun eng muhim meva ham shu yerda yetiladi”* deya ta’kidlamagan.

Maktab – siyosiy tafakkur shakllanishining markazi. Maktabda o‘quvchilar fuqarolik huquqlari, siyosiy tizimlar, demokratik qadriyatlar haqida bilim oladilar. “Tarbiya”, “Huquqshunoslik”, “Tarix” fanlari orqali siyosiy savodxonlik shakllanadi. Sinfdan tashqari tadbirlar, munozaralar, siyosiy viktorinalar orqali siyosiy jarayonlarga nisbatan ongli munosabat hosil qilinadi.

Tadqiqotchi Xudoyqulova Z.O. o‘z tadqiqotida maktabda ijtimoiy-siyosiy kompetensiyani shakllantirishda vitagen texnologiyaning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, o‘quvchilarga hayotiy misollar orqali ta’sir etish, tarixiy va zamonaviy voqealarni solishtirish ularda real dunyo bilan bog‘liq siyosiy ongni shakllantiradi.

Mahalla – ijtimoiy faollikni rag‘batlantiruvchi muhit. Mahalla – bu jamiyatdagi ijtimoiy birdamlik va jamoaviy faollik manbaidir. Mahalla fuqarolari yig‘inlari, yoshlar yetakchilari va profilaktika inspektorlari maktab bilan hamkorlik qilsa, o‘quvchilarda ijtimoiy javobgarlik va siyosiy faol pozitsiya shakllanadi.

Mahalla tadbirlarida ishtirok etish, saylovlar, jamoat kengashlari, ekologik aksiyalarga qo‘shilish orqali o‘quvchilar fuqarolik faoliyatini amalda o‘rganadilar.

Hamkorlik samaradorligini oshirish yo‘llari. Oila–maktab–mahalla uchligi asosida quyidagi yondashuvlar tavsiya etiladi:

- **Vitagen texnologiyasi asosida tarbiya:** Hayotiy vaziyatlarga asoslangan darslar orqali siyosiy masalalarni tahlil qilishga yo‘naltirish.
- **Yagona tarbiyaviy platforma:** Maktab va mahalla tomonidan o‘tkaziladigan tadbirlarni oila bilan bog‘langan holda rejalashtirish.
- **Ota-onalar bilan siyosiy-ma’naviy suhbatlar:** Fuqarolik mavzularida ota-onalar ishtirokidagi davra suhbatlari tashkil etish.
- **“Tarbiyaviy kuzatuv kartasi”** joriy etish orqali o‘quvchining maktabdagi va mahalladagi faoliyatini yagona tizimda kuzatish.

Xulosa. Yoshlarni siyosiy jihatdan yetuk, ijtimoiy faolligi kuchli shaxslar etib tarbiyalashda oila, maktab va mahalla o‘rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Har bir institutning o‘zaro aloqasi va yagona maqsad sari yo‘naltirilgan faoliyati orqaligina biz siyosiy tafakkuri rivojlangan, fuqarolik burchini anglaydigan barkamol avlodni voyaga yetkazamiz. Shu ma’noda, tarbiya uchligi – oila, maktab va mahalla – nafaqat tarbiyaning, balki davlat barqarorligining ham asosi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. (2022). *Yangi O‘zbekiston – xalqchil davlatning ramzi*. – T.: “O‘zbekiston” NMIU.

2. Xudoyqulova Z.O. (2023). *“Tarbiya” fanini o‘qitishda o‘quvchilarning ijtimoiy-siyosiy kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari*. PhD dissertatsiyasi. Toshkent.

3. UNESCO. (2015). *Global Citizenship Education: Topics and Learning Objectives*. Paris.

4. Комаров В.Д. (2021). *Гражданское воспитание школьников: теория и практика*. Москва: Просвещение.

5. Qodirov A.N. (2020). *Mahalla institutining zamonaviy tarbiyadagi o‘rni*. – “Ijtimoiy fanlar” jurnali, №3.

6. Abdullayeva N.Sh. (2019). *Oila va maktab hamkorligi – tarbiyada muvaffaqiyat omili*. – “Pedagogika” ilmiy-amaliy jurnali, №4.

OILA VA MAHALLA HAMKORLIGINING QIZLAR TARBIYASIDAGI O‘RNI : IJTIMOIY – PEDOGOGIK TAHLIL

Abdurazoqova Marg‘uba Muxammad qizi

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada qizlar tarbiyasida oila va mahalla institutlari o‘rtasidagi hamkorlikning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati chuqur tahlil etiladi. Oila – shaxsning dastlabki ijtimoiylashuv muhitini shakllantirsa, mahalla – milliy

qadriyatlar, axloqiy mezonlar va jamoaviy nazorat tizimining bevosita faol ishtirokchisidir. Maqolada ayni hamkorlikning samarali shakllari, mavjud muammolar, gender tengligi masalalari, shuningdek, ilg‘or tajribalar ijtimoiy-pedagogik yondashuvlar asosida yoritiladi. Shuningdek, maqolada mahalla faollari, ota-onalar, pedagoglar va psixologlarning o‘zaro aloqalari misolida kompleks yondashuv taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: qizlar tarbiyasi, oila, mahalla, ijtimoiy institutlar, hamkorlik, gender tengligi, pedagogik yondashuv, tarbiya muammolari, xalqchillik, milliy qadriyatlar

Аннотация: В данной статье проводится социально-педагогический анализ важности взаимодействия между семьёй и махаллей в процессе воспитания девочек. Семья формирует первичную социальную среду, где развиваются основные качества личности, а махалля выступает носителем национальных традиций, нравственных ценностей и социального контроля. В статье рассматриваются эффективные формы такого взаимодействия, актуальные проблемы, вопросы гендерного равенства, а также передовой опыт различных регионов. Предлагаются комплексные подходы с участием родителей, педагогов, психологов и активистов махалли для создания устойчивой воспитательной среды.

Ключевые слова: воспитание девочек, семья, махалля, социальные институты, сотрудничество, гендерное равенство, педагогические подходы, проблемы воспитания, народность, национальные ценности

Annotation: This article provides a socio-pedagogical analysis of the collaborative role of the family and the mahalla (neighborhood community) in the upbringing of girls. The family lays the foundation for initial socialization, while the mahalla serves as a bearer of national values, moral norms, and communal oversight. The article explores effective cooperation models, addresses existing social challenges such as gender inequality, and presents best practices from local communities. It further advocates a holistic approach involving parents, educators,

psychologists, and community leaders to create a sustainable and supportive environment for girls' education and development.

Keywords: girls' upbringing, family, mahalla, social institutions, cooperation, gender equality, pedagogical approaches, upbringing issues, community engagement, national values.

Kirish. Oila va mahalla qadimdan xalqimiz tarbiyaviy hayotining ajralmas bo‘lagi bo‘lib kelgan. Ayniqsa, qizlar tarbiyasida bu ikki institutning roli o‘ta muhim sanaladi. O‘zbek xalq pedagogikasida “Qiz bola elga qaraydi, el bola qizga” degan hikmat bejiz aytilmagan. Chunki qizlar nafaqat o‘z oilasining, balki butun jamiyatning tarbiyasini, ma'naviyatini, madaniyatini ifoda etadi. Ularning odobi, nutqi, kiyim-kechagi, yurish-turishi orqali oila madaniyati, mahalla muhiti va umuman, millat ma’naviy darajasi ko‘rinadi.

Bugungi globallashuv, texnologik taraqqiyot va ochiq axborot maydonlari sharoitida qizlar tarbiyasi yanada murakkablashdi. An’anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy yondashuvlar o‘rtasida muvozanatni saqlash, axloqiy-me’yoriy poydevorni saqlagan holda zamonaviylikni ham singdirish zarur bo‘lib qoldi. Shu jarayonda oila va mahalla institutlarining uyg‘unlikda ishlashi – eng muhim omillardan biridir.

Oila – asosiy tarbiya o‘chog‘i

Oila – bola hayotining birinchi ijtimoiy muhitidir. Qiz bola ilk axloqiy, estetik, ijtimoiy, diniy va milliy qadriyatlarni aynan oilada o‘zlashtiradi. Onaning mehri, otaning e’tibori, opa-singillar va aka-ukalarning o‘zaro munosabatlari orqali qiz bola ijtimoiy rollarni anglay boshlaydi. Oiladagi tinchlik, muhabbat, hurmat, qat’iylik va mehnatsevarlik qadriyatlari uni mustahkam shaxs sifatida shakllantiradi.

Agar qiz bola sog‘lom oilaviy muhitda ulg‘aysa, u o‘zini qadrlaydi, boshqalarni ham qadrlashni o‘rganadi. Oiladagi so‘z erkinligi, ishonch, muhokama qilish odati esa unda fikrlash, tanqidiy qarash va qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi. Aksincha, oilaviy zo‘ravonlik, qizlarni kamsitish, ularni faqat uy-ro‘zg‘or yumushlariga cheklash, o‘qishga emas, turmushga tayyorlashga qaratilgan

yondashuvlar uning shaxsiy o‘sishini to‘xtatadi, jamiyatda passiv pozitsiyada bo‘lishiga olib keladi.

Mahalla – tarbiyani ijtimoiylashtiruvchi muhit

Mahalla – qadimdan ijtimoiy nazorat, birgalikda yashash madaniyati, ma’naviy yuksaklikni shakllantiruvchi makon bo‘lib kelgan. Mahalla tarbiyasining kuchi shundaki, u oiladagi tarbiyani ijtimoiy miqyosga olib chiqadi. Mahalladagi “odamlar nima deydi?”, “ko‘chada o‘zini tutishi”, “mahallaning obro‘si” kabi tushunchalar qizlarning jamoat oldida o‘zini tutishiga ijobiy (ba’zida esa ortiqcha nazorat orqali salbiy) ta’sir ko‘rsatadi.

Bugungi kunda mahallalarda “Ayollar faollari”, “Qizlar bilan ishlovchi maslahatchilar”, “Ma’naviyat va ma’rifat yetakchilari”, “Profilaktika inspektorlari” kabi tizimlar mavjud. Ular orqali qizlar bilan ishlash, ularning huquqiy savodxonligini oshirish, sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish, turli salbiy oqimlardan asrash mumkin. Biroq bu tizim barcha joyda ham samarali ishlayotgani kuzatilmaydi. Aksariyat hollarda bunday faoliyat qog‘ozda qolmoqda, amalda esa bir necha rasmiy tadbirlar bilan cheklanib qolmoqda.

Oila va mahalla o‘rtasidagi uzviylik masalasi

Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, oila va mahalla bir-birini to‘ldiruvchi emas, balki bir-biriga tayanuvchi institutlar sifatida faoliyat yuritishi lozim. Mahalla faollari, maktab o‘qituvchilari va ota-onalar o‘rtasida muntazam, tizimli, ochiq muloqot bo‘lmas ekan, tarbiyada bo‘shliqlar paydo bo‘ladi. Ayniqsa, o‘smirlik davridagi qizlar bilan individual ishlash yo‘q bo‘lsa, ular tashqi muhit ta’siriga tez tushib qolishi mumkin.

Afsuski, ayrim holatlarda o‘zaro ayb yuklash, mas’uliyatdan qochish, “bu maktabning vazifasi”, “bu oilaning ishi”, “mahalla emas, davlat qarasin” kabi yondashuvlar mavjud. Bu esa qizlar tarbiyasini zaiflashtiradi.

O‘zbekistonning ayrim hududlarida ijobiy tajribalar mavjud. Misol uchun, Andijon, Qashqadaryo va Farg‘ona viloyatlarida “Qizlar maktabi”, “Ona-qiz suhbatlari”, “Mahalla ayollari forumi” kabi loyihalar orqali nafaqat bilim, balki

mahorat, psixologik tayyorgarlik, hayotiy ko‘nikmalar ham berilmoqda. Ayrim maktablarda esa qizlar bilan ishlovchi psixologlar va sinf rahbarlari mahalla faollari bilan birgalikda maxsus tarbiyaviy reja asosida ish olib bormoqda.

Bunday tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, agar oila, mahalla va maktab birgalikda ishlasa, qiz bola faqat muhofazalangan emas, balki rivojlangan, ongli, faol va mustaqil bo‘lib voyaga yetadi.

Oila va mahalla o‘rtasidagi hamkorlik ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida faqatgina tarbiya emas, balki profilaktik, huquqiy va madaniy ishlarda ham samarali yechimlar beradi. Bunday hamkorlik orqali qizlar nafaqat axloqan, balki ma’naviy-psixologik jihatdan ham mustahkam tarbiyalanadi. Ayni paytda muammolar ham mavjud: ota-onalarning loqaydligi, mahalla faollarining yetarli bilimga ega emasligi yoki rasmiyatchilikka berilishi natijasida ushbu institutlar faoliyati to‘liq amalga oshmaydi.

Albatta, quyida “Oila va mahalla hamkorligining qizlar tarbiyasidagi o‘rni: ijtimoiy–pedagogik tahlil” mavzusiga mos Xulosa va tavsiyalar bitta yaxlit bo‘lim tarzida, uzviy, ilmiy-pedagogik uslubda bayon etilgan.

Xulosa va tavsiyalar

Yuqorida olib borilgan ijtimoiy–pedagogik tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, qizlar tarbiyasida oila va mahalla hamkorligi g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Oila – birinchi tarbiya makoni sifatida qiz bolani axloqiy, estetik va milliy qadriyatlarga asoslangan shaxs sifatida shakllantirsa, mahalla – bu tarbiyani jamiyat miqyosida davom ettiruvchi va ijtimoiylashtiruvchi kuchdir. Ularning o‘zaro uzviy hamkorlikda faoliyat yuritishi orqali qizlar nafaqat himoyalangan, balki ijtimoiy jihatdan faol, bilimli, o‘zini anglagan va qadriyatli shaxslar sifatida voyaga yetadi.

Bugungi kunda jamiyatda yuzaga kelayotgan yangicha ijtimoiy-madaniy sharoitlar, axborot oqimining kuchayishi, gender masalalarining dolzarbligi va milliy qadriyatlarni saqlab qolish zarurati qizlar tarbiyasiga yondashuvni takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bu jarayonda oila va mahalla institutlari o‘zaro hamkorlikda, tizimli va pedagogik asoslangan faoliyat yuritishi lozim.

Shu asosda quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Oila va mahalla o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlovchi uzluksiz, rejalashtirilgan pedagogik hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqish;
2. Mahalla faollarining tarbiyaviy savodxonligini oshirish maqsadida qisqa muddatli o‘quv kurslarini tashkil etish;
3. Har bir mahallada “Qizlar bilan ishlash bo‘yicha ijtimoiy-pedagogik maslahatchi” lavozimini joriy etish;
4. Qizlar tarbiyasida ota-onalarning ishtirokini kuchaytirish maqsadida “Ota-ona maktabi” yoki “Ona-qiz suhbatlari” kabi doimiy ishlaydigan klublarni mahalla va maktab doirasida yo‘lga qo‘yish;
5. Maktab, oila va mahalla uchligini birlashtiruvchi koordinatsion kengashlarni faol ishlatish va ular orqali muammolarning yechimini tizimli ravishda ko‘rib chiqish;
6. Qizlarning shaxsiy rivojlanishi, huquqiy bilimlari va hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan interaktiv ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, oila va mahalla o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, uni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil qilish – bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Ana shunda biz ma’naviy yetuk, iymonli, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, o‘zini va o‘zligini anglagan qizlarni voyaga yetkazamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020-yilgi tahrir.

2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.

3. Qodirova D. “Qizlar tarbiyasining psixopedagogik asoslari”. – T.: O‘qituvchi, 2019.

4. Xudoyberganova D. “Oila pedagogikasi”. – T.: Fan va texnologiya, 2021.

5. UNESCO. “Community-based approaches to girls' education” – Paris, 2022.

6. Mahalla va Oila ilmiy-amaliy markazi materiallari, 2023.

TALABALARDA NAFS TARBIYASI HAQIDAGI TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISHDA AJDODLAR MEROSIDAN FOYDALANISH

Raxmanova Nazokat Tairovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Xorijiy tillar ta’limi" kafedrasi katta o‘qituvchisi,

TPMI mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarda nafs, uning mohiyati haqidagi tushunchani shakllantirishda ajdodlar merosidan foydalanish, ularda ilgari surilgan falsafiy fikrlar haqida fikr bildirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: talaba, yoshlar, nafs, korrupsiya, ta’lim muassasasi, tarbiya, rivojlanish, ko‘nikma, kurashchanlik.

Jahon oliy ta’limi jarayonida talaba-yoshlarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi, axborot muhiti sharoitida talabalarning ma’naviy yetukligini shakllantirishning amaliy pedagogik tizimini takomillashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida talabalarda korrupsiyaga qarshi kurashchanlik ko‘nikmalarini tarbiyalash, ularda nafs tarbiyasini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining “XXI asrning Oliy ta’limi” Butunjahon deklaratsiyasi, UNESCOning “Oliy ta’limni isloh qilish va rivojlantirish” dasturiy hujjatlarida dunyo miqyosida ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishga, modulli ta’limni tashkil etishga, o‘qitishning zamonaviy usullarini joriy etish orqali talaba-yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasini yanada takomillashtirishga alohida e’tibor berilgan.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarda ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarning yaxlit tizimini yaratish, yoshlarni mediamakonda turli xil axborot xurujlaridan himoya qilishning tashkiliy-tadqiqiy jihatlarini takomillashtirish,

ommaviy axborot vositalaridan foydalanishni samarali yo‘lga qo‘yish, talabalarning ma’naviy-axloqiy kompetensiya (fazilat)larini, axborotlar bilan ishlash madaniyatini tizimli tarkib toptirishga hamda ajdodlar merosidan foydalangan holda nafs tarbiyasini rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida oliy ta’lim muassasasalarida tashkil etiladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlar samarasi va ta’sirchanlik ko‘lamini oshirish, talaba-yoshlarning tafakkurida korrupsiyaga qarshi toqatsizlik tuyg‘usini kuchaytirish, axborot muhitida ular duch kelayotgan ma’lumotlar bazasidan oqilana foydalanish va to‘g‘ri qabul qila olish, talabalar ong-u tafakkuridagi ma’naviy bo‘shliq o‘rnini ma’naviy yetuklik kompetensiyasi orqali to‘ldira olishlikni tashkil etish, mazkur sohaga doir ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-Qarorida “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son “Ma’naviy – ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son qarori bilan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-80-son 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risida”gi Farmonlarida talaba-yoshlarni ma’naviy kamoloti, ma’naviy yetuklik darajasini oshirish xususida qilinadigan chora-tadbirlar belgilangan.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning nafs tarbiyasini rivojlantirishda ajdodlar merosidan foydalanish katta ahamiyatga ega. Sharq mutafakkirlarining

asarlarida insonlarning nafs tarbiyasini shakllantirishga alohida urg‘u berib o‘tilgan. Jumladan, Sharq mutafakkirlarining e’tiroficha, shaxsiy manfaat bilan jamiyat manfaati uyg‘unligiga erisha olmagan inson xalq va davlat xizmatida uzoq vaqt qola olmaydi. Fuqarolar nazari, jamoat fikri uni bu sharafli, ayni paytda, g‘oyat mas’uliyatli faoliyatga noloyiq ekanini oshkor etmay qo‘ymaydi. Shuning uchun mas’ul shaxslar, yetakchilar, eng avvalo, nafs tarbiyasi maktabini o‘tagan bo‘lishi kerak. Alisher Navoiy bu haqda shunday yozgan:

“Chun menga lutf etti shah devonda muhr,
Bu edi eldin quyi muhr urmog‘im.
Kim g‘ururi nafsi sarkash ma’nig‘a,
Barchadin bo‘lg‘ay quyi o‘lturmog‘im.
Chun shikasti nafs hosil o‘lmadi,
Mundin o‘ldi muhrni sindurmog‘im”.

Shoir nazarida inson nafsini jilovlay olmas ekan, ta’ma uni yolg‘on va ochko‘zlikka undayveradi. Shuning uchun har bir inson, eng avvalambor, ta’madan uzoq bo‘lishi kerak. Shoh devonida muhr urishni topshirgan inson davralarning to‘rini emas, poygagini ko‘zlab, nafsini o‘sha poygakda turishga o‘rgatishi kerak. Agar nafsidan g‘olib bo‘lolmas ekan, “muhrni sindurmog‘i” afzaldir. Nafs insonning mohiyatiga yarashmaydigan qiliqdir. Zero, ta’ma uchun tubanlashish, o‘zini suvga-o‘tga urish yaramaydi. Dono xalqimiz nafs quliga aylangan, o‘z manfaatiga boshqalar hisobidan erishishni ma’qul ko‘radigan, faqat o‘zini o‘ylaydigan kimsadan Xudoning o‘zi asrasin, deydi. Bag‘rikeng, halol, vijdonli, mehr-oqibatli, el-yurtning g‘amu tashvishi bilan yashaydigan kishilarni boshiga ko‘taradi.

Navoiy insonni komillik rutbasidan tunablik botqog‘iga uloqtiradigan eng yozuv dushman – nafs, uning insonni qanday yengishiyu, inson nafsni qanday mag‘lub etishi masalalarini o‘zgacha yo‘sinda yoritib o‘tgan. A.Navoiy insonlarni har doim yaxshilikka chorlagan. Zamondosh hukmdorlar, fuqarolar, olimu fuzalolarga har doim nafsdan tiyilish, dunyo moliga hirs bog‘lamaslik, boriga shukr qilib, bu hayotda pok yashash, insoniylikni yo‘qotmaslik kabilarni uqtiradi. Negaki,

inson zotiga o‘z nafsiga berildimi – imonini yo‘qotadi, imonini yo‘qotadimi – u haqiqiy insonlar safidan chetlashadi deya ta’kidlagan alloma.

Alisher Navoiy nafs tushunchasini turli ma’nolarda ishlatgan, timsol va obrazlar orqali mazmun-mohiyatini ochib bergan. Jumladan, “xayrat ul-abror”danafsni quyidagi ma’nolarda talqin etgan:

- yeyish ichihga bo‘lgan nafs;
- mol-dunyoga bo‘lgan nafs;
- maishatbozlik bilan bog‘liq nafs;
- nafs bu – dunyo noz-ne’matlari, zeb-u ziynatlar, kiyim-kechakka bo‘lgan xirs-u havas;
- insonndagi barcha illatlar – nafs;
- nafs bu – kibr-u havo, takabburlik, havolanish;
- nafs – dunyo, ya’ni moddiy olam;
- nafs – o‘zlik ma’nosida ishlatilgan.

Abu Homid G‘azzoliy “Kimiyoi saodat” asarida “ma’rifat” – bilishni to‘rt qismga ajratgan:

1. Nafs ma’rifati,
2. Alloh ma’rifati,
3. Dunyo ma’rifati,
4. Oxirat ma’rifati.

G‘azzoliy nafsniinsonning dunyoviy ehtiroslari va ijtimoiy muammolaridan tashqari, uning ichki ruhiy holatisifatida ko‘rib, unga qarshi kurashishning birinchi bosqichini “tazkiya” (poklanish) debta'riflaydi. Uning ta'kidlashicha, nafsni poklash va tozalash nafaqat tashqi hatti-harakatlar, balkiodamning ichki olami, uning niyatlari va xohishlarining poklanishi orqali amalga oshadi. G‘azzoliy bu jarayonni "nafsning oltin buloqlari" deb atagan va ularga qarshi kurashishda sabr, iymon, va tasavvufiy tajribani ishlatishni ta'kidlagan.

Shayx Ahmad Yassaviy, Xojagon tariqatining asoschisi sifatida nafsni poklash masalasiga katta e'tibor bergan. Uning "Devoni hikmat" asarida nafsning

olamdagi o‘rni, uning insonning ruhiy holatini qanday ifodalashi va uni poklash jarayoni haqida chuqur tahlillar mavjud. Yassaviy nafsni faqat tashqi dunyo bilan bog‘liq ehtiroslar va xohishlarga qarshi kurashish sifatida emas, balki uning ichki muvozanatini, iymonva axloqiy fazilatlar bilan uyg‘unligini ham ifodalagan.

Nafs izidan ergashadigan inson uning quliga aylanadi. Inson nafsni vaqtida jilovlay olmasa, moddiy va ma’naviy xatolarga yo‘l qo‘yadi, oxir-oqibat ayanchli ahvolga tushib qoladi. Nafsni tiyishning asosiy omili ma’naviy tarbiyadir. Ma’naviyat haqida fikr yuritar ekanmiz, bu masalani atroflicha va chuqur tahlil etishimiz, uning faqat o‘zimizga ma’qul, ijobiy tomonlari bilan cheklanib qolmasdan, ana shunday murakkab jihatlarini ham nazardan chetda qoldirmasligimiz lozim.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, tahlillar va metodologik kuzatishlardan shu narsa ko‘rinib turibdiki, nafs tushunchasining mohiyatini, uning tuzilishini tushunishga yondashuvlarni o‘rganish korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali choralarini ishlab chiqishga yordam beradi va pirovardida davlat boshqaruvida qonuniylik va intizomning mustahkamlanishini ta'minlaydi. Buning uchun esa keng ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilishi, taraqqiyotimiz kushandasi sifatida ko‘rilayotgan ushbu illatning keng quloch yoyishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun olib borilayotgan chora-tadbirarni samaradorligini yanada oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish lozim bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4307-son Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.05.2019 y., 07/19/4307/3079 – son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son Qarori // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2021 yil 27 mart, № 62 (7842).

3. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son)

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori 1-ilovasi. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son

5. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida.

6. Mustaqillil: izohli ilmiy-ommabop lug‘at. Ikkinchi nashr. – Toshkent.: “Sharq”. 2000. 144-b.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori 1-ilovasi. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son.

8. Ziyayeva Y. Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonlarida nafs talqini. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi – UzA Ilm-fan bo‘limi (elektron jurnal). 2021-yil, may soni. 149-160-betlar.

9. Fayziyeva D.Sh. Xojagon tariqati ta'limotida nafs tarbiyasi bosqichlari. International journal of scientific researchers. Volume 9, issue 1, December 2024

MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI YOSH AVLOD ONGIGA SINGDIRISHDA HAMKORLIKNING O‘RNI

Yunusova Dildoraxon Xikmat qizi

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti 1-kurs tayanch doktoranti

dildorayunusova78@gmail.com

+998 90 955 39 40

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma'naviy tarbiyasida xalq pedagogikasi an'analarining o‘rni va ahamiyati ochib berilgan. Xalq maqollari, ertaklari, topishmoqlari va boshqa xalq og‘zaki ijodi namunalarini boshlang‘ich ta'lim jarayoniga integratsiya qilish yo‘llari ko‘rsatilgan. Shuningdek, xalq pedagogikasi an'analarining zamonaviy boshlang‘ich ta'lim tizimida qo‘llanilishi bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta'lim, ma'naviy tarbiya, xalq pedagogikasi, xalq og‘zaki ijodi, milliy qadriyatlar, ajdodlar merosi, an'anaviy pedagogika.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda milliy qadriyatlarni tiklash, xalq pedagogikasi an'analarini o‘rganish va ularni zamonaviy ta'lim tizimiga tatbiq etish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Boshlang‘ich ta'lim tizimi – bu bolalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishning eng muhim bosqichi hisoblanadi. Aynan shu davrda bolalar dunyoqarashi, qadriyatlari va ma'naviy asoslari shakllanadi. Shu boisdan, boshlang‘ich sinflarda xalq pedagogikasi an'analaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning ma'naviy tarbiyasini takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. O‘zbek xalqi asrlar davomida ma'naviy-axloqiy tarbiya sohasida boy pedagogik tajribani to‘plagan. Xalq maqollari, rivoyatlari, ertaklari, topishmoqlari, qo‘shiqlari va boshqa og‘zaki ijod namunalari o‘zida insoniy fazilatlar, axloq-odob qoidalari, ma'naviy qadriyatlarni mujassam etgan. Bularning barchasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma'naviy tarbiyasi uchun bebaho manba bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasining dunyo ta’lim fazosiga kirishi, jamiyatdagi yangi ijtmioiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlar umumta’lim maktablari oldiga ko‘pina o‘quv-tarbiyaviy jihatlarini, shu jumladan o‘tmishdagi milliy an’analarni va tajribalarni o‘rganishga va ularga o‘quvchilarni yoshligidanoq jalb qilishga bo‘lgan qarashlarni tubdan qayta ko‘rib chiqish talabini qo‘ydi.

O‘zbek xalqlarining milliy o‘zligini anglashini rivojlantirish sharoitida xalq pedagogikasi ilg‘or tarbiyaviy an’analarining roli va ahamiyati jamiyatni jipslashtirishning insonparvarlik an’analarida, mehnatda, oilada, jamiyatda ahloqiy

o‘zaro munosabatlarning o‘sishida namoyon bo‘ladi. Bu an’analar xulq boshqaruvchisi rolini bajaradi.

Shundan kelib chiqib zamonaviy bosqichda o‘sib kelayotgan avlodni tarbiyalashning ilg‘or milliy o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish, uni yangi sharoitlarda hayotga va mehnatga tayyorlash, shuningdek xalq mehnat an’analari, urf oatlaridan o‘quvchilar shaxsini shakllantirishda foydalanish yo‘llari, shakllari va metodlaridan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Ma’lumki, xalq pedagogikasida, uning tamoyillari va qarashlarida mehnat kishilarining bir necha marta xalq hayotining boy amaliyotida tekshirilgan va tasdiqlangan, ko‘p asrli tarbiyaviy tajribasi mujassamlangan

Xalq pedagogikasi an'analarining boshlang‘ich ta'lim tizimidagi o‘rni

Xalq pedagogikasi – bu xalqning ta'lim-tarbiya sohasidagi ko‘p asrlik tajribasini o‘zida mujassam etgan pedagogik bilimlar tizimidir. U avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan an'analar, urf-odatlar, axloqiy me'yorlar, qadriyatlar va tarbiya usullarini o‘z ichiga oladi. Boshlang‘ich ta'lim tizimida xalq pedagogikasi an'analaridan foydalanishning quyidagi afzalliklari mavjud:

1. Milliy o‘zlikni anglash va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish.
2. Axloqiy tarbiya vositasi.
3. Ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.

Boshlang‘ich sinflarda xalq pedagogikasi an'analarini qo‘llash usullari

O‘quvchilar ma`naviy tarbiyasida ishlab chiqilgan tizimi quyidagi yo‘nalishlarni ko‘zda tutadi: ma`naviy tarbiyasining yaxlit tiziim doirasida milliy an’analardan foydalanishning turli shakllari, vositalari, usullari, metodlari va sharoitlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish; o‘quv yurtlari, oila, jamoatchilikning tarbiyaviy ishlari o‘rtasida uzviy aloqa o‘rnatish; pedagogika o‘quv yurtlarining mehnat ta’lim yo‘nalishiga “Xalq pedagogikasi” maxsus kursini kiritish bilan bo‘lajak o‘qituvchilarining ma`naviy an’analari to‘g‘risidagi bilim, malaka va ko‘nikmalarini kengaytirish va takomillashtirish; ota-onalar o‘rtasida

bolalarning ma`naviy tarbiyasi masalalari yuzasidan bir maqsadga yo‘naltirilgan g‘oyaviy-ma’rifiy ishlarni tashkil qilish.

Nazariy tahlil asosida o‘quvchilarning shaxsini takomillashtirishning asosiy omillari aniqlandi: o‘quvchilarning shaxsini kamolotga yetkazishda ijtimoiy muhitning roli; uning qadriyatlar tizimidagi uzatishlar, tarbiyaning etnik madaniyat o‘ziga xos tomonlariga mosligi, tarbiya jarayonida milliy mehnat an’analarini va urf-odatlarni hisobga olish.

“ O‘quvchilarning ma`naviy tarbiyasida xalq milliy an’analaridan foydalanish tehnologiyasini takomillashtirishning pedagogik tizimi” deb nomlanuvchi ikkinchi bobda - o‘quvchilarning ma`naviy tarbiyasida xalq an’analaridan foydalanishning ishlab chiqilgan tizimi asosiga xalqning amaliy tarbiyaviy tajribasi, o‘sib kelayotgan avlodni mehnat faoliyatiga tayyorlashning tarixan yuzaga kelgan va avloddan avlodga xalq og‘zaki ijodi, o‘yinlar, urf-odatlar,bayramlar, udumlar, ishlab chiqarish mehnati orqali uzatiladigan risolalari, shakllari va metodlari qo‘yilgan. Xalq ma`naviy tarbiyasining tajribasini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, tarixiy o‘tmishda ma`naviy tarbiyasi sodda amaliy bilimlarga asoslangan bo‘lib, maqsadga erishishning ma’lum prinsiplari va vositalariga ega bo‘lgan. O‘zbek xalq pedagogikasida mehnat kishisi, yuqori ahloqqa, amaliy aqlga ega bo‘lgan, jismonan kamol topgan, ona tabiatning go‘zalligini his qila oladigan yaratuvchi ana shunday risola sifatida namoyon bo‘ladi. Quyida boshlang‘ich sinflarda xalq pedagogikasi an'analarini qo‘llash usullaridan namunalar keltiriladi:

1. Xalq maqollaridan foydalanish

Xalq maqollari – bu xalq donishmandligining qisqa va lo‘nda ifodasidir. Ular ma'naviy-axloqiy tarbiyaning samarali vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinflarda quyidagi usullar bilan xalq maqollaridan foydalanish mumkin:

- Har bir dars mavzusiga mos maqollarni tanlash va dars davomida ularning ma'nosini muhokama qilish;

- Maqollar asosida kichik hikoyalar tuzish va yozish;

- «Maqolni davom ettir» o‘yinini o‘tkazish;

- Berilgan vaziyatga mos maqollarni topish.

Masalan, «Mehnat – mehnatning tagi rohat», «Bilim – aql chirog‘i», «Vataning tinch – sen tinch» kabi maqollar orqali mehnatsevarlik, bilimga intilish va vatanparvarlik kabi fazilatlarni tarbiyalash mumkin.

2. Xalq ertaklaridan foydalanish

Ertaklar bolalarning sevimli adabiy janri hisoblanadi. Ular nafaqat qiziqarli, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma'naviy tarbiyasida quyidagi usullar bilan xalq ertaklaridan foydalanish mumkin:

- Ertaklarni ifodali o‘qish va muhokama qilish;
- Ertak qahramonlarining xatti-harakatlarini tahlil qilish;
- Ertak asosida sahna ko‘rinishlarini tayyorlash;
- Ertaklar asosida rasmlar chizish;
- Ertak syujetini o‘zgartirish yoki davom ettirish.

3.Topishmoqlardan foydalanish. Topishmoqlar bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini o‘stiradi, kuzatuvchanlikni rivojlantiradi va tilni boyitadi. Boshlang‘ich sinflarda topishmoqlardan quyidagi tarzda foydalanish mumkin:

- Dars mavzusiga mos topishmoqlarni tanlash;
- Topishmoqlar tuzish bo‘yicha ijodiy ishlar o‘tkazish.
- «Kim ko‘p topishmoq biladi?» musobaqasini o‘tkazish.

4. Xalq o‘yinlaridan foydalanish. Xalq o‘yinlari bolalarning jismoniy rivojlanishiga yordam berishi bilan birga, ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida ham muhim rol o‘ynaydi. «Oq terakmi, ko‘k terak?», «Chillak», «Bekinmachoq» kabi o‘yinlar orqali bolalarda jamoaviylik, o‘zaro hurmat, halollik kabi fazilatlarni tarbiyalash mumkin.

Xalq pedagogikasi an'analarini boshlang‘ich ta'lim jarayoniga integratsiya qilish yo‘llari:

1. O‘quv dasturiga integratsiya

Boshlang‘ich sinf o‘quv dasturlarini xalq pedagogikasi an'analari bilan boyitish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish mumkin:

- O‘qish, ona tili, matematika kabi fanlarni o‘qitishda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish;

- «Odobnoma» faniga xalq pedagogikasi an'analarini kiritish;

- Sinfdan tashqari o‘qish uchun xalq og‘zaki ijodi asosidagi kitoblarni tavsiya etish.

2. Sinfdan tashqari tadbirlarni tashkil etish

Sinfdan tashqari tadbirlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma'naviy tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Quyidagi tadbirlarni o‘tkazish orqali xalq pedagogikasi an'analarini o‘quvchilar hayotiga tatbiq etish mumkin:

- «Xalq donishmandligi» mavzusida adabiy kechalar;

- Xalq bayramlari (Navro‘z, Hosil bayrami) munosabati bilan tadbirlar;

- Milliy hunarmandchilik ustaxonalariga ekskursiyalar;

- Xalq ertaklari asosida sahna ko‘rinishlari.

3. Ota-onalar bilan hamkorlik

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma'naviy tarbiyasida oila va maktab hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar bilan quyidagi yo‘nalishlarda hamkorlik qilish mumkin:

- Ota-onalar uchun xalq pedagogikasi an'analarini oilada qo‘llash bo‘yicha seminarlar o‘tkazish;

- Oilada xalq ertaklarini o‘qish, maqollarni muhokama qilish bo‘yicha tavsiyalar berish;

- Ota-onalar ishtirokida milliy an'analar asosidagi tadbirlarni o‘tkazish.

Xulosa: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma'naviy tarbiyasida xalq pedagogikasi an'analaridan foydalanish – bu zamonaviy ta'lim tizimining dolzarb masalasidir. Xalq maqollari, ertaklari, topishmoqlari va boshqa og‘zaki ijod namunalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma'naviy-axloqiy, intellektual va ijodiy rivojlanishiga katta ta'sir ko‘rsatadi. Bugungi globallashuv jarayonlari sharoitida milliy qadriyatlar va an'analarni saqlab qolish, ularni yosh avlod ongiga singdirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich ta'lim tizimida xalq

pedagogikasi an'analaridan samarali foydalanish uchun o‘qituvchilar, ota-onalar va ta'lim muassasalari hamkorlikda ish olib borishlari kerak. Xalq pedagogikasi an'analarini zamonaviy ta'lim tizimiga tatbiq etish orqali milliy qadriyatlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning uyg‘unligiga erishish mumkin. Bu esa o‘z navbatida, barkamol avlodni tarbiyalash va jamiyatimizning ma'naviy rivojlanishiga xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar:

1. Xalq pedagogikasi an'analariga oid kartoteka tuzish.
2. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.
3. Individual yondashuvni ta'minlash.
4. Muntazam ravishda o‘z malakasini oshirish.
5. Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy muhitni yaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Hasanboyev J., To‘raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O. Pedagogika. – Toshkent: Fan, 2011.

2. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta'lim sifati va samaradorligi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

3. Mavlonova R., To‘rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

4. Safayev N.S., Mahmudov M.M. Oila psixologiyasi. – Toshkent: TDPU, 2016.

5. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

6. O‘zbek xalq pedagogikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2013.

7. Umarova M. Boshlang‘ich ta'lim didaktikasi. – Toshkent: Fan, 2020.

8. Zunnunov A. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Adabiyot, 2015.

9. Roziyev E. Boshlang‘ich ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.

O‘QUVCHI YOSHLARGA MILLIY-HUDUDIY AN’ANALAR YORDAMIDA TA’LIM VA TARBIYA BERISHDA TARIX DARSLARI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARI.

Saydaliyev Abbosxon Ibroximxon o‘g‘li

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti, Milliy tarbiyaning raqamli pedagogik ta’minoti ilmiy tadqiqot bo‘limi Katta ilmiy xodimi

Annotatsiya: Maqolada o‘quvchi yoshlarni milliy urf-odatlar ruhida tarbiyalash, ularga odatlarimizni singdirishni tarix darslari orqali olib borish yo‘llari haqida fikrlar bayon qilingan. Shuningdek, ushbu fikrlarni amaliyotda qo‘llash haqida tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: An’ana, urf-odat, milliylik, tarix darsi, hashar, metodika, tarbiya, tadbir, mehnat, hamjihatlik.

Urf-odat bu - kishilarning turmushiga singib ketgan, ma’lum muddat takrorlanib turuvchi xatti-harakat. Ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari ko‘nikmasidir.

Bugungu globallashgan dunyoda milliy urf-odatlar va an’analar qaysidur ma’noda o‘z tasirini va qiymatini yo‘qotib borayotgandek. Atrofni kuzatsak ko‘p holatlarda milliy urf-odatlarimiz ko‘zbo‘yamachilik, obro‘-e’tibor olish, qilinishi kerak bo‘lgani uchungina qilishga bo‘lib qolgandek. Qisqaroq qilib aytganda qo‘l uchida qilingandek. Nega bunday bo‘lib ketyapti? Nega biz bunday o‘zligimizdan birmuncha uzoqlashib qoldik degan muammoli savollar insonlarni qiynamoqda. Bu savollarga har kim yechim berishga, fikr aytishi mumkin va bunga haqli ham. Ammo optimal yechimni berish maslasida katta muammolarga duch kelinmoqda deyish mumkin. Chunki milliylik insonlarning suratida emas, siyratida, qalbida bo‘lishi qiymatlidir. Mana shuni insonlar ongiaga, qalbiga singdirish murakkab bo‘lmoqda. Bu aytilgan gaplar ham ko‘plab insonlar gapirayotgan, o‘rtaga tashlayotgan masala. Biz ham shu umumiy gaplarni keltirib o‘tdik. Endi esa yechim uchun maqola mavzusidan kelib chiqib, o‘z fikr va xulosalarimizni bildirib o‘tamiz.

Tarix darslarida o‘quvchilar juda katta davr, ko‘plab insonlar, voqea va hodisalar, urushlar, ma’naviy va madaniy boyliklar haqida bilimlarga ega bo‘ladilar. Bu esa o‘quvchilarda tasavvurni kengaytirish, o‘z kelajaklariga mustahkam poydevor qo‘yish, tarbiyali inson bo‘lib shakllanishda yaxshi imkoniyatlar yaratadi. Demak milliy hududiy an’analarni o‘rganish, bu boradagi bilimlarni boyitish uchun tarix darslari ham juda yaxshi vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Tarix darslarida qanday qilib milliyligimizni, an’analarimizni yoshlarga singdiramiz. Bu jarayon bilan bir qatorda o‘quvchilarga ta’lim va tarbiya ham singishi kerak. Tajriba ko‘rsatadiki, tarix darslarida tarixiy elementlar, ko‘rgazmali vositalar bilan ishlash samarali hisoblanadi, o‘quvchilar ongi va shuuriga yaxshi singadi. Shu bilan birga dars jarayonlariga parallel ravishda badiy adabiyotimizni o‘qish, ularni teatr, sahna ko‘rinishlarida jonlantirish tarixni o‘zlashtirishda samarali bo‘ladi.

Masalan hozirgi 9-sinf O‘zbekiston tarixi darsligining Buxoro amirligida (1753–1920-yillarda) hukmronlik qilgan Mang‘itlar sulolasi haqidagi mavzularda sulola amirlari haqida ham qisqa ma’lumotlar berib o‘tilgan. Masalan Amir Shohmurod (1785-1800) o‘z odob-axloqi, tarbiyasi, ma’naviyati bilan o‘z o‘rniga ega. Boshqa manbalarda va eski tarix darsligi kitoblarida Amir Shohmurodning sodda hayot o‘tkazgani, odmi kiyingani haqida, uning axloqi haqida ma’lumotlar berilgan. Bizning fikrimizcha aynan o‘sha darslarda butun sinf ustoz boshchiligida bir o‘quvchini Amir Shohmurod qilib kiyintirib, uning yoniga bir vazir tayin qilgan holda dars o‘tsa o‘zgacha holat yuzaga keladi. Bu yerda ham o‘quvchilar o‘sha davr haqida jonliroq tasavvurga ega bo‘ladi, ham bunday jonli tasviriy holatlar bilan dars o‘tilganda voqea va m’lumotlar ham ancha esda qolarli bo‘ladi. Shuningdek, bunday dars uzoq muddat o‘quvchilar hotirasida saqlanib qoladi. Endi bunday obrazlar yaratgan holda dars o‘tish jarayonining elementlari, kiyimlar, dekoratsiyalarni qanday ta’minlanadi degan savol tug‘ilishi mumkin. Albatta maktablar bunday narsalarni ta’minlab beravermaydi odatda. Turli-tuman tadbirlarda ham tashkil etuvchi sinf o‘quvchilari va o‘qituvchi hamda ota-onalar gardaniga tushadi bu

masalalar. Tadbir esa qog‘ozlarda, hisobotlarda qolib ketadi. O‘quvchilar nimadur oldimi, bilimi sayqallandimi bu aksar hollarda oxirgi o‘rinlarga tushib ketadi. Biz aytayotgan uslubdagi darslarda ham bu savolga duch kelish mumkin. Bu holatda yuqorida aytilganidek barcha emas, balki, sinfda bir yoki ikki kishini o‘sha obrazlarga kiritish ham mumkin. Buning uchun barcha sinfdagilar o‘z uylaridan nimadur kerakli narsalani olib kelib o‘rtaga tashlagan holda amalga oshirishlari mumkin. Kimda nimaga imkoniyati bo‘lsa, shuni o‘rtaga tashlagan holda ko‘pgina ishni uddalasa bo‘ladi. Bundan tashqari ayrim kerakli narsalarni “Texnologiya” darslarida ham tayyorlashga urinib ko‘rish mumkin. Masalan yog‘ochdan yasama qilich, tovoq kosalarva hk. Albatta bu ishlarni amalga oshirish imkoni bo‘lgan maktablarda. Bu holatda katta moddiyatda qochish imkoniga ega bo‘linadi hamda darslni rang-barang o‘tishiga erishiladi. O‘z navbatida bu jarayonlar o‘quvchi-yoshlarni birdamlikka, mehnatkashlikka, ijodkorlikka, izlanishga undaydi. Aynan shu jarayonlar ham azal-azaldan bizning milliy odatlarimizdan bo‘lib kelgan. Ya’ni bir dars uchun harakat qilish jarayonida bir qancha milliy urf-odatlarimizni jonli ravishda amalga oshirib, tiriltirib va mustahkamlab boriladi. Ya’ni dars zo‘r va kutilgan natijani bermay qolsa ham tayyorgarlik jarayonida nimagadur erishiladi.

Bundan tashqari mamlakatimizda tez-tez hasharlar bo‘lib turadi. Bu ham bizning urf-odatimizga aylangan. Ozodalik va tozalik har bir o‘quvchiga yoshlikdan singdirilsa, kelajakda o‘z uy-joyi, hovlisi va ko‘chasiga befarq bo‘lmaydi. O‘zbekiston tarixi darslarida ham hashar haqida qisqaroq bo‘lsada ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Masalan Xiva xonligida hasharlar bo‘lgani, Katta Farg‘ona kanalining hashar yo‘li bilan qurilgani. Shu mavzularga yaqin vaqtlarda bitta darsni hashar sifatida maktab hovlisida qilib ko‘rish ham noodatiy yondashuv, kreativ metodika bo‘ladi. Ya’ni maqsad o‘quvchilarni og‘ir ish qildirish emas, yoki ularni mehnatidan foydalanish emas. Bu maqsad bo‘lmasligi kerak. Faqat ularda hashar nimaligi haqida nazariy ma’lumotlarni berib, darslik va qo‘shimcha adabiyotlardagi ma’lumotlardan qo‘shib nazariyani amaliyotga bog‘lash. O‘quvchilar ozgina bo‘lsa ham hashar va bu orqali millatning birlik va hamjihat bo‘lishi haqida tushuncha hosil

qilishlarini maqsad qilib olish lozim. Albatta bu jarayonda o‘qituvchi va maktabning boshqa ustozlaridan vakillar bo‘lishi, ota-onalardan vakillar qatnashishi, ular bilan hamkorlikda, imkon bo‘lsa mahallar faollari bilan hamkorlikda olib borilsa nur ustiga a’lo nur. Masalan, bir kunda 4 ta sinf bilan shunday dars o‘tilsa, bir kun kun davomida hashar darslari bo‘ladi. Bunday darslarni kuzda bir marotaba, bahorda bir marotaba yoki bir o‘quv yilida hech bo‘lmasa bir marotaba tashkil etilsa, anchayin foydalidir. Shuningdek, bu uslubdagi darslarni maktab odatiga aylantirilsa, bu ham bir urf-odatimiz bo‘lmish, yaxshi ishlarni odatga ylantirish odatimizga bir amlaiy harakat bo‘ladi. Albatta bu ishlar va bu metodika maktab rahbariyati, o‘qituvchi va ota-onalar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim. Bu ham hozirgi holatda havfsizlik va tartib intizomni ta’minlash bilan bir qatorda, katta avlod vakillari va yosh avlod vakillarini bir oraga kelgan holda hamjihatlikda mehnat madaniyatini shakllantiradi. Kattalardan mehnat qilishni o‘rganish ham bizning urf-odatimiz va qadriyatlarimizdandir. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 19-yanvar kunidagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish”ga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidagi bir so‘zini keltirib o‘tmoqchimiz – “Keksa avlod vakillari yoshlarni mehnatga, o‘z uyini, ko‘chalar, guzar va maydonlarni ozoda tutishga o‘rgatardi. Bizda bu urf-odat edi. Endi ayrim odamlar hovlisini bolasiga emas, mardikorga tozalattiryapti”, “Ko‘p qavatli uylarda qo‘shni qo‘shnisini tanimaydi. Bu holda bolalar mehnatni, odobni, ma’naviyatni, mehr-oqibatni kimdan o‘rganadi?” – degan edi selektorda prezident. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, milliy-hududiy an’analar bu bizning ma’naviy boyligimiz. Bu boyliikni asrab, keying avlodga munosib tarzda yetkazishga harakat qilishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. https://www.lex.uz/docs/6981166?otherlang=1

2. https://kun.uz/news/2021/01/20/shavkat-mirziyoyev-yoqolib-borayotgan-urf-odatlar-va-ajrimlar-haqida-gapirdi

ESHITISHDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARI VA MAKTABLARINING BOLA TARBIYASIDAGI O‘ZARO HAMKORLIGI

Tag‘onova Guliza Bayramaliyevna

CHDPU, Maxsus pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi

+998909963433 *gulizayangiyevs@gmail.com*

Arslonova Marjona, Allaberdiyeva Farangiz, Abdunazarova Muqaddas

Tiflopedagogika yo‘nalishi talabalari

Annotatsiya: mazkur maqolada eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tarbiyalash va o‘qitish jarayonida maktabgacha ta’lim muassasalari hamda umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘rtasidagi hamkorlikning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot davomida maxsus pedagogika va psixologiya nuqtayi nazaridan bolalarni maktabga tayyorlashning samarali usullari, shuningdek, ularning jismoniy, aqliy va nutqiy rivojlanishiga ko‘rsatilgan pedagogik ta’sirlar tahlil qilingan. Ayniqsa, bog‘cha va maktab o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlashda pedagog va psixologlarning roli, metodik yondashuvlari va maxsus ta’lim muassasalari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning samaradorligiga alohida e’tibor qaratilgan. Maqolada empirik kuzatishlar, statistik tahlillar hamda nazariy asoslar orqali eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni maktab muhitiga moslashtirish yo‘llari yoritilib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: eshitish nuqsoni, maxsus pedagogika, inklyuziv ta’lim, bog‘cha-maktab uzviyligi, nutq rivojlanishi, psixologik moslashuv, pedagogik metodlar, defektologiya, erta reabilitatsiya, ta’lim jarayoni.

KIRISH

Bolalarni maktabga tayyorlash — maktabgacha ta’lim muassasalarining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Agar maktabgacha tarbiya bosqichida bolalarga berilayotgan ta’lim-tarbiya mazmunli, tizimli va to‘g‘ri tashkil etilgan bo‘lsa, bu holat maktab davridagi ta’lim jarayonining samaradorligiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Pedagogik va psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalar bog‘chasi va maktab o‘rtasidagi uzviy hamkorlik, ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy, aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyasi — ularning maktabga moslashuvi va muvaffaqiyatli o‘qishlarida muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maxsus pedagogika va psixologiya sohasida bolalar bog‘chasi va maktab faoliyatining hamkorlik muammolari qator olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, A.G. Basova, N.I. Belova, N.G. Butkevich, A.M. Goldberg, B.D. Korsunskaya, N.G. Morozova, L.P. Noskova, O.M. Potapova kabi tadqiqotchilar o‘z ilmiy izlanishlarini ushbu muammoga bag‘ishlaganlar. Ko‘plab mutaxassislarning fikriga ko‘ra, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni erta yoshdan boshlab nutqqa o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Ularning ta’kidlashicha, maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tilga o‘rgatish orqali tafakkur rivojida yuzaga keladigan ko‘plab qiyinchiliklarni yengish mumkin.

Maktabgacha ta’lim muassasalari bilan maktab o‘rtasidagi uzviylik — ikki tomonlama jarayon bo‘lib, bu jarayonda har ikki muassasa vakillari faol ishtirok etadilar. Bog‘cha pedagoglari bolalarni boshlang‘ich ta’limning hozirgi talablari asosida tayyorlasa, maktab pedagoglari ushbu tayyorgarlik negizida bola egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarni ta’limning keyingi bosqichida rivojlantiradilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ta’limida bog‘cha va maktab hamkorligining ahamiyatini o‘rganishda quyidagi ilmiy-uslubiy metodlardan foydalanildi:

1. **Teoretik tahlil** – maxsus pedagogika, psixologiya, logopediya va inklyuziv ta’lim sohasidagi nazariy manbalar asosida eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tarbiyalash va o‘qitish jarayonidagi uzviylik jihatlari o‘rganildi.
2. **Empirik tadqiqotlar** – maktabgacha ta’lim muassasalari va maktablarda faoliyat yuritayotgan pedagog va psixologlar bilan suhbatlar o‘tkazildi, ularning metodik yondashuvlari, amaliy tajribalari tahlil qilindi.

3. **Kuzatish usuli** – bog‘cha va maktabdagi mashg‘ulotlar jarayonida olib borilgan kuzatishlar asosida bolalarning o‘quv materiallarini o‘zlashtirish darajasi, kommunikativ ko‘nikmalari va rivojlanish dinamikasi aniqlab borildi.
4. **Eksperimental diagnostika** – bolalarning maktabga o‘tish jarayonida aqliy va nutqiy rivojlanishi, moslashuv darajasi, ijtimoiy ko‘nikmalari maxsus diagnostik test va topshiriqlar yordamida baholandi.
5. **Statistik tahlil** – to‘plangan empirik ma’lumotlar tahlil qilinib, bog‘cha va maktab o‘rtasidagi hamkorlikning bola shaxsining shakllanishiga ta’siri aniqlab berildi. Natijalarga tayangan holda samarali metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUNOZARA

Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida bolalar bog‘chasi va maktab o‘rtasidagi uzviy hamkorlik hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Empirik kuzatishlar va suhbatlar shuni ko‘rsatdiki, erta yoshda ko‘rsatilgan maxsus pedagogik ta’sir, metodik yondashuvlar va reabilitatsion choralar bolaning aqliy, nutqiy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, bog‘cha va maktab o‘rtasida tizimli hamkorlik mavjud bo‘lgan holatlarda bolalarning yangi muhitga moslashuvi yengil kechadi, ta’lim jarayoniga integratsiyasi esa ancha samarali bo‘ladi.

Adabiyotlar tahliliga asoslanadigan bo‘lsak, ko‘plab tadqiqotchilar (A.G. Basova, N.I. Belova, B.D. Korsunskaya va boshqalar) eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan erta ishlash zarurligini alohida ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, nutqiy va kognitiv rivojlanishdagi kechikishlarni bartaraf etish uchun maktabgacha ta’lim muassasalarida tizimli reabilitatsion ishlarni tashkil qilish talab etiladi. Ushbu qarashlar tadqiqot davomida amaliy dalillar bilan tasdiqlandi.

Kuzatuv natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, maxsus pedagog va psixologlar tomonidan ishlab chiqilgan individual yondashuvlar bolalarning ta’limda erishgan yutuqlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, logopedik mashg‘ulotlar,

audiopedagogik usullar va fonetik ritmika kabi metodlar eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda yuqori natija beradi. Eksperimental diagnostika natijalari esa shuni ko‘rsatadiki, maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan bolalar maktabga moslashishda yuqori akademik ko‘rsatkichlarga erishgan.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlashda bolalar bog‘chasi va maktab o‘rtasidagi uzviy hamkorlik zaruriyatini isbotlaydi. Bu hamkorlik bolalarning har tomonlama rivojlanishi va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasi uchun zamin yaratadi.

NATIJA

Tadqiqot davomida quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

1. **Bog‘cha va maktab o‘rtasidagi uzviylik** – Maktabgacha bosqichda maxsus metodlarga asoslangan ta’lim olgan bolalar maktab muhitiga tez va samarali moslasha oldi. Bu esa akademik yutuqlar ko‘rsatkichlarida aks etdi.
2. **Nutq rivojlanishidagi ijobiy siljishlar** – Logopedik mashg‘ulotlar, fonetik ritmika va talaffuz korreksiyasi bolalarning nutqiy faoliyatini yaxshilashga xizmat qildi. Tovushlarni farqlash, so‘z boyligini kengaytirish, muloqotga kirishish ko‘nikmalarida sezilarli yutuqlarga erishildi.
3. **Psixologik moslashuv** – Psixologik qo‘llab-quvvatlov, guruhiy treninglar va shaxsiy maslahatlar bolalarning yangi ta’lim muhitiga kamroq stress bilan o‘tishini ta’minladi.
4. **Pedagogik metodlarning samaradorligi** – Maxsus pedagog va psixologlar tomonidan ishlab chiqilgan metodik yondashuvlar bolalarning mustaqil fikrlashini, o‘quv motivatsiyasini va akademik faoliyatga jalb qilinishini oshirdi.
5. **Oilaviy hamkorlikning roli** – Tadqiqotda ota-onalar bilan olib borilgan maslahatlar, treninglar va hamkorlik choralari bolalarning rivojlanishida muhim omil ekani aniqlandi. Oilaviy qo‘llab-quvvatlov bolalarning ijtimoiy-emotsional barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning maktabga tayyorlanishida bolalar bog‘chasi va maktab o‘rtasidagi tizimli, maqsadli va metodik asoslangan hamkorlik muhim omil bo‘lib, bu jarayonni takomillashtirish uchun yangi ilmiy-amaliy izlanishlar olib borish dolzarb vazifadir.

XULOSA

Maktabgacha yosh davri — eshitishda nuqsoni bo‘lgan bola hayotining eng mas’uliyatli va muhim bosqichlaridan biridir. Bola hayotining aynan dastlabki yillarida uning jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik kamolot asoslari shakllanadi, shuningdek, nutqning rivojlanishiga poydevor qo‘yiladi. Eshitishdagi nuqson esa bolaning umumiy rivojlanish sur’atlarini sekinlashtiradi va nutqining tabiiy shakllanishiga jiddiy to‘siq bo‘ladi.

Defektologiya fanida eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni erta aniqlab, ularga o‘z vaqtida korreksion yordam ko‘rsatish zarurati ilmiy asoslangan holda tan olingan va amaliyotda keng qo‘llanila boshlandi. Kar va zaif eshituvchi bolalarda kuzatiladigan psixofiziologik cheklovlarni erta aniqlash, ularni to‘g‘ri yo‘naltirish va bartaraf etish, bolalarning maktab ta’limiga tayyorlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur jarayonning samarali amalga oshirilishi, eng avvalo, maxsus maktabgacha tarbiya tizimini takomillashtirish **va** maxsus maktabgacha pedagogika fanining rivojlanishiga bog‘liqdir. Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy-amaliy yondashuvlar maktabgacha ta’lim muassasalaridagi ta’lim-tarbiya ishlarining sifatini oshirishga, kar va zaif eshituvchi bolalarning rivojlanish xususiyatlarini chuqur o‘rganishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, har bir bolaning shaxsiy salohiyatini to‘g‘ri aniqlash, unga individual yondashuv asosida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish zarurati ortib bormoqda. Maxsus pedagogik yondashuvlar yordamida bolalarning jismoniy, nutqiy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, ularni maktab bosqichiga tayyor holatda olib chiqish imkonini beradi. Bu esa, o‘z navbatida, bolalarning keyingi bosqichdagi o‘quv jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Noskova L.P. Преемственност в работе дошколного отделения и спесиалной школў поформированию речи глухих детей. В сб. особенности развития и воспитания детей дошколного возраста с недостатками слуха и интеллекта.

2. Programmi dlya spesialnix doshkolnix uchrejdeniy. Vospitanie i obuchenie gluxix
doshkolnikov. M. 2000.

3.Maktabgacha tarbiya yoshidagi kar bolalarga ta'lim tarbiya berish dasturi. T.2000 y.

4. Qodirova F.U.va boshqalar “Maxsus pedagogika asoslari” O‘quv qo‘llanma ZEBO-PRINTS 2023.

5. Fayziyeva U.Y. “Ko‘ring, eshiting, gapiring” O‘quv metodik qo‘llanma Chashma-print.

ESHITISHDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR JISMONIY TARBIYASI JARAYONIDA KORREKSION ISHLARNINING AHAMIYATI

Tag‘onova Guliza Bayramaliyevna

CHDPU, Maxsus pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi

+998909963433 gulizayangiyevs@gmail.com

Aliqulova Husnidan, Bozorova Farangiz, Shayimardonova Shaxlo

Tiflopedagogika yo‘nalishi talabalari

Annotatsiya: Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish – uni jismonan sog‘lom, ijtimoiy faol va barkamol etib voyaga yetkazishni nazarda tutadi. Bu jarayonda jismoniy tarbiya muhim o‘rin tutadi. Jismoniy tarbiya nafaqat sog‘liqni mustahkamlashga, balki jismoniy sifatlarni rivojlantirish, yosh avlodni mehnatga, Vatan himoyasiga tayyorlashga qaratilgan muhim tarbiya vositasidir. Jismoniy tarbiya ta’limoti o‘z ichiga “jismoniy madaniyat”, “jismoniy barkamollik”, “jismoniy tarbiya”, “jismoniy rivojlanish” kabi muhim tushunchalarni oladi.

Jumladan**,** jismoniy madaniyat – insonni jismonan mukammallashtirish maqsadida qo‘llaniladigan moddiy va ma’naviy qadriyatlar yig‘indisidir. Bugungi kunda eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni sog‘lom, faol va ijtimoiy moslashgan shaxs sifatida tarbiyalashda jismoniy tarbiyaning tutgan o‘rni beqiyosdir. Maxsus maktabgacha ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya vositasida tarbiyalanuvchilarning harakat faoliyati, muvozanat, koordinatsiya, irodaviy sifatlari bilan bir qatorda, ijtimoiy moslashuv darajasi ham yuksaladi.

Kalit so‘zlar**:** eshitishda nuqsoni bo‘lgan bola, jismoniy tarbiya, maxsus maktabgacha ta’lim, jismoniy madaniyat, tarbiyalanuvchi.

KIRISH

Maxsus maktabgacha ta’lim muassasalarida eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning harakatlanish faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etish va og‘zaki nutqini rivojlantirish maqsadida umumiy rivojlantiruvchi jismoniy mashqlar bilan bir qatorda, maxsus korreksion mashg‘ulotlar ham tashkil etiladi. Bu jarayon har bir bolaning individual ehtiyojidan kelib chiqib, puxta rejalashtirilgan holda olib borilishi lozim.

Bolalarda gavda holatini to‘g‘ri shakllantirish uchun qorinda yotgan holda bajariladigan mashqlar, shuningdek, gimnastik narvonga chiqish va tushish mashqlari tavsiya etiladi. Muvozanatni rivojlantirish uchun esa taxta, qiya qo‘yilgan yuzalar, o‘rindiq yoki kanatdan yasalgan yo‘lakchalar ustida yurish kabi mashqlar keng qo‘llaniladi.

Yassioyoqlikning oldini olish va uni bartaraf etish maqsadida bolalar bilan oyoq panjalari yordamida arqon dumalatish, kanat ustida turish, yonlamasiga harakatlanish, oyoq uchida, yonida hamda tovonda yurish kabi mashqlar bajartiriladi. Shu bilan birga, gimnastik narvonga tirmashib chiqish va tushish kabi faoliyatlar ham harakat koordinatsiyasini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Tarbiyalanuvchilarning nafas olish a’zolari va ko‘krak qafasi faoliyatini yaxshilash uchun nafas mashqlari majmuasidan foydalanish tavsiya etiladi. Bunday

mashqlar bolalarda bir maromdagi, nutq bilan uyg‘unlashgan nafas olish malakasini shakllantiradi.

Shuningdek, fonetik ritmika mashg‘ulotlari orqali nafas, ovoz, talaffuz va harakatlar uyg‘un holda rivojlantiriladi. Bu esa nafaqat og‘zaki nutqning shakllanishiga, balki bolaning umumiy psixofiziologik holatining yaxshilanishiga ham xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Psixolog va fiziolog olimlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, og‘zaki nutqning rivojlanishi bolalarning umumiy harakat faoliyati bilan uzviy bog‘liqdir (A.Pavlov, V.S.Vigotskiy). Xususan, A.A. Befani tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda musiqa ohangi va ritmini idrok etishda qo‘l harakatlari muhim vosita bo‘lib xizmat qilishi aniqlangan.

Ilk yoshdagi bolalar bilan olib borilgan kuzatuvlar nutq rivojining mayda motorika – ya’ni qo‘l barmoqlari va panjalari harakatlarining shakllanishi bilan bevosita aloqadorligini isbotlab bergan (Befani A.A., *Rol dvijeniy v prosesse vospriyatiya ritmicheskix slov*).

Shu bois, eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan mashg‘ulotlarda harakat mashqlari bilan nutqiy mashqlarni uyg‘unlashtirib olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aynan fonetik ritmika mashg‘ulotlari — tovushlar, bo‘g‘inlar, so‘z va gaplarning talaffuzini harakatlar bilan uyg‘unlashtirish — og‘zaki nutqning rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Fonetik ritmika mashg‘ulotlari nafaqat nutqni va harakat koordinatsiyasini rivojlantiradi, balki analizatorlar (eshituv, harakat, nafas va boshqalar) faoliyatining uyg‘unlashuviga xizmat qiladi. Bu esa eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning nutqini eshituvchi tengdoshlarining nutq ohangi va ritmiga yaqinlashtirish imkonini yaratadi. Mashg‘ulotlar jarayonida eshituv qobiliyatini faollashtirishga qaratilgan maxsus metodikalar ham qo‘llaniladi.

Jismoniy va axloqiy tarbiyaning birligi

Jismoniy tarbiya axloqiy tarbiya bilan chambarchas bog‘liq holda amalga oshiriladi. Jismoniy mashqlar bolalarning irodasini, xarakterini mustahkamlaydi, ular orqali bolalarda tartib-intizom, jamoaviylik, o‘z istak va ehtiroslarini o‘yinning belgilangan qoidalariga bo‘ysundira olish qobiliyati shakllanadi.

Bolalarning sog‘lig‘ini mustahkamlash, ularning umumiy jismoniy rivojlanishini ta’minlash uchun jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari ijobiy ruhda, bolalarda quvonchli kayfiyat uyg‘otadigan muhitda tashkil etilishi zarur. Ijobiy hissiy holat organizmdagi fiziologik jarayonlarning sog‘lom kechishiga yordam beradi: nafas olish faoliyati va moddalar almashinuvi normallashadi.

Shuni ham ta’kidlash joizki, bolalarning ruhiy holati va kayfiyati ko‘p jihatdan tarbiyachilarning ularga nisbatan bo‘lgan mehribon va e’tiborli munosabatiga bog‘liq bo‘ladi. Jismoniy tarbiya vazifalarining to‘laqonli bajarilishi esa bolalarning ta’lim-tarbiya jarayonining muvaffaqiyatli olib borilishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

MUHOKAMA VA NATIJA

Maxsus maktabgacha ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya jarayonida korreksion ishlar alohida e’tiborni talab qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, bolalarning harakat faoliyati bilan nutq rivoji o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, muvozanat, koordinatsiya, nafas olish va umumiy harakat faolligini shakllantirish ularning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Psixolog va fiziolog olimlarning (A.Pavlov, V.S.Vigotskiy, A.A.Befani) ilmiy izlanishlari jismoniy mashqlar va nutq o‘stirish mashg‘ulotlarining uyg‘unligining dolzarbligini tasdiqlaydi.

Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida muvozanatni saqlash, nafas olishni me’yorlashtirish va harakatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan mashqlarni tizimli qo‘llash orqali bolalarning jismoniy holati bilan bir qatorda psixologik va nutqiy rivojlanishi ham jadallashadi. Ayniqsa, eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun fonetik ritmika mashqlari katta ahamiyat kasb etadi, chunki bu mashqlar ularning

og‘zaki nutqini eshituvchi tengdoshlarining nutqiga yaqinlashtirishda samarali vosita hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya jarayoni bolalarda irodaviy sifatlarni shakllantirish, tartib-intizom, jamoaviylik va hissiy barqarorlikni rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. O‘yin va mashqlar orqali bolalar o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, o‘zaro hamkorlik qilish va imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash ko‘nikmalarini egallaydilar.

Korreksion mashg‘ulotlarning jismoniy tarbiya bilan uyg‘un holda tashkil etilishi bolalarning har tomonlama – jismoniy, psixologik va nutqiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Harakat va nutq rivojining o‘zaro bog‘liqligini inobatga olgan holda, maxsus jismoniy mashqlar orqali bolalarning nutqiy faoliyatini sezilarli darajada yaxshilash mumkin. Jumladan, fonetik ritmika va muvozanat mashqlari eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning og‘zaki nutqini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, jismoniy mashqlar bolalarning harakat koordinatsiyasini rivojlantiribgina qolmay, balki intizom, irodaviylik va jamoaviy faoliyatga bo‘lgan tayyorgarlikni ham mustahkamlaydi. To‘g‘ri tashkil etilgan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari ijobiy emotsional holatni saqlab qolishga, bolalarning umumiy salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

XULOSA

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni jismoniy tarbiya orqali korreksion mashg‘ulotlar bilan qo‘llab-quvvatlash ularning umumiy psixofiziologik holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari jismoniy faoliyat va nutqiy rivojlanishning o‘zaro bog‘liqligini ochib berib, muayyan harakat mashqlari yordamida kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish imkonini tasdiqlaydi. Fonetik ritmika, muvozanat mashqlari kabi metodlar eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning og‘zaki nutqini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, jismoniy tarbiya nafaqat sog‘liqni mustahkamlash, balki bolalarning ijtimoiy muhitga moslashuvini ta’minlashda, ularning irodasi, o‘zini

anglash darajasi, jamoa bilan ishlash, intizomlilik va hissiy barqarorlikni rivojlantirishda ham beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlovchi maxsus ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya va korreksion mashg‘ulotlarni uyg‘unlashtirish, innovatsion yondashuvlarni joriy qilish ularning har tomonlama shakllanishi va jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvi uchun mustahkam zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Выготский Л.С. Дефект и сверхкомпенсация. // «Проблема дефектологии». М., 1996. –С. 42.

2. Крыжановская Л.М. Психологическая коррекция в условиях инклюзивного образования. Пособие для психологов и педагогов. – М.: «Владос», 2013. 83-б.

3. Maktablar hamma uchun – Save the children – 2002y. 20\23 bet

4. Pulatov Sh.N.Sankhya-ancient Indian philosophical school. //PUSTAK BHARATI RESEARCH JOURNAL// JAN-June. ISSUE Toronto, Canada. No: 1-2, 2020.

5. Xamidova, M. (2024). Methodology for Developing Active Civic Competence in Future Special Educators. Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 2(10), 61-69.

6. Abdurakhmanova, S. (2024). INVOLVEMENT OF CHILDREN WITH DISABILITIES INTO INCLUSIVE EDUCATION. Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research, 2(11), 75-77.

ESHITISHDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR AQLIY TARBIYASINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Tag‘onova Guliza Bayramaliyevna

CHDPU, Maxsus pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi

+998909963433 *gulizayangiyevs@gmail.com*

Mo‘yiddinova Zuhraxon, Xalilova Muhlisa , Hasanova Nozli

Tiflopedagogika yo‘nalishi talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqola eshitish qobiliyatida cheklovlarga ega bolalarning aqliy tarbiyasini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda bolalarning tafakkuri, nutqi, bilish faoliyati va muloqot qobiliyatlarining rivojlanish xususiyatlari tahlil etiladi. Aqliy rivojlanishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar aniqlanadi va samarali pedagogik yondashuvlar taklif qilinadi. Xususan, vizual va kinestetik uslublar, logopedik mashg‘ulotlar hamda interaktiv ta’lim texnologiyalari orqali eshitish nuqsoni bo‘lgan bolalarning bilish jarayonlarini faollashtirish yo‘llari ko‘rsatiladi. Shuningdek, individual yondashuv va oilaviy qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: eshitishda nuqsoni bo‘lgan bola, tarbiya, aqliy tarbiya, metod, tadqiqot, nazariy tahlil, taqqoslash usuli.

KIRISH. Bola shaxsining shakllanish jarayoni insoniyatning ijtimoiy va tarixiy tajribasini o‘zlashtirish asosida kechadi. Inson shaxsining rivojlanishi muayyan bosqichlarda amalga oshadi va har bir bosqich o‘zidan avvalgisiga mustahkam bog‘liq bo‘ladi. Avvalgi bosqichda erishilgan yutuqlar keyingi bosqichning shakllanishi va tarkib topishiga asos bo‘ladi. Har bir yosh davri bolaning biologik tizimlarining yetilish darajasi, funksional imkoniyatlari, orttirilgan tajribasi, bilim hajmi hamda faoliyat turlari va ularning mazmuni bilan belgilanadi.

Yosh ortgani sari bolaning psixik faoliyati boyib boradi, sensor, aqliy, hissiy va irodaviy sifatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik murakkablashadi. Bu esa rivojlanishning umumiy darajasiga va shaxs xulq-atvorining shakllanishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ilmiy manbalarda eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning aqliy rivojlanishi bilan bog‘liq masalalar keng yoritilgan. Jumladan, N.A. Rau, N.G. Morozova, B.D. Korsunskaya, A.A. Kataeva, L.P. Noskova, T.I. Obuxova, U. Fayziyeva, Z. Mamarajabova hamda X. Gaynutdinov singari olimlarning tadqiqotlarida

maktabgacha yoshdagi eshitishida cheklov mavjud bolalarni aqliy jihatdan kamol toptirishga oid dolzarb muammolar tahlil qilingan.

Mazkur izlanishlarda eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar va eshitish qobiliyati normal bolalarning rivojlanish sur’atlari umumiy yo‘nalishda kechishi qayd etilgan bo‘lsa-da, agar bunday bolalar bilan maxsus pedagogik ishlov olib borilmasa, ularning rivojlanish jarayoni sekinlashishi mumkinligi ta’kidlanadi. Ayniqsa, ko‘rish orqali idrok etish, predmetlarni farqlash, taqqoslash va ularni tanib olish kabi bilish faoliyatlarida bu bolalar sog‘lom tengdoshlariga nisbatan ortda qoladilar.

Nutqning yetarlicha shakllanmaganligi esa bolalarning mantiqiy tafakkur va bilishga oid faoliyatiga jiddiy to‘sqinlik qiladi. Bog‘chaga kelgan 2–3 yoshli kar bolalar rivojlanish darajasi bo‘yicha eshitish imkoniyatiga ega bo‘lgan tengdoshlaridan ancha orqada ekanligi aniqlangan. Psixologlar T.V. Rozanova va N.V. Yashkova olib borgan tadqiqotlar natijasida, maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim olgan 7–8 yoshli kar bolalarning tafakkur darajasi ham eshituvchi tengdoshlariga qaraganda pastroq bo‘lishi kuzatilgan.

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning aqliy tarbiyasini o‘rganish jarayonida zamonaviy pedagogik tadqiqot metodlarining kompleks qo‘llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. **Nazariy tahlil** – pedagogik, psixologik va defektologik adabiyotlarni o‘rganish orqali eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning aqliy rivojlanish xususiyatlarini aniqlash;
2. **Empirik kuzatuvlar** – amaliy tajriba, eksperiment hamda diagnostik testlar yordamida bolalarning bilish jarayonlari (tafakkur, diqqat, xotira, nutq) rivojlanish darajasini aniqlash;
3. **Taqqoslash usuli** – eshitish qobiliyati saqlangan va eshitishida cheklov mavjud bolalarning rivojlanish ko‘rsatkichlarini o‘zaro solishtirish;
4. **Psixodiagnostik metodlar** – bolalarning intellektual salohiyatini baholashda maxsus psixologik testlar va mashg‘ulotlardan foydalanish;

5. **Eksperimental metod** – maxsus pedagogik mashg‘ulotlar asosida eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning bilish faoliyatini rivojlantirish samaradorligini aniqlash.

Yuqorida sanab o‘tilgan metodlar asosida olib borilgan tadqiqotlar eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning aqliy rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni korreksiya qilish yo‘llarini ishlab chiqishga xizmat qildi.

MUHOKAMA VA NATIJA

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning aqliy rivojlanishi maxsus pedagogik yondashuvni talab etadi. Eshitish qobiliyatida cheklov mavjud bo‘lgan bolalar muloqotda va bilish jarayonlarida qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu esa ularning umumiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Eksperimental kuzatuvlar natijasiga ko‘ra, vizual idrok va kinestetik o‘rganish usullaridan foydalanish eshitishida nuqson bo‘lgan bolalarning bilish faoliyatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Shuningdek, tadqiqot davomida maxsus o‘quv metodikalarini qo‘llash orqali bunday bolalarning tafakkur va nutq rivojlanishida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Logopedik mashg‘ulotlar, vizual materiallardan foydalanish va interaktiv pedagogik yondashuvlar sezilarli samaradorlik berdi.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, eshitishida nuqson mavjud bolalarni o‘qitish jarayonida individual yondashuv va maxsus metodik vositalardan foydalanish ularning aqliy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, oilaviy va pedagogik qo‘llab-quvvatlash omili ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Eksperimental tadqiqotlar natijasida quyidagi muhim xulosalar aniqlandi:

- **Vizual va kinestetik metodlar samaradorligi** – Maxsus dars mashg‘ulotlari davomida vizual (ko‘rish orqali) hamda kinestetik (harakat orqali) yondashuvlar eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning idrok qilish, mantiqiy fikrlash va xotira jarayonlarini faollashtirishga xizmat qildi.
- **Nutq va tafakkur rivojlanishi** – Logopedik mashg‘ulotlar, interaktiv metodlar, imo-ishora va ko‘rgazmali vositalar yordamida bolalarning nutqiy

faoliyati va tafakkur darajasi sezilarli darajada yaxshilandi. To‘g‘ri pedagogik yondashuv bo‘lmagan taqdirda esa ularning muloqot va fikrlash qobiliyatlari sust rivojlanishi kuzatilgan.

- **Individual yondashuvning ahamiyati** – Bunday bolalar bilan ishlashda har bir bolaning individual ehtiyojlari, idrok qilish xususiyatlari va psixologik holati inobatga olingan holda o‘quv jarayoni tashkil etilishi lozim.
- **Oilaviy va pedagogik qo‘llab-quvvatlashning roli** – Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, ota-onalar va pedagoglar o‘rtasidagi uzviy hamkorlik bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi hamda uning ijtimoiy moslashuvini tezlashtiradi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar va kuzatishlar asosida shuni ta’kidlash mumkin: eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning aqliy rivojlanishi samarali tarzda faqat maxsus pedagogik yondashuvlar va individual metodikalarga asoslangandagina ta’minlanadi. Ularning muloqot va bilish jarayonlaridagi qiyinchiliklari tafakkur va nutq rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi.

Maxsus ta’lim metodlaridan – xususan vizual, kinestetik va logopedik yondashuvlardan foydalanish ushbu bolalarning bilish faoliyatini samarali rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, pedagogik va oilaviy qo‘llab-quvvatlash bolaning ijtimoiy moslashuvi va o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Shunday qilib, eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning aqliy tarbiyasini samarali tashkil etish uchun:

- maxsus pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish;
- individual yondashuvni tizimli yo‘lga qo‘yish;
- oilaviy va pedagogik hamkorlikni mustahkamlash zarur.

Bu esa bolalarning to‘laqonli shaxs sifatida shakllanishiga va jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Noskova L.P. Преемственност в работе дошколного отделения и спесиалной школў поформированию речи глухих детей. В сб. особенности развития и воспитания детей дошколного возраста с недостатками слуха и интеллекта.

2. Programmi dlya spesialnix doshkolnix uchrejdeniy. Vospitanie i obuchenie gluxix
doshkolnikov. M. 2000.

3.Maktabgacha tarbiya yoshidagi kar bolalarga ta'lim tarbiya berish dasturi. T.2000 y.

4. Qodirova F.U.va boshqalar “Maxsus pedagogika asoslari” O‘quv qo‘llanma ZEBO-PRINTS 2023.

5. Fayziyeva U.Y. “Ko‘ring, eshiting, gapiring” O‘quv metodik qo‘llanma Chashma-print.

BO`LAJAK LOGOPEDLARNING DIAGNOSTIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDA ART TEXNOLOGIYALARNING O`RNI

I.Q.Sayfullayeva

ChDPU, Maxsus pedagogika kafedrasi o`qituvchisi,

pedagogika bo`yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

S.Mengturdiyeva, M.Abdurahmanova, O.Hakimova

ChDPU, Pedagogika fakulteti,

Logopediya yo`nalishi 2 kurs talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo`lajak logopedlarning kasbiy faoliyatini metodik tizimlashtirishda Art texnologiyalarning o`rni borasida so`z yuritiladi.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль художественных технологий в методической систематизации профессиональной деятельности будущих логопедов.

Abstract: This article discusses the role of art technologies in the methodological systematization of the professional activities of future speech therapists.

**Tayanch so`zlar:** Art texnologiya, nutqiy akseleratsiya, o`yin faoliyati, kasbiy faoliyat, imkoniyati cheklangan bola, izoterapiya, qo`g`irchoq terapiya, musiqa terapiya, qum terapiyasi, o`yin terpiyasi.

Ключевые слова: художественная технология, ускорение речи, игровая деятельность, профессиональная деятельность, ребенок-инвалид, изотерапия, куколотерапия, музыкотерапия, песочная терапия, игровая терапия.

Key words: art technology, speech acceleration, game activity, professional activity, disabled child, isotherapy, doll therapy, music therapy, sand therapy, play therapy.

Ta’lim jarayonida qator innovatsion texnologiyalar samarali qo‘llanilib kelinmoqda. Har qanday innovatsion texnologiyalar ta’lim oluvchilarni qulay harakatini akademik trayektoriyasini samarali tashkil etishga xizmat qilmog‘i lozim. Mana shunday texnologiyalardan biri-bu art texnologiya hisoblanadi. “Art” so‘zi inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, “san’at” degan ma’noni anglatadi, "texnologiya" tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog‘liq holda fanga 1872-yilda kirib keldi va yunoncha ikki so‘zdan - "texnos" (techne) - san’at, mahorat, hunar va "logos" (logos) - fan so‘zlaridan tashkil topib "hunar fani" ma’nosini anglatadi.

Davolash usuli sifatida san’at dastlab Qadimgi Yunoniston, Misr, Mesopotamiya, Xitoy va Hindistonda qo‘llanilgan. Qadimgi Yunoniston tasviriy san’atni insonga ta’sir o‘tkazishning samarali vositasi deb hisoblagan eng rivojlangan sivilizatsiyalardan biridir.

"Art terapiya" (art-terapiya) atamasi birinchi bo‘lib 1938 yilda Adrian Xill tomonidan sanatoriyalarda sil kasalligi bilan og‘rigan bemorlarning badiiy mashg‘ulotlarini tasvirlashda ishlatilgan. Keyinchalik bu atama terapevtik san’atning barcha turlariga nisbatan qo‘llanila boshlandi. Kasbiy faoliyatning maxsus turi sifatida art terapiya Ikkinchi Jahon Urushidan keyin Buyuk Britaniyada

psixoterapiya bilan bog‘liq holda rivojlana boshlandi. Ijodkorlikda qasddan o‘zini oshkor qilish bilan terapiya Z.Freydning psixoanalizidan, K.G.Yungning analitik psixologiyasidan, Morenoning psixo-dramasidan va amerikalik o‘qituvchi M.Naumburgning grafik ifodasi bilan terapevtik yordamning dinamik nazariyasidan kelib chiqdi.

Art terapiya - bu ijodkorlik va turli xil badiiy texnikalarni o‘z ichiga olgan psixoterapiyaning eng samarali usullaridan biridir. Art-terapiya yordamida tuzatish eng yumshoq va samarali hisoblanadi. Bu sizga ijtimoiy moslashuv muammolaridan tortib, bolalarning salohiyatini rivojlantirish bilan yakunlangan turli xil muammolarni hal qilishga imkon beradi. Art-terapiyaning asosiy maqsadi bolada o‘zini-o‘zi bilish jarayonini o‘zlashtirish va uning o‘zini namoyon qilish qobiliyatini rivojlantirishdir.

Dastlab art-terapiya rasm terapiyasi, ya’ni tasviriy san’at bilan davolash deb nomlangan. Bugungi kunda art-terapiyaning mavjud ko‘pgina turlari va paydo bo‘lgan.

Tadqiqotchi A.Kopitinning so‘zlariga ko‘ra, art terapiya turli fanlarni - psixologiya, tibbiyot, pedagogika, madaniyatshunoslik va boshqalarni birlashtirgan fanlararo bilim sohasidir. Uning asosi badiiy amaliyotdir, chunki art-terapiya mashg‘ulotlari paytida mijozlar vizual faoliyat bilan shug‘ullanishadi.

E.A.Medvedeva, inklyuziv va maxsus ta’lim jarayonida imkoniyati cheklangan bolalarni san’at orqali davolash, ularga ta’lim-tarbiya berishni muhim omil sifatida e’tirof etadi.

Ta’lim muassasalarida art-terapiya badiiy ijod orqali korreksiyalash va rivojlantirish usuli hisoblanadi. Uning pedagoglar uchun jozibadorligini, asosan og‘zaki aloqa vositalaridan foydalanadigan asosiy tuzatish va rivojlanish yo‘nalishlaridan farqli o‘laroq, art terapiya vizual va tana ifoda "tilidan" foydalanishi bilan izohlash mumkin. Bu, ayniqsa, bolalar bilan ishlashda juda muhimdir va ularni izlanish, rivojlantirish va uyg‘unlashtirish uchun ajralmas vosita bo‘lib xizmat qiladi, bola hissiy holatini so‘z bilan ifoda eta olmaydi. Aksariyat hollarda esa

bolalar o‘z muammolari va tajribalarini og‘zaki bayon qilishda qiynaladilar. Og‘zaki bo‘lmagan ifodalar esa ular uchun ko‘proq qulaydir. Bu, ayniqsa, nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun juda muhim, chunki ularning xatti-harakatlari o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladi va ular o‘zlarining xatti-harakatlarini aks ettirish qobiliyatiga ega emaslar. Ularning tajribalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri badiiy obraz orqali "chiqadi". Bunday "mahsulot" ni idrok etish va tahlil qilish oson.

Bolaning o‘yin faoliyatiga tabiiy moyilligi hamda tasavvurining boyligi muhimdir. Shuni inobatga olgan holda, Art-terapiya elementlari bilan korreksion ishlarni tashkil etishda sinfda o‘yin va ijod muhiti yaratiladi.

Art terapiya elementlari bilan mashg‘ulotlarni imkoniyati cheklangan bolalar bilan olib borish, pedagogik-korreksion ishlarda juda samarali. Shuningdek, imkoniyati cheklangan bolalarning aksariyati "Art" texnologiyalarining boy resurslaridan foydalangan holda korreksiyalash mumkinligi bilan ajralib turadi.

Art texnologiyalari, uydagi ta’limda ham bolalar bilan ishlashga qiziqish uyg‘otadi. Birgalikda o‘z-o‘zini namoyon qilish orqali oilaviy munosabatlar uyg‘unlashadi. Shuningdek, oilaviy muammodan uzoqlashtirish va boshqa tomondan qarash imkoniyatini beradi.

Biz yuqoridagi tadqiqotchilarning fikridan kelib chiqqan holda, art-texnologiyaga quyidagicha ta’rif berdik: “Art texnologiya –bu innovatsion texnologiyani bir yo‘nalishi bo‘lib, bo‘lajak logopedlarni, alohida yordamga muhtoj bolalarga art texnologiyaning turlari yordamida ularning hissiy-irodaviy sohasini, bilish jarayonlarini, umumiy va mayda motorikasini metodik, didaktik, pedagogik, psixologik hamda terapevtik jihatdan rivojlantirishdir”. Biz art-texnologiyalarning integratsion vazifalarini belgilab oldik:

mavjud art-texnologiya usullarini moslashtirish va ulardan alohida yordamga muhtoj bolalar va ularning ota-onalari bilan psixo-korreksion ishlar tizimida foydalanish;

turli yoshdagi va shaxsiy rivojlanishning turli xil buzilishlari bo‘lgan alohida yordamga muhtoj bolalar bilan psixo-korreksion ishlarda artterapiyadan foydalanishning xususiyatlarini ochib berish va samaradorligini aniqlash;

alohida yordamga muhtoj bolalardagi turli xil kasalliklarni tuzatishni ta’minlaydigan art texnologiyalar va korreksion dasturlarini ishlab chiqish;

alohida yordamga muhtoj bolalardagi o‘zini-o‘zi nazorat qilishga o‘rgatish, iqtidorini namoyon qilishga yordam berish va o‘z-o‘ziga bo‘lgan bahoni ko‘tarishga o‘rgatish;

art texnologiya nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning, nutq nuqsonlarini bartaraf etish hamda bolalarning bilish jarayonlarini rivojlantirish. Ularning ruhiyatini barqarorlashtirish va yashirin qobiliyatini yuzaga chiqarishdan iboratdir. Art terapiyaning yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda, art texnologiyalarning quyidagi turlarini ta’lim va tarbiya jarayoniga moslashtirdik. Art texnologiyalarning ba’zi turlari bilan tanishib chiqamiz.

Izoterapiya -tasviriy san’at orqali davolash bo‘lib, bolalarning emotsional his-tuyg‘ularini yuzaga chiqarish va tushunishga, o‘z-o‘zini hurmat qilish hamda ijodkorlikni shakllantirishga, shu bilan bir qatorda ranglarni ajrata olish, ichki va tashqi nutqini yuzaga chiqarishga, mayda motorikasini rivojlantirishga, tasavvurini boyitishga yordam beradi. Shuningdek, imkoniyati cheklangan bolalarning emotsional zo‘riqish holatlarida tinchlantiruvchi hissiy reaksiyani ta’minlaydi.

Qo‘g‘irchoq terapiyasi - bu qo‘g‘irchoqlar yordamida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini, tasavvurini, tashqi nutqni yuzaga chiqarishda samarali usul sifatida qo‘llaniladi. Shuningdek ushbu texnologiya orqali bolalarning nutqini korreksiyalash, ichki qo‘rquvlarini bartaraf qilishda (duduqlanuvchi bolalarda), o‘z-o‘zini hurmat qilish, o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirishga yordam beradi. Qo‘g‘irchoq orqali bolalar jonsiz narsalarni jonlantirishga, o‘ziga berilgan rolni mahorat bilan ijro etishga, san’atga bo‘lgan qiziqishni oshirishga, aktyorlik qobiliyatini yuzaga chiqarishga imkon yaratadi. Qo‘g‘irchoq terapiya alohida yo‘nalish sifatida o‘tgan asrning 20-yillarida shakllana boshlandi. M. Klyayn va M.

Raytlar zamonaviy qo‘g‘irchoq terapiyasining "asoschilari" hisoblanadi. So‘nggi yillarda, jahonda qo‘g‘irchoqlardan bolalarga emlashga chidashni osonlashtirish va qo‘rquv asosida nevrozni rivojlantirmaslik uchun foydalanilgan. XX asrning so‘ngiga kelib, Qo‘g‘irchoq terapiyasi Rossiyaga kirib keldi. Bu rus tadqiqotchilariga qo‘g‘irchoq terapiyasi sohasini rivojlantirishga sabab bo‘ldi. Musiqiy terapiya - bu musiqani hissiy idrok etishga asoslangan, musiqa ohangi, diqqatni jamlash va fikrlash jarayonlarini faollashtirish, fonetik idrokni rivojlantirish usullaridan biridir. Shuningdek, bolaning jismoniy va ruhiy salomatligini psixologik tomonini korreksiyalash tizimidir.

Jahonning ko‘plab davlatlarda musiqa terapiyasi davolash pedagogikasi, davolash-tarbiyalash metodi sifatida keng tarqaldi. Chex olimlari Z.Mateyova va S.Mashura o‘zlarining “Duduqlanishda musiqa terapiyasi” kitoblarida unga shunday ta’rif beradilar: “Musiqa terapiyasining mazmunini aktiv va reseptiv faoliyat yordamida amalga oshiriladigan davolash-tarbiyalash orqali ta’sir ko‘rsatishning turli tuman differensiallashgan metodlari, usullari va elementlari tashkil qiladi”. Yunon olimi, faylasufi Pifagor birinchilardan bo‘lib, insonning ruhiy va jismoniy holatiga musiqaning ta’sirini o‘rgangan. XII asrda yashagan Armaniston shifokori Mxitar Herasi ham musiqa terapiyasining inson hayotidagi muhim ijobiy ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlab o‘tgan.

Musiqaning maktabgacha yoshdagi bolalarga ta`siri, uning ma`naviy, aqliy, jismoniy tarbiyadagi ahamiyati haqida bir qator olimlar A.V.Keneman, E.I.Zotkina, N.G.Aleksandrova, M.Y.Basov, V.M.Bexterev va boshqalar o‘z ilmiy asarlarida yozib o‘tganlar.

19-asrda yashab ijod qilgan fransuz shifokori, ilmiy psixiatriyaning asoschilaridan biri Eskirol, psixiatriya muassasalarida musiqa terapiyasidan birinchilardan bo‘lib foydalanishni boshladi.

Ertak terapiyasi – kichik va maktab yoshidagi imkoniyati cheklangan bolalarning shaxsiga emotsional-psixologik, pedagogik ta’sir ko‘rsatish, axloqiy normalar va qoidalarni singdirishning eng samarali usullaridan biridir. Shuningdek,

ertak orqali bolalarning ichki lug‘atini boyitishga, ta’limiy ertaklar orqali esa bolalarning nafas va artikulyatsion apparatini, fonematik idrokini va bilish jarayonlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Jahon psixologlardan E.Fromm, E.Bern, E.Gordner, I.V.Vajkov, M.Osorina, E.Lisina kabi psixologlar o‘z ilmiy ishlarida ertak terapiyasiga murojaat qilganlar.

O‘yin terapiyasi - bu o‘yinlardan foydalangan holda bolalar va kattalarga psixoterapevtik ta’sir o‘tkazish usuli bo‘lib, quyidagi muhim funksiyalarni bajaradi: ijtimoiylashtirish, korreksiyalash, ta’lim berish, rivojlantirish, adaptatsiyalash va relaksatsiya.

Qum terapiyasi-bu usul asoschisi K.J.Jung hisoblanadi.Q**um terapiyaning maqsadini quyidagicha ta’riflash mumkin** -qum qutisidagi mohirona namoyish etilgan o‘yin faoliyati bolaning ichki imkoniyatlarini rivojlantirishga, unga fazoviy tasavvurni o‘rgatishga, shuningdek, obrazli va mantiqiy fikrlash qobiliyatiga yordam beradi. Nozik vosita mahoratini rivojlantirish bilan bir qatorda, qum terapiyasi bolani atrofidagi dunyoning uyg‘unligi bilan tanishtiradi, oddiy va qulay shaklda nima yaxshi va nima yomon ekanligini ko‘rsatadi.

Qum texnologiyasi - bu imkoniyati cheklangan bolani qiyin vaziyatlarni hal qilishni, qiyinchiliklarni yengishni va atrofdagi dunyo bilan tanishishni o‘rgatadigan o‘yin turi. Qiyin vaziyatni o‘z vaqtida hal qilishga imkon berish uchun har doim kattalar, psixolog yoki o‘qituvchi bo‘lishi kerak

Qum texnologiyasi tufayli logoped nutqida nuqsoni bo‘lgan bolada quyidagi ko‘nikmalarni rivojlantira oladi:

1) Harakat. Bola chelakka, idishga yoki shishaga qum solishni o‘rganadi.

2) Tavsiflovchi. Maktabgacha yoshdagi bolalar qumga hayvonlar, o‘simliklar, uskunalar va boshqalarni chizishadi.

3) Nutq funksiyalari va fonematik eshitish qobiliyatini rivojlantirish. Bolalar ovozni qanday talaffuz qilish va avtomatlashtirishni o‘rgatishda yordam berish uchun qumga harflar chizishadi.

4) Aql, xotira va diqqatni rivojlantirish.

5) Qo‘llarning nozik motorli ko‘nikmalarini rivojlantirish. Har bir barmoq o‘yinda ishtirok etadi, bu bolaning umumiy rivojlanishiga foydali ta’sir ko‘rsatadi.

6) To‘g‘ri nafasni shakllantirish. Qum- nafas olish mashqlari uchun vosita vazifasini bajaradi.

Inklyuziv va korreksion ta’limda, ta’lim muassasalarida art texnologiyalarga yo‘naltirilgan dars va mashg‘ulotlar davomida bolalar tevarak-atrofidagi narsa-hodisalarni idrok etadilar, o‘zbek milliy xalq amaliy san’ati, tasviriy san’at turlari bilan tanishadilar. Ushbu art texnologiya turlarini o‘ziga xos xususiyatlarini anglab yetadilar. Eng asosiysi bolalarning badiiy fikr doirasi kengayadi, tasviriy san’atga nisbatan qiziqish va muhabbati oshadi. Bundan tashqari imkoniyati cheklangan bolalarning nafosat tarbiyasi shakllanadi, hissiy sezgirliklari oshadi, ahloqiy sifatlari o‘sadi.

Olimalarning o‘yin texnologiyalari haqidagi fikrlari maqolada juda o‘rinli ochib berilgan: “Korreksion logopedik o‘yin texnologiyalari imkoniyati cheklangan bolalar nutqini rivojlantirishdagi ahamiyatini imkon darajada to‘liq ifodalab berish uchun uning ta’sir doirasini ko‘rsatib berish kifoya. Bular: umumiy va mayda motorika; stereognoz; eshitishdagi diqqat va fonematik eshitish, tovush tahlili va sintezi; makon va vaqt tasavvurlari; psixik jarayonlar; xotira, idrok etish diqqati, hissiy-iroda. Mayda motorikaga ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan logopedik o‘yin texnologiyalari qo‘l barmoqlarining harakatlarini, ularning o‘zaro aloqasini va koordinatsiyasini rivojlantiradi”.

Nutqiy akseleratsiya muayyan davrda bolalar nutqining intensiv rivojlanish davri bo‘ladi. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar nutqidagi nuqson sabab, odamlar bilan muloqotga kirishishga uyaladilar. Natijada ularning passiv lug‘ati rivojlanib, faol lug‘ati sekinlashadi. Faol lug‘atning sekinlashuvi o‘z-o‘zidan tafakkurga ta’sirini beradi. Nutqiy akseleratsiya davrida logoped anglamog‘i lozim. Ya’ni har bir logopad bolaning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holatda logoped, mazkur bola uchun nutqiy akseleratsiya davrini bilib, ajratib olishi kerak. Ya’ni logopedik mashg‘ulotning ma’lum davrida mazkur bolaga kerak bo‘lgan nutqiy

zaxirani berib olishi kerak. Shuning uchun nutqiy akseleratsiya davrini payqashi uchun ham art texnologiyadan foydalanilgan pedagogik jarayon muhim hisoblanadi. Chunki art texnologiyalardan foydalanganda bola o‘zini erkin his qiladi, xato qilib qo‘yishdan hamda noto‘g‘ri gapirib qo‘yishdan qo‘rqmaydi, emotsional jihatdan o‘zini qulay his qiladi. Ya’ni u passiv lug‘atini yuzaga chiqaradi. Mana shu passiv lug‘atini yuzaga chiqartirib, nutqiy akseleratsiya davrini yaqinlashtirishda art texnologiyalarning o‘rni katta.

Xorij va milliy olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarini o‘rganib, bevosita tahlil qilish, shuni ko‘rsatib turibdiki, yuqoridagi ilmiy manbalarning barchasi umumiy va maxsus pedagogikaning turli yo‘nalishlarida ilmiy izlanishlar olib borilgan, ammo imkoniyati cheklangan bolalar yoki nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning nutq buzilishlarini bartaraf etishda art texnologiyalardan foydalanish mavzusida ilmiy ish olib borilmagani ko‘rindi. Shu sababli ham ushbu muammo bo‘yicha bo‘lajak logopedlarni kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda art texnologiyalardan foydalanish mavzusini ilmiy jihatdan o‘rganish, turli tekshirish metodika va dasturlar ishlab chiqish lozimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qodirova F.U., Sayfullayeva I.Q. Inklyuziv va korreksion ta`limda art texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. 2022 yil. 60, 77, 126 b
2. Артпедагогика и арттерапия в специальном и инклюзивном образовании: учебник для академического бакалавриата / под ред. Е. А. Медведевой. — 2-е изд., испр. и доп. — М. : Издательство Юрайт, 2018. — 274 с. — (Серия : Бака-лавр. Академический курс) 12, 17, 24
3. Арт-терапия – новые горизонты. Под редакцией А.И.Копытина.- Когито –центр Москва 2006.

BOLALAR RIVOJLANISHIDAGI NUQSONLAR HAQIDA ZAMONAVIY YONDOSHUVLAR

I.Q.Sayfullayeva

ChDPU, Pedagogika fakulteti,

Maxsus pedagogika kafedrasi v.b.dotsenti

M.Abdujalilova, X.Jumayeva, S.Berdimuratova

2-kurs talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar rivojlanishidagi nuqsonlar haqida zamonaviy yondashuvlar, psixodiagnostika va psixologik korreksiya ta`sir turlari haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: Psixodiagnostika, funksional tizim, Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar, L.Vigotskiy, oliy psixik, anomal rivojlanish.

Oliy psixik funksiyalar yillar davomida shakllanadi. U nutqiy muloqot bilan tug‘ilib, faoliyatning to‘liq ramzi (simvolik faoliyat) bilan tugallanadi. Bolaning psixik rivojlanishi va shaxsini shakllanishi ta’lim va tarbiya jarayonlari bilan uzviy bog‘liqdir. Oliy psixik funksiyalarni shakllanishida nutq hal qiluvchi rolni o‘ynaydi. Psixofiziologik mexanizmlarni tushuntirish uchun P.K.Anoxinning funksional tizimlar haqidagi konsepsiyasi qo‘llaniladi. A.R.Luriyaning ko‘rsatishicha, funksional tizim bolani tug‘ilish davrida tayyor holda bo‘lmasdan, balki uning psixik funksiyalari predmetlar hamda materiallar bilan o‘zaro munosabatga kirishganida shakllanib boradi.

Funksional tizim - bu bir vazifani bajarish uchun bir qancha anatomik hamda fiziologik tuzilmalarni birlashtiradigan dinamik tuzilma bo‘lib, turli nerv sistemalarida joylashgan. Psixologlar (A.R.Luriya, A.N.Leontyev) doimiy ravishda oliy psixik funksiyalarning fiziologik negizi markaziy nerv sistemasi yoki uning alohida qismlari bo‘lib qolmasdan, balki miya qobig‘idagi funksional sistemaning birgalikda ishlashi deb ta’kidlaganlar. Bola hayot faoliyati jarayonida ushbu funksional sistemaning shakllanishi, sekin-astalik bilan murakkab xarakterga ega bo‘lib, funksional bog‘liqlik. Ushbu ilmiy tasdiq inson psixikasini rivojlanishi haqidagi tasavvurlarni o‘zgartirdi. Fiziolog va psixologlarning tadqiqotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, alohida funksiyalar sistemasining yetilganligi ma’lum bir rivojlanish davrida bir xil emas: ba’zi sistemalar shakllanib bo‘lgan, ba’zilari esa

endi shakllanadi. Shunga ko‘ra, funksiyalarning rivojlanish tizimi bir xil emas ekan, deb xulosalash mumkin. Har bir funksional sistema, xatto alohida zonalari o‘zining rivojlanish dasturiga ega, lekin ular bir butunlikda ish olib borishadi. Har bir yosh davrda ma’lum bir funksional sistema yetuklik darajasida bo‘lishi kerak, aks xolda ushbu sistemalar faoliyati o‘zaro aloqadorlikda amalga oshirila olmaydi (L.O.Badalyan). Shunday qilib, psixik jarayonlar va shaxs xususiyatlari bosh miyaning alohida qism yoki zonalarida yetuklik natijasi hisoblanmaydi. Ular ontogenezda to‘planadi hamda bolaning ijtimoiy rivojlanish vaziyatiga bog‘liq bo‘ladi.

L.S.Vigotskiy o‘zidan oldingilarni (G.Ya.Troshin, A.S.Griboyedov, E.Segen, M.Montessori va boshqalar) ishlarini umumlashtirdi hamda anomal rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqdi. Ushbu konsepsiyaning asosiga psixologik rivojlanishning madaniy-tarixiy nazariyasi kiradi, buni L.S.Vigotskiy rivojlanishning me’yordagi hususiyatlarini o‘rganib ishlab chiqqan. L.S.Vigotskiyning anomal rivojlanish konsepsiyasining asosiy belgilari hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ular XX asrning 50-90 yillardagi T.A.Vlasova, J.I.Shif, V.I.Lubovskiy, V.V.Lebedinskiy, Ye.M.Mastyukova va boshqa olimlarning ishlarida o‘z rivojini topgan.

Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar (rivojlanishida psixik- jismoniy kamchilikka ega, rivojlanishdan orqada qolish, rivojlanishida muammoga ega, alohida yordamga muhtoj) - sensor organlarning, markaziy nerv sistemasi yoki harakat-tayanch a’zolarining orttirilgan yoki tug‘ma organik jarohatlanishi natijasida psixik funksiyalarining rivojlanishida kamchiliklarga ega bo‘lgan bolalar kiradi. Ba’zi hollarda rivojlanishdagi kamchiliklar markaziy nerv sistemasi yoki analizatorlardagi nuqsonlar bilan bog‘liq bo‘lmasdan, mikroijtimoiy muhit sabablari natijasida kelib chiqadi. Bularga oiladagi tarbiya salbiy shakllari, ijtimoiy va hissiy deprivatsiyani kiritishimiz mumkin.

G.Ya.Troshin me’yorida va anomal rivojlanishning umumiy qonuniyatlari xaqidagi fikrni ilgari surgan, buni esa ko‘pgina tadqiqotchilarning (T.A.Vlasova,

J.I.Shif, V.I.Lubovskiy) keyingi ishlarida ham ko‘rishimiz mumkin. L.S.Vigotskiy me’yorida va anomal rivojlanishning umumiy qonuniyatlarini izohlab, ular uchun psixik rivojlanishning ijtmioiy xarakterdaligi umumiydir: pedagogik ta’sir me’yorda ham shuningdek rivojlanishning buzilishida ham oliy psixik funksiyalarning shakllanish manbai hisoblanadi, deb ta’kidlagan. Ammo, me’yorida rivojlanayotgan bolalarda kuzatilmaydigan, lekin rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda uchraydigan bir qator qonuniyatlar ham ajratiladi. T. A.Vlasova, V.I.Lubovskiy ishlarida anomal rivojlanuvchilarning umumiy qonuniyatlari bir tizimga keltirilgan.

L.S.Vigotskiy nuqsonlarni tuzilishini sistemaliligi haqidagi fikrlari unga anomal rivojlanishni ikki guruhga ajratish imkonini bergan. Bu kasallikning biologik xarakteriga ko‘ra kelib chiqadigan birlamchi nuqson, bolaning ijtimoiy rivojlanishida, uning atrof- olam o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan ikkilamchi nuqsondir.

Anomal rivojlanish birlamchi nuqsonning kelib chiqish vaqti va uni ifodalanishining qay darajada og‘irligi bilan aniqlanadi. Ikkilamchi nuqsonlarning shakllanish mexanizmi turli xil bo‘lishi mumkin, ammo unda doimo ijtimoiy omillar muhim rol o‘ynaydi. Ko‘ruv, eshituv organlarining yoki bosh miyaning u yoki bu tuzilmalaridagi jarohatlar natijasida kelib chiqadigan nuqsonlar xarakteri, chuqurligi bo‘yicha turli toifadagi rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda turlicha bo‘ladi. Biroq ushbu holatlarning umumiy tomoni shundaki, ularning barchasi bolani keyingi rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatib boradi.

Psixodiagnostik va psixologo-pedagogik kooreksion ta’sirning ob’yekti bo‘lib asosan ikkilamchi nuqsonlar xisoblanadi. Bir qancha yetakchi mutaxassislarning ishlarida ko‘rsatilishicha, bolalardagi birlamchi nuqsonlar aqliy qobiliyatning buzilishiga, umumiy va mayda motorikadagi kamchiliklarga, atrof-muhit bilan o‘zaro aloqada bo‘lishdagi qiyinchiliklarga, kommunikativ muloqot vositalarini o‘zgarishiga, so‘zlashuv nutqining yetarlicha bo‘lmasligiga, atrof - muhitni idrok etishni qiyinlashishiga, ijtimoiy tajribani kambag‘allashuviga olib

kelishi mumkin ekan. Nuqsonlarning o‘zaro ta’siri ijtimoiy muhit bilan ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklar tug‘dirishini L.S.Vigotskiy ham ta’kidlagan.

Anomal rivojlanishning yana bir qonuniyatlaridan biri-nutqiy faoliyatning buzilishidir, bu so‘zlashuvni bavosita ifodalay olmasligida namoyon bo‘ladi.

Ma’lumotlarni qabul qilish va qayta ishlay olmaslik, muloqotdagi qiyinchiliklar, materiallarni eslab qola olmaslik rivojlanishning fikrlash, umumlashtirish va farqlash kabilarni shakllanishida to‘sqinlik qiladi. Ushbu tasavvur va nutqdagi kamchiliklarning barchasi atrof -muhitni idrok etish, tasavvuridagi bilimlarini saqlash kabilarning shakllanishi ushbu muammoli bolalarda doimo yetarlicha emasdir. Biroq rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning muhitga moslashtirish va o‘qitish qiyinchiliklaridan iborat o‘ziga xos xususiyatlari bilan birgalikda, ijobiy qonuniyatlar ham mavjud. Ulardan biri L.S.Vigotskiy tomonidan rivojlanishning yaqin zonasi ko‘rinishida nuqsonli bolalarda psixikasini shakllantirishning potensial imkoniyatlar sifatida mavjudligi qayd etilgan.

Yana bir konuniyat V.I.Lubovskiy tomonidan bolalar harakatlarini so‘z orqali boshqarishni o‘rganish davomida ifoda qilingan. U nutq ishtirokisiz yoki qisman so‘z bilan ifodalovchi yangi shartli bog‘liqlarni ishlab chiqish imkoniyatini ko‘rsatgan. Shunday qilib, nuqsonli rivojlanish psixikaning shakllanishida orqada qolishni ham va buzilishni kompensatsiya qilish konuniyatlarga ega.

Umumiy qonuniyatlardan tashqari o‘ziga xos qonuniyatlar ham mavjud, ular rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan ba’zi bolalarga xosdir. Ushbu o‘ziga xos qonuniyatlar bizga differensial diagnostik mezonlar orqali rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar toifalarini ajratish mumkin.

Hozirgi paytda rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bir qancha kategoriyalarga ajratilgan:

- eshitishda nuqsoni bo‘lgan (kar va zaif eshituvchilar);
- ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan (ko‘r va zaif ko‘ruvchilar);
- harakat-tayanch a’zolarida nuqsoni bo‘lgan;

- og‘ir nutq nuqsonlariga ega bo‘lgan bolalar;
- psixik rivojlanishi orqada qolganlar;
- aqli zaiflar;
- hissiy-iroda doirasida og‘ir nuqsonlarga ega bo‘lgan bolalar;
- xulq buzilishlariga ega bo‘lgan bolalar;
- rivojlanishda murakkab nuqsonlilar, ularda ikkita yoki undan ko‘p birlamchi nuqsonlar kuzatiladi.

Psixodiagnostika bola rivojlanishining nuqsonlarni va uning o‘ziga xos psixologo-pedagogik xususiyatlarini aniqlaydi. Boladagi ushbu xususiyatlarni bilish bolaning imkoniyatlariga mos maktabgacha va maktab ta’lim dasturini, ta’li muassasining turini, individual tibbiy psixologo-pedagogik dasturni ishlab chiqishga yordam beradi.

Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga samarali ta’lim, tarbiya berish, ijtimoiy moslashuvini yaratish uchun uning rivojlanish imkoniyat va xususiyatlarini to‘g‘ri baholay olishga bog‘liqdir. Bu vazifani rivojlanish nuqsonlarini kompleks psixologo-pedagogik diagnostika qilish orqali amalga oshirish mumkin. Psixologo-pedagogik diagnostika rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning kamchiliklarini aniqlash, bolaning psixik-jismoniy xususiyatlarini e’tiborga olgan holda unga individual psixologo-pedagogik yondashuvni ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

4. Qodirova F.U., Sayfullayeva I.Q. Inklyuziv va korreksion ta`limda art texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. 2022 yil. 60, 77, 126 b

5. Артпедагогика и арттерапия в специальном и инклюзивном образова-нии: учебник для академического бакалавриата / под ред. Е. А. Медведевой. — 2-е изд., испр. и доп. — М. : Издательство Юрайт, 2018. — 274 с. — (Серия : Бака-лавр. Академический курс) 12, 17, 24

6. Арт-терапия – новые горизонты. Под редакцией А.И.Копытина.-Когито –центр Москва 2006

TALABALARDA “HALOLLIK VAKSINASI”NI SHAKLLANTIRISHDA NAFS TARBIYASINING TURGAN O‘RNI

Raxmanova Nazokat Tairovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Xorijiy tillar ta’limi" kafedrasi katta o‘qituvchisi,

TPMI mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarida “Halollik vaksina”sini shakllantirishda nafs tarbiyasining tutgan o‘rni va bugungi kunda bu borada yurtimizda amalga oshirilayotgan ishlar, korrupsiyaga qarshi kurashchanlikni oshirishda ajdodlar merosidan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari haqida to‘xtalib o‘tilgan. uning mohiyati haqidagi tushunchani shakllantirishda ajdodlar merosidan foydalanish, ularda ilgari surilgan falsafiy fikrlar haqida fikr bildirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim muassasasi, tarbiya, rivojlanish, ko‘nikma, kurashchanlik, talaba, yoshlar, nafs, korrupsiya.

Halollik odamlar orasidagi ijobiy munosabat asosidir. Halol luqma va mehnat bilan topilgan mol-mulk inson qalbida xotirjamlik, sokinlik uyg‘otadi va o‘zgalarga nisbatan xolis, ezgu niyat bilan munosabatda bo‘lishga olib keladi. Inson halol mehnat qilib, ishlab chiqarish rivojlanishiga yordam beradi va xalqning farovon, baxtli yashashiga ko‘maklashadi. Harom luqma esa salbiy quvvatlar manbai bo‘lib, jamiyatda o‘zaro ishonchsizlikka, nizolarga sabab bo‘ladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida “halollik vaksina”si bilan emlash orqali jamiyatimizda halol turmush tarzini barqaror shakllantirish masalasini ko‘tarib, buni ziyolilar oldiga vazifa qilib qo‘ydi. “Korrupsiya faqatgina jinoyat va huquqbuzarlik emas, balki axloqiy buzuqlik hamdir. Shuning uchun korrupsiyaga qarshi kurashish har bir sof vijdonli insonning demokratik jamiyat va davlatning muqaddas burchi hisoblanadi. Jamiyatda korrupsiyaga nisbatan toqatsizlik, Konstitutsiya va qonunlarni chinakam ma’noda

hurmat qilish madaniyatini shakllantirish dolzarb ahamiyatga ega” deb yozadi davlatimiz rahbari “Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston” kitobida.

2025-yilning 5-mart kuni yurtboshimiz tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengash yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilishda yurtimizda korrupsiyadan xoli muhit yaratish bo‘yicha qilingan ishlarga baho berilib, kelgusi vazifalar belgilandi. Korrupsiyaning oldini olish – davlat xizmatiga professional va fidoyi kadrlarni tanlash hamda ularni “halollik vaksinasi” bilan emlashdan boshlanadi. Shu bois ishga olishdagi tartib va yondashuvlarni takomillashtirish bo‘yicha topshiriqlar berildi. Fikri toza, korrupsiyaga toqatsiz yangi avlodni tarbiyalash maqsadida ta’lim maskanlarida halollik g‘oyalarini singdirish, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash muhimligi ko‘rsatib o‘tildi.

Yuqorida ko‘tarilgan masalalardan so‘ng korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashning kengaytirilgan yig‘ilishida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta’minlash, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha yangi tizimni joriy etib, ushbu masalaga jamoatchilik, parlament va fuqarolik jamiyati institutlarini keng safarbar etish maqsadida 2025-yil 24-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-71-son Farmoni qabul qilindi.

Mazkur farmonning 2-ilovasi 29-bandi “Korrupsiya – kelajakka tahdid” g’oyasi asosida yashlar qalbida joy oladigan tizim yaratish deb nomlanib, unda quyidagi masalalarni amalga oshirish belgilab olindi:

1. Tarbiya fani doirasida o‘g‘il-qizlarga halollik, birovning haqqiga xiyonat qilmaslik kabi ezgu g‘oyalarni sodda tilda tushuntirib borish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

2. Talaba-yoshlarning korrupsiyaga qarshi loyihalari, startap va innovatsion tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ishlar holatini o‘rganish, takliflarni Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashga kiritish.

3. “Aksilkorrupsiya volontyorlik faoliyati” loyihasini yo‘lga qo‘yish.

4. “Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” elektron platformasida ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari, o‘quvchilari va talabalarining maxsus dasturlar asosida ta’lim olishlarini tashkillashtirish.

Yuqoridagi farmon ijrosini amlaga oshirish va talabalar ongida korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish maqsadida avvalambor, “halol” va “harom” tushunchalarini to‘g‘ri anglashda yordam berish lozim. Oliy ta’lim muassasasi talabalarida halolni bilish va unga amal qilishni juda erta o‘rgatish orqali nafs tarbiyasini amalga oshirish lozim hisoblanadi. Bu masalada sharq mutafakkirlarining hayot yo‘lini, purma’no hikmatli so‘zlarini o‘rganish va targ‘ib etishning ahamiyati katta hisoblanadi.

“Halol” arab tilidan olingan so‘z bo‘lib ruxsat etilgan, yo‘l qo‘yilgan, qonuniy, asosli, vijdonga muvofiq ma’nolarini anglatadi[29]. Hadisi sharifda: “Halol ochiq-oydindir”, deyilgan. Halol deganda, halolligi ochiq-oydin ko‘rinib turgan suv, sut, meva, meva sharbatlari, non, poliz ekinlari, basmala aytib so‘yilgan hayvonlarning go‘shtidan pishirilgan taomlar, ruxsat berilgan kiyimlar va nikohga olingan shaxslar tushuniladi. Mehnat bilan topilgan boylik, ikki tomonning roziligida amalga oshirilgan tijorat tufayli qo‘lga kiritilgan mulk va hadya ham halol bo‘ladi. Har bir odam uchun halol narsani talab qilish va shunday molu mulk topish farzdir. Barcha narsani halol yo‘l bilan topib foydalanish kerak. Masalan, non halol bo‘lsa-da, harom yo‘l bilan topilsa, pok hisoblanmaydi.

Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali qalamiga mansub “Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband” kitobida Bahouddin Naqshbandning birinchi xalifasi Alouddin Attorning bunday naqli keltirilgan: “Hazrati Eshonning qadamlari sunnatga tobe bo‘lishda mustahkam edi. Halolga intilish va shubhali narsalardan qochishni, ayniqsa, halol luqmani ta’kidlab gapirardi. Suhbatida doimo

[29] Islom. Ensiklopediya: A – H / Shayx Abdulaziz Mansur tahriri I-80 ostida. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.

quyidagi hadis o‘tar edi: “Ibodat – o‘n qism, to‘qqiz qismi halolni qidirish, bir qismi boshqa ibodatlardir”[30].

Naqshbandiya ta’limotining asosiy g‘oyasi – “Dil ba Yoru dast ba kor”. U insonni mukammal harakatga undaydi. G‘oya asosida inson doimo halol mehnat qilishi, ya’ni barcha imkoniyatlardan ezgulik yo‘lida foydalanishi lozimligi yotadi. “Dast ba kor”lik shunday harakatni taqozo etadiki, u xolis, Alloh rizosi uchun, rozilik va mamnuniyat bilan qilingan bo‘lsin. Bunday mehnat “Dil ba Yor”lik natijasida vujudga keladi. Bu tariqat ahli halol mehnat qilib, oila, mahalla va el-yurt uchun foyda keltirgan, xalq farovon yashashi uchun imkoniyati darajasida harakat qilgan. Har bir inson “Dil ba Yoru dast ba kor” g‘oyasining mohiyatini anglasa va xalq orasida targ‘ib etsa, O‘zbekistonimizda moddiy va ma’naviy yuksalish bo‘lishiga yordam bergan bo‘lar edi.

Nafs balosi bugun yoki kecha paydo bo‘lgan emas. U insoniyat paydo bo‘lgan davrdan beri mavjud. Mutafakkirlarimiz nafsga dushmanlarning dushmani, eng katta jinoyatlarga boshlovchi illat sifatida qaragan. Nafs inson erki bilan bog‘liq. Uni jilovlay oladigan har qanday inson yetuk shaxs hisoblanib, o‘z ehtiyojidan ortiqcha narsa — moddiy ne’mat, boyliklar uni mutlaqo qiziqtirmaydi. Boriga shukr qilgan, o‘z nafsini jilovlay olgan inson, eng avvalo, o‘z oldida, qolaversa, butun jamiyat oldida mag‘rur va halol. Alisher Navoiy bunday deydi: “Nafsing senga tobe bo‘lsa — insonsen, aksincha, yuz ming kishi senga tobe bo‘lsayu, sen nafsingga tobe bo‘lsang — inson emassan”.

Yangi O‘zbekiston jamiyatida korrupsiya holatini yo‘qotish, odamlarda nafs tarbiyasi samaradorligini oshirish aslida mamlakat va millat taqdiriga daxldor masalaga aylanib bo‘ldi. Davlatimiz rahbarining korrupsiyaga qarshi umumxalq harakatini boshlashga da’vat etishi, shubhasiz, yangi O‘zbekiston va Uchinchi

[30] Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband. / Forsiydan tarjimon, so‘z boshi, izoh va lug‘at muallifi Mahmud Hasaniy. –T.: O‘zbekiston NMIU, 2019.

Renessans poydevorini barpo etish, jamiyatda adolat tamoyillarini qaror toptirish, aholi farovonligini ta’minlashdagi muhim qadamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston”. “O‘zbekiston” NMIU. Toshkent – 2024, 512 b.

2.Mavrulov A. “Nafsing senga tobe bo‘lsa, inson sen ...” yoxud korrupsiya islohotlar kushandasi // Yangi O‘zbekiston gazetasi. 2025-yil 26-aprel, 85-son.

3. Islom. Ensiklopediya: A – H / Shayx Abdulaziz Mansur tahriri I-80 ostida. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017

4. Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband. / Forsiydan tarjimon, so‘z boshi, izoh va lug‘at muallifi Mahmud Hasaniy. –T.: O‘zbekiston NMIU, 2019.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQIY RIVOJLANISHDAGI KAMCHILIKLARNI TASHXISLASH

I.Q.Sayfullayeva

ChDPU, Pedagogika fakulteti,

Maxsus pedagogika kafedrasi v.b.dotsenti

D.A.Jumanazarova , A.S.Nuriddinova

Tiflopedagogika yo`nalishi, 2 kurs talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy kamchiliklarini tashxislash va tashxislash bo`yicha olib borgan tadqiqotlar sharxi haqida.

Respublikamizda logopedik yordamni turli xil tizimi tashkil etilgan. Bugungi kumda u ta`lim, sog`liqni saqlash, ijtimoiy ta`minot yo`nalishlarida, hatto xususiy korreksion-pedagogik yordam markazlari hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali masofaviy tarzda amalga oshirilmoqda. Korreksion-logopedik yordamni har bir yo`nalishi o`ziga xos xususiyatlarga ega.

Ta`lim-tarbiya muassasalarining faoliyatini shakllantirish, rivojlantirish, me`yorlashtirish me`yorlilik bilan bog`liq bo`ladi. Shu o`rinda korreksion-logopedik yordamni ko`rsatishning eng yosh shakllaridan bo`lgan maktabgacha ta`lim muassasalarida faoliyat yurituvchi logoped-defektologning ish sharoiti bir qancha belgilar bilan o`zgalaridan ajralib turadi. Masalan, ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta`lim muassasalarida faoliyat yurituvchi bir nafar defektolog-logoped ish olib borish uchun maksimal 1 nafar bolani qamray olsa, umumta`lim maktabgacha ta`lim muassasalarida esa bir defektolog shtati muassasadagi barcha tarbiyalanuvchilar soni nisbatiga to`g`ri keladi. Umumta`lim maktabgacha ta`lim muassasasi defektologi bir vaqtning o`zida 20-22 nafar bola bilan ishlaydi, shuningdek, muassasadagi barcha bolalar nutqning rivojlanishini monitoring qilishi, bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni tezkor korreksiyalab, ro`yxatdagi boshqa bolalarni korreksion ishga jalb etishi joiz. Demak, umumta`lim maktabgacha ta`lim muassasasi defektologi yordam ko`rsatiluvchi bolalar sonining yuqoriligi va unga ajratilgan vaqtning qisqaligi kabi muammolarga duch keladi. Shu sababli O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 217 yil 19-iyulidagi “Maktabgacha ta`lim muassasalarining faoliyatini takomillashtirish to`g`risida”gi 528-sonli qaroriga asosan korreksion-logopedik yordam ko`rsatishning mazkur yo`nalishiga rivojlanishiga rivojlanishida yengil nuqsoni bo`lgan bolalarni yo`naltirib, og`ir nuqsonlarga ega bolalarni ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta`lim muassasalariga yo`naltirish ko`zda tutilgan. Biroq amaliyotda bu ko`rsatmalarni amalga oshirishni har doim ham imkoni bo`lmaydi: ota-onalarning aksariyati farzandning maktabgacha ta`lim muassasasini o`zgartirishga tayyor bo`lmaydi, ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta`lim muassasalarida tarbiyalanuvchilar sonining chegaralanganligi va shu bilan birga, ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta`lim muassasalarning sonining qisqarishi kabi muammolar rivojlanishida o`rta va ayrim hollarda og`ir nuqsonlarga ega bolalarni umumta`lim muassasasida tarbiyalanishiga sabab bo`lmoqda. Shu bilan birga, statistic ma`lumotlarga ko`ra, umumiy bolalar populyatsiyasida turli xil kamchiliklarga ega bo`lgan bolalar sonining oshishi

logopedik yordamga muhtoj tarbiyalanuvchilar sonining ortishiga sabab bo`lmoqda. Yuqorida keltirilgan sabablardan kelib chiqqan holda, umumta`lim muassasasida faoliyat yurituvchi defektolog ishining samaradorligini oshirish yo`llarini ishlab chiqish zamonaviy maktabgacha ta`limning dolzarb muammolaridan biri ekanligini belgilaydi.

Adabiyotlar tahlili asosida hozirgi kunda xilma-xil logopedik tekshirish metodikalari yaratilgan bo`lib, ularning har birining tashhislash kompleksi zaminida o`z tamoyil va yondashuvlari mavjudligi aniqlandi. Jumladan, nutqdagi nuqsonlarni aniqlash M.E.Xvatsev (1959), L.R.Muminova (1984), M.F.Fomicheva (1989), M.Yu.Ayupova (1994), G.V.Chirkina, T.B.Filicheva (1998); Y.F.Arxipova (2006); O.E.Gribova (2005); O.B.Inshakova (2005); N.S.Jukova, Y.M.Mastyukova, L.V.Lopatina, N.V.Serebryakova (2001); G.A.Volkova (1993, T.A.Demenina, 2014); A.G.Ippolitova(1983); N.Yu.Grigorenko, S.A.Sibulskiy, 2005; O.Yu.Fedosova (2005), T.A.Fotekova(2007) va boshqalarning ishlarida aks etgan.

Tashhislash metodikalarini tahlil qilish asosida bolalar nutqini tekshirish metodikasi haqidagi qarashlarni tizimlashtirish hamda nazariya va amaliyotdagi muammolarni belgilash va aniqlashtirish imkonini yaratdi. Mazkur omillarni jamlash zamonaviy maktabgacha ta`lim talablari hamda logopedik tekshirishning asosiy tamoyillariga munosib, tashhislash va korreksion ish tizimi samaradorligini ahamiyatli tarzda oshirish imkoniyatini beruvchi nutqni tekshirish texnologiyalarining optimal modelini yaratishni taqozo etdi. Mazkur model R.E.Levinaning psixologik-pedagogik yo`nalishiga asoslangan holda nutqiy jarayonlarni tahlil qilishdagi simptomatik yondashuvga qarama-qarshi tarzda nutq faoliyatining tuzilmaviy qismlarini bir-biriga bog`liq va tqozo etuvchi murakkab funksional birlik sifatida qarovchi yondashuv sifatida qarshi qo`yishni nazarda tutishi kerakligini alohida ta`kidlash kerakligi belgilandi. Shu bilan birgalikda, maktabgacha ta`lim muassasalarida faoliyat yurituvchi defektologlarning ish jarayonini tahlil etish davomida bolalar nutqini tekshirishda nutqning fonetik tomoniga e`tibor qaratilib, boshqa tuzilmaviy komponentlarni tekshirishga zaruriy

diqqat qaratilmasligi ko`zga tashlandi. Bu esa, o`z navbatida, logopedik tekshirish tamoyillariga zid kelishi hamda saralash jarayonida “xavf guruhiga” mansub bolalarni aniqlash jarayoniga zarar yetkazadi. G.V.Chirkinaning ta`kidlashicha, logoped aksariyat hollarda ma`lum qolipga ega tekshirish sxemalari asosidagi logopedik tekshirishni amalga oshirishda nutqning talaffuz tomoniga e`tibor qaratib, nutqning boshqa tomonlarini chuqur tadqiq etish natijalari, uning rivojlanish tarixi, nutqiy muhit xususiyatlari bilan bog`liq ma`lumotlar bilan taqqoslamaydi, nutq faoliyatini birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarini ma`lum iyerarxiya asosida tizimlashtirmaydi. Nuqsonli rivojlanishda tovush talaffuzi bilan bog`liq kamchiliklar qanday ahamiyat va o`ringa ega ekanligini bilmagan logoped korreksion ta`sir doirasini tovushlarni nutqqa qo`yish va nutqda birlamchi mustahkamlash ishlari bilangina chegaralab qo`yadi.

Bolalar rivojlanishidagi kamchiliklarni korreksiyalash samaradorligi logopedik ishni rejalashtirish sifatiga, u esa, o`z navbatida, tashhislash jarayoni bilan chambarchas bog`liqdir. Aynan, tashhislash natijalari korreksion-ta`limiy jarayon yo`nalishlarini belgilaydi. Maktabgacha ta`lim muassasasi defektologining kasbiy burchlaridan biri faoliyat yuritayotgan muassasadagi barcha tayyorlov va katta guruhlardagi tarbiyalanuvchilarni nutqiy rivojlanishini muntazam ravishda tekshirib borish va korreksion yordamga muhtoj bolalarni saralashdan iborat. Muassasada tarbiyalanuvchilarning soni ko`pligi mazkur vazifani bajarish uchun vaqt tanqisligini keltirib chiqaradi. Bu bolalarni turli yoshdaligi, kuzatiluvchi kamchiliklarning xilma-xilligi, muammoni yanada chigallashtiradi va shu bilan birga, umumiy tekshiruv (saralash) uchun ajratilgan vaqt barcha bolalarning nutqiy rivojlanishini chuqur va sinchiklab tekshirish imkonini bermaydi. Bu quyidagi: defektolog tekshiruv ajratilgan vaqtda qo`yilgan vazifani to`liq bajara olmasligi yoki faqat nutqning fonetik tomonini tekshirish bilan chegaralanishi kabi kamchiliklarga olib kelib, o`z navbatida, korreksion pedagogikaning tizimlilik tamoyiliga zid keladi. Shu bilan birga, maktabgacha ta`lim muassasasi defektologi kichik va o`rta

guruhdagi tarbiyalanuvchilarning nutqini tashhislamaydi va amalda kamchiliklarni erta tashhislash tamoyilini qo`llamaydi.

Milliy logopediyamizda ishlab chiqilgan aksariyat an`anaviy tekshiruv metodikalari (L.R.Mo`minova, M.Yu.Ayupova, D.A.Nurkeldiyeva, N.Z.Abidova, Sh.M.Aripova va h.z.) ma`lumotlarni sifat jihatidan tahlil etishga yo`naltirilgan bo`lib, nuqsonni chuqur o`rganishga qaratilgan va odatda, katta hajmli, amaliy jihatdan aynan tezkor saralash davrida qo`llash uchun biroz noqulaylik qiladi. Mazkur metodikalar bolalarni individual tekshirish uchun yaratilgan bo`lib, saralangan bolalardagi nuqsonning xususiyatlarini tekshirish, uning tuzilishi va og`irlik darajasini har tomonlama chuqur o`rganishga yo`naltirilgandir.

Umumta`lim maktabgacha ta`lim muassasasida defektolog ishining jadalligini inobatga olgan tarzda an`anaviy, mumtoz metodikalarni tanlash va kombinatsiyalash orqali korreksion-logopedik yordamga muhtoj tarbiyalanuvchilarni saralashga qaratilgan tizimni ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, amaliyotda faoliyat yurituvchi defektologlar qo`llash uchun qulay bo`lgan, natijalarni tahlil etish oson va tushunarli bo`lgan diagnostik (tashhislash)vositasiga muhtojdirlar.

Mazkur shart-sharoitlarni inobatga olgan holda defektologning asosiy vazifasi- logopedik tekshiruvning ixcham va shu bilan birga, yuqori informative usullarini qo`llashni o`rganishdir. Bunday metodlar sarasiga korreksion-logopedik yordamga muhtojlarni saralash imkonini beruvchi ekspress-tashhislash metodikalarni kiritish mumkin. Ekspress-tashhislashni qo`llash to`liq individual va kompleks tekshiruvni o`tkazishni zaruratini istisno etmaydi, biroq bolalarni tez va har tomonlama tekshirish, logopedik yordamga muhtojlarni tez vaqtda ajratib olish imkonini beradi.

Mazkur muammo yuzasidan psixologik-pedagogik adabiyotlar hamda maktabgacha ta`lim muassasasi defektologi faoliyatini tahlili mazkur metodni ishlab chiqish dolzarbligi, uni nazariy jihatdan chuqur o`rganib chiqish hamda

maktabgacha ta`lim muassasalari defektologining amaliy faoliyatiga keng tarzda tatbiq etish ahamiyatini belgilab berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qodirova F.U., Sayfullayeva I.Q. Inklyuziv va korreksion ta`limda art texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. 2022 yil. 60, 77, 126 b

2. Артпедагогика и арттерапия в специальном и инклюзивном образовании: учебник для академического бакалавриата / под ред. Е. А. Медведевой. — 2-е изд., испр. и доп. — М. : Издательство Юрайт, 2018. — 274 с. — (Серия : Бака-лавр. Академический курс) 12, 17, 24

3. Арт-терапия – новые горизонты. Под редакцией А.И.Копытина.-Когито –центр Москва 2006.

MUNDARIJA

1.	**Kirish so‘zi. Kamalov Azamat Jamalovich**	4
2.	**Tojiboyeva H.M.** Gender tenglikni targ‘ib qilishda maktab, oila va mahallaning roli: qizlar va o‘g‘il bolalarga teng imkoniyatlar yaratish, ta’lim olish, kasb tanlashda erkinlikni ta’minlash	6
3.	**O.T.Abdug‘aniyev.** Talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlilikni rivojlantirish mazmun-mohiyati	11
4.	**L.M.Qaraxonova.** Farzand tarbiyasi ota-ona uchun kelajak poydevoridir!	20
5.	**Z.Jabborova.** Xorijiy mamlakatlarda fuqarolik tarbiyasi: pedagogik strategiyalar va o‘quv yo‘llari	24
6.	**Маджитова С.С.** «Сотрудничество школы, семьи и махалли в воспитании: перспективные задачи и пути решения»	33
7.	**Choriyeva D.I.** O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda maktab, oila va mahallaning ishtiroki	40
8.	**Raxmatova M.M.** Tarbiyaviy jarayonlarning samaradorligini oshirishda ilg‘or xorijiy tajribaning zaruriyati	46
9.	**Xodiyeva G.H.** Boshlang‘ich sinf tarbiya darslarida o‘quvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi	50
10.	**Tojiboyev J.** The role of teaching engineering computer graphics through pts (professional technology system) platform.	54
11.	**Tojiboyev J.Z.** Kasbiy ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning elektron raqamli texnologiya ta’lim muhitida Professional education system (PTS) platformasi bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.	59
12.	**Umirova M.A.** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish masalalari	64
13.	**Жабборов С.** Қизлар тарбиясида оилавий қадриятларнинг ўрни ва аҳамияти	68
14.	**Alibayeva M.I.** Milliy qadriyatlar asosida tarbiya:hamkorlikning zamonaviy yondashuvi	76
15.	**Tursinboyeva H.O.** Qiz bola tarbiyasida keksa avlod vakillari(buvi)ning o‘rni va hamkorligi.	80
16.	**Bektemirov S.K.** O‘zbek an’anaviy tarbiyasida “mahalla-maktab-oila” zanjirining tarixiy ildizlari va zamonaviy talqini	88
17.	**Mirsagatova L.J.** Mahalla institutining tarbiyaviy salohiyati:yangi qarashlar va vazifalar	91
18.	**Xoshimov L.X.** “Empowering future educators: collaborative training programs in korea, china, and uzbekistan for sustainable development through effective teaching strategies and cultural exchange”	98

19	**Fayzullayev F.M.**Globallashuv davrida o‘quvchilarining barkamol shaxs va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda maktab, oila va mahalla hamkorligining o‘rni	106
20.	**Xolboyeva Sh.A.** Kitobxonlikni rivojlantirish orqali oila, mahalla, maktab hamkorligini yanada takomillashtirish *(audiokitoblar misolida)*	110
21.	**Shukurova N.G.** Oilada bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi	113
22.	**Axrorova S. S.**Jadid pedagogik merosining zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar orqali o‘zlikni anglash hissini shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari	117
23.	**Хакимова Б.М.**Сотрудничество школы, семьи и махалли в развитии навыка принятия ответственных решений как одного из компонентов социально-эмоционального обучения подростков	124
24.	**M. Imomova.** Tarbiyaviy jarayonda maktab, oila va mahalla hamkorligining ahamiyati: tarbiyaning dolzarbligi, kelajakdagi vazifalar va yechimlar	137
25.	**Kamoljonova D.X.** Nasriy asarlar vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirish	143
26.	**Shamalikova D.Sh.** Bolalar nashrlari vositasi boshlangich sinf o‘quvchilarining odob-axloq ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	149
27.	**G‘oziyeva Sh.B.** Umumta’lim maktabi, oila va mahalla hamkorligida o‘quvchilarda inklyuziv madaniyat ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	157
28.	**Габдульманова И.М.** Механизмы развития музыкального воспитания детей в семье : проблемы и решения	162
29.	**Qarshibayeva D.X.** Maktabgacha ta’lim tashkilotida metodik ishlarni tashkil etish mazmuni	164
30.	**O.Y.Salimova.** Farzand tarbiyasi uchun oila, makatab va mahalla birdek mas’ul!	169
31.	**Umaralieva M.A.** Talabalarda ko‘ngilli ijtimoiy metodik xarakatlar asosida inklyuziv va uydagi ta’lim samaradorligini oshirishning o‘ziga xos jihatlari	172
32.	**Namazov SH.** O‘quvchilarda “Tarbiya” fanini o‘qitish orqali huquqiy savodxonlikni rivojlantirish.	177
33.	**Samatova I.A.** Tarbiya uchligining kuchi: ijtimoiy-siyosiy tarbiyada oila, maktab va mahalla roli	183
34.	**Abdurazoqova M.M.** Oila va mahalla hamkorligining qizlar tarbiyasidagi o‘rni: ijtimoiy – pedogogik tahlil	186
35.	**Raxmanova N.T.**Talabalarda nafs tarbiyasi haqidagi tushunchasini shakllantirishda ajdodlar merosidan foydalanish	192
36.	**Yunusova D.X.** Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirishda hamkorlikning o‘rni.	197
37.	**Saydaliyev A.I.** O‘quvchi yoshlarga milliy-hududiy an’analar yordamida ta’lim va tarbiya berishda tarix darslari imkoniyatlaridan foydalanish mexanizmlari.	204

38.	**Tog‘anova G.B., Arslonova M., Allaberdiyeva F., Abdunazarova M.** Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar maktabgacha ta’lim muassasalari va maktablarining bola tarbiyasidagi o‘zaro hamkorligi	208
39.	**Tog‘anova G.B., Aliqulova H., Bozorova F., Shayimardonova Sh. E**shitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar jismoniy tarbiyasi jarayonida korreksion ishlarnining ahamiyati	213
40.	**Tog‘anova G.B., Mo‘yiddinova Z., Xalilova M., hasanova N.** Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar aqliy tarbiyasining o‘ziga xos xususiyatlari	218
41.	**Sayfullayeva I.Q., Mengturdiyeva S., Abdurahmonova M., Hakimova O.** Bo‘lajak logopedlarning faoliyatida diagnostik Art texnologiyalarining o‘rni	223
42.	**Sayfullayeva I.Q., Abdujalilova M., Jumayeva X., Berdimuratova S.** Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlar haqida zamonaviy yondashuvlar	231
43.	**Raxmanova N.T.** Talabalarda “Halollik vaksinasi”ni shakllantirishda nafs tarbiyasining tutgan o‘rni	237
44.	**Sayfullayeva I.Q., Jumanazarova D.A., Nuriddinova A.S.** Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy rivojlanishdagi kamchiliklarni tashxislash	241

2025-yil 3-iyun kuni Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tomonidan o‘tkazilgan “Tarbiyada maktab, oila, mahalla hamkorligi: istiqboldagi vazifalar va yechimlar” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI TO‘PLAMI

Nashr etilgan sana: 03.06.2025.
“Times New Roman” garniturasi. Adadi: 50 dona.